

336

147

N.A. IMINOVA
G. A. AKRAMOVA

PUL VA BANKLAR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMTY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

N.A. IMONOVA
G. A. AKRAMOVA

PUL VA BANKLAR

O'quv qo'llanma



TOSHKENT – 2018

UO'K: 336.717.061

KBK: 65.262.1

I-47

N.A.Iminova. G.A.Akramova. Pul va banklar. (O'quv qo'llanma), T.: «Aloqachi», 2018, 360 b.
ISBN 978-9943-5569-5-9

So'ngi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar asosan qo'shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to'ldirish hisobidan hal etilishi ko'zga tashlanmoqda. Bu esa o'z navbatida, kelgusida jilovlab bo'lmaydigan inflyatsiyaga, ya'n qimmatchilikka, zahira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog'liq og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar" hamda "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli asar va ma'ruzalarida keltirilgan mal'umotlar, asosiy tushuncha va qarashlar, ustuvor yo'nalishlar va xulosalarni puxta e'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatlarida samarali foydalanhishlari hamda ijodiy yondashishlarini ta'minlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan birdir.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitda tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlari pul- kredit va banklarning ishtirokisiz amalga oshmasligi barchamizga ma'lum. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan bo'lib, ushu faoliyatning asosini ham pul va bank tizimi bilan bog'liq qator munosabatlar tashkil etadi. Bu o'z – o'zidan, keyingi yillarda, mamlakatimiz o'quv yurtlarida iqtisodchi mutaxassislarini tayyorlashda "Pul va banklar" kursining ahamiyatini keskin oshirmoqda.

"Pul va banklar" fanu iqtisodiyotni pul-kredit orqali muvosiqqlashtirishning aniq masalalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit dastaklari makroiqit sodiyotga ta'siri, Markaziy bankning pul-kredit siyosatini boshqarish asoslari, pul muomalasini rejalashtirish muammolari, obyekti va usullari kabi masalalarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi "Pul va banklar" kursi iqtisodiy mutaxassisliklar bo'yicha fanlarni o'rganish uchun asos hisoblanadi. Bu kursning maqsadi har qanday tizimming nazariy jihatdan va tarixan ko'rib chiqishdan kelib chiqadi. Shuning uchun kursning asosiy maqsadi talabalaming pul-kredit sohasi qonuniyatlarini, uning ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi tutgan o'mini o'zlashtirishlari, shuningdek, pul nazariyalari va ko'rinishlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida pul- kredit tizimini vujudga kelishi va alohida mamlakatlarning pul-kredit tizimlari, banklarning faoliyati va funktsiyalarini, fond birjalar haqidagi aniq bilimlarni egallashlari, pul-kredit tizimi sohasidagi inqirozli ko'rinishlami va ularni keltirib chiqaruvchi omillarning mohiyatini chuqur o'zlashtirishdan iborat.

O'quv qo'llanma 5350300—"AKT sohasida iqtisodiyot va menejment" yo'nalishidagi talabalarga mo'ljallangan

UO'K: 336.717.061

KBK: 65.262.1

I-47

Taqribchilar:

Sh.Sh.Turaev. X.A.Asatullaev.

ISBN 978-9943-5569-5-9

© «Aloqachi» nashriyoti, 2018.

KIRISH

Jahon moliya tizimida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar, shuningdek mamlakatda milliy iqtisodiyotni keng ko'lamli isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosatini shakllantirish, amalga oshirishda hamda bank tizimini yanada rivojlantirishda yangicha yondashuv va printsiplar qo'llanilishini taqozo qilmoqda.

Holis tan olish kerakki, bugungi kunda pul-kredit siyosati va banklarni tartibga solishdagi imkoniyatlardan amalda to'laqonli foydalanimayapti, pul-kredit instrumentlarining lozim darajada ishlashi va samaradorligini ta'minlovchi transmission mexanizmlarning rivojlanmaganligi qo'yilgan maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3272-son "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq:

-2017 – 2021 yillarda ilg'or bank amaliyoti asosida bank-moliya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari kompleksi;

-2017 – 2021 yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish hamda infliyatsiyaviy targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari kompleksi tasdiqlanganligi;

- Markaziy bank, tijorat banklari, masalaga aloqador vazirlik va idoralar zimmasiga mazkur chora-tadbirlar komplekslarida ko'zda tutilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgarlik yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi;

- O'zbekiston Respublikasi to'lov balansining Xalqaro valyuta fondi metodologiyasiga muvofiq hisobi va tahlili tizimli asosda yuritilishini;

-bank tizimidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanimishini;

-banklar tomonidan iqtisodiy normativlar bajarilishi ustidan, shu jumladan kapital etarligi, bank nazoratining xalqaro tamoyillari

talablari doirasida belgilangan likvidlilik bo'yicha ta'sirchan nazorat amalga oshirilishini;

–bank tavakkalchiliklarini baholashning zamonaviy tizimlari joriy qilinishini;

– normativ-huquqiy hujatlarni zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish uchun to'siqlarni bartaraf etish va sharoit yaratish, shu jumladan chakana xizmatlarga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish, innovatsion bank texnologiyalaridan faol foydalangan holda masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida tanqidiy qayta ko'rib chiqilishini ta'minladi.

Markaziy bank 2018 yilning 1 sentyabriga qadar ilg'or xorijiy tajriba va umum e'tirof etilgan normalar va standartlarni chuqur o'rganish, ixtisoslashgan xalqaro moliya institutlarining tegishli ekspert xulosalari asosida O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonunlari loyihibarini yangi tahrirda ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasiga kiritildi¹.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimi hisoblanadi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo, mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ko'pgina muhim iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida bank-moliya tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirilishini va iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning bir butun mexanizmining yaratilishini taqozo etmoqda.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariга kiritilgan o'zgarishlarda²:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3272-son

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev Toshkent, 2018 yil 9 yanvar, PF-5296-son farmon.

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997 yil 28 oktyabrdagi PF-1875-son “Kapital qurilishni tashkil etishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonining 2-bandidan “Pul-kredit siyosati bo‘yicha respublika komissiyasi” degan so‘zlar chiqarib tashlandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2003 yil 31 oktyabrdagi PF-3346-son “Qimmatbaho metallar xarid qilish, saqlash va sotish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonining 3-bandи to‘rtinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Raisining o‘ribbosari hisoblanadi” degan so‘zlar “maqomiga ko‘ra vazir o‘ribbosariga tenglashtiriladi” degan so‘zlar bilan almashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bozor munosabatlarini qaror toptirish dolzarb omillardan bo‘lgan pul, kredit va banklar tizimida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Bozor munosabatlariga o‘tish iqtisodiy kategoriya sifatida pulning, kreditning, foiz, soliq va boshqa kategoriyalarning mohiyati va ahamiyatiga boshqacha yondashish zarurligini taqozo qiladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida bank-moliya tizimining ahamiyati tubdan o‘zgarmoqda. Bozor munosabatlarini boshqarish sohasida davlat tomonidan olib boriladigan barcha ishlarning og‘irlik markazi ana shu tizimlarga ko‘chdi.

Shu sababli, bank tizimini takomillashtirish, banklarning mustaqilligini va pul muomalasidagi holat uchun javobgarligini oshirish, pul-kredit munosabatlarini tartibga solish, so‘mnинг barqarorligi va yuksak nufuzini ta’minalash sohasidagi muammolarni o‘rganish, shuningdek, tegishli ilmiy xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish o‘ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasining quyidagi qonunlari loyihalari yangi tahrirda ishlab chiqiladi³:

– Milliy iqtisodiyotni keng ko‘lamda isloh qilinishidan kelib chiqqan holda pul-kredit siyosati va bank nazorati

³ <http://www.trustbank.uz> -Pul-kredit va bank sohasida 2017 yilda amalga oshirilgan ishlar va 2018 yilga mo‘ljallangan vazifalar to‘g‘risida qisqacha axborot

takomillashtirilishini e'tiborga olib, «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun;

– Banklar va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtaida to'laqonli hamkorlik munosabatlarini shakllantirish uchun raqobat muhitini yaratish, aholining bank tizimiga institutsional hamkor sifatidagi ishonchini mustahkamlash maqsadida «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun;

– Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha qabul qilingan choralar tahlilidan kelib chiqib, valyuta siyosatini takomillashtirish, investitsiya iqlimi va biznes-muhitni yaxshilashga qaratilgan «Valyutani muvofiqlashtirish to'g'risida»gi Qonun.

Valyuta bozori, pul muomalasi, monetar siyosat va bank tizimi to'g'risidagi batafsil sharhlar alohida mavzu doirasida yaqin kunlar ichida taqdim etiladi.

Bozor munosabatlarini talab darajasida tashkil qilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va shu asosida iqtisodiy taraqqiyotga erishish kreditdan foydalanishni, banklar faoliyatining samaradorligini oshirishni, kreditdan foydalanishda salbiy hollarning oldini olishni taqozo qiladi. Hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning salmog'i va sifati sohasida ancha muanimolar mavjud.

Har bir jamiyatda bank tizimi iqtisodiyotning muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarixan tovar ishlab chiqarish va muomala jarayonining rivojlanishi banklarning rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq holda taraqqiy qilib borgan. Banklar xo'jaliklarga kredit berish, korxona, tashkilotlar o'rtaida hisob-kitoblarni o'tkazish jarayoni, kapital harakatida vositachi sifatida maydonga chiqadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimida katta tarkibiy o'zgarishlar yuzaga keldi va banklarning tarkibi va ular bajaradigan funksiyalar hamda ularga yuklangan vazifalarning mohiyati va sifati o'zgarib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti banklarning o'mi hamda faoliyatining muhimligi, pul, kredit va bank tizimining takomillashib borishini, shu sohada malakali kadrlar tayyorlashni va mavjud muammolar echimini topishni taqozo qiladi.

Shuning uchun "oldimizda turgan vazifalarpi bajarish, iqtisodiyotimizda mavjud bo'lgan ko'pgina muammolarni echish uchun bank tizimida olib borilayotgan islohotlarni yanada

chuqurlashtirishimiz va kengaytirishimiz darkor”⁴. Ushbu muammolarni hal etish bevosita “Pul va banklar” fanini o’rganishga bog’liq. Bu fan orqali talabalar zamonaviy pul, bank nazariysi va moliyaviy boshqaruv, qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalar, banklar tomonidan pul muomalasini boshqarishning nazariy asoslarini va amaliy uslublarini o’rganadilar. Bundan tashqari, zamonaviy moliya-kredit nazariyasida O’zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini baholashning yo'llari va metodlari ko'rib chiqiladi.

⁴ I.Karimov. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish - asosiy vazifamizdir. “Xalq so'zi” 13 fevral 2007 yil.

1-BOB. PUL NAZARIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI. PULNING MOHIYATI VA ZARURLIGI

1.1. Pulning mohiyati

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida iqtisodiy adabiyotlarda turli ta’riflar va talqinlar mavjud bo‘lib, uning mohiyatiga nisbatan yagona yondoshuv mavjud emas. Chunki, jamiyatda xo‘jalik yuritish tuzumining va ijtimoiy – iqtisodiy sharoitning o‘zgarishi pulning mohiyatini turlicha talqin etilishini talab etmoqda. Jumladan, iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari pulni – iqtisodiy kategoriya sifatida, qiymat o‘lchovi vositasi, umumekvivalent tovar, maxsus tovar, ayirboshlash vositasi ekanligini e’tirof etadi.

Pul jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarda, jami ijtimoiy mahsulotni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, bozordagi talab va taklif asosida tovarlar bahosini aniqlashda bevosita qatnashishi uning mohiyatini namoyon qiladi.

Pulning iqtisodiy mohiyati va uning zaruriyatiga xorij iqtisodchilari alohida e’tibor qaratgan bo‘imasalarada⁵, iqtisodiy nazariyachilarning asarlarida unga nisbatan berilgan fikrlarini uchratish mumkin. Masalan, A.Smit pulni iqtisodiy kategoriya darajasiga ko‘tarib, unga “pul – bu muomalaning buyuk g‘ildiragi“, “savdo sotiqning yuksak quroli” sifatida ta’rif beradi⁶.

D.YUm A.Smitning pul xususidagi qarashlariga e’tiroz bildirib, “Pul bu – savdo – sotiqning g‘ildiragi emas, balki u yog‘, shu savdo – sotiq g‘ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir” degan fikrni bildiradi⁷.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga “pul mehnat taqsimoti

⁵ Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. –Т.: “Iqtisod – moliya”, 2007, 8 – б.

⁶ Смит А. Исследование природе и причинах богатства народов. Том 1. – С.418, 421.

⁷ ЮМ Д. Опыты. –М.: Издание К.Т.Солдатенкова, 1986. –С.20.

chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to'lovlarni amalga oshirish ishlarini engillashtiradi” deya ta'kidlaydi⁸.

O'zbekistonlik iqtisodchi olima Sh.Z.Abdullaeva pul, kredit va banklar masalasiga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda pulning mohiyatini ochishda uchta jihatiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. “Birinchidan, pulning iste'mol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o'z aksini topadi. Ikkinchidan, pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini abstrakt mehnat tashkil etadi. Uchinchidan, pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo'ladi. Shunga asoslangan holda, pul ham tovar, lekin boshqa tovarlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lgan maxsus tovar degan xulosaga kelish mumkin”⁹.

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida fikrlarni eramizdan oldingi davrda yashagan Aristotel (er.oldingi 384 – 322 yy.), keyinchalik sarkarda Aleksandr Makedonskiy kabi buyuk shaxslar tomonidan qoldirgan manbalarda ham ko'rish mumkin¹⁰.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinish turibdiki, pulning mohiyatiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, mutaxassislar va nazariyachilar o'zlarining yondashuvlarini bildirgan. Biz ularning ushbu fikr va yondashuvlarini tadqiq qilish maqsadidan yiroqmiz.

Pul-iqtisodiy kategoriya bo'lib, barcha tovarlar uchun umumekvivalent vazifasini bajaradigan maxsus tovardir. Pul faqat ayirboshlash jarayonida zarur bo'ladigan, hukumat tomonidan o'rnatilgan to'lov vositasidir. Pul – qat'iy o'rnatilgan kafolatlangan bahoni aniqlaydigan vosita emas. U oddiy tovar, faqat boshqa tovarlardan unga ehtiyojning yuqoriligi va qolgan barcha tovarlar uchun ayirboshlash vositasi sifatida foydalanganligi bilan ajralib turadi. Boshqa tovarlar singari pul ham kishilar tomonidan jamg'ariladi. Kishilar tovarlarni sotish va xizmatlarni ko'rsatish orqali uni “sotib” oladi yoki jamg'aradi. Tovarlarni sotib olish va turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish natijasida uni “sotadi”.

⁸ Соколов Б.И. Деньги, кредит и банки. Учебник. –М.: ТК Вебли, Изд – во. Проспект, 2008. –С.8.

⁹ Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. –Т.: “Iqtisod – moliya”, 2007, 7 – б.

¹⁰ Аристотель. Сочинения: 4 т. –М.: 1983. Т. С.325.

Pul hozirgi kundagi ko'rinishi, holati va darajasiga etgunga qadar juda uzoq tarixiy davrni boshidan kechirdi. Er yuzida puldan ayirboshlash vositasi sifatida foydalanim kelinayotganiga etti ming yildan ortiq vaqt bo'ldi¹¹. Bu davr ichida dastlabki pullar tovar, buyum, oddiy metall va qimmatbaho metallar ko'rinishidan hozirgi kunda keng foydalanim kelinayotgan qog'oz va elektron pullar ko'rinishigacha etib keldi.

Jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar takomillashib va rivojlanib borgani sari pulning shakli, pul ishlari va pul ishtirokidagi hisob – kitoblar ham doimiy ravishda takomillashib va rivojlanib kelmoqda.

Pulning rivojlanishiga turki bo'lgan asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi.

1. Tovar ishlab chiqarishning kengayishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi.

2. Barcha shakkardagi mulk qiymatlarining o'sishi.

3. Tovarlar oldi – sótdisi bo'yicha aylanmalar hajmining ortishi.

O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalar miloddan ilgarigi VI asrda Ahmoniy shoh Doro I tomonidan zarb etilgan. Ushbu metall tangalarning og'irligi 8,4 grammni tashkil etgan bo'lib, "darik" deb nomlangan tilla tangalar ekanligi taxmin qilinadi. O'sha vaqtarda, ya'ni miloddan ilgarigi VI – IV asrlarda hozirgi O'zbekistonning asosiy qismi, ya'ni Xorazm, Sug'diyona va Sak qabilalari yashagan hududlar Ahmoniylar davlati tarkibida bo'lganini hisobga olsak, ushbu "darik"lar O'zbekiston zaminida amal qilgan bizga ma'lum birinchi tangalar bo'lgan desak xato qilmaymiz.

Miloddan avvalgi 330 – 327 yillarda makedoniyalik Iskandar Ahmoniylar saltanatini tor – mor qilib, hozirgi O'zbekiston zaminida joylashgan Baqtriya va Sug'diyonaga bostirib kiradi. Makedoniyalik Iskandar surati tushirilgan tangalardan vazni 4,1 g. bo'lgan kumush draxma, vazni 8,2 g. bo'lgan kumush didraxma (ikki draxma) hamda vazni 16,4 g. bo'lgan kumush tetradraxma (to'rt draxma)lar zarb qilinib, ular muomalada bo'lgani ma'lum. Shuningdek, vazni 8,4 g.

¹¹ Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред. засл. деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2007. – С. 25.

bo'lgan oltin tanga (starer) va vazni 40 grammidan ortiq bo'lgan kumush dekadraxma ham zarb qilingan.

O'zbekistonda qog'oz pullar 1918 yildan boshlab dastlab Buxoro amirligida muomalaga chiqarilgan. Muomalaga chiqarilgan nominali 20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000, va 10000 qog'oz pullar tanga deb atalgan.

1920 yilda Buxoro Sho'ro qo'shinlari tomonidan bosib olinib, Buxoro amirligi o'rniiga Buxoro Sovet Xalq Respublikasi (BSXR) tashkil etiladi. Yangi BSXR da 1920 yilda Buxoro amirligi tomonidan chiqarilgan metall va qog'oz tangalar muomalada bo'lib keladi, hamda ularni bir oz o'zgartirilgan holda chiqarish, ya'ni sovet simvolikasi qo'yilgan holda tanga nomi bilan qog'oz pullar muomalaga chiqarish davom etgan. 1921 yilda BSXR muomalaga yangi, nominali rublda ko'rsatilgan qog'oz pullarni chiqara boshlaydi. Bu pullar 3000, 10000 va 20000 rubl nominalda muomalaga chiqarilgan.

1922 yilda BSXR tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, pullarning nominali yuzlab marta kamaytirilgan va 1, 5, 10, 25, 100 rublik yangi pullar muomalaga chiqarilgan. Ammo ko'p o'tmasdan, kuchli inflyatsiya natijasida past nominaldagi pul birliklari bozor ehtiyojlarini qondira olmay qoladi va 1000, 2500 va 5000 rublik pullar bosib chiqarila boshlagan¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, pulning vujudga kelishi jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarini rivojlanishi va takomillashib borishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bularning ichida kishilar o'rtasida mehnat taqsimotining paydo bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, biz yashab istiqomat qilayotgan zaminda pullarning vujudga kelishi uning tarixi va ssivilizatsiyasi juda boy va qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

1.2. Pulning funksiyalari va turlari

Pul iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettira turib, ma'lum funksiyalarni bajaradi. Pulning mohiyati uning bajaradigan funksiyalarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Pulning funksiyasi to'g'risidagi savol bir vaqtning o'zida ham qiyin ham juda oson savoldek tuyuladi.

Bu savolning soddaligi shundaki, pulning funksiyalari real hayotga yaqin va iqtisodiy amaliyotdagi mavjud jarayonlarni o'zida ifodalaydi.

Qiyinligi shundaki, pulning funksiyalari, ularning mohiyati iqtisodchilar tomonidan har xil talqin qilinadi. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning turli xil funksiyalarini uchratish mumkin.

Biz pulni iqtisodiy kategoriya deb qarab, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan funksiyalarini tahlil qilib, pul asosan to'rt funksiyani bajaradi, degan fikrni ta'kidlamoqchimiz. Bular: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalari.

Pul qiymat o'lchovi sifatida. Pulning birinchi funksiyasi uning qiymat o'lchovi ekanligidir, ya'ni pul barcha tovarlarning qiymatini o'lchaydi, ularning bahosini aniqlashda vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Qiymat o'lchovi funksiyasida pul tovar ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy mehnatni ifodalaydi va shu mehnat asosida tovarning qiymatini belgilaydi. Pulning bu funksiyasida naqd pullar emas, naqdsiz pullar ishtirok qiladi. Masalan, biz savdo do'koniga kirib, biron tovarning bahosini ko'rib, baho shu tovarga arziydimi yoki tovarga baho yuqori aksincha past qo'yilganmi— shu to'g'rida o'zimizning xulosamizga ega bo'lishimiz mumkin. Mana shu bizning xulosamiz asosida pulning qiymat o'lchovi funksiyasi yotadi.

Pulning qiymat o'lchovi funksiyasida bir tovarning qiymati ikkinchi bir tovar qiymati orqali ifoda qilinadi. Agar tarixan olib qaraydigan bo'lsak, bu vazifani o'z qiymatiga ega bo'lgan tovar-oltin yoki oltinning o'zida ifodalaydigan pul birlklari bajarib kelgan.

Pulning qiymat o'lchovi funksiyasi qiymat qonuniga asoslanib aniqlanadi. Pulning qiymat o'lchovi funksiyasi baholar mashtabini o'rnatishni talab qiladi.

Baholar mashtabi huquqiy xarakterga ega bo'lib, u davlat tomonidan o'rnatiladi va tovar qiymatiga asoslangan holda uning bahosini ifodalaydi. Baholar mashtabi orqali, fikran namoyish qilingan tovar bahosi davlat bahosi yoki bozor bahosiga aylanadi va milliy pul birligida ifodalanadi.

Hozirgi vaqtda baholar mashtabi talab va taklif ta'sirida tashkil topadi va baho orqali tovarlar qiymatini o'lchashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pul yordamida tovarlar tenglashtiriladi.

Ikkala tomon uchun ham tenglashtirishning asosi bo'lib abstrakt mehnat hisoblanadi.

Tovar qiymatining pulda ifodalanishi baho deyiladi. Baho – bu ideal shaklda ongimizdag'i qiymat o'Ichovi. Qiymat o'Ichovi vazifasini fikran ifoda qiladigan pulimiz bajaradi, baho esa to'la to'kis real moddiy boyliklarning qiymatini ifoda qiladi.

Qiymat shakliga ega bo'lgan tovar, bahoga ham ega bo'ladi. Pul o'zi o'z bahosiga ega emas, uning qiymati o'zi bilan aniqlanishi mumkin emas. Baho o'miga pul sotib olish qobiliyatiga ega. Pulning sotib olish qibiliyati deganda pul birligiga to'g'ri keluvchi tovarlar va xizmatlar miqdori tushuniladi. Agar pul birligiga to'g'ri keluvchi tovarlar miqdori (soni) qancha ko'p bo'lsa, pulning sotib olish qibiliyati ham shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Muomala vositasi funksiyasi. Muomala vositasi funksiyasida pul yordamida tovar o'zining pul qiymatiga ayrbosh qilinadi. Bu funksiyani bajarish uchun naqd pul bo'lishi lozim. Bu funksiya yordamida tovarlarni bir-biriga ayrboshlash-barter usuligacheq qo'yiladi. Tarixiy taraqqiyot ko'rsatadiki jamiyat rivojlanishining ilk bosqichlarida barter mehnat mahsulini ayrbosh qilishning yagona yo'li bo'lgan. Bartering noqulayligi shundan iborat bo'lganki, A tovar egasi, B tovarni sotib olish uchun, nafaqat B tovar ishlab chiqaruvchini, balki B tovar egasiga zarur bo'lgan tovarni ham topa olishi kerak edi. Bu juda qiyin jarayon bo'lib, yuzlab tovarlarni muomalaga jalb qilgan holda ko'zlagan maqsadga erishish mumkin bo'lgan. Oltinning pul sifatida ishlatila boshlashi natijasida barter usuli tovar ayrboshlashning usuli sifatida o'z aha-miyatini yo'qotdi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, barter usuli hozirgi kunda ham ba'zi hollarda jahon amaliyotida qo'llanilib kelmoqda.

Tovar defitsiti, inflyatsiya sur'atlarining oshib ketishi, mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning yo'qligi sharoitida barter bo'yicha tovarlar harakatini amalga oshirish tomonlar uchun qulay hisoblanadi.

Pulning muomala vositasi funksiyasida tovar qo'ldan qo'lga o'tadi va muomaladan chetlashadi, ya'ni iste'molchi egaligiga o'tadi. Pul va tovarning harakati (T-P-T) qisqa vaqt ichida tugallanadi.

Qiymatning doimo bir shakldan ikkinchi shaklga (tovar-pul va pul-tovar) o'tib turishi pulning muomala vositasi funksiyasining asosini tashkil qiladi.

Shuning uchun ham, bu funksiyani bajarishda naqd pul bo'lishi, u barqaror, sifati yuqori bo'lishi kerak.

O'zbekistonda muomala vositasi funksiyasini Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qog'oz pullar va metall tangalar bajaradi. Muomalaga chiqariladigan naqd pullar miqdori savdosotiq hajmiga, ish haqi to'lashning vaqtiga, aholining bankdan qarzga mablag'lar olish imkoniyatiga va boshqa omillarga bog'liq. Savdosotiq hajmining ko'pligi va ish haqining tez-tez to'lab turilishi muomalaga ko'p pul chiqarish zarurligidan, aholining bankdan ko'proq kredit olish imkoniyatiga ega ekanligi kamroq muomala vositasi kerak ekanligidan dalolat beradi. Shuni aytish kerakki, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, natural xo'jalik, kichik korxona, fermer xo'jaliklarining ko'payishi muomala vositasiga bo'lgan talabni kamaytiradi.

Pulning muomala vositasi sifatida ishlatilishi muomala xarajatlarining barter xarajatlariga nisbatan ancha past bo'lishini ta'minlaydi. Pulning muomala vositasi funksiyasi uning boshqa funksiyalaridan o'zining ma'lum xususiyatlari bilan ajralib turadi. Muomala vositasi funksiyasining xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- bu funksiyani real, naqd pullar bajaradi;
- tovar va pul bir-biriga qaramaqarshi, bir traektoriyada harakat qiladi;
- tovar va pul harakati bir vaqtda yuzaga keladi;
- tovar sotuvchi va tovar sotib oluvchi o'rtasidagi munosabat tugallanadi va tomonlar tovarga yoki pulga ega bo'ladilar;
- pul muomala vositasi bo'lishi uchun, avvalambor qiymat o'Ichovi bo'lishi kerak.

Pulning to'lov vositasi funksiyasi. Mavjud chet el iqtisodiy adabiyotlarida va keyinchalik ¹² Rossiya olimlari tomonidan chop

¹² Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.

qilingan adabiyotlarda, pulning muomala vositasi funksiyasi uning to'lov vositasi ekanligidan dalolat beradi, degan kabi chalkash xulosalarni uchratish mumkin. Lekin biz yuqorida keltirilgan muomala vositasi funksiyasining xususiyatlari to'lov vositasi funksiyasiga ham mos keladi, deb ayta olmaymiz. Bu xususiyatlar pulning to'lov vositasi funksiyasi muomala vositasi funksiyasidan tubdan farq qilishini ko'rsatadi.

Tovarlar har doim ham naqd pulga sotilavermaydi. Tovar sotuvchi tovarki sotish uchur muomalaga olib chiqqan vaqtida tovarki sotib olish uchun iste'molchining etarli naqd puli bo'lmasligi mumkin. Natijada tovarki kreditga sotishga zarurat tug'iladi, ya'ni tovarning pulini to'lash muddati kechiktiriladi. Tovar kreditga sotilganda, pul tovarning bahosini aniqlashda qiymat o'lchovi funksiyasini bajaradi, lekin u muomala vositasi bo'la olmaydi. Iste'molchi sotib olgan tovari uchun uning pulini to'lov muddati kelgandan keyingina to'laydi. Bu holda tovar va pulning harakati bir traektoriyada, bir vaqtning o'zida, birbiriga qaramaqarshi tura olmaydi.

Tovar harakati amalga oshgandan ma'lum vaqt o'tgandan keyin pul harakati sodir bo'ladi. To'lov vositasi funksiyasining asosiy xususiyati tovar va pul harakatining bir vaqtida amalga oshmasligi, harakatning bir tomonlamaligi va harakatda bo'linishlar mavjudligidadir.

Pulning to'lov vositasi sifatida ishlatalishi nafaqat tovar kreditga sotilganda sodir bo'ladi, balki barcha jarayonlarda tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlardan o'sha zahotiyoy qo'shdan pulda amalga oshirilmasa, bunday iqtisodiy munosabatlar pulning to'lov vositasi funksiyasi yuzaga kelishidan dalolat beradi.

To'lov vositasida sotuvchi tovarning pulini olguncha tovar iste'molchi ixtiyoriga kelib tushadi va u o'z ehtiyojini qondirish uchun tovardan to'la foydalanishi mumkin.

Agar tovar uchun to'lov oldindan (avans) amalga oshiriladigan bo'lsa, tovar ma'lum vaqtadan keyin iste'molchi ixtiyoriga tushushi mumkin. Demak, ikkala holda ham tovar va pul harakati bir vaqtning o'zida amalga oshmaydi. Chunki tovar aylanishi (T-P-T) uziladi va

pul harakati tovar harakatiga nisbiy ravishda mustaqil bo‘ladi. Pulning bu harakati to‘lov deb aytildi va bu erda pul to‘lov vositasi sifatida ishtirok qiladi. Pulning to‘lov vositasi funksiyasi tovar ishlab chiqarish va muomala rivojlanishining yuqori bosqichlari mahsuli bo‘lib, u pulning qiymat o‘lchovi va muomala vositasi funksiyalaridan keyinroq yuzaga kelgan, deb xulosa qilish mumkin.

To‘lov vositasi funksiyasining yana bir xususiyati shundaki, sotuvchi bilan iste’molchi o‘rtasidagi munosabat muomala vositasidagi kabi qisqa muddatli bo‘lib, tezda tugallanmaydi. To‘lov vositasi funksiyasida iste’molchi tovarga ega bo‘lganidan keyin ham, u bilan mol sotuvchi o‘rtasidagi munosabat uzoq vaqt davom qiladi. Bu munosabat – kredit munosabati hisoblanadi va iste’molchi – qarzdor, sotuvchi - kreditor sifatida ishtirok qiladi.

Ba’zi iqtisodchilarimiz veksel asosida o‘tkaziladigan jarayonlarni ham muomala vositasi funksiyasiga kiritadilar. Bu, bizning fikrimizcha, to‘g‘ri emas. Chunki veksel – ma’lum mablag‘ni to‘lash to‘g‘risidagi kredit majburiyat, u qiymatga ega emas. Demak, ayrboshlashning ekvivalenti sifatida ishtirok qila olmaydi. A sotuvchi bir million so‘mlik tovarni B iste’molchining vekseliga almashtirdi, deylik. B bir mln. so‘mlik tovarga ega bo‘ldi. A bo‘lsa, o‘z qiymatiga ega bo‘lmagan, sotib olish qobiliyati emitent tomonidan belgilanadigan vekselga ega bo‘ladi. Sotuvchi A, bir mln. so‘mlik vekselni sotsagina, pul mablag‘iga ega bo‘lishi mumkin. Shunga asosan, biz veksel jarayonlarini muomala vositasiga kirishini, to‘liq ishonch bilan ta’kidlay olmeymiz. Bu jarayonlar ko‘proq to‘lov vositasi funksiyasiga taalluqlidir. Pulning to‘lov vositasi funksiyasi yana turli qarz va majburiyatlarni to‘laganda:

- korxona, tashkilotlar o‘rtasida tovar va xizmatlar uchun to‘laganda;

- davlat byudjetiga va kredit tizimiga to‘lovlarni amalga oshirganda (foydadan to‘lanadigan to‘lovlар, kredit bo‘yicha qarz va foizlarni to‘lash va boshqalar);

- ishchi xizmatchilariga ish haqi to‘lash va aholiga boshqa to‘lovlarni to‘lash (nafaqa, stipendiya va boshqalar)da;

- boshqa har xil qarz va majburiyatlarni to‘lash (masalan, kredit uchun to‘lov, uy-joy, elektroenergiya va boshqa xizmatlar uchun to‘lovlар) da amalga oshiriladi.

Pulning to'lov vositasi funksiyasining yana bir xususiyati shun-daki, bu funksiyada to'lovlar naqd pullik yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshirilishi mumkin. Bu xususiyati bilan ham pulning to'lov vositasi funksiyasi muomala vositasi funksiyasidan farq qiladi.

Pulning bu funksiyasi yordamida amalga oshiriladigan naqd pullik va naqdpulsiz to'lovlar birqalikda to'lov aylanmasini vujudga keltiradi.

Pulning to'lov vositasi funksiyasini biz ikkinchi darajali deb qarashimiz mumkin emas, chunki bu funksiyaning bajarilmasligi to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshmasligiga, bu esa hozirgi kunda mavjud muammolar debitor - kreditorlik qarzlarining ko'payishiga, kredit bo'yicha va boshqa moliyaviy majburiyatlarning bajarilmasligiga, xo'jalik jarayonlarining normal borishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Pul jamg'arma vositasi. Pulning bu funksiyasi sotish va sotib olish jarayoniga zarurat bo'lmagan holda yuzaga keladi. Agar tovar ishlab chiqaruvchi tovarni sotgandan keyin uzoq vaqt davomida boshqa tovar sotib olmasa, pul muomala va to'lov aylanmasidan chetlashadi. Yig'ilgan pullar jamg'arma vositasi funksiyasini bajaradi. Tovar ishlab chiqarish va muomala jarayoni pulni jamg'arishga imkoniyat yaratadi. Jamg'arma ikki yo'nalishda yuzaga kelishi mumkin. Maqsadli jamg'arish yoki umuman jamg'arish. Shunaqa jamg'armalar borki, aniq bir mo'ljal bo'lmagan holda yig'ib boriladi, maqsadli jamg'armada odamlar mashina, asbob-uskuna, uy-joy sotib olish yoki boshqa ma'lum maqsadni amalga oshirish uchun mablag' jamg'aradilar.

Pulning jamg'arma vositasi funksiyasi pulning pul aylanmasidan chiqib ketishiga olib keladi. Jamg'armada pul pul aylanmasining qaysidir kanallarida turib qoladi, natijada u mavjud aylanmadan ajralib ma'lum vaqtgacha mablag' aylanmasiga qaytib tushmasligi mumkin.

Pulning jamg'arma va boylik to'lash vositasi funksiyasi pul muomalasini stixiyali ravishda boshqarib boradi. Tovar ishlab chiqarish hajmining uzluksiz o'zgarib turishi, pul massasining doimiy o'zgarib turishiga olib keladi. Qimmatbaho metallar, buyumlarning muomalaga kelib-ketib turishi, pul massasining hajmini ushlab turishi, pul muomalasi kanallarida pul oqimi ko'payib ketishining oldini olishi mumkin.

Pulning muomala vositasidan chiqib, jamg‘armaga aylanishi va jamg‘armaning muomala vositasiga aylanishi pul tizimini muvozanatda ushlab turuvchi zaruriy shart hisoblanadi.

Pulni jamg‘arishga undaydigan omil – uning maxsus tovar, umumiy ekvivalentligi, ya’ni boshqa barcha tovarlarga xohlagan vaqtida almashtirish mumkinligidadir. Pulga sifat va son jihatdan yondashish mumkin. Chunki pulning sifati, soni bor. Pulning sifati chek-siz bo‘lishi, ya’ni pulni zarur bo‘lganda xohlagan tovarga aylanti-rish imkoniyati mumkinligida o‘chansha, son jihatdan, albatta, pul summasi cheklangan bo‘lishi mumkin, chunki unga cheklangan miqdorda tovar sotib olish mumkin. Demak, pulning sifat jihatdan cheklanganligi bilan son jihatdan cheklanganmaganligi o‘rtasida qaramaqarshilik bor. Mana shu qarama-qarshilik pulni jamg‘arishga, pul qancha ko‘p bo‘lsa, uni yanada ko‘paytirishga intilishga olib keladi. Jamg‘arma funksiyasi pul muomalasida asosiy bo‘lmasada, uni olib borishda katta ahamiyatga ega.

Jamg‘arish, xazina to‘plash qiymatning qotib qolishiga olib keladi. Xazina to‘plash vositasi vazifasini tarixan oltin, keyinchalik boshqa qimmat baho metallar, toshlar bajarib kelgan va hozirgi kunda ham shu tovarlar boylik (pul) sifatida jamg‘arilib kelinmoqda. Xazina sifatida oltin yoki boshqa qimmatbaho metall, toshlarning ahamiyati rivojlangan mamlakatlarda deyarli yuqori emas, chunki mamlakat iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lsa, pulni biror qimmatbaho metallda jamlab qotirib qo‘ygandan ko‘ra, unga davlat yoki korporatsiyalarning qimmatbaho qog‘ozlarini sotib olib, ulardan har yili daromad ko‘rgan ancha qulay hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatganki, 100 biznesmenden faqat 4 tasi o‘z pulini to‘g‘ri jamg‘arib boyib ketar ekan. Qolganlari bo‘lsa, pulni topadi, lekin oqilona jamg‘arish yo‘lini bilmagani uchun uni yo‘qotarkan.

Bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan mamlakatlarda pul mablag‘ini quyidagi aktivlarga qo‘yish afzal hisoblanadi.

Birinchidan, davlatning qimmatbaho qog‘ozlari, ya’ni uzoq mudatli obligatsiyalar, qisqa muddatli veksellarga qo‘yish. Davlatning qimmatbaho qog‘ozlarikafolatlangan bo‘ladi va ularning bahosi kamdankalm hollarda o‘zgaradi. O‘zgarganda ham, sezilarsiz

miqdorda o'zgaradi. Shuning uchun ham, davlatning qimmatbaho qog'ozlari yuqori likvidlikka ega bo'ladi.

Ikkinchidan, sanoat korxonalari va korporatsiyalarining qimmatbaho qog'ozlari, ya'ni aksiya va obligatsiyalariga qo'yish. Korporatsiya, korxonalarining aksiya, obligatsiyalarining ishonchliligi davlatnikiga nisbatan kam bo'lishi mumkin. Chunki ularning bahosi u yoki bu sabab bilan tushib ketsa, qo'yilgan mablag' ko'zlangan natija bermasligi mumkin.

Agar mablag' iqtisodiy barqaror korxonalarining qimmatbaho qog'oziga qo'yilsa, u davlatning qimmatbaho qog'oziga nisbatan yuqori daromad keltirishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida korporatsiya, assotsiatsiya, korxonalarining qimmatbaho qog'ozlarini chiqarish, ularning ikkinchi sotilish bozorini vujudga keltirish va rivojlantirish bo'yicha ancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi va bu jarayon O'zbekiston iqtisodini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

Uchinchidan, pulni qimmatbaho, noyob buyumlarga, san'at asarlariga qo'yish yo'li bilan jamg'arish.

Bu usulda iqtisodiyotning ijobjiy va salbiy tomoniga o'zgarishiga qaramay buyumda ifodalangan qiymat o'zini yo'qotmaydi. Agar davlat barqaror iqtisodiyotga ega bo'lib, bozor munosabatlari yaxshi rivojlangan bo'lsa, bu aktivlarning likvidligi uncha yuqori bo'lmagligi mumkin.

Pul yuqori darajadagi likvidlilikka ega bo'lgani uchun, uni xohlagan vaqtda, xohlagan to'lovniga to'lashga yo'naltirilish mumkinligi uchun, nominalini o'zgartirmasligi uchun pul jamg'arma va xazina to'plash funksiyasini bajaradi. Pul jamg'armasi boylikning bir shakli hisoblanadi. Kishilar boylikni faqat pul shaklida emas, boshqa shakklardan, masalan uy-joy, er, mashina, asbobuskuna, aksiya, obligatsiya va boshqa shaklda ham mujassamlashtirishi mumkin. Boylikning bu shakkarda likvidlilik darajasi pulga nisbatan (agar inflyatsiya bo'lmasa) past bo'ladi va ularning narxi ham o'zgarishi mumkin. Er, uy joy, asbobuskuna, qimmatbaho qog'ozlarni pulga aylantirmasdan turib biror to'lovniga qoplash uchun yo'naltirib

bo'lmaydi. Pulni esa xohlagan paytda turli to'lovlarni qoplash uchun yo'naltirish mumkin.

Inflyatsiya sharoitida pulni jamg'arish xohlagan rejani amalgalashirishga imkon bermasligi mumkin. Chunki jamg'ariladigan pullar o'z qadrini bir necha marta yo'qotib boradi va unga ishonch yo'qoladi. Bu sharoitda milliy pul birliklari muomala va to'lov vositasi hamda baholar masshtabi bo'ladi, lekin jamg'arish vositasi bo'lib barqaror biror chet el valyutasi muomalaga kiradi va pul aktivlari shu valyutalarga almashtiriladi. Odatda, pul barcha funksiyalarini bir vaqtida, ketma-ket baja-rishi mumkin. Ba'zida mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy barqaror-likka qarab, pulning funksiyalarini bir biridan ajralib qolishi ham mumkin. Masalan, 40-yillarda Xitoyda tovarlar bahosi AQSH dollarida aniqlangan. Hisob-kitoblarda tovar sotish va sotib olishda Xitoy valyutasi qo'llanilgan. Xuddi shunday hol giperinfiyatsiya davrida Isroilda, Argentina, Meksika kabi mamlakatlarda joriy qilingan. Bu mamlakatlarning milliy valyutasi muomala va to'lov vositasi sifatida ishlataligan.

1.3. Pul funksiyalarining o'zaro bog'liqligi

Bizning fikrimizcha, pul yuqorida keltirilgan funksiyalarni alohida olingan davlatda yoki davlatlar o'rtaida bajarishi mumkin. Bu holda, biror mamlakatning valyutasi jahon puli funksiyasini bajaradi, deb xulosa qilishga o'rin qolmaydi.

Pulning funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ular bir-birini to'ldirgan holda pulning mohiyatini to'liq ifoda qiladi.

Pulning asosiy funksiyalaridan biri qiymat o'chovi funksiyasi hisoblanadi. Ba'zi chet el iqtisodiy adabiyotlarida pulning birinchi funksiyasi sifatida muomala vositasi funksiyasi, keyin qiymat o'chovi funksiyasi keltiriladi. Bizning fikrimizcha, pulning funksiyalari to'g'risida gapirganda, funksiyalarning ketmaketligiga e'tibor berish zarur. Pul qiymat o'chovi funksiyasini bajarmasdan turib, muomala, jamg'arma vositasi bo'la olmaydi. Pulning qiymat o'chovi sifatidagi mustahkamligi uning muomala, to'lov, jamg'arma funksiyalarida o'rni va ahamiyatini oshiradi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Funksiya, pul muomalasi, pulning funksiyasi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arish vositasi, qiymat o'lchovi, jamg'arma vositasi, ekvivalent, barter usuli, tovar defitsiti, inflyatsiya.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Pulning funksiyalarini sanab bering.
2. Pul qiymat o'lchovi funksiyasini qanday bajaradi?
3. Pulning muomala vositasi va to'lov vositasi funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
4. Rivojlangan davlatlarda pulning qanday funksiyalari o'r ganiladi?
5. Jamg'arish vositasi funksiyasining hozirgi vaqtdagi dolzarbliги.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. –Toshkent, 1995.
2. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. –T.: "Iqtisod – moliya", 2007, 8 – b.
3. Смит А. Исследование природе и причинах богатства народов. Том 1. –С.418, 421.
4. Юм Д. Опыты. –М.: Издание К.Т.Солдатенкова, 1986. – С.20.
5. Соколов Б.И. Деньги, кредит и банки. Учебник. –М.: ТК Вебли, Изд – во. Проспект, 2008. –С.8.
6. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.
7. Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 3

2-BOB. PULNING TAKROR ISHLAB CHIQARISHDAGI O'RNI

2.1. Tovar ishlab chiqarish va pulning zarurligi

Har bir iqtisodiy kategoriyada amal qiluvchi hamda mamlakat rivojlanishining asosiy dastaklaridan biri pul bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish va unda ish yuritishda pulning mavqeい va ahamiyati yanada oshib boradi. Darhaqiqat, pul – "bozor tili" deb bekorga aytishmagan. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to'lovlar, daromadlar va xarajatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar makro va mikro darajalarda faqat pulda ifoda qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida pulning ahamiyatining oshishi shundaki, jamiyatimizda mavjud yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati hamda ularning natijasi daromadi pul bilan bog'liq. Shuning uchun ham, pul barcha iqtisodiy rivojlanish pog'onalarida odamlarni o'ziga jalgan qilib kelgan.

Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017-yil 15 fevral kuni "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartalari orqali hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2777-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq: 1 martdan chakana savdo va pulli xizmatlarni ko'rsatish sohasida aholidan plastik kartalar orqali to'lovlarni qabul qilish uchun hisob terminallari bilan ta'minlanmagan tadbirkorlik subyektlari, jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarga faoliyat olib borish taqiqlandi. Davlat soliq qo'mitasiga tijorat banklar, Banklar assotsiatsiyasi va Yagona umumrespublika protsessing markazi bilan hamkorlikda 10 kun ichida chakana savdo va pulli xizmat ko'rsatish obyektlarini terminallar mavjudligi bo'yicha inventarizatsiyadan o'tkazish vazifasi topshirildi.

Mazkur Qarorning 2-bandiga asosan 4 ta holatda, ya'ni :

– naqd pul vositasi yoki plastik kartochka orqali amalga oshiriladigan to'lov shaklidan kelib chiqib narxlarni sun'iy ravishda oshirish yoki kamaytirish;

– nazorat-kassa mashinalari va to'lov terminallarini qo'llash;

– o'rnatilgan tartibda talonlar va cheklarni berilishi;

-naqd pul tushumlarining to‘liq hajmda inkassatsiya qilinishi yuzasidan mazkur Qaror bilan o‘rnatilgan tartibga muvofiq o‘tkaziladigan tekshiruvlar Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining maxsus ruxsatnomasi talab etiladigan soliq tekshiruvlari hisoblanmasligi belgilandi¹³.

“Mustaqillikning birinchi yillarda O‘zbekiston hukumati siyosiy va iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish paytida ikki o‘zaro ziddiyatl, biri ikkinchisini inkor qiladigan holatga duch kelib qoldi: bir tomonidan siyosiy mustaqillik, boshqa tomondan – yagona rubl, demak, iqtisodiy qaram zonada turganlik holati edi. Bu holat nafaqat O‘zbekiston, balki sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari uchun o‘ziga xos xususiyat edi”¹⁴

Avstraliyalik iqtisodchi olim K. Mengerning fikricha, Arastu va Aflatundan boshlab XX asrning boshigacha pul to‘g‘risida jahonda besh-olti mingdan ortiq maxsus ishlar chop qilingan. Agar biz, hozirgi kunda pul to‘g‘risida yozilgan va chop qilingan adabiyotlar soni bir necha marta oshib ketgan, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Tadqiqotlar shunchalik ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, pul va uning xususiyatlari, har bir tizimda ishlatalishi, roli, iqtisodiyotga ta’siri, nega alohida olingen individumlar qo‘lida pulning ko‘payishi, ular boyligining ko‘payishiga olib keladiyu, jamiyat miqyosida muomaladagi pul massasining ko‘payishi jamiyat boyligi ortib borishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, degan savollarga hali to‘liq javob berilgan emas.

Pul va uning vazifalari to‘g‘risida mavjud xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining qo‘llanmalarini olib qaraydigan bo‘lsak, pulning kelib chiqishi to‘g‘risida ikki xil g‘oya mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bular ratsionalistik va evolyusion g‘oyalardir.

Ratsionalistik qarashning asoschilaridan biri Arastu bo‘lib, u pulning kelib chiqishining asosini o‘zaro birbiriga teng qiymatni

¹³ Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017-yil 15 fevral kuni «Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartalari orqali hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2777-sonli qarori

¹⁴ Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. –T.: «O‘zbekiston» 2001. 33 – bet.

harakatga keltiruvchi biror bir maxsus “qurol”, kishilar orasida o‘zaro kelishuv natijasida qabul qilingan shartli birlik ekanini aytadi. O‘zaro tovarlarni almashtirishda pul qatnashmaganda, tovarni sotish jarayoni tovari sotib olish jarayoni sifatida yuzaga kelgan. Tovarlar o‘rtasidagi proporsiya tasodifan, masalan, sotilishi kerak bo‘lgan mahsulotga talab qay darajada va uning miqdori kamko‘pligiga bog‘liq holda o‘rnatilgan. Keyinchalik, shu tovarlar ichidan umumiy ekvivalent sifatida ba’zi tovarlar ajralib chiqdi. Jamiyatning rivojlanishi muomalaga metallarning kirib kelishiga olib keladi.

Pulning kelib chiqish tarixi ko‘proq pulning evolyusion nazariyasi bilan bog‘liq. Tovar muomalasining evolyusion rivojlanish jarayonida umumiy ekvivalent shaklini har xil tovarlar o‘ynagan. Har bir jamoa o‘z tovarini ekvivalent sifatida o‘rtaga qo‘ygan. Lekin jamiyat taraqqiyoti shu tovarlar ichidan ikki guruh tovarlarning ajralib chiqishiga olib keldi. Bular birinchi ehtiyoj uchun zarur bo‘lgan tovarlar va zebuziynat tovarlaridir.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida dehqonchilik va chorvachilikdagi mehnat taqsimoti, tovar turlarining ko‘payishi almashinuv jarayonining yanada rivojlanishini taqozo qildi. Almashinuv jarayonida tovar egalari o‘zaro muloqotda bo‘lib, tovarning egasi o‘z mahsulotini (mulkini) baholagan. Shu baholash jarayoni biror o‘lchov birligi bo‘lishini taqozo qilgan.

2.2. Pulning turlari

Pul o‘zining evolyusiyasi jarayonida metall (oltin, kumush, mis), qog‘oz, kredit pullar shaklida ishlatalib kelgan. Qiymatni o‘zida ifodalashiga ko‘ra pullar ikki turga bo‘linadi:

- haqiqiy pullar;
- haqiqiy pul izdoshlari - qiymat belgilari.

Haqiqiy pullar nominal qiymatini o‘zida ifodalovchi, real qiymatga ega bo‘lgan metall pullar bo‘lib, ular har xil shakllarda chiqarilgan va keyinchalik amaliyotda qulay bo‘lgan aylana (shu shaklda metall emirilishi kam bo‘ladi) shaklda chiqarilgan

Qog‘oz pullar. Pulning bu turi haqiqiy pullarning vakili bo‘lib, pulning muomala funksiyasi rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan.

Qog‘oz pullar yuzaga kelishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

1-bosqich – tangalarning uzoq vaqt muomalada bo‘lishi, qo‘ldan-qo‘lga o‘tishi natijasida emirilishi;

2-bosqich – tangadagi metall tarkibining buzilishi. Davlat tomonidan ongli ravishda davlat xazinasiga tushumni oshirish maqsadida tangalar metall (oltin, kumush) miqdorining kamaytirilishi;

Bu bosqichda tanga tarkibining buzilishiga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinligi, ular zahiralarining kamligi ham sabab bo‘lgan.

3-bosqich – davlat tomonidan emission daromad olish maqsadida xazina biletlarining chiqarilishi.

Qog‘oz pullar deb, hukumat tomonidan byudjet taqchilligini qoplash uchun chiqarilgan, metall pullarga almashtirilmaydigan, lekin davlat tomonidan ma’lum kurs o‘rnatilgan pul belgilariga aytildi.

To‘la oltin va kumushdan bo‘limgan tangalar muomalada pul sifatida ishlatsada, ularning nominal miqdori real miqdoridan farq qilgan. Shunday bo‘lsa ham, bu tangalar ma’lum miqdordagi metallni ifodalagan. Qog‘oz pullar bo‘lsa, muomalaga chiqarilgan vaqtida va keyin ham uzoq yillar davomida ma’lum bir miqdordagi oltinni o‘zida ifoda qilgan. Ammo biror davlatning pulida metallning zarrasi ham bo‘limgan, ya’ni ular qiymatni belgilab bergen, xolos.

Qog‘oz pullarning emitenti davlat xazinasi yoki emission bank hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida muomalaga pul belgilarini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki chiqaradi. Qog‘oz pullarning tabiatli ularning inflyatsiyaga moyilligini ko‘rsatadi. Qog‘oz pullarni muomalaga chiqarishda pul muomalasi qonuni talablarini e’tiborga olish kerak. Lekin amaliyotda har doim ham shu talablar e’tiborga olinavermaydi. Pul muomalaga tovar aylanmasi ehtiyojini qoplash uchungina chiqarilishi kerak. Haqiqatda pul yuqoridaidan tashqari, byudjet taqchilligini, davlatning boshqa xarajatlarini qoplash uchun ham chiqariladi, ya’ni emissiya miqdori tovar aylanmasi bilan cheklanmasdan davlatning moliyaviy resurslarga bo‘lgan talablariga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu, albatta, muomaladagi pul massasining o‘zgarib turishiga, aksariyat hollarda uning muomalaga keragidan ortiqcha chiqib ketishiga olib keladi. Natijada pulning barqarorligiga putur etadi, uning qadri tushadi, xalqning davlatga bo‘lgan ishonchi

pasayadi, to'lov balansining barqarorligi yo'qoladi, (passiv qoldiq hajmi ortadi) milliy valyuta kursi tushadi va h. k.

Kredit pullar. Ishlab chiqarish va tovar aylanmasining rivojlanishi, metall pullarning etishmasligi kredit munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi. Tovar va to'lov aylanmasining ehtiyojini qoplash maq-sadida muomalaga oltin, kumush tangalar bilan bir qatorda kredit vositalari: chek, veksel, banknotalar chiqarilgan.

Kredit pullar deb, kredit munosabatlar asosida yuzaga keluvchi, to'lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilariga aytildi.

Kredit pullar o'zining mustaqil qiymatiga ega emas, chunki ularni yaratish uchun abstrakt zaruriy mehnat sarflanmaydi. Kredit pullar qog'oz pullardan farq qilib, ular bir vaqtning o'zida qiymatni ifodalaydi va u kredit hujjat bo'lib, kreditor va qarz oluvchi o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kredit pullarning asosiy turlaridan biri vekseldir.

Veksel – bu qarzdorning (oddiy veksel) yoki kreditorning (o'tkazma veksel - tratta) ko'rsatilgan summani, ko'rsatilgan vaqtda va joyda to'lash to'g'risidagi yozma majburiyati hisoblanadi.

Tijorat veksellarning oddiy va o'tkazma turlari mavjud. Undan tashqari, ma'lum summani qarzga berish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy veksellar mavjud. Moliyaviy vekselning bir turi xazina veksellari bo'lib, ularda davlat qarzdor sifatida ishtirok qiladi.

Yana veksellarning o'rtoqlik, bronza veksel turlari mavjud.

Banknota – kredit pullarning etakchi vakillaridan bo'lib, Markaziy bank tomonidan, veksellarni hisobga olish yo'li bilan chiqariladi. O'tmishta banknota muddatsiz majburiyat bo'lib, xohlagan vaqtda uni bankka topshirib, o'rniga unda ko'rsatilgan summaga oltin yoki kumush olish mumkin bo'lgan.

Veksel banknotadan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

– veksel ma'lum muddatni o'zida ifodalaydi (3-6 oy muddatga ega bo'lgan veksel), banknota ma'lum muddat bilan chegaralanmaydi.

– veksel bo'yicha vekselni bergen tomon uni to'lashni kafolatlasa, banknotada uni to'lashni davlat (davlat banki) kafolatlaydi.

Banknota qog'oz pullardan quyidagilar bilan farq qiladi:

– kelib chiqishi bo'yicha qog'oz pullar asosan muomalaga vositasi funksiyasini bajarish asosida, banknotalar to'lov vositasi funksiyasi asosida kelib chiqqan:

– almashinuvi bo'yicha, banknotalar oldin oltin va kumushga almashirilgan, qog'oz pullar esa metallarga hech qachon almashirilmagan;

– emissiya qilinishi bo'yicha qog'oz pullarning banknotalardan farqi bo'lgan (xazina biletlarini Moliya vazirligi, banknotalarni Markaziy bank chiqargan)va h. k.

Hozirgi zamon banknotalari oltinga almashilmaydi. Lekin ular quyidagi yo'llar bilan pul muomalasiga kelib tushadi:


– xo'jaliklarni bank tomonidan kreditlash orqali berilgan kreditlarning bir qismi muomalaga kirib keladi;

– davlatni kreditlash. Ya'ni banknotalar davlatning qarz majburiyati sifatida muomalaga chiqadi;

– aktiv to'lov balansiga ega bo'lgan davlatlarda rasmiy valyuta zahiralarining o'sishi orqali va boshqalar;

Chek veksel va banknotadan keyin paydo bo'lgan kredit vositasi hisoblanib, to'lovchining o'z bankiga uning schyotidan mablag'ni oluvchining schyotiga o'tkazib qo'yish to'g'risidagi buyrug'i idir.

Birinchi cheklar taxmininan 1683 yillarda Angliyada qo'llanila boshlagan.



Chek yordamida bankdan naqd pul olish mumkin. U bilan to‘lovlarni va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin.

Hozirgi vaqtida kredit pullarning zamonaviy turlari sifatida elektron pullar va kredit kartochkalardan foydalanimoqda.

Banklar faoliyatida EHM lardan foydalinish elektron pullar yordamida qarzlarni to‘lashni tezlashtiradi. AQSHda pul mablag‘larining elektron o‘tkazish tizimi – EFS (Electronis Fonds Transfert System) aylanmaning samarali bo‘lishini ta’minlamoqda.

Hozirgi zamon amaliyotida qo‘llanilayotgan kredit kartochkalar naqd pullar o‘rniga hisob-kitoblarni olib borish uchun chiqarilgan bo‘lib, ular juda qulay va bir qator afzalliklarga ega. Kredit kartochka bilan barcha turdagи chakana savdo va xizmatlarga haq to‘lash mumkin. Hozirgi vaqtida kredit kartochkalar bank, savdo xizmatlarini to‘lashga mo‘ljallangan.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Veksel, emissiya qilinishi, hisob cheki, akseptlangan chek, orderli chek, ismi yozilgan chek, pul, qog‘oz pullar to‘lov vositasi kredit pullar. haqiqiy pullar, banknota.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Ishlab chiqarish va tovar aylanmasining rivojlanishi
2. Tijorat veksellarning qanday turlari mavjud?
3. Veksel banknotadan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?
4. Hozirgi zamon banknotalari.
5. Pulning kelib chiqish tarixi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. –Toshkent, 1996.
2. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - Т.: TDIU, 2013. – 428 bet.
3. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.
4. Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.

5. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.
6. Климович В.П. Финансы, денежное обращение, кредит. Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 256 стр.
7. Abdullaeva Sh.A. Pul,kredit va banklar . О‘кув qo‘llanma-T: Moliya.

3-BOB. TURLI IQTISODIY MODELLARDA PULNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

3.1. Pulning mohiyati va uning xususiyatlari

O'tgan asrdagi iqtisodchilar pul – bu tovarlarning tovari, deb ifodalashgan va uning quyidagi xususiyatlarini izohlab berishgan: Birinchidan, pulning iste'mol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o'z ifodasini topadi. Ikkinchidan, pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini abstrakt mehnat tashkil qiladi. Uchinchidan, pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga asoslangan holda, pul ham tovar, lekin boshqa tovarlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lган maxsus tovar degan xulosaga kelish mumkin. Uning maxsus tovar sifatida xususiyati shundaki, u barcha tovarlarning qiymatini o'zida ifoda qiluvchi, umumiy ekvivalent hisoblanadi.

Umumiy ekvivalent rolini uzoq yillar davomida oltin bajarib kelgan bo'lsada, tovar xo'jaligining va pul muomalasining rivojlanishi qog'oz pullar, boshqa kredit vositalari yuzaga kelishiga, kredit va pul mablag'larining bankda bir schyotdan ikkinchi schyotga o'tkazilishi kabi jarayonlar bo'lishiga olib kelgan.

Pul qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar pul bo'lib qolaveradi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, pulning mohiyatini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin. Pul – bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo'lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o'zida aks ettiradi va tovar xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Bu ta'rif pulning barcha xususiyatlarini o'zida to'liq ifodalaydi, deb aytishimiz mumkin. Bular, birinchidan; pulning boshqa tovarlardan ajralib turuvchi maxsus tovarligi; ikkinchidan pul bu umumiy ekvivalent yagona tovar bo'lib, qolgan tovarlarning qiymatini o'zida ifoda qilishi, (boshqa xohlagan bir tovar bu xususiyatga ega bo'la olmaydi); uchinchidan, pulning ekvivalent sifatida tovarni yaratishga ketgan mehnat va boshqa xarajatlarini o'zida ifoda qilishi; to'rtinchidan, pulning har bir iqtisodiy tizimda, tovar ishlab chiqarishda kishilar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarini ifoda qilishi va boshqalardir.

Pul to‘g‘risidagi evolyusion nazariya uning o‘lchov birligi va muomala vositasi ekanligini ochib beradi. Ma’lumki, pul tovar ishlab chiqarish va ayrboshlashning uzoq vaqt rivojlanishi natijasida vujudga keldi. R.Kruzo ta’kidlaganidek, faqat tovar ishlab chiqarish bor joyda pul kerak, yakka odamga pulni keragi yo‘q. Pulni tovar ayrboshlashni o‘zi yaratdi.

Birinchi yirik mehnat taqsimoti, ya’ni chorvachilikdan dehqonchilikni ajralib chiqishi va shu munosabat bilan tovar xo‘jaligining rivojlanishi tufayli mahsulot qiymatining ifodasi bo‘lmish pulni keltirib chiqardi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, tovar turlarining ko‘payishi almashuv jarayonining yanada rivojlanishini taqozo qildi. Almashuv jarayonida tovar egalari o‘zaro muloqotda bo‘lib, tovarning egasi o‘z mahsulotini (mulkini) baholagan. Shu baholash jarayoni biror o‘lchov birligi bo‘lishini taqozo qilgan. Tovar muomalasining ekvivalent rivojlanish jarayonida umumiyligi ekvivalent shaklini har xil tovarlar o‘ynagan. Har bir jamaa o‘z tovarini ekvivalent sifatida o‘rtaga qo‘ygan. Lekin jamiyat taraqqiyoti shu tovarlar ichidan pulni tovarlarning tovari deb e’tirof etgan.

Pul – bu maxsus tovar, umumiyligi ekvivalent bo‘lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o‘zida aks ettiradi va tovar xo‘jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarni ifodalaydi.

Bu ta’rif pulni quyidagi xususiyatlarini o‘zida ifodalaydi:

1. Pulning boshqa tovarlardan ajralib turuvchi maxsus tovarligi.
2. Pul – bu umumiyligi ekvivalent – yagona tovar bo‘lib qolgan tovarlar qiymatini o‘zida ifoda qilishi.

3. Pulning ekvivalent sifatida tovarni yaratishga ketgan mehnat va boshqa xarajatlarni o‘zida ifoda qilishi.

4. Pulning har bir iqtisodiy tizimda, tovar ishlab chiqarishda kishilar o‘rtasidagi yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda qilishi va boshqalar (pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo‘lishi).

Pulning muhim xususiyati shundaki, u ham boshqa tovarlar singari qiymatga va iste’mol qiymatga ega bo‘lishi bilan birga boshqa barcha tovarlarga qarama-qarshi turadi. Bu bir tomonda pul, ikkinchi tomonda boshqa tovarlar.

Pulning iste'mol qiymati shuki u o'z funksiyasini bajarib iqtisodiyot mushkulini oson qiladi (vositachi sifatida).

Pulning qiymati (qadr qiymati) deganda pul birligining xarid qilish qobiliyati, ya'ni unga qancha tovar va xizmatlar xarid etish mumkinligi tushuniladi.

Pulni qiymati metal pulni zabit etish yoki qog'oz pulni bosib chiqarish xarajatlarini bildirmaydi. Bu xarajatlar pul qiymati emas, balki pulni muomalaga kiritish sarflaridir. Pulni qiymati narxga bog'liq, narxlar ko'tarilib, ketsa, uni qiymati (qadri) pasayadi va aksincha.

Umuman pul insoniyat kashfiyotlari ichida eng oddiy, eng tushunarli bo'lib hisoblanadi.

Insoniyatning butun yutuqlari ham, fojialari ham pul bilan bog'liqdir. Inson faoliyatini eng muhim xarakatga keltiruvchi kuchlardan biri pul bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Taniqli davlat arboblaridan biri ta'kidlaganidek, "Davlatni o'rni uni qancha soldati yoki pushkalarini qudrati bilan emas, balki milliy valyutaning mustahkamligi bilan belgilanadi". Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, korxonaning mavqeい unda necha kishini ishlashi, ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori bilan emas, balki uning moliyaviy barqarorligi bilan belgilanadi.

Yaxshi ishlayotgan pul tizimi jamiyatning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatini beradi, aksincha yomon ishlayotgan pul tizimi pul muomalasini izdan chiqarib ishlab chiqarish darajasidagi keskin pasayishlar, iqtisoddagi bandlikka va bahoga, pulni sotib olish qibiliyatini pasayishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra birinchi qog'oz pullar XII – asrda Xitoya chiqarilgan. Shuning bilan birga 700 yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar Buxoro davlatida qog'ozdan pul sifatida foydalangan.

Umuman tarixda birinchi tangalar VII – asrda kichik Osiyodagi Lidiya mamlakatida zabit etilgan.

K.Marks, A.Smit va D.Rekradolarning tadqiqotlariga tayangan hoda pulni vujudga kelish jaryonini qiymatning quyidagi shakllari bilan bog'laydi:

Qiymatni oddiy yoki tasodifiy shakli

Bu tovar ishlab chiqarishning dastlabki davriga to'g'ri kelib tovarlar pulsiz bir-biriga bevosita ayriboshlangan. Bunda mahsulot ayriboshlash

uchun ishlab chiqarilmagan, lekin uni ortikchasi tasodifiy shaklda ayirboshlangan. Tasodifiy ayirboshlash mehnat mahsulotining tovarga aylanganligini ifodalaydi. Ayriboshlash natijasida tovar mahsuloti o'ziga teng qiyamatli ekvivalent mahsulotga ayriboshlanadi. Ayriboshlash jarayonida iste'molni qondirish birinchi darajali masala, tovarlar qiyamatini taqqoslash esa ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning ahamiyatini oshishi

Mamlakat rivojlanishining asosiy vositalaridan biri pul bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish va unda faoliyat yuritishda uning o'rni va ahamiyati yanada oshib boradi. Darhaqiqat, pul – "bozor tili" deb bejiz aytilmagan. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to'lovlari, daromadu xaratjatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar mikro va makro darajalarda faqat pulda ifoda qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida pul ahamiyatining ortib borishi jamiyatimizda mavjud huquqiy va jismoniy shaxslar faoliyati va uning natijasi – daromadi pul bilan bog'liq.

Bozor iqtisodiyotini muhim omilini pul tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti pul bilan tirik, chunki takror ishlab chiqarish jarayonining barchasida pul vositachilik qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqarishdan boshlab iste'molchigacha bo'lgan jarayon pul vositasida amalga oshadi. Pul – bozor alokalarining xammabop va universal iqtisodiy vositasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini uyshtirish, tovarlarni ayirboshlash, pullarni saqlash va taqsimlash, bo'sh pulni qarzga berish, korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yanada kuchayib, murakkablashib boradi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resursga aylanadi va ular ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pulga aylanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat pul, balki uning ekvivalentlaridan – aksiya, obligatsiya kabi qimmatli qog'ozlar va boshqalardan keng foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ilgari pulga aylantirilmagan ayrim vositalar ham endi pulda o'z aksini topadi (yer va boshqalar).

Umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasini tashkil etish, pulni aylanishi, umuman xo'jaliklar faoliyatini tashkil etilishi yangi pul munosabatlari asosida tashkil etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bozor iqtisodiyoti sharoitida pul iqtisodiy quvvat, iqtisodiyotning o‘ziga xos tashrif qog‘ozni bo‘lib xizmat qiladi, u bozor iqtisodiyotining tani-joni hisoblanadi.

Pul iqtisodiy munosabatlarni o‘zida aks ettirib quyidagi funksiyalarini bajaradi:

1.Qiyamat o‘lchovni – pul umumiy ekvivalent sifatida o‘zida ijtimoiy mehnatni mujassamlashtiradi va shu sababli tovarlar qiymatini o‘lchay oladi. Tovarni qancha turishi pulda belgilanadi. Buyumlarni og‘irligi, eni va bo‘yiga qarab, kilogramm yoki metr bilan o‘lchaganday tovarlarning narxi pul bilan o‘lchanadi. Har bir mamlakatning o‘z pul birligi mavjud bo‘lib, bu O‘zbekistonda so‘m, AQSHda dollar, Angliyada funt sterling, Turkiyada lira, Germaniyada marka va boshqalar.

Bu vazifani uzoq yillar o‘z qiymatiga ega bo‘lgan tovar – oltin yoki oltinni o‘zida ifodalaydigan pul birliklari bajarib kelgan.

Ayrim adabiyotlarda ushbu funksiyani hisob-kitob va iqtisodiy ulchov funksiyasi xam deb aytilgan. Bunda iqtisodiy faoliyatning moddiy va pul-kiymat ulchamida umumlashtirilishi ta’kidlangan.

2.Muomala vositasi. Bu funksiya yordamida tovar o‘zining pul qiymatiga ayribosh qilinadi. Pul yordamida tovarni xarid etish, pulga tovar ayriboshlash (P-T) yoki tovarni sotish, ya’ni tovarni pulga ayriboshlash (T-P) yuz beradi. Bu jarayonda pul vositachilik qiladi, pul muomala vositasi funksiyasini bajaradi.

Pul ishtirokida tovar ayriboshlash tovar muomalasi shaklini oladi. Bundan farqliroq barter – tovarni tovarga bevosita almashtirish bo‘lib ma’lum kelishilgan narxni taqozo etsada pul ishtirokisiz yuz beradi.

Barter pulsiz ayriboshlash bo‘lganidan bozor iqtisodiyotiga to‘g‘ri kelmaydi, shu sababli u pul qadrsizlangan, tovar topish mushkul bo‘lgan paytlarda qo‘llaniladi.

O‘ta taqchillik yuz berib, bozor aloqalari buzilgan sharoitda talon va kuponlar tovar ayriboshlashda qo‘llanilgan hollari ham mavjud. Barter taraqqiy etgan mamlakatlar uchun xos emas. Bu shuning uchunki aynan ayriboshlash uchun ming yillar oldin pul uylab topilgan. Shuning bilan birga yosh mamlakatlar o‘zini tutib olguncha, ular bozorlarini xomashyo va uskunalar bilan to‘ldirishda barterni ma’lum ahamiyati bor.

O‘zbekistonda 1994 yilda umumiy eksportni 17 foizini barter tashkil etgan. 1995 yilda u ikki barobardan ko‘proqga kamaydi.

3. To'lov vositasi. Ayrim adabiyotlarda pulning to'lov vositasi uning muomala vositasi bilan qo'shib yuboriladi. Aslida ular o'rtaida tub farqlar mavjud va ularni asosiyлari quyidagilar:

a) muomala funksiyasi tovarni faqat naqd pulda sotilishini bildirsa, to'lov funksiyasida tovar ham naqd pulda ham naqd pulsiz holda sotiladi.

b) muomala vositasida tovar va pul harakati bir vaqtida amalga oshiriladi deb tushiniladi, to'lovda esa u kechiktirilishi ham mumkin, kreditga amalga oshirilishi va to'lov muddatini kutilishi mumkin.

c) muomala vositasida tovarni sotuvchi va oluvchi o'rtaida munosabat bir yo'la tugaydi, to'lovda esa uzoq davom etadi va u debetorlik va kreditorlik qarzlariga sabab bo'ladi.

Pulni to'lov vositasi orqali davlat byudjetiga va kredit tizimiga to'lovlari amalgaga oshiriladi, aholiga ish haqi, nafaqa, kommunal va boshqa xizmatlarga to'lovlari amalgaga oshiriladi. Pulni to'lov funksiyasini tan olmaslik debtor va kreditor qarzlarni oshishiga, kredit bo'yicha va boshqa moliyaviy majburiyatlarni bajarilmasligiga, xo'jalik jarayonlarining me'yorida borishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2 .Jamg'arma vositasi. Bu pulning jamlangan boylik shakliga kirib o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olishidir. Pul qog'oz yoki tanga bo'lgani uchun boylik emas, balki o'zida mehnatni mujassamlashtirgani, unga hamma narsani xarid etish yoki uni jamlab saqlash mumkin bo'lgani uchun boylik hisoblanadi.

Pul boylik jamgarishning eng qulay usulidir, chunki pulda likvidlik bor, ya'ni pul hamma erda unga belgilangan nominalga (masalan 500 so'm) qarab to'lov uchun qabul qilinadi. Pul boshqa likvidlik vositalariga nisbatan (er, bino, aksiya, obligatsiya, sertifikat) barqaror vosita hisoblanadi, uning qadri inflyatsiya bo'lmasa barqaror saqlanadi, boshqa likvidlarni esa narxi-qadri o'zgarib turadi. Boshqacha aytganda pulning likvidligi uning muomala vositasi sifatida xamma narsaga tez va xech bir tusiksiz ayriboshlanishidir.

Pulni sifati va soni mavjud. Pulni sifati cheksiz bo'lishi, ya'ni pulga zarur bo'lgan vaqtida xohlagan tovarga aylantirish imkoniyati mavjud, soni cheklangan bo'lishi mumkin, chunki unga cheklangan miqdorda tovar sotib olish mumkin.

Pulni qimmatbaho, noyob buyumlarga, san'at asarlariga, uy-joy, er, mashina, asbob-uskuna, aksiya, obligatsiya va boshqalar shaklida ham jamg'arish mumkin.

Adabiyotlarda pul xazina toplash vazifasini xam bajarishi mumkinligi qayd etiladi. Uni faqat o'zining real qiymatiga ega bo'lgan pullar (qimmatbaho metallar) bajara oladi. Qog'oz pullar asosan muomala va to'lov vazifasini bajaradi.

Pulning funksiyalari o'zaro uzviy bog'liq va ular bir-birini to'ldirgan holda pulning mohiyatini to'liq ifoda qiladi. Pulning funksiyalari ketma-ketligiga e'tibor berish zarur. Pul qiymat o'lchovi vazifalarini bajarmasdan turib muomala, jamg'arma va to'lov vositasi bo'laolmaydi. Pulning qiymat o'lchovi sifatida mustahkamligi uning muomala, to'lov, jamg'arma funksiyalaridagi o'mni va ahamiyatini oshiradi, xalqaro miqyosda ham yuqori obro'ga ega bo'ladi.

3.2.Turli iqtisodiy modellarda pulning asosiy xususiyatlari

Chet el iqtisodchilari pulning iqtisodiy kategoriya sifatida mohiyati va zarururiyatiga kam e'tibor qaratganlar. 1857 yilda taniqli ingliz iqtisodchisi U Djevons, iqtisodiy fanlar uchun pul masalasi bu geometriyadagi aylana kvadraturasiga teng demakdir, degan ekan. Shuning uchun chet el iqtisodchilari bu bobni chetlab o'tishgan. XX asrning 50 - yillaridagi darsliklarning mualliflari pulning mohiyatidan ko'ra uning iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va bandlik, moddiy resurslar va ulardan foydalanishga ta'sirini o'rganish muhimroqdir, deb ta'kidlashgan va ko'p chet el olimlari shu yo'nalishda ish olib borishgan. Hozirgi vaqtda pul to'g'risida bizda mavjud chet el adabiyotlarda ko'rilgan masalalar fikrimizning isboti bo'lishi mumkin. Haqiqatan ham, bozor iqtisodiyotga o'tish sharoitida pulning zarurligi, mohiyatini tadqiq qilishdan ko'ra, pulning iqtisodiyotga, ishlab chiqarishga, bandlikka ta'sirini tadqiq qilish jamiyatimiz uchun ahamiyatliroq deb o'yaymiz.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Ekvivalent, pul, iqtisodiy, kategoriya, kredit, mablag', tovar,to'lov muomala vositasi, pul hajmi, kredit multiplikatori, pul multiplikatori.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Pulning mohiyati va uning xususiyatlari.
2. Iqtisodiy modellarda pulning asosiy xususiyatlari.
3. Pulning ekvivalenti.
4. Pulning qiymati.
5. Pulning funksiyalari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir. –Toshkent, O‘zbekiston, 2007. –64 b.
2. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.
3. Меркулова И.В., Лукъянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.
4. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - Т.: TDIU, 2013. – 428 bet.

4-BOB. PUL AGREGATLARI

4.1. Pul aggregatlari haqida tushuncha

Pul muomalasining muhim ko'rsatkichi pul massasi hisoblanadi. Pul massasi xo'jalik aylanmasidagi naqd pullik hisob-kitoblarni aholi, korxonalar, davlat muassasalariga tegishli xarid va to'lov vositalarining yalpi hajmini o'zida ifodalaydi.

Pul muomalasining belgilangan muddat va belgilangan davri uchun miqdoriy o'zgarishlarini bilish uchun, shuningdek, pul massasi hajmi va o'sish sur'atlarini tartibga solish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqarish uchun turli xil ko'rsatkichlar (pul aggregatlari) dan foydalaniлади.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning moliya statistikasida pul massasini aniqlashda quyidagi asosiy pul aggregatlari to'plamidan (guruhidan) foydalaniлади:

M-1 agregati – muomaladagi naqd pullar (banknotalar, tangalar) va joriy bank schyotlaridagi mablag'larni o'z ichiga oladi;

M-2 agregati – M-1 agregati va tijorat banklaridagi muddatli va jamg'arma qo'yilmalaridan (to'rt yilgacha) tarkib topgan;

M-3 agregati – o'z ichiga M-2 agregati va ixtisoslashgan kredit muassasalaridagi jamg'arma qo'yilmalarini kiritgan;

M-4 agregati – M-3 agregati hamda yillik tijoriy banklarining depozitli sertifikatlaridan iborat.

AQSH da pul massasini aniqlash uchun 4 ta pul aggregati, Yaponiya va Germaniyada – 3 ta, Angliya va Fransiyada – ikkita pul aggregatidan foydalaniлади.

Pul massasi tarkibi va dinamikasini tahlil qilish Markaziy bank tomonidan to'g'ri pul-kredit siyosati olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya Federatsiyada muomaladagi jami pul massasi hisob-kitobi uchun quyidagi pul aggregatlari qo'llaniladi.

M-O agregati – naqd pullar;

M-1 agregati – M-O agregati va hisob-kitob, joriy va boshqa schyotlar (maxsus schyotlar, kapital qo'yilmalar schyotlari, akkreditiv va chek schyotlari, mahalliy byudjet schyotlari, byudjet, kasaba, uyushmalari, jamoat va boshqa tashkilotlarning schyotlari, davlat sug'urta mablag'lari, uzoq muddatga kreditlash fondi) dagi mablag'lar

tijorat banklariga qo'yilmalar va jamg'arma banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlarning yig'indisiga teng;

M-2 agregati – M-1 agregati va jamg'arma banklaridagi muddatli qo'yilmalardan iborat;

M-3 agregati – M-2 agregati hamda depozitli sertifikatlar va davlat zayom obligatsiyalari yig'indisidan iborat.

Pul massasi tarkibini uning harakatiga qarab ikkiga bo'lish mumkin, ya'ni pul massasining aktiv qismi – bu pul mablag'larining xo'jalik faoliyatidagi turli xil shakldagi hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq qismi va ikkinchisi passiv qism – jamg'armadagi pullar va hisob raqamlardagi qoldiqlar hisoblanadi.

Pul massasi naqd pullardan tashqari muddatli hisob raqamdagagi mablag' va jamg'armalarni, depozit sertifikatlari, investitsion fondlarning aksiyalarini o'z ichiga oladi. Pul massasining yuqoridagi elementlari "kvazi" - "qariyb pullar" deb ham yuritiladi. Kvazi - pullar likvid aktivlar bo'lib, ular tez orada pulga aylanishi mumkin.

O'zbekistonda pul massasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat.

M_0 – naqd pullar;

M_1 – M_0 + schyotlardagi pul qoldig'i + mahalliy byudjet mablag'lari + byudjet, jamaa va boshqa tashkilot mablag'lari;

M_2 – M_1 + tijorat banklaridagi muddatli jamg'armalar;

M_3 – M_2 + sertifikatlar + maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatları.

Pul aggregatlari M_1 va M_2 ning bir-biridan farqi M_2 ning o'z tarkibiga yaqin orada pulga aylanishi mumkin bo'lgan "kvazi" - qariyb pullarni olishdadir.

4.2. Pul aggregatlari va pulni tartibga solishning amaliyotda qo'llanilishi

Pul massasining turli xil ko'rsatkichlarini ishlatish pul muomalasi holatini tahlil qilishga turli tomonlardan yondashishga imkon beradi.

Mamlakat miqyosida pul massasi hajmining o'zgarishi muomaladagi pul massasining o'zgarishi natijasi va pulning aylanish tezlashganligining natijasi bo'lishi mumkin.

Pulning aylanish tezligi – pul muomala va to'lov vositasi sifatida amal qilgandagi uning harakat ko'rsatkichidir. Uning miqdori ni

hisoblash qiyin, shuning uchun uni hisob-kitob qilishda bilvosita ma'lumotlardan foydalaniladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda asosan pul aylanish tezligi o'sishining ikki ko'rsatkichi hisoblanadi:

—daromadlar aylanmasi pulning muomalada bo'lish tezligi ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich yalpi milliy mahsulot (yamm) yoki milliy daromadning pul massasiga, aniqrog'i M-1 yoki M-2 pul agregatiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich pul muomalasi va iqtisodiy rivojlanish jarayoni orasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi;

— to'lov aylanmasida pulning aylanuvchanlik ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich joriy bank hisob raqamlari bo'yicha o'tkazilgan mablag'lar yig'indisining pul massasi o'rtacha qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Pulning aylanish tezligi o'zgarishi umumiqtisodiy (iqtisodiyotning davriy rivojlanishi, iqtisodiy o'sish, narxlar sur'atlari), ham to'la monetar (to'lov aylanmasi tarkibi, kredit operatsiyalari va o'zaro hisob-kitoblarning rivojlanishi, pul bozorida foiz stavkalarning darajasi va h.k. lar) omillariga bog'liq.

Pul aylanishining tezlashuviga metall pullarning kredit pullar bilan almashishi, o'zaro hisob-kitoblar tizimining rivojlanishi, banklar ishiga EHMning kiritilishi, pullik hisob-kitoblarda elektron vositalarning ishlatilishi yordam beradi.

Pul qadrsizlangan hollarda iste'molchilar pullarining to'lov qobiliyatini saqlab qolish uchun ko'proq tovarlar ko'proq xarid qiladilar. Bu esa pul aylanishini tezlashtiradi. Boshqa ko'rsatkichlar o'zgarmas bo'lganida pul aylanishining tezlashishi pul massasi oshishini bildiradi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Pul aggregatlari, orderli chek, ismi yozilgan chek, akseptlangan chek, hisob cheki, ko'rsatilganda to'lanishi lozim bo'lgan chek, elektron vositalar, hisob-kitoblar tizimining, to'lov aylanmasi, pulning aylanish tezligi.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

- 1.Pul agregatlari haqida tushuncha.
- 2.Pul agregatlari va pulni tartibga solishning amaliyotda qo'llanilishi?
- 3.Pulning aylanish tezligi?
4. Pul massasining aktiv qismi?
5. O'zbekistonda pul massasi qanday tarkibiy qismlardan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent, O'zbekiston, 2009. –54 b.
2. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - Т.: TDIU, 2013. – 428 bet.
3. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.
4. Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.
5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебное пособие. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 416 стр.
6. Климович В.П. Финансы, денежное обращение, кредит. Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 256 стр.
7. Abdullaeva Sh.A. Pul,kredit va banklar . O'quv qo'llanma-T: Moliya., 2003 .
8. Abdullaeva Sh.A. Bank ishi. O'quv qo'llanma.-T:. Moliya., 2004 .
9. Jumaev N., Burxanov U. Moliyaning dolzarb muammolari- T: Uzbekiston 2003 .

5-BOB. PUL NAZARIYALARI. ZAMONAVIY MONETARIZM

5.1. Pul nazariyalarini to‘g‘risida umumiylashish

Pul nazariyalarini - pul tabiatini va pulning ishlab chiqarishni shakllantirishga ta’siri haqidagi nazariyalardir. Bu nazariyalar kapitalistik ishlab chiqarish usuligacha bo‘lgan davrda vujudga keldi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli davrida, pul-tovar munosabatlari xo‘jalik sohasining hamma tarmoqlarini qamrab olgan davrdagina pul nazariyasi keng tarqaldi.

Pul va uning sotib olish quvvati orasidagi munosabat pul nazariyalarining markaziyligi masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Iqtisodchilarning pulning mohiyati, uning funksiyalari va pul muomalasiga bo‘lgan qarashlari pul nazariyalarini keltirib chiqardi.

Ilk tarixiy pul nazariyalarini sifatida nominallik va metallik nazariyalarini keltirish mumkin. Kapitalizm taraqqiyoti bilan birga bu nazariyalar ham o‘zgarib yangi, miqdoriy nazariyaning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi.

Hozirgi kunda monetarizm va iqtisodiyotni pul-kredit munosabatlari orqali tartiblashtirish nazariyalarini ham mavjud. Ammo eng asosiy pul nazariyalarini sifatida metall, nominal va miqdoriy pul nazariyalarini tadqiqot qilib kelinmoqda.

Pul nazariyalarining kelib chiqishiga asosiy sabab ishlab chiqarishning taraqqiy etishi va pul muomalasining taraqqiyotdan ma’lum darajada oqsashini oldini olish va uni rivojlantirish masalasi hisoblanadi.

Qo‘l mehnatidan manifakturaga, manifakturadan sanoat ishlab chiqarishiga o‘tilishi bilan xalq xo‘jaligida mehnatning integratsiyalashuvi ham kuchaydi. Buning natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi pullik munosabatlari ham murakkablasha boshladi. Feodalizmgacha bo‘lgan naqd pullik munosabatlari bu davr talablariga javob bera olmay qoldi. Buni biz Yevropadagi XV asrdagi “pul tanqisligidan” dan ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shu davrdan boshlab pul nazariyalarini to‘g‘risidagi ilk fikrlar yuzaga keldi. Bu nazariyalarining o‘scha davrdagi muammolarni echiishda o‘rni beqiyos bo‘ldi. Ilk bor vujudga kelgan pul nazariyalarini

bu metallik va nominallik pul nazariyalarini hisoblanadi. Quyida biz pul nazariyalarining ba'zi birlariga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.

5.2. Pulning metallik nazariyasi

Pulning metallik nazariyasi kapital harakatining dastlabki davrida taraqqiy etdi. Moneta tarkibini buzish (monetaning og'irlik miqdorini kamaytirish)ga qarshi kurashda progressiv rol o'ynadi. Bu nazariyalar o'sha davr ruhi va tuzilayotgan burjuaziya ehtiyojlarini aks ettirib, merkantilistlar baquvvat metall pullar tarafdori bo'lib chiqdilar. Bu nazariya o'sha davr kapitalizmining eng rivojlangan davlati Angliyada maydonga keldi.

Shunday qilib, ilk metallik nazariya tarafdorlari jamiyat boyligini qimmatbaho metallar bilan almashtirib, ular pulning hamma funksiyalarini bajaradi, deb hisoblar edilar. Ilk metall nazariya tarafdorlarining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat edi:

- ilk metallchilar haqiqiy pullarni qiymat belgilari bilan almashtirish zarurligi maqsadga muvofiq kelishini tushunib etmadilar;
- ilk metallchilar pulning jamiyat taraqqiyotida tovar muomalasi asosida yuzaga kelgan tarixiy kategoriya ekanligini tushunmadilar;
- ular jamiyat boyligi deb qimmatbaho metallarni jamg'arishni tushundilar va "bunday boylik manbai savdodir" degan noo'rin fikrga keldilar.

Ular jamiyat boyligi mehnat natijasida vujudga keladigan moddiy va ruhiy qadriyatlar yig'indisi ekanligini tushuna olmadilar. Ilk metallik nazariya targ'ibotchilari savdo burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilib chiqqan edilar.

1. Oltin tanga standarti

Oltin standarti birinchi marta XVIII asrda Angliyada va XIX asrning oxirlarida boshqa mamlakatlarda joriy etildi. Bu standart oltin monometalizmi deb ham ataldi. Oltin tanga standarti oltin standartining ilk ko'rinishidir. Bu standart I Jahon urushi boshlanishiga qadar hukm surdi.

Oltin tanga standartiga xos bo'lган belgilari quyidagilardan iborat bo'lган: tovarlarning baholari faqatgina oltinda o'lchanishi; oltin tanganing muomalada bo'lishi; davlat xazinasi tomonidan cheklanmagan miqdorda moneta zarb qilinishi; kredit pullarni ularning nominali bo'yicha oltunga erkin almashtirilishi; oltinni olib

kirish yoki olib chiqishning taqiqlanmaganligi; ichki bozorda oltin moneta va banknotalar bilan birga haqiqiy qiymatga (ya'ni, to'la haqiqiy qiymatga) ega bo'limgan chaqalar va ma'lum kursga ega bo'lgan davlat qog'oz pullarining muomalada bo'lishi.

Bu tizim mustahkam pul tizimi bo'lib, infliyatsiyani inkor etar edi. Muomala uchun zarur bo'limgan oltin miqdori yana xazina ko'rinishiga qaytar edi. Ammo kapitalizmning krisizi davrida bu muvozanat izdan chiqdi. II Jahon urushi davrida AQSHdan boshqa urushayotgan davlatlar banknotalarni oltunga almashtirishni va oltinni chetga olib chiqishni bekor qilishdi. Oltin muomaladan surib chiqarilib xazinaga aylantirildi. AQSHda esa oltin monetalar 1934 yilga qadar muomalada bo'ldi.

2. Oltin quyma standarti

11 Jahon urushidan keyin, 20-yillarda ba'zi mamlakatlarda oltin quyma standarti joriy qilindi. Bu standartning oltin tanga standartdan asosiy farqi shunda ediki, muomaladagi banknotalar 12-12,5 kg. atrofidagi oltin quymalarga almashtirilardi. 12,5 kg. lik quymaga banknotani almashtirish uchun Angliyada 1700 ft. st., Fransiyada 215 ming fr. talab qilinar edi. Bu bilan oltin muomaladan xalqaro aylanmaga chiqarildi. Ichki aylanmada esa bunday imkoniyatga faqatgina yirik firmalar va puldorlar ega bo'lib qoldilar, xolos.

3. Oltin deviz standarti

Oltin quyma standartga kirmagan mamlakatlarda banknotalarni bevosita oltunga almashtirish tiklanmadni. Bu mamlakatlar o'z kredit pullarini oltin quyma standartga kiruvchi mamlakatlarning devizlariga (ya'ni valyutalariga) almashtirishni mo'ljallangan edilar. Bu bir mamlakat valyutasining ikkinchi davlat valyutasiga bog'liqligini keltirib chiqarar edi. Pul tizimining bu ko'rinishi oltin deviz standarti nomini oldi.

5.3.Pulning miqdoriy nazariyasi

Miqdoriy nazariya XVI-XVIII asrlarda merkantilistlarning konsepsiyasiga javoban paydo bo'ldi. Bu nazariyaning asoschisi fransuz iqtisodchisi J.Boden (1530-1596) edi. U birinchi bo'lib Yevropada o'sha davrda yuz bergan "baholar revolyusiyasi"ni ochib berishga harakat qildi. Baholarning sakrashiga sabab, Yevropaga Amerika qit'asidan oqib kelgan qimmatbaho metallar bo'lganligini

tushuntirdi. XVI-XVIII asrlarda Yevropada oltin miqdori 1500 yilda bo‘lgan oltin miqdoridan 16 marta ko‘payib ketgan edi. J.Boden baholarning o‘zgarishi muomaladagi pul miqdori bilan aniqlandi deb tushuntirdi. Shu sababli ham, bu nazariya miqdoriy nazariya degan nom oldi. Ammo ilk miqdoriy nazariya tarafdorlari pul miqdorining bahoga bo‘ladigan ta’sirini buni qanday yo‘llar bilan va qaysi hollarda bo‘lishini aniq oshib bera olmadilar.

Pul massasi Baholar darajasining o‘sish sur’atlari = o‘sish sur’atlarini ifodalaydi.

Demak, tovarlar bahosi hamisha pul miqdoriga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi. Haqiqatda esa, yangi oltin va kumush konlarining ochilishi bilan bu metallar kamroq ijtimoiy mehnatni o‘zlarida aks ettira boshladilar.

Shunday qilib, miqdoriy nazariya vakillarining fikrlari shunda ediki, pulning sotib olish qobiliyati xuddi baho kabi (yangi tovar bahosi kabi) bozorda aniqlanadi; muomalada barcha chiqarilgan pullar bo‘ladi; pulning sotib olish qobiliyati pul miqdoriga teskari proporsional va baholar o‘zgarishi pul miqdoriga to‘g‘ri proporsional tarzda gavdalananadi.

Miqdoriy nazariya tarafdorlari pulning faqat muomala vositasi ekanligini ko‘ra oldi, xolos. Ularning ta’kidlashicha, pul va tovar massalarining to‘qnashishi natijasida baholar belgilanadi hamda pulning qiymati aniqlanadi. K. Marks Yumni tanqid qilib: “Uning asosiy xatosi shundaki, u “pul muomalaga kirayotganda qiymatga ega emas, tovar esa bahoga ega emas”–degan noto‘g‘ri taxminda edi”, deb yozgan edi.

Ularning ikkinchi xatosi shunda ediki, ular hamma pul massasi faqat muomalada bo‘ladi, deb qarashgan. Aslida, qiymat qonuniga muvofiq muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini aniqlovchi iqtisodiy qonun mavjud. Muomalada bo‘lgan haqiqiy naqd pulga, har qanday pul miqdori emas, balki shu davr uchun zarur bo‘lgan, to‘lov muddati uzaytirilgan, hisob-kitoblar va pul birikmalarining aylanishida band bo‘lgan pullar kiradi.

Miqdoriy nazariya xazinaning metall pul muomalasida stixiyali reguliyator ekanligini rad etadi.

5.4.Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi

Zamonaviy miqdoriy nazariya qog'oz pullar muomalasiga asoslanadi. Bu nazariya A. Marshall, amerikalik I. Fisher, shvedlar G. Nassel va B. Xansen, iqtisodchi A. Pigu, monetarist M. Fridmen tadqiqotlarida o'z aksini topdi.

Amerikalik iqtisodchi, statistik va matematik I.Fisher (1867-1942yy) pulning miqdoriy nazariyasiga yangi sifat kiritdi. U pulning mehnat qiymatini rad etdi va pulning "sotib olish quvvati"ga asoslandi.

Miqdoriy nazariyani matematik yo'l bilan isbotlamoqchi bo'lgan I. Fisher pulning "sotib olish quvvatiga" ta'sir etuvchi olti omilni ko'rsatdi:

M—muomaladagi naqd pul massasi;

V—pulning aylanish tezligi;

R—o'rta (tortilgan) baho;

Q—tovarlar miqdori;

M^l —bank depozitlari yig'indisi;

V^l —depozit-chek muomalasi tezligi.

Tovarlar uchun to'langan pul yig'indisi, tovarlar yig'indisining tovarlar bahosiga ko'paytmasiga teng:

$$MV = RQ$$

Bu tenglamani Fisher "almashinuv tenglamasi" deb atadi. Yuqorida formula asosida muomaladagi pul massasini topish mumkin.

$$M = \frac{RQ}{V}$$

Endi, Fisher nazariyasining ba'zi kamchiliklarini ko'rib chiqsak. Birinchidan, u tovarlar baholari yig'indisi o'rniga, barcha tovarlar miqdorining o'rtacha tortilgan baholarini oladi. (RQ). Uning fikricha, tovarlar bozorga bahoga ega bo'limgan holda kirib keladi. Qiymat nazariyasiga ko'ra esa, tovar bozorga baho bilan kiradi. Demak, bahoni tovardan ajratish mumkin emas. Ikkinchidan, Fisher uzoq vaqt oralig'idagi V va Q o'zgaruvchilarni o'zgarmas (bir maromli) deb

oldi. Buning natijasida esa ikkita erksiz o‘zgaruvchi – pul miqdori va baho qoladi.

Uchinchidan, bu ikki o‘zgaruvchilarning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib, Fisher baholar ko‘lami natija bo‘lib, u boshqa omillar o‘zgarishiga sabab bo‘la olmaydi, degan bir tomonlama xulosa chiqaradi. Pulning miqdoriy nazariyalaridan biri Kembrij yoki kassa qoldiqlari nazariyasidir. Bu nazariyani A. Marshall, A. Pigu keyinchalik J. Keyns targ‘ib qilgan. Bu g‘oya bo‘yicha pul harakatining boshi bo‘lib jismoniy va huquqiy shaxslarning xo‘jalik aylanmada bo‘lgan pullar (kassa qoldiq pullari) hisoblanadi. Kassa qoldiqlaridan A. Pigu fikri bo‘yicha iste’mol fondlaridan tashqari sug‘urta fondi, investitsiya bo‘yicha jamg‘arma fondi tashkil qilinishi kerak. Pigu tenglamasi “almashuv tenglamasi” dan farq qiladi. Ya’ni unda yangi ko‘rsatkich “jamg‘arma koeffitsienti” qo‘llanilgan bo‘lib quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi.

M= K x R x P bir qismi (pul shaklida)

Bu erda, K – koeffitsient yoki RP ning bir qismi (pul shaklida), kassa qoldig‘i.

R – ma’lum davr ichida ishlab chiqarilgan real mahsulot hajmi. Masalan, RP – 800 mlrd. dollar bo‘lsa, K uning 1/8 qismini tashkil qiladi. U vaqtida M q 800 mlrd.: 8 + 100 mlrd. dollar. Demak, yaratilgan yalpi mahsulotni ko‘rsatilgan bahoda joylashtirish uchun RP dan 8 marta kam bo‘lgan pul massasi zarur.

Hozirgi zamon monetarizmi. Monetarizm pul nazariyasi 50 yil-lar o‘rtasida paydo bo‘lgan. Bu oqimning ko‘zga ko‘ringan namoyondasi M. Fridman hisoblanadi, u Chikago universitetining professori, iqtisod sohasi bo‘yicha Nobel mukofoti sohibi. Bu oqimga M. Fridmandan tashqari, K. Brunner, A. Molser, D. Leydler, F. Keygen va boshqa iqtisodchilar kiradi.

Pul nazariyasida katta muvaffaqiyat qozongan g‘oya – Fridmanning pulning miqdoriy nazariyasi bo‘lib, u muomaladagi pul miqdori o‘zgarishi bilan tovar baholari o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni, monetar siyosat nazariyasi, ya’ni jamiyatda bo‘lgan iqtisodiy tebranishlar pul massasining o‘zgarishi tufayli bo‘lishi, pulning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri kabilarni yoqlab chiqadi.

Hozirgi zamon monetarizmiga bir guruh iqtisodchilar qalamiga mansub "Pulning miqdoriy nazariyasiga oid tadqiqotlar" (1956 yil) deb nomlangan asar bilan asos solindi. Uning bosh g'oyasi iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bu mexanizming asosiy vositasini pul hisoblanadi degan xulosadan iborat. Monetarizm pulni olqishlovchi nazariyadir. Monetaristlar iqtisodiy o'sishning eng muhim sharti infliyatsiyani daf etish va pulni sog'lomlashtirish, pulni xo'jalik muomalasi vositasiga aylantirish, deb qaraydilar. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiyotga aralashishi pul muoma-lasini tartibga solish bilan cheklanishi kerak.

Monetaristlar ilgaridan ma'lum bo'lgan pulning miqdoriy nazariyasiga borib tutashadigan "barqaror pul" nazariyasini olg'a suradilar. Ular pul va iqtisodiy faollik o'rtaida uzviy bog'lanish borligini qayd qilib, iqtisodiy krizislarning sababini pul muomalasidagi buzilishlardan axtardilar. Pulning etishmay qolishi iqtisodiy o'sishni susaytira borib, turg'unlik holatini keltirib chiqaradi, bu esa avval yuzaroq tanglikka, so'ngra esa chuqur iqtisodiy tanglikka olib keladi. Binobarin, iqtisodiyssikl pul miqdoriga bog'liq, bu, o'z navbatida, pul emitenti bo'lgan Markaziy bank faoliyatiga bog'liq. Pul-kredit siyosatini o'zgartirib tanglikdan chiqish va iqtisodni rivojlantirish mumkin. Monetaristlar iqtisodiyotda bosh masala ishlab chiqarish va pul massasining tengligi bo'lib, shu orqali makroiqtisodiy muvozanat hosil etish mumkin deb hisoblaydilar.

M. Fridmen kassa qoldig'i talabi milliy daromad, depozit baho qog'ozlar, tovarlar bahosining o'sishi va boshqa omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi va uni quyidagi formula bo'yicha ifodalaydi.

$$Ms = f(Y \times X)$$

Bu yerda:

Mc – rejalahtirilayotgan kassa qoldig'i,
 f – Y, X larning o'zgaruvchan funksiyasi,
 Y – milliy daromad,
 X – yuqorida keltirilgan jami omillar
 h, p, y, u – boshqa ta'sir etuvchi omillar.

Faqat monetarizm emas, balki boshqa nazariyalar ham pul massasi bilan ishlab chiqarish o'rtaida bog'lanish mavjudligini tan oladi. Farqi shundaki, monetarizm bu bog'lanishni bosh masala deb qaraydi. Uning namoyandalari pul massasiga ta'sir etuvchi

choratadbirlar davlat investitsiyasidan farqliroq darhol iqtisodiy vaziyatiga ta'sir etadi, deb qaraydilar.

Monetaristlar iqtisodiyotga amaliy jihatdan yondashib, pul massasini yiliga o'rtacha 3% oshirishni tavsiya etishadi.

Ammo monetaristlar keyingi paytlarda iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarishlarni inobatga olib, pul massasini doimiy ravishda va bir me'yorda olib borishni ma'qul deb bildilar. Bu me'yor shundayki, pul miqdorining o'sishi mehnat unumdarligining o'sishi sur'atiga nisbatan 1-2% yuqori bo'lishi kerak. Buning bir me'yorda o'sib borishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va davriy tebranishlarni cheklashga imkon beradi. Monetaristlar tavsiyalariga binoan bir qator mamlakatlarda qonun yo'li bilan pul massasi aniq belgilanadi yoki yuqori, quyi chegarasi ko'rsatiladi. Monetarizm uchun bosh masala antiinflyasion siyosatni asoslashdir. Monetarizm tavsiyasiga asoslangan ba'zi mamlakatlarda pul miqdori ustidan qattiq nazorat o'rnatish, inflyatsiyaning oldini olish iqtisodiy o'sishga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Oltin tanga standarti, oltin quyma standarti, pul massasi, bank depozitlari, depozit, chek muomalasi, monetarizm, inflyatsiya, massa, pul-kredit siyosati, barqaror pul.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Pulning metallik nazariyasi.
2. Pulning miqdoriy nazariyasi.
3. Pul nazariyäsining yangicha talqin qilinishi
4. $Ms = f(Y \times X)$ bu formulani ifodalab bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo'riqnomasi. –T.: «O'zbekiston», 2004.
2. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.
3. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.

4. Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.
5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебное пособие. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 416 стр.
6. Климович В.П. Финансы, денежное обращение, кредит. Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 256 стр.
7. Abdullaeva Sh.A. Pul,kredit va banklar . O‘quv qo‘llanma-T: Moliya., 2003 .
8. Abdullaeva Sh.A. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma.-T:. Moliya., 2004 .
9. Jumaev N., Burxanov U. Molianing dolzarb muammolari-T: Uzbekiston 2003 .

6-BOB. PUL AYLANMASI VA UNING TUZILISHI

6.1. Pul aylanmasiga tavsifnoma va uning tuzilishi


Naqd pulsiz va naqd pul o'tkazish yo'li bilan amalgamoshiriladigan to'lovlarning yig'indisi pul aylanmasini tashkil qiladi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarida yaratilgan tovarlarning barisi pul yordamida ayirbosh qilinadi. Pul aylanmasiga tovar aylanishining pul shaklidagi ko'rinishi, deb qarab bo'lmaydi. Chunki pul aylanmasi tovar aylanmasidan kengroq bo'lib, u tovarning sotilishi va sotib olinishidan tashqari, har xil sohalarda mehnatga haq to'lash jarayonini ham o'z ichiga oladi. Pul aylanmasining sodda sxemasini quyidagicha ifoda qilish mumkin, ya'ni pul harakati faqat aholi va korxona, tashkilotlar o'rtasida bo'ladi, deb qaraymiz. Bu sxemada pul aylanmasining asosiy ikki omili: bir tomonidan tovar va resurslar harakati bilan;

- ikkinchi tomonidan pul harakati ko'rsatilgan. Bu sxemada, davlat tashkilotlari, moliyaviy bozor, pul bozorlari, eksport va import hamda boshqa iqtisodiy munosabatlar yo'q deb qaralgan. Aholi va korxonalar hech qanday vositachilarsiz, to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy munosabatda bo'ladilar. Bu sodda chizmada ko'rsatilgan.

1-chizma

Tovarlar va mahsulotlar



Resurslar uchun to'lovlari .

Tovarlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar

1-chizma. Iqtisodiy tizimda tovar va pul aylanishining sodda ko‘rinishi

Bu chizma bo‘yicha ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar va tovarlar harakati soat millari harakati bo‘yicha ko‘rsatilgan. Bu ko‘rinishda resurslarning barchasi faqatgina aholining o‘ziga tegishli deb qaralgan va bu resurslar korxonalarining tovar va boshqa mahsulotlariga ayrbosh qilinadi. Bu jarayonning amalga oshishida pul kabi vositachi ishtirok qilmaydi. Ayrboshlash jarayoni pulsiz barter tariqasida namoyon bo‘ladi. Ayrboshlashning oddiy shakli, biz oldingi boblarda ta’kidlaganimizdek, mazmun jihatdan sodda bo‘lsada, amalga oshirish jarayonida ma’lum qiyinchiliklar mavjud.

Shuning uchun tomonlar o‘rtasidagi oldisotdi jarayonini tezroq va samaraliroq amalga oshiruvchi vositachi zarur. Bu jarayonning kechishi 2-chizmada soat millari yo‘nalishiga teskari ko‘rsatilgan. Ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslari shu resurslar uchun to‘lovlar - ish haqi, renta to‘lovleri, foiz daromadlari bilan bog‘langan holda tovar va pul massasini tenglashtiruvchi mustaqil aylanmani yuzaga keltiradi. Ikkinchi aylanma shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar-larni aholiga sotish va aholi tomonidan shu tovarlar uchun qiymat to‘lash natijasida yuzaga kelgan aylanmadir. Bu aylanmaning bir-biri bilan bog‘lanib ketishi iqtisodiy tizimda daromadlar va mahsulotlarning aylanishini yuzaga keltiradi. Umumlashtirilgan holda jamiyatimizda yuzaga keluvchi pul harakatini quyidagi chizmada ko‘rsatish mumkin.

2- chizma bo‘yicha pul aylanmasining quyidagi guruhlarini ifodalab berish mumkin.

– ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlar (ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ish haqi to‘lash va boshqalar);

– xarajatlarni qoplash uchun kelib tushadigan tushumlar va jamg‘armalarni tashkil qilish;

– turli xil moliyaviy majburiyat va daromadlardan to‘lovlarini amalga oshirish va boshqa to‘lovlar. Korxonalar oladigan daromadlardan byudjetga to‘lovlar, ya’ni soliqlar va boshqa to‘lovlarning amalga oshirilishi ham pul aylanmasining bir qismini tashkil qiladi.

Tovar bozori va resurslar bozorining yuzaga kelishi, mahsulot va milliy daromadning yuza kelishiga olib keladi. Milliy daromadning bir qismi aholi tomonidan jamg'arilib moliyaviy bozorlar orqali investitsiya shaklida korxona, tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadi, bir qismi esa davlat zayomlari orqali byudjet defitsitini qoplashga yo'naltiriladi. Natijada pul oqimi o'zining asosiy kanallari orqali korxona, tashkilot, aholi, tovarlar bozori va resurslar bozoridan o'tib moliya bozori va davlatgacha etib keladi, ya'ni, aholiga kelib tushadigan daromadning bir qismi soliqlar sifatida davlat ixtiyoriga kelib tushadi. Shuning uchun ham, pul aylanmasining salmoqli qismini milliy daromadni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tashkil qiladi. Milliy daromadni yaratishda pul aylanmasi jamiyat a'zolari bilan korxonalar o'rtaсидаги то'ловда namoyon bo'ladi.

6.2.Turli iqtisodiy modellarda pul aylanmasining o'ziga xos xususiyatlari

Pul aylanmasi moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Kapital mablag'lardan foydalanish va ba'zi sohalarda xarajatlarni moliyalashtirish, banklar tomonidan kreditlash jarayonlarining amalga oshirilishi ham pul aylanmasining yuzaga kelishi uchun zarur sharoitdir. Kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslari pulning uzluksiz aylanishi natijasida vujudga keladi. Korxona, tashkilotlar tomonidan moddiy boyliklar, materiallar, yoqilg'i va boshqalarni sotib olish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari oldindan avanslashtiriladi.Qiymat pul shaklidan tovar shakliga o'tadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sotiladi va mol etkazib beruvchining hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushadi. Shu tariqa, korxonalarining puli uzluksiz aylanib turadi. Tovarlar uchun to'lovlar naqd pulsiz amalga oshirilgani uchun korxona hisobvarag'iga kelib tushgan pul, uni ishlatishga zarurat paydo bo'luncha banklarda saqlanadi.

Korxona, tashkilotlarning vaqtincha bo'sh turgan pullari ularning roziligiga asosan bank tomonidan kredit resurs sifatida ishlatilishi mumkin. Korxona tashkilotlarining bo'sh pul mablag'laridan tashqari, banklar jamoat tashkilotlarining, byudjet, sug'urta tashkilotlarining,


aholining banklardagi pul mablag'laridan o‘z resurslari sifatida foydalanib, xalq xo‘jaligi tarmoqlariga kreditlar berishi mumkin. Shunday qilib, banklar tomonidan pul mablag‘larining yig‘ilish jarayoni pul aylanmasida namoyon bo‘ladi.

Korxona va tashkilotlarni kreditlashda pul mablag‘lari vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit berish va kredit hisobidan tovar moddiy boyliklarni sotib olish va uni boshqa ishlab chiqarish xarajatlari uchun sarflash va keyinchalik kreditni to‘lash ssuda hisob raqamiga mablag‘ o‘tkazish jarayoni pul aylanmasining elementlaridan biri hisoblanadi.

Pul aylanmasi investitsiya bilan bog‘liq xarajatlarni, sug‘urta jarayonlarini amalga oshirilishini, mulkni, hayotni, transport vositalarini, ekin bog‘larni, boshqa buyumlarni sug‘urta qilish va uni to‘lashni o‘z ichiga oladi. Pul aylanmasi aholi tomonidan uy-joy, kommunal xizmatlar, gaz, elektr energiyasi, aloqa xizmatlar uchun to‘lovlar, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalariga to‘lovlar, transport uchun to‘lovlarni, a’zolik badallarini va paylarni to‘lashni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, pulning ayrim kanallarida harakatini ko‘rib chiqqa turib, pul aylanmasining mohiyatini quyidagicha ta‘riflash mumkin. Pul aylanmasi – bu naqd pullik va pul o‘tkazish yo‘li bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning yig‘indisidir. Pul aylanmasini ikki asosiy belgiga qarab - birinchidan, jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish; ikkinchidan, pulning funksiyalariga qarab tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin. Jami ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq holda pul aylanmasi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, kapital qurilish bilan bog‘liq aylanmaga hamda tovar va ularning harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan aylanmaga bo‘linadi.

2-chizma. Rivojlangan iqtisodiy tizimda pul va tovar aylanmasi

Pul aylanmasining birinchi turiga 2-chizmada keltirilganidek, ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur jami resurslar – mehnat qurollari, mehnat vositalari, ish kuchi sotib olish va aksincha aholi tomonidan davlat, kooperativ-savdo tashkilotlardan, kolxoz bozorlaridan, fuqarolardan iste’mol uchun zarur tovarlarni sotib olish hamda aholi tomonidan yuqoridaqgi subyektlarga tovarlar sotish, kapital qurilish va ta‘minlash sohasidagi hisob-kitoblar va boshqalar kiradi.



Pul aylanmasining ikkinchi turiga ishchi, xizmatchilarga ish haqi to'lash, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq to'lovlardan kreditlash jarayoni bilan bog'liq to'lovlardan va boshqa tovar harakati bilan bog'liq bo'limgan to'lovlardan kiradi.

Pul aylanmaisning asosiy qismini naqd pulsiz aylanma, ya'ni korxona, tashkilotlar o'rtasidagi, ularning davlat byudjeti, kredit tashkilotlari bilan naqd pulsiz bir hisob raqamidan ikkinchi hisob raqamiga mablag' o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan aylanmasi tashkil qildi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd pulsiz aylanma salmog'inining yuqori bo'lishining sababi, avvalambor, korxona, tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, ishlab chiqarishni yuksaltirish zarurati, ba'zi bir tarmoqlarning ixtisoslashuvi, kredit tizimining takomillashuvi va boshqalar bilan bog'liq.

Tovarlarni sotish jarayonidagi hisoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog'liq bo'lib, ular, asosan, korxona va tashkilotlar o'rtasida olib borildi.

Notovar xarakterdagি hisob-kitoblarga milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan to'lovlardan, daromaddan to'lovlardan, har xil soliqlar, kreditlarni to'lash, uy-joy, har xil xizmatlar uchun to'lov va boshqalar kiradi.

Tovarlar harakati bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarning naqd pulsiz o'tkazilishi, moddiy boyliklarni etkazish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov muddatini yaqinlashtirishga yordam beradi. Tovar moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilmasligi, korxonalar mablag'larining xo'jalik aylanmasidan chiqib ketishiga, ko'zlangan rejalar uchun mablag'larning etishmasligiga olib keladi. To'lovnинг tovarlarni olishdan oldin amalga oshirilishi mol sotib oluvchi korxona mablag'larining xo'jalik aylanmasidan chiqib ketishiga olib keladi. Shuning uchun tovarlar harakati va to'lovlardan bir-biriga mos kelishi katta ahamiyatga ega.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Resurslar bozori, tovarlar xarakati, daromad, pul aylanmasi, mablag', pul oqimi, foiz daromadlari, pul aylanishi, to'lovlardan, hisob-kitoblarga milliy mahsulot, xarajatlar.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Rivojlangan iqtisodiy tizimda pul va tovar aylanmasi.
2. Pul aylanmasi.
3. Turli iqtisodiy modellarda pul aylanmasining o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Pulning muomala vositasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 15 fevraldagi PQ-2777-sonli qarori) 25.04.2017 y. PF-5027.18-son, 310-inodda.
- 2.“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun-.T.: 1996.
- 3.“O‘zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun-T.:1996.
- 4.Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - Т.: TDIU, 2013. – 428 bet.
5. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.
- 6.Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.

7-BOB. TURLI IQTISODIY MODELLARDA PUL AYLANMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

7.1. Pul aylanishi va uning xususiyatlari.

Naqd pullik aylanma bu – naqd pul yordamida amalga oshiriladigan to‘lovlar yig‘indisidir. Bu aylanma pul o‘zining to‘lov va muomala vositasi funksiyalarini bajarishida yuzaga keladi.

Naqd pullar muomala vositasi sifatida aholi bilan o‘zaro yoki korxona, tashkilotlar o‘rtasida, tovarlar sotib olishda va sotishda qo‘llaniladi.

Pul to‘lov vositasi sifatida ish haqi, nafaqalar, mukofotlar, yakka tartibdagi qurilish uchun beriladigan kreditlar, sug‘urta to‘lovlarni to‘lashda namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, naqd pullik aylanmaga:

- kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar;
- maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar;
- sug‘urta tashkilotlariga paylarni to‘lash;
- soliqning ba’zi turularini to‘lash;
- bank kreditini to‘lash;
- aksionerlik jamiyatlari bilan a’zolari o‘rtasidagi to‘lovlar va boshqa to‘lovlar kiradi.

Ba’zi iqtisodchilar pul aylanmasini naqd pulli va naqd pulsiz aylanmalarga bo‘lib o‘rganishga zarurat yo‘q deb hisoblaydilar.

Biz chet el iqtisodchilarining tadqiqotlarini olib qaraydigan bo‘lsak, albatta, yuqoridaqidek pul aylanmasini ikkiga bo‘lib o‘rganish yo‘q. Buning asosiy sababi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda hisob-kitoblar, asosan, naqd pulsiz olib boriladi. Hisob-kitoblarni bu turlarda olib borish qulay va sharoitga mos keladi. Lekin hali rivojlangan iqtisodiyotga ega bo‘imasdan turib, biz xorijiy davlatlarning hozirgi hisob-kitoblari mavqeい bilan o‘z hisob-kitob tizimimizni tenglashtira olmaymiz. Bundan tashqari, bozor iqtisodiga bosqichmabosqich o‘tish, milliy pul birligini barqarorlashtirish, muomaladagi pul massasini va pul emissiyasini kamaytirish masalalari dolzarb turgan bir sharoitda biz pul aylanmasini naqd pulli va naqd pulsiz aylanmalarga bo‘lib o‘rganishimiz, ularning tarkibini takomillashtirishimiz, samarali yo‘llarni qo‘llab jamiyatimizda to‘laqonli pul aylanmasini yaratishimiz va uni jamiyat rivojlanishi

uchun xizmat qildirishimiz zarur. Mana shu sharoitdagina rivojlangan xorijiy mamlakatlarga o'xshab pul aylanmasini tarkibiy qismlarga bo'limasdan tahlil qilishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, pul aylanmasining ikki qismi bir biri bilan uzviy bog'liq, chunki pul naqd pul aylanmasidan naqd pulsiz aylanmaga o'tadi va aksincha aylanib doimiy harakatda bo'lib, umumiy pul aylanmasini yuzaga keltiradi.

Korxona, tashkilotlarning bankdagi hisob raqamidagi pul mablag'lari quyidagi yo'llar bilan naqd pulga aylanadi:

- ishchi, xizmatchilarga ish haqi berish;
- ko'rsatilgan xizmatlar, mehnat uchun to'lovlar;
- nafaqalar to'lash;
- har xil mukofotlar;
- aholidan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar sotib olishda;
- davlat zayomlari va lotoreya biletlari bo'yicha to'lovlar;
- aholi banklardan jamg'armalarini olganda;
- aholiga sug'urta to'lovlarini to'laganda va hokazo;

Naqd pullar cheklangan miqdorda muomalaga chiqariladi. Naqd pullarning muomalaga chiqarilishi ustidan bank nazorat olib boradi.

Naqd pullar quyidagi yo'llar bilan naqd pulsiz aylanmaga tushadi.

- uyjoy va kommunal xizmatlar uchun to'laganda;
- aloqa tashkilotlariga to'laganda;
- har xil soliqlar va paylar to'langanda;
- davlat zayomlari va lotoreya biletlari sotib olingandagi tushumlar orqali;
- yakka tartibdagi qurilish uchun olingen kreditlarni to'laganda;
- har xil bojlar va jarimalarni to'laganda;
- bolalar bog'chalari va boshqa muassasalar uchun to'langanda;
- dam olish uylari va boshqa sog'lomlashtirish muassasalarining yo'llanmalari uchun to'langanda va boshqa hollarda.

Pulning naqd pulsiz aylanmaga o'tganidan naqd pullik aylanmaga ko'proq o'tishi pul muomalasi uchun xatarliroq hisoblanadi. Shuning uchun ham, pulning naqd pullik aylanmaga o'tish jarayoni davlatning Markaziy banki tomonidan nazorat qilib borilishi kerak.

Pul aylanmasi bo'limlari o'rtasida yuzaga keladigan nomutanosiblik iqtisodiy choralar ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan yo'qotilishi kerak.

Buning uchun muomalaga xalq ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, aholiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va muassasalar sonini va xizmat turlarini yaxshilash naqd pullarning naqd pulsiz aylanmaga o'tish jarayonini tezlashtiradi. O'z navbatida bu mablag'lar ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga imkon beradi.

Ba'zi adabiyotlarda, naqd pul aylanmasi va pul muomalasi tushunchalari bir xil mohiyatga ega, degan xato fikrlarni ham uchratish mumkin. Pul muomalasining o'ziga xos xususiyati shundaki, bir pul belgisi bir necha marta to'lovlarни amalga oshirishda ishlatilishi mumkin. Muomalada bo'lgan naqd pul massasi ma'lum bir davr (oy, kvartal, yil)da o'zgarmas bo'lib turgan holda, naqd pul aylanmasi pul birligining aylanish tezligiga qarab muomaladagi naqd pul miqdoridan bir necha marta ko'p bo'lishi mumkin yoki aksincha.

O'zbekistonda pul Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladi. Aholi tomonidan ish haqi va boshqa to'lovlar shaklida olingan pullarning bir qismi bozordan tovarlar sotib olishga sarflanadi. Aholi bu pullarga savdo tashkilotlaridan tovarlar sotib oladi. Savdoga tushgan pullar savdo tushumi sifatida banklarga topshiriladi. Ko'rinish turibdiki, bankdan chiqqan pullar bir necha to'lovlariga ishlatiladi, naqd pul aylanmasining hajmi to'lovlarni amalga oshirishi uchun muomalaga chiqarilgan pullar miqdoridan bir necha marta ko'pdir. Naqd pul aylanmasi naqd pullar bilan amalga oshiriladigan to'lovlar yig'indisi bo'lib, u sonlarda ifodalananadi.

Pul muomalasi muomaladagi pul massasini, bank tomonidan muomalaga chiqarilgan pullarning bankga qaytib kelish tezligini ifodalaydi.

7.2. Naqd pulsiz hisob-kitoblar, uni tashkil qilish tamoyillari va rivojlanТИRISH istiqbollari

Pul aylanmasining asosiy qismini naqd pulsiz aylanma, ya'ni korxona, tashkilotlar o'rtasidagi, ularning davlat byudjeti, kredit tashkilotlari bilan naqd pulsiz bir hisob raqamidan ikkinchi hisob

raqamiga mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladigan aylanma tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri pul aylanishini to‘g‘ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Korxona va tashkilotlar o‘zlarining xo‘jalik faoliyati jarayonida doimo birbirlari bilan aloqada bo‘ladilar. Ular o‘rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayirboshlashning o‘zi esa pul aylanishining moddiy asosi hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar, jumladan, pensiya fondi, sug‘urta fondi, soliq idoralari, bank muassasalari bilan bo‘ladigan pulli munosabatlar vujudga keladi.

Pullik munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va to‘lov usullariga ko‘ra pul aylanishi naqd pulli va naqd pulsiz aylanishiga bo‘linadi. Chakana savdo va aholiga pulli xizmat ko‘rsatish asosan naqd pulda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, naqd pullar aylanishiga kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar, maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar, ishchi – xizmatchilarga ish xaqi va shunga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lash, sug‘urta tashkilotlarga badallar to‘lash, uyjoy va boshqa maqsadlar uchun aholi tomonidan olingan kreditni naqd pul ko‘rinishida qaytarish bilan bog‘liq to‘lovlarning to‘lanishi kiradi.

Iqtisodiyotda bo‘ladigan pul aylanishining 70-80 foizini naqdsiz pul aylanishi tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqdsiz pul hisob-kitoblarning keng ishlatalishiga ko‘p tarmoqli bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o‘rganish va uni tartibga solish nuqtainazaridan davlatning qiziqishi, mulkchilik shakllarining ko‘payishi va turli mulkchilik shakllariga tegishli bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning kengayib borishi asos bo‘ladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko‘rsatish va tovarsiz operatsiyalari bo‘yicha birbiriga bo‘lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag‘larini bir hisobvara qidan ikkinchi hisobvara qqa o‘tkazish orqali amalga oshirish tushuniladi.

Iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ma'lum tizim asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi o'z ichiga hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari, shakllari, usullari hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish oldiga qo'yilgan talablarni oladi.

1930-1932 yillarda o'tkazilgan kredit islohoti davrida kiritilgan va Sobiq Ittifoq davrida mavjud bo'lgan naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik usullariga asoslangan edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi birinchi navbatda ishlab chiqarish va sotish rejalarini bajarish nuqtainazaridan mahsulot sotuvchi korxona qiziqishlariga xizmat qilar edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari korxonalarining shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun iqtisodiy qiziqishlari va javobgarligini chegaralangan qat'iy qilib belgilangan edi.

Bu tamoyillar quyidagicha belgilangan:

- bank naqd pulsiz hisob kitoblarni tashkil qiladi va ularning bajarilishi ustidan nazorat qiladi;
- to'lov vaqtি qat'iy belgilangan, ya'ni barcha to'lovlar tovarlar jo'natilgandan keyin yoki xizmat bajarilgandan so'ng o'tkaziladi. Avans to'lovlar tijorat kreditiga ruxsat etilmas edi;
- to'lovchining roziligi to'lov o'tkazilishining asosi sifatida tan olingan;
- qaysi sohada qaysi hollarda naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini ishlatalishi, ularni tashkil qilish tamoyillari to'lovchining to'lovga va kreditga layoqatlilik qobiliyatini hisobga olmas edi.

Hozirgi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblarning birinchi tamoyili mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mablag'larini bankdagi hisobvaraqlarda saqlashlari va barcha operatsiyalarni bank orqali o'tkazishlari lozimligini bildiradi. Bozor munosabatlari sharoitida hisob-kitoblarning bank orqali o'tkazilishi bozor ishtirokchilarining iqtisodiy mustaqilligi bilan qo'shib olib borilishi kerak.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning ikkinchi tamoyili shundan iboratki, mijozlarning hisobvaraqlaridan pul mablag'larini ko'chirish, ularning topshirig'i yoki roziligiga asosan hisobvaraqdagi mablag'lar miqyosida bajariladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining ishlab chiqilishi va joriy etilishi munosabati bilan Markaziy bank tomonidan

mijozlarning hisobraqamlari bo'yicha operatsiyalar o'tkazish tartibi belgilangan. Hisobvaraqlardan mablag'larni o'tkazish hisobvaraqlar egasining topshirig'iga binoan bajariladi. Mijozlarning buyrug'isiz hisobvaraqlardagi pul mablag'lari faqat sud qaroriga binoan, qonunda belgilangan tartibda bank va mijoz o'rtasidagi shartnomaga asosan ko'chirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga asosan mijozlarning hisob varaqlarida barcha talablarni bajarishga pul mablag'lari etarli bo'lgan hollarda pul ko'chirish bo'yicha mijozning topshirig'i va boshqa hujjatlarning kelib tushishi tartibida hujjatlar to'lanishi lozim. Mijoz hisobvaraqdagi barcha talablarni to'lashga mablag'lar etarli bo'lmagan taqdirda hujjatlarning to'lanishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Xo'jalik subyektlarining bankdagi hisobvaraqlaridan pul mablag'larini ko'chirish to'g'risida"gi 615 sonli yo'riqnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Agar mijoz bilan bank o'rtasida kredit shartnomasi tuzilgan bo'lsa, to'lovlar bank krediti hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning uchinchi tamoyili shundan iboratki, mablag'lar to'lovchining hisobvarag'idan o'chirilgandan so'ng oluvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi. Tijorat banklarining hisob cheklari bo'yicha pul o'tkazish bundan mustasno.

Hisob-kitoblar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar orasidagi o'zaro e'tirozlar belgilangan tartibda bank ishtirokisiz ko'rib chiqilish hisob-kitoblarni tashkil qilishning to'rtinchi tamoyilidir. Banklar o'z vaqtida to'lanmagan hujjatlar bo'yicha penyalarni hisoblash va undirishga javobgar emas. To'lovchi yuklab jo'natilgan mahsulotlar uchun o'z vaqtida to'lanmagan summaga hisoblangan penyaniga to'lovchi va mahsulot etkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan xo'jalik shartnomasida ko'zda tutilgan tartibda to'laydi. Agar bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnomada penya hisoblash va undirish ko'zda tutilgan bo'lsa, bu holda bank o'z vaqtida to'lanmagan hujjatlar bo'yicha penya hisoblash va mahsulot sotuvchi korxona foydasiga undirib berishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borishning beshinchi tamoyili hisob-kitob shakllarini tanlash bilan bog'liq. Mulkchilik shakllarining xilmaxilligi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini

tovarpul munosabatlari rivojlanishi sharoitida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish xo'jalik organlari tomonidan hisob-kitobni erkin tanlash tamoyilidan kelib chiqadi va ular shartnomalarda mustahkamlanadi. Xo'jalik organlarining shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi. Bu tamoyil hisob-kitob ishtirokchilarinig o'zaro munosabatlarining ijobiylari uchun moddiy javobgarligini oshirishga, hisob-kitob va shartnomaviy munosabatlarini tashkil qilishda iqtisodiy mustaqilligini mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning oltinchi tamoyili to'lovning muddatliligidir. Bu tamoyil katta amaliy ahamiyatga egadir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovning qanday muddatga kelib tushishi to'g'risidagi axborotga ega bo'lgan holda xususiy mablag'larining aylanishini oqilona tashkil etish, qarz mablag'lariga bo'lgan zaruratni hisoblab ko'rishi, shu bilan birga, o'z balansining likvidligini boshqarib borishi mumkin bo'ladi. Mahsulot sotuvchi va oluvchi tomonlar kelishuviga ko'ra to'lovlar muddatli, muddatidan oldin hamda muddati kechiktirilgan bo'lishi mumkin.

Muddatli to'lovlar quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- tovarlar jo'natilmasdan yoki xizmatlar bajarilmasdan oldin, bunday to'lovlar avans to'lovlari yoki oldindan to'lov ko'rinishida amalga oshiriladi;

- tovar jo'natilgandan keyin, ya'ni tovarni bevosita aksept qilish yo'li bilan;

- yirik summada tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan summalarни bo'libbo'lib to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi. Muddati uzaytirilgan to'lovlar belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirolmay qolgan hollarda, to'lov muddatini muayyan muddatga cho'zish, ya'ni yangi to'lov muddatini belgilashni bildiradi. Muddati uzaytirilgan to'lovlar tomonlarning moliyaviy ahvoliga zarar etkazmagan holda shartnomaviy munosabatlar doirasida bo'lishi lozim.

Muddati kechiktirilgan to'lovlar to'lovchi korxonaning hisobvarag'ida hujjatda ko'rsatilgani summani to'lash uchun pul mablag'lari bo'lmagan holatda yuzaga keladi. Agar korxona bankdan kredit olish huquqiga ega bo'limasa, hujjat korxona hisobvarag'iga pul kelib tushgandan so'nggina belgilangan tartibda to'lanadi.

Yuqorida biz korxona va tashkilotlar o‘z pul mablag‘larini bankdagi hisobvaraqlarida saqlashlari lozimligini ta’kidlagan edik. Banklarda mijozlarga bir qator hisobvaraqlar ochiladi. Bular talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlar, jamg‘armali depozitlar va muddatli depozitlar bo‘yicha hisobvaraqdır. Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlar ilgarigi hisob-kitob varaqlariga tenglashtirilgan bo‘lib, xo‘jaliklarning barcha operatsiyalari aynan mana shu hisobvaraqlardan o‘tkaziladi. Jamg‘armali va muddatli daromad olish yoki pul mablag‘larini astasekin ko‘paytirib, yig‘ib borish maqsadida ochiladi.

Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraq ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisobvaraq ochish uchun ariza;
- davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida hujjat;
- soliq idoralaridan ro‘yxatdan o‘tganligi va korxonaga identifikatsiya kodi berilganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- imzo qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarning imzolari va korxona muhri tushirilgan ikki nusxadagi ariza.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha hujjatlar ma’lum maqsadlarda tuzilib, hammasi birgalikda bank yuristi yoki bosh buxgalteriga topshiriladi. Bu hujjatlar tegishli ekspertiza va tekshiruvdan o‘tkazilgandan so‘ng, bank boshqaruvchisi tomonidan korxonaga hisobvaraq ochish uchun ruxsat beriladi. Korxona tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida mijoz to‘g‘risidagi barcha zaruriy ma’lumotlar – rekvizitlar Markaziy bank qoshida ochilgan Bank Depozitorlarining Milliy Axborot bazasiga «O‘zbekiston Respublikasi Bank Depozitorlarining Milliy Axborot bazasi to‘g‘risida»gi Nizomga asosan taqdim etiladi. BDMABda mijoz ro‘yxatga olinib, unga maxsus xosraqam (unikal kod) beriladi. Yuridik shaxsning u ro‘yxatga olingan joyda birinchi marta ochilgan «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag‘i uning asosiy hisobvarag‘i hisoblanadi. Mijozga berilgan xosraqam «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag‘i ichida ko‘rsatiladi. «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisob varag‘ining tuzilishi ham boshqa bank hisobvaraqlari kabi 20 razryaddan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi banklarida axborotlarga kompyuterlarda ishlov berishi, hisob yuritish va hisobot ishlarini soddalashtirish maqsadida shaxsiy hisobvaraqlarga nomerlar yagona qoidalar asosida belgilanadi.

Banklarda mijozlarga hisobvaraqlar ochilishi mijoz va bank o‘rtasidagi shartnoma bilan mustahkamlab qo‘yiladi. Shartnoma mijoz hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha shartnoma deb yuritiladi. Shartnomada depozit shartlari, depozitdan foydalanish tartibi, bank tomonidan to‘lanadigan foizlar miqdori, bank tomonidan mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlari, shu xizmatlar uchun korxona tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar miqdori, bank mijozning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi va boshqalar ko‘rsatib korxona rahbarlarining imzolari va muhrlari qo‘yiladi.

Korxonaga hisobvaraq ochishda bank tomonidan belgilangan miqdorda to‘lov undiriladi. Banklarda yuridik shaxslarga “Talab qilinguncha saqlanadigan depozit” hisobvarag‘i bilan birgalikda jamg‘armali yoki muddatli depozit hisobvaraqlari ochiladi. Bunday hisobvaraqlarining ochilishini rasmiylashtirish uchun yuridik shaxslar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisobvaraq ochish uchun ariza;
- soliq to‘lovchiga berilgan raqamning ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida bildirishnoma;
- imzolar va muhr izi namunalari qo‘yilib, notarius tasdiqlagan kartochka (varaqcha).

Sanab o‘tilgan hujjatlar korxona ushbu bankda ilgari hisobvaraq ochmagan taqdirda taqdim etiladi. Agar korxona ilgari shu bankda biror hisobvaraq ochgan va tegishli hujjatlarni bankka taqdim etgan bo‘lsa, u xolda faqat hisobvaraq ochish uchun ariza rasmiylashtirilib topshiriladi. Arizada qanday depozit bo‘yicha hisobvaraq ochish lozimligi ko‘rsatiladi va belgilangan tartibda korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi.

Byudjet muassasalari uchun jamg‘armali va muddatli depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlari faqat ularning byudjetdan tashqari mablag‘lari uchun ochiladi.

Jamg‘armali va muddatli depozitlardan yuridik shaxslar bilan bir qatorda jismoniy shaxslar ham foydalanishlari mumkin. Buning uchun jismoniy shaxs tomonidan hisobvaraq ochish to‘g‘risidagi ariza, imzo

namunasi qo'yilgan varaqcha hamda hisobvaraq ochishni so'ragan shaxsning shaxsini tasdiqllovchi hujjat topshiriladi. Hujjatlar ko'rib chiqilib, tegishli nazorat o'tkazilgandan so'ng, bank bilan mijoz o'rtasida bank hisobvarag'ini ochish bo'yicha shartnomaga imzolanib, unda shartnomaga shartlari belgilab qo'yiladi. Ayni paytda shartnomada depozitlarning hisobvaraq ochilayotganda jamg'arma yoki muddatli depozit shartlari bilan tanishtirilishi ko'zda tutiladi hamda depozitor dastlabki hisob shakllari bo'lган hujjatlarga tegishli yozuv kiritib imzo qo'yadi.

Umuman, hisobvaraq ochish uchun mijozlar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar ularning "yuridik hujjati" hisoblanib, alohida papkaga tikiladi va bosh buxgalterda saqlanadi. Imzo va muhr namunasi tushirilgan varaqchalar mas'ul ijrochi va bankning so'nggi nazorat xodimiga topshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning amaldagi shakllari

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy asosi bu moddiy ishlab chiqarishdir. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida jo'natilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun to'lovlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, korxona va tashkilotlarning byudjet bilan hisob-kitoblar, davlat, ijtimoiy sug'urta muassasalari, sud, arbitraj idoralari bilan ham hisob kitoblar yuritiladi. Yuqoridagi hisob kitoblarning asosiy qismi naqd pulsiz hisob kitoblaracosini tashkil etiladi.

Naqd pulsiz pul aylanishi pulli munosabatlardan ishtirokchilarining hududiy joylashuviga ko'ra bir shahar ichidagi va shaharlарaro pul aylanishiga bo'linadi. Bir shahar ichidagi bir yoki turli banklar xizmatidan foydalanadigan korxona va tashkilotlar o'rtasida yuzaga keladigan naqdsiz pul aylanishi bir shahar ichidagi naqd pul aylanishi deyiladi. Turli shaharlarda joylashgan banklarning xizmatidan foydalanuvchi korxona va tashkilotlar o'rtasida yuzaga keladigan pul aylanishi shaharlарaro naqdsiz pul aylanishi deyiladi.

Tovar operatsiyalari hamda notovar operatsiyalari bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob kitoblarning turli shakllari yordamida amalga oshiriladi. Bu shakllarning har biri hujjatlar aylanishi, mazmuni jihatdan alohida xususiyatlarga ega.

O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga ko'ra xo'jaliklar o'rtaqidagi o'zaro kitoblar naqd pulsiz hisob kitoblarning quyidagi shakllari asosida amalga oshiriladi:

- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- akkreditivlar;
- inkassa topshiriqlari;
- hisob cheklari;
- memorial order;
- plastik kartochkalar.

To'lovchi va mablag' oluvchi tomonlar orasidagi hisob kitob qilish uchun tanlangan shakl xo'jalik shartnomasi asosida belgilanadi. Hisob kitob shakllari bu huquqiy me'yordarda ko'zda tutilgan, hisob kitob hujjatining turi, hujjatlar aylanish tartibi, mablag'larni mol sotuvchi korxona hisobvarag'iga o'tkazish va yozish usuli birbiridan farq qiluvchi hisob kitob turlaridir.

Naqd pulsiz hisob kitob hujjatlarining har biri belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandagina bank tomonidan ijro uchun qabul qilinadi. Har bir hujjat shakli talablarga javob beradigan holda rasmiylashtirilib, unda quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart:

- hisob-kitob hujjatining nomi;
- hujjatning nomeri va rasmiylashtirilgan sana;
- to'lovchi korxonaning nomi, bankdagi hisobvaraq nomeri, unga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va bank kodi;
- pul oluvchi korxona yoki tashkilot nomi, uning bankdagi hisobvaraq nomeri, unga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va bank kodi;
- to'lov summasi;
- to'lov maqsadi.

Hujjatlar korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va korxona muhri tushirilgan bo'lishi shart. Hujjatlar bank tomonidan bank operatsion kuni davomida ijro uchun qabul qilinadi va shu kuni balansdan o'tkaziladi.

Naqd pulsiz hisob kitoblarning alohida shakllarini quyida ko'rib chiqamiz.

Mayzu bo'yicha tayanch iboralar

Soliq, sug'urta, kredit, kommunal, xizmatlar to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, akkreditivlar, inkassa topshiriqlari, hisob cheklari, memorial order, plastik kartochkalar

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Pul aylanishi va uning xususiyatlari.
2. Naqd pulsiz hisob-kitoblar, uni tashkil qilish tamoyillari va rivojlantirish istiqbollari.
- 3.Qanday rekvizitlar mavjul.
4. Hisob kitoblarning qanday shakillari mavjud?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 15 fevraldagi PQ-2777-sonli qarori) 25.04.2017 y. PF-5027.18-son, 310-modda.

2."O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun-.T.: 1996.

3."O'zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun-T.:1996.

4.Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.

5. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.

6.Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.

8-BOB. NAQD PUL AYLANMASI VA UNING XUSUSIYATLARI

8.1. Naqd pul aylanmasi haqida tushuncha.

Naqd pullik aylanma bu – naqd pul yordamida amalga oshiriladigan to‘lovlar yig‘indisidir. Bu aylanma pul o‘zining to‘lov va muomala vositasi funksiyalarini bajarishida yuzaga keladi.

Naqd pullar muomala vositasi sifatida aholi bilan o‘zaro yoki korxona, tashkilotlar o‘rtasida, tovarlar sotib olishda va sotishda qo‘llaniladi.

Pul to‘lov vositasi sifatida ish haqi, nafaqalar, mukofotlar, yakka tartibdagi qurilish uchun beriladigan kreditlar, sug‘urta to‘lovlar ni to‘lashda namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, naqd pullik aylanmaga:

- kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar;
- maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar;
- sug‘urta tashkilotlariga paylarni to‘lash;
- soliqning ba’zi turlarini to‘lash;
- bank kreditini to‘lash;
- aksionerlik jamiyatlari bilan a’zolari o‘rtasidagi to‘lovlar va boshqa to‘lovlar kiradi.

Ba’zi iqtisodchilar pul aylanmasini naqd pulli va naqd pulsiz aylanmalarga bo‘lib o‘rganishga zarurat yo‘q deb hisoblaydilar.

Biz chet el iqtisodchilarining tadqiqotlarini olib qaraydigan bo‘lsak, albatta, yuqoridagidek pul aylanmasini ikkiga bo‘lib o‘rganish yo‘q. Buning asosiy sababi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda hisob-kitoblar, asosan, naqd pulsiz olib boriliadi. Hisob-kitoblarni bu turlarda olib borish qulay va sharoitga mos keladi. Lekin hali rivojlangan iqtisodiyotga ega bo‘lmasdan turib, biz xorijiy davlatlarning hozirgi hisob-kitoblari mavqeい bilan o‘z hisob-kitob tizimimizni tenglashtira olmaymiz. Bundan tashqari, bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o‘tish, milliy pul birligini barqarorlashtirish, muomaladagi pul massasini va pul emissiyasini kamaytirish masalalari dolzarb turgan bir sharoitda biz pul aylanmasini naqd pulli va naqd pulsiz aylanmalarga bo‘lib o‘rganishimiz, ularning tarkibini takomillashtirishimiz, samarali yo‘llarni qo‘llab jamiyatimizda to‘laqonli pul aylanmasini yaratishimiz va uni jamiyat rivojlanishi

uchun xizmat qildirishimiz zarur. Mana shu sharoitdagina rivojlangan xorijiy mamlakatlarga o'xshab pul aylanmasini tarkibiy qismlarga bo'lmasdan tahlil qilishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, pul aylanmasining ikki qismi bir - biri bilan uzviy bog'liq, chunki pul naqd pul aylanmasidan naqd pulsiz aylanmaga o'tadi va aksincha aylanib doimiy harakatda bo'lib, umumiy pul aylanmasini yuzaga keltiradi.

Korxona, tashkilotlarning bankdagi hisob raqamidagi pul mablag'lari quyidagi yo'llar bilan naqd pulga aylanadi:

- ishchi, xizmatchilarga ish haqi berish;
- ko'sratilgan xizmatlar, mehnat uchun to'lovlari;
- nafaqalar to'lash;
- har xil mukofotlar;
- aholidan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar sotib olishda;
- davlat zayomlari va lotoreya biletlari bo'yicha to'lovlari;
- aholi banklardan jamg'armalarini olganda;
- aholiga sug'urta to'lovlari to'laganda va hokazo;

Naqd pullar cheklangan miqdorda muomalaga chiqariladi. Naqd pullarning muomalaga chiqarilishi ustidan bank nazorat olib boradi.

Naqd pullar quyidagi yo'llar bilan naqd pulsiz aylanmaga tushadi.

- uy-joy va kommunal xizmatlar uchun to'laganda;
- aloqa tashkilotlariga to'laganda;
- har xil soliqlar va paylar to'langanda;
- davlat zayomlari va lotoreya biletlari sotib olingandagi tushumlar orqali;

- yakka tartibdagi qurilish uchun olingen kreditlarni to'laganda;
- har xil bojlar va jarimalarni to'laganda;
- bolalar bog'chalari va boshqa muassasalar uchun to'langanda;
- dani olish uylari va boshqa sog'lomlashtirish muassasalarining yo'llanmalari uchun to'langanda va boshqa hollarda.

Pulning naqd pulsiz aylanmaga o'tganidan naqd pullik aylanmaga ko'proq o'tishi pul muomalasi uchun xatarliroq hisoblanadi. Shuning uchun ham, pulning naqd pullik aylanmaga o'tish jarayoni davlatning Markaziy banki tomonidan nazorat qilib borilishi kerak.

Pul aylanmasi bo'limlari o'rtasida yuzaga keladigan nomutanosiblik iqtisodiy choralar ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan yo'qotilishi kerak.

Buning uchun muomalaga xalq ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, aholiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va muassasalar sonini va xizmat turlarini yaxshilash naqd pullarning naqd pulsiz aylanmaga o'tish jarayonini tezlashtiradi. O'z navbatida bu mablag'lar ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga imkon beradi.

Ba'zi adabiyotlarda, naqd pul aylanmasi va pul muomalasi tushunchalari bir xil mohiyatga ega, degan xato fikrlarni ham uchratish mumkin. Pul muomalasining o'ziga xos xususiyati shundaki, bir pul belgisi bir necha marta to'lovlarni amalga oshirishda ishlatilishi mumkin. Muomalada bo'lgan naqd pul massasi ma'lum bir davr (oy, kvartal, yil)da o'zgarmas bo'lib turgan holda, naqd pul aylanmasi pul birligining aylanish tezligiga qarab muomaladagi naqd pul miqdoridan bir necha marta ko'p bo'lishi mumkin yoki aksincha.

O'zbekistonda pul Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladi. Aholi tomonidan ish haqi va boshqa to'lovlardan shaklida olingan pullarning bir qismi bozordan tovarlar sotib olishga sarflanadi. Aholi bu pullarga savdo tashkilotlaridan tovarlar sotib oladi. Savdoga tushgan pullar savdo tushumi sifatida banklarga topshiriladi. Ko'rinish turibdiki, bankdan chiqqan pullar bir necha to'lovlarga ishlatiladi, naqd pul aylanmasining hajmi to'lovlarni amalga oshirishi uchun muomalaga chiqarilgan pullar miqdoridan bir necha marta ko'pdir. Naqd pul aylanmasi naqd pullar bilan amalga oshiriladigan to'lovlardan yig'indisi bo'lib, u sonlarda ifodalananadi.

Pul muomalasi muomaladagi pul massasini, bank tomonidan muomalaga chiqarilgan pullarning bankga qaytib kelish tezligini ifodalaydi.

8.2. Pul muomalasi qonuni

Qiymat qonuni va uning muomala doirasida yuzaga chiqish shakli – pul muomalasi qonuni tovar-pul munosabati mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy tuzumlarga xosdir. Qiymat shakllari va pul muomalasi taraqqiyot yo'lini tahlil qilayotib, K. Marks pul muomalasining

qonunini ochdi. Bu qonunga asosan muomala vositasi funksiyasini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan pul miqdori aniqlanadi.

Metallik pul muomalasida muomaladagi pul miqdori stixiyali tarzda, pullarning xazina funksiyasi yordamida tartibga solib turilgan. Agar pulga ehtiyoj kamaysa, ortiqcha pullar (oltin tanga) muomaladan xazinaga oqib o‘tishi kuzatilgan yoki aksincha. Shunday qilib, muomaladagi pul miqdori kerakli darajada ushlab turilgan. Keyinchalik, muomalaga banknotalar chiqarilishi va ularning metallar (oltin yoki kumush)ga erkin almashinishi ham muomalada pulning ortiqcha miqdori bo‘lishini inkor etadi.

Agar muomalada oltinga almashinmaydigan banknotalar yoki qog‘oz pullar (xazina biletlari) amal qilsa, u holda naqd pul muomalasi pul muomalasi qonuniga asosan amalga oshadi.

Qog‘oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo‘lgan oltin pullarning nazariy miqdoriga teng bo‘lganda pul muomalasida hech qanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan talab pulning barqarorligini ta’minlaydi, shuningdek, pul muomalasi mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy tuzumlarda o‘z kuchiga ega.

Pul muomalasi qonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narx darajasi va pul muomalasi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqadorlikni aks ettiradi. Bu qonunga asosan muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

Realizatsiya qilinadigan tovarlar narxi summasi	Kreditga sotilgan tovarlar narxi summasi	Majburiyatlar bo‘yicha to’lovlar summasi	Bir-birini qoplaydigan to’lovlar summasi
?	+	?	

Pulning muomala va to’lov vositasi sifatida o’rtacha aylanish tezligi

ishlab chiqarish rivoji va shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lgan turli xil omillar ta’sir ko‘rsatadi. Muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil – bu tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga to‘g‘ri proporsional, ya’ni tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi muomalaga ko‘p pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga ta’sir

qiluvchi ikkinchi omil – bu pulning aylanish tezligi hisoblanadi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta’sir ko’rsatadi. Odadta, pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha.

Muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhimdir. Bular iste’mol kreditni rivojlantirish; kreditga qanchalik ko‘p tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerak bo‘ladi;

- naqd pulsiz hisob - kitoblarining rivojlanishi;
- pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va boshqalar.

Har bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini hisobga ol-gan holda ish yuritishi zarur. Chunki pul muomalasi qonuning buzilishi pul barqarorligiga putur etkazadi. Bu holda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar bahosidan oshib ketishi, ya’ni inflyatsiya bo‘lishiga yoki pul tanqisligiga (etishmov-chiligiga) olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatları ikki omilning o’zaro ta’siri bilan, ya’ni xo‘jalikning pulga bo’lgan ehtiyoji va amalda pullarning muomalaga borib tushishi bilan belgilanadi. Amaliyotda ko‘proq uchraydigan hol bu aylanmada xo‘jalikka kerak bo’lganidan ko‘proq pulning bo‘lishidir. Bu, albatta, pulning qadrsizlanishiga – pul birligi xarid qobiliyatining tushishiga olib keladi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Naqd pul, pul muomalasi, aksionerlik jamiyatları, soliqning ba’zi maishiy xizmatlar, kommunal xizmatlar, tovarlar massasi, metallik pul, tovar-pul munosabati,soliq, nafaqa, maishiy xizmatlar.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Naqd pul aylanmasi va uning xususiyatlari
- 2.Pul muomalasi qonuni
3. Naqd pulsiz hisob
4. Muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdoriga ta’sir ko’rsatuvchi asosiy omil

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 15 fevraldaggi PQ-2777-sonli qarori) 25.04.2017 y. PF-5027.18-son, 310-modda.
- 2."O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun-.T.: 1996.
- 3."O'zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun-T.:1996.
- 4.Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.
5. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.
- 6.Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.

9-BOB. NAQD PULSIZ PUL AYLANMASI

9.1. Naqd pulsiz pul aylanmasi, uni tashkil qilish tamoyillari

Pul aylanmasining asosiy qismini naqd pulsiz aylanma, ya’ni korxona, tashkilotlar o’rtasidagi, ularning davlat byudjeti, kredit tashkilotlari bilan naqd pulsiz bir hisob raqamidan ikkinchi hisob raqamiga mablag’ o’tkazish yo’li bilan amalga oshiriladigan aylanma tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri pul aylanishini to‘g’ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar pul munosabatlarning holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Korxona va tashkilotlar o’zlarining xo‘jalik faoliyati jarayonida doimo bir-birlari bilan aloqada bo‘ladilar. Ular o’rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayirboshlashning o’zi esa pul aylanishining moddiy asosi hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar, jumladan, pensiya fondi, sug‘urta fondi, soliq idoralari, bank muassasalari bilan bo‘ladigan pulli munosabatlar vujudga keladi.

Pullik munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va to‘lov usullariga ko‘ra pul aylanishi naqd pulli va naqd pulsiz aylanishiga bo‘linadi. Chakana savdo va aholiga pulli xizmat ko‘rsatish asosan naqd pulda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, naqd pullar aylanishiga communal xizmatlar uchun to‘lovlari, maishiy xizmatlar uchun to‘lovlari, ishchi – xizmatchilarga ish xaqi va shunga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lash, sug‘urta tashkilotlarga badallar to‘lash, uy-joy va boshqa maqsadlar uchun aholi tomonidan olingan kreditni naqd pul ko‘rinishida qaytarish bilan bog‘liq to‘lovlarning to‘lanishi kiradi.

Iqtisodiyotda bo‘ladigan pul aylanishining 70-80 foizini naqdsiz pul aylanishi tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqdsiz pul hisob-kitoblarning keng ishlatalishiga ko‘p tarmoqli bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o‘rganish va uni tartibga solish nuqtainazaridan davlatning qiziqishi, mulkchilik shakllarining ko‘payishi va turli mulkchilik shakllariga tegishli bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o’rtasidagi munosabatlarning kengayib borishi asos bo‘ladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayrboshlash, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalari bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o'tkazish orqali amalga oshirish tushuniladi.

Iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ma'lum tizim asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi o'z ichiga hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari, shakllari, usullari hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish oldiga qo'yilgan talablarni oladi.

1930-1932-yillarda o'tkazilgan kredit islohoti davrida kiritilgan va Sobiq Ittifoq davrida mavjud bo'lgan naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik usullariga asoslangan edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi birinchi navbatda ishlab chiqarish va sotish rejalarini bajarish nuqtainazaridan mahsulot sotuvchi korxona qiziqishlariga xizmat qilar edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari korxonalarining shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun iqtisodiy qiziqishlari va javobgarligini chegaralangan qat'iy qilib belgilangan edi.

Bu tamoyillar quyidagicha belgilangan:

- bank naqd pulsiz-hisob kitoblarni tashkil qiladi va ularning bajarilishi ustidan nazorat qiladi;
- to'lov vaqtি qat'iy belgilangan, ya'ni barcha to'lovlar tovarlar jo'natilgandan keyin yoki xizmat bajarilgandan so'ng o'tkaziladi. Avans to'lovlarij tijorat kreditiga ruxsat etilmas edi;
- to'lovchining roziligi to'lov o'tkazilishining asosi sifatida tan olingan;
- qaysi sohada qaysi hollarda naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini ishlatalishi, ularni tashkil qilish tamoyillari to'lovchining to'lovga va kreditga layoqatlilik qobiliyatini hisobga olmas edi.

Hozirgi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblarning birinchi tamoyili mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mablag'larini bankdagi hisobvaraqlarda saqlashlari va barcha operatsiyalarni bank orqali o'tkazishlari lozimligini bildiradi. Bozor munosabatlari sharoitida hisob-kitoblarning bank orqali o'tkazilishi bozor ishtirokchilarining iqtisodiy mustaqilligi bi-lan qo'shib olib borilishi kerak.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning ikkinchi tamo-yili shundan iboratki, mijozlarning hisobvaraqlaridan pul mab-lag‘larini ko‘chirish, ularning topshirig‘i yoki roziligiga asosan hisobvaraqdagi mablag‘lar miqyosida bajariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining ishlab chiqilishi va joriy etilishi munosabati bilan Markaziy bank tomonidan mijozlarning hisobraqamlari bo‘yicha operatsiyalar o‘tkazish tartibi belgilangan. Hisobvaraqlardan mablag‘larni o‘tkazish hisobvaraq egasining topshirig‘iga binoan bajariladi. Mijozlarning buyrug‘isiz hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari faqat sud qaroriga binoan, qonunda belgilangan tartibda bank va mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosan ko‘chirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga asosan mijozlarning hisobvaraqlarida barcha talablarni bajarishga pul mablag‘lari etarli bo‘lgan hollarda pul ko‘chirish bo‘yicha mijozning topshirig‘i va boshqa hujjatlarning kelib tushishi tartibida hujjatlar to‘lanishi lozim. Mijoz hisobvaraqdagi barcha talablarni to‘lashga mablag‘lar etarli bo‘limgan taqdirda hujjatlarning to‘lani-shi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Xo‘jalik subyektlarining bankdagi hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini ko‘chirish to‘g‘risida”gi 615- sonli yo‘riqnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Agar mijoz bilan bank o‘rtasida kredit shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, to‘lovlar bank krediti hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning uchinchi tamoyili shundan iboratki, mablag‘lar to‘lovchining hisobvarag‘idan o‘chirilgandan so‘ng oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Tijorat banklarining hisob cheklari bo‘yicha pul o‘tkazish bundan mustasno.

Hisob-kitoblar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi o‘zaro e’tirozlar belgilangan tartibda bank ishtirokisiz ko‘rib chiqilish hisob-kitoblarni tashkil qilishning to‘rtinchi tamoyilidir. Banklar o‘z vaqtida to‘lanmagan hujjatlar bo‘yicha penyalarni hisoblash va undirishga javobgar emas. To‘lovchi yuklab jo‘natilgan mahsulotlar uchun o‘z vaqtida to‘lanmagan summaga hisoblangan penyani to‘lovchi va mahsulot yetkazib beruvchi o‘rtasida tuzilgan xo‘jalik shartnomasida ko‘zda tutilgan tartibda to‘laydi. Agar bank bilan mijoz o‘rtasidagi shartnomada penya hisoblash va undirish ko‘zda tutilgan

bo'lsa, bu holda bank o'z vaqtida to'lanmagan hujatlar bo'yicha penya hisoblash va mahsulot sotuvchi korxona foydasiga undirib berishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borishning beshinchи tamoyili hisob-kitob shakllarini tanlash bilan bog'liq. Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar-ning faoliyati tovar-pul munosabatlari rivojlanishi sharoitida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish xo'jalik organlari tomonidan hisob-kitobni erkin tanlash tamoyilidan kelib chiqadi va ular shartnomalarda mustahkamlanadi. Xo'jalik organlarining shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi. Bu tamoyil hisob-kitob ishtirokchilarinig o'zaro munosabatlarining ijobiylari uchun moddiy javobgarligini oshirishga, hisob-kitob va shartnomaviy munosabatlarini tashkil qilishda iqtisodiy mustaqil-ligini mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning oltinchi tamoyili to'lovning muddatliligidir. Bu tamoyil katta amaliy ahamiyatga egadir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovning qanday muddatga kelib tushishi to'g'risidagi axborotga ega bo'lgan holda xususiy mablag'larining aylanishini oqilona tashkil etish, qarz mablag'lariga bo'lgan zaruratni hisoblab ko'rishi, shu bilan birga, o'z balansining likvidligini boshqarib borishi mumkin bo'ladi. Mahsulot sotuvchi va oluvchi tomonlar kelishuviga ko'ra to'lovlar muddatli, muddatidan oldin hamda muddati kechiktirilgan bo'lishi mumkin.

Muddatli to'lovlar quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- tovarlar jo'natilmasdan yoki xizmatlar bajarilmasdan oldin, bunday to'lovlar avans to'lovlari yoki oldindan to'lov ko'rinishida amalga oshiriladi;

- tovar jo'natilgandan keyin, ya'ni tovarni bevosita aksept qilish yo'li bilan;

- yirik summada tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan summalarini bo'lib-bo'lib to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi. Muddati uzaytirilgan to'lovlar belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirolmay qolgan hollarda, to'lov muddatini muayyan muddatga cho'zish, ya'ni yangi to'lov muddatini belgilashni bildiradi. Muddati uzaytirilgan to'lovlar tomonlarning moliyaviy ahvoliga zarar

etkazmagan holda shartnomaviy munosabatlar doirasida bo'lishi lozim.

Muddati kechiktirilgan to'lovlar to'lovchi korxonaning hisobvarag'ida hujjatda ko'rsatilgani summani to'lash uchun pul mablag'lari bo'lmagan holatda yuzaga keladi. Agar korxona bankdan kredit olish huquqiga ega bo'lmasa, hujjat korxona hisobvarag'iga pul kelib tushgandan so'nggina belgilangan tartibda to'lanadi.

Yuqorida biz korxona va tashkilotlar o'z pul mablag'larini bankdagi hisobvaraqlarida saqlashlari lozimligini ta'kidlagan edik. Banklarda mijozlarga bir qator hisobvaraqlar ochiladi. Bular talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha hisobvaraqlar, jamg'armali depozitlar va muddatli depozitlar bo'yicha hisobvaraqdир. Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha hisobvaraqlar ilgarigi hisob-kitob varaqlariga tenglashtirilgan bo'lib, xo'jaliklarning barcha operatsiyalari aynan mana shu hisobvaraqlardan o'tkaziladi. Jamg'armali va muddatli daromad olish yoki pul mablag'larini astasekin ko'paytirib, yig'ib borish maqsadida ochiladi.

Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisobvaraqlar ochish uchun ariza;
- davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida hujjat;
- soliq idoralaridan ro'yxatdan o'tganligi va korxonaga identifikatsiya kodi berilganligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan mansabdar shaxslarning imzolari va korxona muhri tushirilgan ikki nusxadagi ariza.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha hujjatlar ma'lum maqsadlarda tuzilib, hammasi birgalikda bank yuristi yoki bosh buxgalteriga topshiriladi. Bu hujjatlar tegishli ekspertiza va tekshiruvdan o'tkazilgandan so'ng, bank boshqaruvchisi tomonidan korxonaga hisobvaraqlar ochish uchun ruxsat beriladi. Korxona tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida mijoz to'g'risidagi barcha zaruriy ma'lumotlar – rekvizitlar Markaziy bank qoshida ochilgan Bank Depozitorlarining Milliy Axborot bazasiga «O'zbekiston Respublikasi Bank Depozitorlarining Milliy Axborot basasi to'g'risida» gi Nizomga asosan taqdim etiladi. BDMABda mijoz ro'yxatga olinib, unga maxsus xosraqam (unikal kod) beriladi. Yuridik shaxsning u

ro'yxatga olingan joyda birinchi marta ochilgan «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i uning asosiy hisobvarag'i hisoblanadi. Mijozga berilgan xosraqam «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i ichida ko'rsatiladi. «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'ining tuzilishi ham boshqa bank hisob varaqlari kabi 20 razryaddan iborat.

O'zbekiston Respublikasi banklarida axborotiarga kompyuterlarda ishlov berishi, hisob yuritish va hisobot ishlarini soddalashtirish maqsadida shaxsiy hisobvaraqlarga nomerlar yagona qoidalar asosida belgilanadi.

Banklarda mijozlarga hisobvaraqlar ochilishi mijoz va bank o'rtasidagi shartnoma bilan mustahkamlab qo'yiladi. Shartnoma mijoz hisobvarag'ini yuritish bo'yicha shartnoma deb yuritiladi. Shartnomada depozit shartlari, depozitdan foydalanish tartibi, bank tomonidan to'lanadigan foizlar miqdori, bank tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlari, shu xizmatlar uchun korxona tomonidan to'lanadigan to'lovlar miqdori, bank mijozning huquqlari, majburiyatlar, javobgarligi va boshqalar ko'rsatib korxona rahbarlarining imzolari va muhrlari qo'yiladi.

Korxonaga hisobvaraq ochishda bank tomonidan belgilangan miqdorda to'lov undiriladi. Banklarda yuridik shaxslarga «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i bilan bирgalikda jamg'armali yoki muddatli depozit hisobvaraqlari ochiladi. Bunday hisobvaraqlarining ochilishini rasmiylashtirish uchun yuridik shaxslar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisobvaraq ochish uchun ariza;
- soliq to'lovchiga berilgan raqamning ro'yxatga olinganligi to'g'risida bildirishnoma;
- imzolar va muhr izi namunalari qo'yilib, notarius tasdiqlagan kartochka (varaqcha).

Sanab o'tilgan hujjatlar korxona ushbu bankda ilgari hisobvaraq ochmagan taqdirda taqdim etiladi. Agar korxona ilgari shu bankda biror hisobvaraq ochgan va tegishli hujjatlarni bankka taqdim etgan bo'lsa, u xolda faqat hisobvaraq ochish uchun ariza rasmiylashtirilib topshiriladi. Arizada qanday depozit bo'yicha hisobvaraq ochish lozimligi ko'rsatiladi va belgilangan tartibda korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi.

Byudjet muassasalari uchun jamg‘armali va muddatli depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlari faqat ularning byudjetdan tashqari mablag‘lari uchun ochiladi.

Jamg‘armali va muddatli depozitlardan yuridik shaxslar bilan bir qatorda jismoniy shaxslar ham foydalanishlari mumkin. Buning uchun jismoniy shaxs tomonidan hisobvaraq ochish to‘g‘risidagi ariza, imzo namunasi qo‘yilgan varaqcha hamda hisobvaraq ochishni so‘ragan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat topshiriladi. Hujjatlar ko‘rib chiqilib, tegishli nazorat o‘tkazilgandan so‘ng, bank bilan mijoz o‘rtasida bank hisobvarag‘ini ochish bo‘yicha shartnomaga imzolanib, unda shartnomaga shartlari belgilab qo‘yiladi. Ayni paytda shartnomada depozitlarning hisobvaraq ochilayotganda jamg‘arma yoki muddatli depozit shartlari bilan tanishtirilishi ko‘zda tutiladi hamda depozitor dastlabki hisob shakllari bo‘lgan hujjatlarga tegishli yozuv, kiritib imzo qo‘yadi.

Umurhan, hisobvaraq ochish uchun mijozlar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar ularning «yuridik hujjati» hisoblanib, alohida papkaga tikiladi va bosh buxgalterda saqlanadi. Imzo va muhr namunasi tushirilgan varaqchalar mas’ul ijrochi va bankning so‘nggi nazorat xodimiga topshiriladi.

9.2. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy asosi bu moddiy ishlab chiqarishdir. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida jo‘natilgan tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun to‘lovlardan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, korxona va tashkilotlarning byudjet bilan hisob-kitoblar, davlat, ijtimoiy sug‘urta muassasalari, sud, arbitraj idoralari bilan ham hisob-kitoblar yuritiladi. Yuqoridagi hisob - kitoblarning asosiy qismi naqd pulsiz hisob-kitoblar asosini tashkil etiladi.

Naqd pulsiz pul aylanishi pulli munosabatlari ishtirokchilarining hududiy joylashuviga ko‘ra bir shahar ichidagi va shaharlara pul aylanishiga bo‘linadi. Bir shahar ichidagi bir yoki turli banklar xizmatidan foydalananidan korxona va tashkilotlar o‘rtasida yuzaga keladigan naqdsiz pul aylanishi bir shahar ichidagi naqd pul aylanishi deyiladi. Turli shaharlarda joylashgan banklarning xizmatidan

foydalanuvchi korxona va tashkilotlar o'rtasida yuzaga keladigan pul aylanishi shahrlararo naqdsiz pul aylanishi deyiladi.

Tovar operatsiyalari hamda notovar operatsiyalari bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob - kitoblarning turli shakllari yordamida amalga oshiriladi. Bu shakllarning har biri hujjatlar aylanishi, mazmuni jihatdan alohida xususiyatlarga ega.

O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga ko'ra xo'jaliklar o'rtasidagi o'zaro kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi shakllari asosida amalga oshiriladi:

- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- akkreditivlar;
- inkassa topshiriqlari;
- hisob cheklari;
- memorial order;
- plastik kartochkalar.

To'lovchi va mablag' oluvchi tomonlar orasidagi hisob-kitob qilish uchun tanlangan shakl xo'jalik shartnomasi asosida belgilanadi. Hisob-kitob shakllari bu huquqiy me'yordarda ko'zda tutilgan, hisob-kitob hujjatining turi, hujjatlar aylanish tartibi, mablag'larni mol sotuvchi korxona hisobvarag'iga o'tkazish va yozish usuli bir-biridan farq qiluvchi hisob-kitob turlaridir.

Naqd pulsiz hisob-kitob hujjatlarining har biri belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandagina bank tomonidan ijro uchun qabul qilinadi. Har bir hujjat shakli talablarga javob beradigan holda rasmiylashtirilib, unda quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart:

- hisob-kitob hujjatining nomi;
- hujjatning nomeri va rasmiylashtirilgan sana;
- to'lovchi korxonaning nomi, bankdagi hisobvaraq nomeri, unga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va bank kodi;
- pul oluvchi korxona yoki tashkilot nomi, uning bankdagi hisobvaraq nomeri, unga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va bank kodi:
- to'lov summasi;
- to'lov maqsadi.

Hujjatlar korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va korxona muhri tushirilgan bo'lishi shart. Hujjatlar bank

tomonidan bank operatsion kuni davomida ijro uchun qabul qilinadi va shu kuni balansdan o'tkaziladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning alohida shakllarini quyida ko'rib chiqamiz.

To'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob – kitoblar

To'lov topshiriqnomasi bu – to'lovchi korxonaning uning bankdagi hisobvarag'idan pul mablag'larining ma'lum bir summasini boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish haqida o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka bergan yozma topshirig'idir. To'lov topshiriqnomasi 0505411002 shakldagi standart blankada to'lovchi tomonidan rasmiy-lashtirilib, bankka topshiriladi. To'lov topshiriqnomalari orqali quyidagi to'lovlar amalga oshiriladi:

- tovarlar va xizmatlar uchun hisob - kitoblar;

- notovar operatsiyalar bo'yicha hisob - kitoblar;

- markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, bank ssudalar unga qo'shilgan foizlarni qoplash uchun mablag' o'tkazish;

- hukumat qarorlari va bank qoidalarida belgilangan hollardagi bank to'lovleri.

Ilgari to'lov topshiriqnomalari rasmiylashtirilgan kundan boshlab 10 kun ichida bankka topshirilishi mumkin bo'lib, shu davr ichida haqiqiy bo'lib hisoblanar edi. Hozir esa topshiriqnomaning sanasi uni bankka taqdim etilgan kun bilan bir xil bo'lishi kerak, mos kelmagan holda to'lov topshiriqnomasi ijro uchun qabul qilinmaydi. Lekin byudjet va byudjetdan tashqari fondlar bo'yicha to'lovlar bundan mustasno.

To'lov topshiriqnomalarining bankka topshiradigan nusxalar soni to'lovchi va mablag' oluvchilarning qaysi bankda joylashgan-ligiga bog'liq. To'lovchi va mahsulot sotuvchi korxonalar bir bank bo'limi xizmatidan foydalansalar, topshiriqnomalar bankka uch nusxada taqdim etiladi. Topshiriqnomalarining har biri quyidagicha ishlataladi:

birinchi nusxa to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhrining izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'r-satilgan holda kunlik hujjatlar yig'masi tikiladi;

ikkinci nusxasi to‘lovni oluvchining hisobvarag‘iga ilova sifatida mas‘ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning to‘rtburchak muhr izi tushirilgan holda to‘lovni oluvchi korxona vakiliga beriladi;

uchinchi nusxa operatsiya bajarilgandan so‘ng, bank bo‘limining to‘rtburchak shtamp izi tushirilgan, mas‘ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lovni amalga oshirish va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda, to‘lovchi korxona vakiliga larning depozit hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birgalikda beriladi.

Lekin har doim ham bir-biri bilan munosabatda bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bir bank xizmatidan foydalanmaydilar. Agar to‘lovchi va mablag‘ oluvchi korxonalariga bir hudud ichidagi yoki boshqa hududda joylashgan turli bank bo‘limlari tomonidan xizmat ko‘rsatilsa, to‘lov topshiriqnomalari bankka ikki nusxada taqdim etiladi:

birinchi nusxasi to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas‘ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning muhr izi tushirilgan, qabul qilish sanasi ko‘rsatiltan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;

ikkinci nusxaga bank bo‘limining muhr izi tushirilgan, bank mas‘ul ijrochisining imzosi, to‘lov amalga oshirilgan sana va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovchi korxona vakiliga beriladi.

To‘lov topshirig‘ida quyidagi rekvizitlar ko‘rsatilishi lozim:

- a) to‘lov topshirig‘ining nomi va nomeri;
- b) to‘lov topshirig‘i to‘ldirilgan sana, ya’ni kun, oy va yil;
- v) to‘lovchining nomi, to‘lovchi bankining nomi va kodi;
- g) to‘lovchining hisobvaraq nomeri va identifikatsiya kodi;
- d) mablag‘larni oluvchi korxona nomi, unga xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi va kod;

- j) mablag‘ oluvchining hisobvaraq nomeri;
- z) to‘lovlarining summasi raqam va yozuvlarda ko‘rsatiladi;
- i) to‘loving maqsadi.

To‘lov topshirig‘ining barcha rekvizitlari to‘ldirilgandan so‘ng, topshiriqnomaning alohida ajratilgan pastki qismiga to‘lovchi korxona rahbari va bosh buxgalterining imzosi hamda muhr izi qo‘yiladi.

Ushbu muhr va imzolar to'lov toshirig'ining faqat birinchi asl nusxasiga qo'yiladi.

Korxonalardan hujjatlar qabul qilish, shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, butun kun davomida bankning mijoz bilan ishlash vaqtidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunda operatsion kun davomida bank tomonidan korxonalardan olingen hujjatlar shu kunning o'zida ijro qilinadi. Agar to'lov topshirig'i to'liq rasmiylashtirilib, uni to'lashga etarli pul mablag'lari bo'lsa, mas'ul ijrochi topshiriqnomadagi barcha ma'lumotlarni dasturiy yo'l bilan kompyuter orqali bankning elektron to'lovlarini amalga oshiruvchi hisoblash markaziga o'tkazadi. Ertasi kuni ertalabdan kechikmagan muddatda bank balansi chiqarilgandan keyin hujjatning birinchi nusxasi bankning kundalik yig'ma jildiga tikiladi va belgilangan tartibda avval joriy arxivda, bir yil o'tgandan so'ng umumiy bank arxiviga topshiriladi. To'lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasi esa mijozning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birqalikda operatsiyalar o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida mijozga beriladi.

Shunday qilib, tijorat bankining hisoblash markazidan dasturiy yo'l orqali modem usuli bilan elektron to'lov o'tkaziladi, ya'ni elektron to'lov tizimi orqali elektron to'lov topshirig'i Markaziy bank qoshidagi hisob-kitob kassa markaziga, o'tkaziladi. Markaziy bank qoshida ochilgan hisob-kitob kassa markazi to'lovchi korxonaga xizmat qiluvchi tijorat bankdan olingen ma'lumotlar asosida elektron to'lov topshirig'ini modem orqali mablag' oluvchi korxonaga xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga o'tkazadi.

Elektron to'lovlar tizimi orqali olingen elektron to'lov topshiriqnomalari mablag'larni oluvchi bankda ikki nusxada qog'ozga chiqariladi. Topshiriqnomaning birinchi nusxasi bank mas'ul ijrochisining imzosi va bank muhr izi qo'yilib, kunlik hujjatlar yig'majildiga tikiladi. Ikkinchi nusxasi esa bank mas'ul ijrochisining imzosi va bank muhri izi qo'yilgan holda mijoz hisobvarag'iga ilova sifatida mijozga beriladi

Hisob-kitoblarning aksept, ya'ni to'lov talabnomalari orqali o'tkaziladigan shaklida ishlatiladigan asosiy hujjat bu - to'lov talabnomasidir. To'lov talabnomalari mahsulot etkazib beruvchi tomonidan belgilangan shakldagi blankalarda bankka taqdim etadi. To'lov talabnomalari quyidagi hollarda ishlatilishi mumkin:

- a) yuklab jo'natilgan tovarlar uchun;
- b) bajarilgan ishlar uchun;
- v) ko'rsatilgan xizmatlar uchun;
- g) amaldagi qonunchilikda, me'yoriy hujjatda yoki shartnomada ko'zda tutilgan boshqa to'lovlar uchun.

To'lov talabnomasida mahsulot etkazib beruvchi tomonidan talabnoma nomeri, jo'natilgan sana, shu korxona nomi, uning hisobvaraq nomeri, xizmat ko'rsatuvchi bank nomi, bankning kodi, to'lovchi korxonaning nomi, uning bankidagi hisobvaraq nomeri, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va kodi, to'lov summasi va to'lov maqsadi ko'rsatiladi. Hujjatlarda ko'rsatilishi lozim bo'lgan umumiylrekvizitlardan tashqari to'lov talabnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- a) shartnoma sanasi va nomeri;
- b) mahsulotlarni yuklab jo'natish sanasi va tovar-transport yoki qabul qilish topshiriq hujjatlari va transport turining, tovarlar pochta va telekommunikatsiya agentligi orqali jo'natilganda esa, pochta kvitansiyalarining nomeri.

Agar mahsulot, uni sotib oluvchining transport vositasi bilan olib ketilsa, talabnomaning alohida ajratilgan joyida yuk uni sotib oluvchining o'z transporti bilan olib chiqib ketilgani hamda ishonchnomaning nomeri ko'rsatiladi. "Shunday hollar ham bo'ladiki, mahsulot kontraktatsiya shartnomalari asosida realizatsiya qilinadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha mahsulot etkazib berishda to'lov talabnomasining yuqori qismida "Kontraksiya shartnomasi" deb ko'rsatilishi lozim. To'lov talabnomasining pastki, alohida ajratilgan qismida mahsulot jo'natuvchi korxona rahbari va bosh buxgalteriyaning imzolari va korxonaning muhr izi qo'yiladi.

To'lov talabnomalari 2 yoki 3 nusxada to'ldiriladi. Agar mahsulot etkazib beruvchi va to'lovchi tomonlarga bitta bank bo'limi xizmat ko'rsatsa talabnoma 3 nusxada taqdim etiladi. Bu holda to'lov talabnomalarning har bir nusxalari quyidagicha ishlataladi:

birinchi nusxa to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lovni amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlar tikiladi;

ikkinci nusxasi to'lovni oluvchining hisobvarag'iga ilova sifatida masul, ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhr iz qo'yilgandan va qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda beriladi;

uchinchi nusxa qabul qilish sanasi, to'lovni amalga oshirish sanasi, mas'ul ijrochining imzosi va bank to'rtburchak muhr izi qo'yilgan holda to'lovchiga uning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda beriladi.

Agar to'lovchi va mahsulot etkazib beruvchi bir hudud ichidagi yoki turli hududlarda joylashgan turli bank bo'limlari ham xizmatidan foydalansalar, bu holda to'lov talabnomalari 2 nusxada bankka taqdim etiladi. Ularning har ikkala nusxalari pochta aloqasi, yoki kurerlar orqali to'lovchi bankiga jo'natiladi.

To'lovchi korxona bankiga mahsulot etkazib beruvchi korxona bankidan birinchi va ikkinchi nusxa to'lov talabnomasi pochta aloqasi yoki kurerlar orqali kelib tushadi. To'lov talabnomalari tomonlar o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan akseptlash tartibida yoki akseptlamasdan to'lanishi mumkin. Bank tomonidan talabnomalarni akseptlash uchun 3 kun muhlat beriladi. Lekin korxonaning iltimosiga ko'ra bank bu muddatni bir ish kunigacha cho'zishi mumkin. Akseptlash tartibida to'lanadigan talabnomalarning birinchi nusxasi to'lov uchun akseptlanishni kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka bankda 1-kartoteka deb yuritiladi. Talabnomaning ikkinchi nusxasi tovar-transport hujjatlari bilan birga keyingi ish kundan kechiktirilmasdan hujjatni akseptlash uchun qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda to'lovchiga beriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari kabi to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar ham ma'lum afzallik va kamchiliklarga ega:

- 1) mahsulot sotuvchi bilan mahsulot oluvchi tomonidan bir-birini o'zaro nazorat qilish;
- 2) mahsulot oluvchiga tovarni jo'natish kechiktirilmaydi;
- 3) mol jo'natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun mahsulot oluvchining mablag'ini alohida hisobvaraqda deponent qilib qo'yish talab etilmaydi, ya'ni to'lovchining mablag'lari biror muddatga aylanmadan tashqariga chiqib ketmaydi;

4) to'lovchiga taqdim etilgan hujjatlar asosida mol etkazib beruvchining shartnoma shartlari qay darajada bajarilishini tekshirish huquqi beriladi. Shu bilan birga, shartnoma shartlaridan biri bo'lgan holda to'lov to'lashdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi;

5) mol oluvchi hisobvarag'idan akseptlangan talabnomalar bo'yicha mablag'larning majburiy olinishi mahsulot etkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tomon manfaatlariga mos keladi.

To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning kamchiliklari quyidagilar:

1. Mahsulot sotuvchi korxonaga to'loving o'z vaqtida o'tkazilishi kafolatlanmaydi

2. To'lov o'tkazilishi bilan tovar jo'natilishi vaqtining bir-biriga mos kelmasligi. Tovar kelib tushgandan so'ng korxona hisobvarag'ida pul bo'lmasa, to'lov o'tkazilmaganiga qaramay, shu korxonaning kreditor qarzdorligining oshishi vaaylanma mablag'lari sainaradorligining pasayishiga olib keladi.

3. To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarga hujjatlar aylanishi to'lovtopshirig'iga nisbatan uzoqroq davom etadi.

Umuman, to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning ishlatilishini ko'p hollarda o'z vaqtida to'lanmagan to'lov talabnomalarning ko'payishiga sharoit yaratadi, chunki talabnoma bankka to'lov uchun kelib tushgan vaqtida to'lovchining hisobvarag'ida har doim ham to'lovni amalga oshirish uchun etarli pul mablag'lari bo'lmasligi, kartotekaga qo'yilgan har bir to'lov talabnomasi respublika xalq xo'jaligida debtorlik va kreditorlik qarzlarining oshganligidan dalolat beradi. Shu sababli respublika banklari o'z mijozlarining kartotekadagi hujjatlari va ularni to'lash bo'yicha qanday ishlar olib borilayotganligini nazorat qilib turadilar.

Akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli to'lov aylanmasida juda kichik ulushni tashkil etadi. Jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni kafolatlash oldida akkreditiv shakldan foydalaniladi. Akkreditiv mijozning topshirig'iga ko'ra shartnoma bo'yicha uning kontragenti foydasiga berilayotgan bankningshartli pul majburiyatidir. Unga ko'ra akkreditiv ochgan bank mahsulot etkazib beruvchi to'lovni bajarishi yoki boshqa banklar tomonidan akkreditivda ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim qilganda va

akkreditivning boshqa shartlari bajarilganda, ularga to'lovlarni bajarish uchun vakolat berishi mumkin.

Akkreditivlar ochilganda, akkreditiv ochgan bank to'lovchining shaxsiy mablag'idan yoki unga berilgan kredit hisobidan mol etkazib beruvchining banki tasarrufidan alohida "Akkreditivlar", balans hisobvarag'i va mablag'larni etkazib bersa, bunday akkreditivlar qoplanlangan akkreditivlar deyiladi. Akkreditiv ochgan bank xalqaro qabul qilingan andozalar asosida bankemitet deb yuritiladi.

Akkreditivlarning ikkinchi turi qoplanmagan akkreditiv bo'lib, bank va boshqa korxonalar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilgan xo'jaliklarga bunda akkreditivlardan foydalanishga ruxsat etiladi. Qoplanmagan akkreditivning qoplanlangan akkreditivdan farqi shundan iboratki, bunda to'lovchi korxonaning pul mablag'lari alohida hisobvaraqqqa o'tkazib qo'yilishini talab qiladi. Bank to'lovchi hisobvarag'ida to'lov hujjatlari kelib tushganda pul bo'limgan taqdirda bank mablag'lari hisobidan to'lab berishni kafolatlaydi. Akkreditivning bu turining qulayligi shundan iboratki, mol sotib oluvchining pul mablag'lari aylanmada tarqalib ketmaydi, ikkinchi tomonidan mol jo'natuvchi korxona uchun ham to'lov kafolatlangan faqat bo'sh mablag'larga hisobidan to'lov amalga oshirilganda shartnomada kelishilgan miqdorda haq to'lanadi.

Qoplanlangan va qoplanmagan akkreditivlar chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan bo'lishi mumkin. Agar akkreditiv bo'yicha hujjatlarda bu haqda belgi mavjud bo'lmasa, bunday akkreditivlar chaqirib olinuvchi hisoblanadi. Chaqirib "olinuvchi akkreditiv bankemitet tomonidan mablag'larni oluvchi bilan oldindan kelishib olinmasdan ham o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Masalan, shartnomada ko'zda tutilgan shartlarga rioya etilmaganda, bankemitet akkreditiv bo'yicha to'lovlarni kafolatlash muddatidan avvalroq voz kechganda va boshqa hollarda akkreditiv chaqirib olinishi mumkin. To'lovchi mahsulot etkazib beruvchiga chaqirib olinadigan akkreditivning shartlari o'zgartirishi (bekor qilinishi) to'g'risidagi barcha farmoyishlarni faqat bankemitet orqali berishi mumkin. Ushbu bank mahsulot etkazib beruvchining banki, ya'ni bajaruvchi bankda, u esa, o'z navbatida, mahsulot o'tkazib beruvchi korxonani xabardor qiladi. Bajaruvchi bank mahsulot etkazib beruvchi taqdim etgan va mahsulot etkazib beruvchining banki tomonidan

qabul qilingan, akkreditiv shartlarigi oid bo‘lgan hujjatlar bo‘yicha to‘lovlarni mazkur bank akkreditivni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi xabarnomani olgunga qadar to‘lashi shart. Mahsulot etkazib beruvchining roziligesiz, uning foydasiga ochilgan chaqirib olinmaydigan akkreditiv o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Mahsulot etkazib beruvchi korxona akkreditiv shartlarida ko‘zda tutilgan hollarda akkreditivdan foydalanishdan muddatidan oldin voz kechishi mumkin.

Bir vaqtning o‘zida akkreditiv summasi akkreditivlarni hisobga oluvchi ko‘zda tutilmagan hollar hisobvarag‘iga kiritiladi. To‘lov o‘tkazilgandan so‘ng arizaning ikkinchi nusxasi bank mas’ul ijrochisining imzosi, bankning to‘rtburchak muhri, amalga oshirilgan sana hamda qabul qilish sanasi qo‘yilgan holda to‘lovchiga ko‘chirma bilan birgalikda beriladi.

Akkreditiv faqat bir ta’mintonchi bilan hisob-kitob qilishga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Akkreditivning muddati va hisob-kitob qilish tartibi tomonlar o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Shartnomada:

- bank emitentining nomi;
- akkreditiv turi va uni bajarish muddati usullari;
- mol etkazib beruvchining akkreditiv bo‘yicha mablag‘ olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar ro‘yxati;
- tovarlarni etkazgandan keyin hujjatlarni taqdim qilinish muddati;
- mol etkazib beruvchi va oluvchi tomonlar nomi, ularning yuridik adreslari;
- bajaruvchi bank nomi va boshqalar ko‘rsatiladi.

Akkreditiv sana uchun xaridor o‘z bankiga bank emitentga 2 nusxada taqdim etadi. Arizada akkreditiv ochish uchun asos bo‘lgan shartnomaga akkreditivning amal qilish muddati, akkreditivni bajaradigan bankning nomi hamda to‘lov hujjatlarida ko‘rsatiladigan barcha rekvizitlar ko‘rsatiladi.

Bankda ushbu korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi mas’ul ijrochi akkreditiv ochish xaqidagi arizani olib, uning to‘g‘ri va to‘liq rasmiylashtirilganligi barcha kerakli rekvizitlarning to‘g‘riligini tekshiradi. Qabul qilingan akkreditiv ochish haqidagi arizaning

birinchi nusxasiga o‘z imzosini, bankning to‘rtburchak muxr izini, arizani qabul qilish sanasi va to‘lov o‘tkazish sanasi qo‘yadi. Arizaning birinchi nusxasida ko‘rsatilgan barcha rekvizitlar kompyuterga kiritib, elektron to‘lovlar tizimi Markaziy bankning hisoblash Markazi orqali mahsulot jo‘natuvchi korxona muhr izi qo‘yilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi

Mahsulot etkazib beruvchi akkreditiv bo‘yicha kelib tushgan mablag‘larni o‘zining talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisob varag‘iga o‘tkazish uchun unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuklab jo‘natish va akkreditiv shartlarida ko‘zda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Akkreditiv bo‘yicha to‘lovlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar akkreditiv muddati kelgunga qadar mahsulot etkazib buruvchi tomonidan bankka taqdim etilishi va akkreditivning barcha shartlarini bajarilganini tasdiqlashi shart. Akkreditiv bo‘yicha to‘lovlarda mahsulot etkazib beruvchining banki mahsulot etkazib, beruvchi tomonidan akkreditivning barcha shartlariga rioxal qilinganini hamda tasdiqlovchi hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirilishi lozim. Ushbu shartlarning birortasi buzilganda yoki bajarilmaganda bank akkreditivlar bo‘yicha to‘lovlarni o‘tkazishi mumkin emas. Bir tomonidan mahsulot etkazib beruvchining akkreditivlar bo‘yicha hisobvarag‘idagi mablag‘larni uning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga memorial order orqali o‘tkaziladi. Memorial order mas‘ul ijrochi tomonidan 4 nusxada to‘ldirilib, unda to‘lov bo‘yicha shartnoma nomeri, sanasi, to‘loving mazmuni hisobvaraqlar nomeri ko‘rsatiladi. Memorial orderning alohida nusxalar quyidagicha ishlataladi:

- memorial orderning birinchi nusxasi buxgalterning imzosi, bankning to‘rtburchak muhrining izi tushirilib tasdiqlovchi hujjatning bir nusxasi bilan birgalikda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;

- memoreal orderning ikkinchi, uchtasi nusxalari mas‘ul ijrochining imzosi va to‘rtburchak muhrining izi qo‘yilib, tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda bank emitentga jo‘natiladi;

- memoreal orderning to‘rtinchi nusxasi mas‘ul ijrochining imzosi, bankning to‘rtburchak muhr izi qo‘yilib mahsulot etkazib beruvchi korxona hisobvarag‘iga ilova sifatida beriladi.

Shunday qilib, akkreditiv mahsulot etkazib beruvchi korxonaga boshqa xizmat qiluvchi bankda quyidagicha yopiladi:

a) akkreditiv muddati tugagandan keyin bajaruvchi bank akkreditiv yopilganligi to‘g‘risida emitent bankka xabar beradi;

b) mahsulot etkazib beruvchining muddatdan oldin akkreditivni ishlatalishdan voz kechish to‘g‘risidagi arizaga ko‘ra, mahsulot etkazib beruvchining keyingi akkreditivdan foydalanishdan voz kechganlik to‘g‘risidagi arizasiga asosan, bank-emitentga ko‘chirilganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma yuboriladi.

v) sotib oluvchining akkredit qisman yoki to‘la chaqirib olish to‘g‘risidagi arizasiga ko‘ra, agar akkreditiv shartlarida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, akkreditivlar emitenti bankdan xabar etib kelgan kuni 22602 "Mijozlarning akkreditivlar bo‘yicha depozitlar hisobvarag‘idagi mavjud mablag‘lar doirasida to‘liq yoki qisman qoplanadi.

Akkreditivlar bo‘yicha depozit hisobvaraqlardan naqd pul berilishi akkreditivlari boshqa korxonalar nomiga o‘tkazilishi va qayta rasmiylashtirilishiga ruxsat etilmaydi.

Bank emitent akkreditivni ishlatganligi to‘g‘risida bajaruvchi bankdan hujjatlarni olgandan keyin memorial orderga asosan ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvarag‘idan to‘liq hisobdan chiqadi va tasdiqlovchi hujjatlarni memorial orderning nusxasi bilan birgalikda to‘lovchi korxonaga beradi. Ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvarag‘i akkreditiv to‘liq ishlatilmagan va u sotib oluvchi bankidagi hisobvaraqqa qaytarilganda ham yopiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shaklining o‘z afzalligi, shu bilan birga, bir qator kamchiliklari mavjud. Akkreditiv shakllari bo‘yicha hisob-kitob qilishning afzal tomoni shundaki, mahsulot etkazib beruvchi uchun to‘lov to‘liq, kafolatlangan bo‘ladi. Akkreditiv shaklining kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- akkreditiv shakli bo‘yicha hujjatlar aylanishi texnik jihatdan birmuncha qiyinroq;

- transportga qulay emas, akkreditiv ochilgan paytda yukni jo‘natish uchun tayyor transport bo‘lmasligi mumkin, bu esa yuk jo‘natishini kechikishiga olib keladi;

- bu shaklda to‘lovchining mablag‘lari aylanmadan qisman chetlashadi, boshqa hisob-kitoblar bo‘yicha bu mablag‘lardan foydalanishga ruxsat etilmaydi;
- akkreditiv bo‘yicha, odatda, faqat bir mol etkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilinad

Inkasso topshiriqnomalari bo‘yicha operatsiyalar.

- Inkasso topshiriqnomasi – ushbu topshiriqnomani bergan bankka mijozning bank-emitentga to‘lovchining hisobvarag‘idan so‘zsiz tartibda mablag‘ chiqarish to‘g‘risidagi talabidir. Inkasso topshiriqlari quyidagi hollarda taqdim etiladi:

- birinchidan, o‘z vaqtida to‘lanmagan soliqlarni undirish uchun;
- ikkinchidan, davlat byudjetiga o‘tkaziladigan soliqlardan tashqari to‘lovlар, jumladan, penyalar, jarimalarni undirib olish to‘g‘risidagi soliq organlarining farmoyishiga ko‘ra;
- uchinchidan, byudjetdan tashqari fondlardan to‘lovlarni undirib olishda agar bu qonuniy hujjatlarda ko‘zda tutilgan bo‘lsa;
- to‘rtinchidan, bojxona organlarning ishining qaroriga ko‘ra o‘z vaqtida to‘lanmagan bojxona to‘lovlarini undirish uchun.

Ijro hujjatlarining bajarilishi muddatlari quyidagicha belgilangan:

- sudlar tomonidan berilgan ijro varaqlari bo‘yicha –3 yil;
- ijro ustxatlari bo‘yicha, agar qonunchilik tomonidan boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa –3 yil;
- xo‘jalik sudlarining ijro varaqlari bo‘yicha – 3 yil;
- xo‘jalik sudining tomonidan berilgan sud buyrug‘i bo‘yicha undirib olib, buyruq berilgan kundan boshlab – 10 kun muddat davomida amalga oshiriladi.

Davlat sug‘urtasi, ijtimoiy sug‘urta idoralari, davlat byudjeti foydasiga mablag‘larni o‘tkazib berish uchun hujjatlar bank tomonidan amal qilish schetdagi cheklanmagan holda qabul qilinadi.

Inkasso topshiriqnomasi bank bo‘limiga undirib oluvchi tomonidan 05054110131 shaklda uch nusxada topshiriladi. Undirib oluvchi va to‘lovchi tomonlarga bitta bank bo‘limida xizmat ko‘rsatilsa, inkasso topshiriqnomalarining alohida nusxalar quyidagicha ishlatalidi:

- birinchi nusxa to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas‘ul ijrochisi tomonidan imzo, bankning to‘rburchak muhr izi,

to‘lov amalga oshirilgan sana, qabul qilingan sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi.

– ikkinchi nusxasi ijro hujjatlari bilan birga to‘lovchining hisobvarag‘iga va sifatida mas‘ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning muhr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovchiga beriladi;

– uchinchi nusxasi bank bo‘limining to‘rtburchak muhr izi tushirilgan mas‘ul bajaruvchi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana va qabul qilingan sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovnini oluvchiga beriladi.

Undirib oluvchi va to‘lovchiga bir shahar ichidagi turli bankdan xizmat ko‘rsatganda ham inkasso topshiriqnomasi 3 nusxada rasmiylashtirilib undirib oluvchi tomonidan bevosita beruvchi korxona bankiga topshiriladi. Inkasso topshiriqnomasining alohida nusxalari quyidagicha ishlataladi:

– birinchi nusxa to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas‘ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning muhri izi tushirilgan holda va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi;

– ikkinchi nusxasi ijro hujjatlari bilan bирgalikda to‘lovchining hisobvarag‘iga ilova sifatida mas‘ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan va bankning muhr izi tushirilgan holda to‘lovchiga beriladi;

– uchinchi nusxasi bosh bo‘limining to‘rtburchak muhr izi tushirilgan, mas‘ul ijrochining imzosi, to‘lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lov; oluvchining o‘ziga inkasso topshiriqnomasining uchun bank tomonidan qabul qilgанини tasdiqlovchi hujjat sifatida qaytariladi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar hisob varaqa

To‘lov topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, akkreditivlar, inkassa topshiriqlari, hisob cheklari, davlat sug‘urtasi, ijtimoiy sug‘urta idoralari, davlat byudjeti.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

- 1.Naqd pulsiz pul aylanmasi, uni tashkil qilish tamoyillari
2. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari
- 3.Ijro hujjatlarining bajarilishi muddatlari
4. Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha operatsiyalar

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 15 fevraldaggi PQ-2777-sonli qarori) 25.04.2017 y. PF-5027.18-son, 310-modda.

2.“O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonun-.T.: 1996.

3.“O'zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun-T.:1996.

4.Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.

5. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.

6.Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.

10-BOB. PUL TIZIMI

10.1. Pul tizimining mohiyati va turlari

Pul tizimi – bu mamlakatda tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan tasdiqlangan pul muomalasini tashkil qilish shaklidir.

Pul tizimi turlari pul qanday shaklda amal qilishiga bog'liq, ya'ni umumiylar ekvivalent - tovar sifatida yoki qiymat belgisi sifatida bo'lishiga qarab quyidagicha pul tizimlar mavjud bo'lgan.

1. Metall pul muomalasi tizimlari.

2. Qog'oz va kredit pullar muomalasi tizimlari.

Birinchi tizimda metall pul bevosita muomalada bo'ladi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi, kredit pullar esa metallga almashinishi mumkin;

Kredit va qog'oz pullar muomalaga kiritilishi bilan qog'oz pullar muomalasi tizimi yuzaga kelgan.

Mamlakatda umumiylar ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va pul muomalasi bazasiga qarab pul tizimi bimetalizm va monometalizm pul tizimlariga bo'linadi.

Bimetalizm – pul tizimida umumiylar ekvivalent rolini metall (ko'pincha oltin va kumush) bajargan, bu tizimda ikkala metalldan ham tangalarning erkin muomalaga chiqarilishi va ularning cheksiz almashishiga amal qilingan.

Parallel valyuta tizimida ikki metall qiymati stixiyali, metallning bozor bahosiga munosib tarzda belgilangan. Bu pul tizimida davlat metallar orasidagi mutanosiblikni o'matib qo'ygan. Oltin va kumush tangalarning chiqarilishi va ularning aholi tomonidan qabul qilinishi ana shu mutanosiblikka muvofiq amalgalashishiga oshirilgan.

Oltin tanga standarti kapitalizmning erkin raqobatiga juda mos kelgan, ishlab chiqarish, kredit tizimi, jahon savdo kapitali kelib chiqishining rivojlanishiga yordam bergan. Bu standart quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– mamlakat ichki muomalasida to'laqonli oltin tanga mavjud bo'ladi, oltin pul barcha funksiyalarni bajaradi;

– xususiy shaxslarga tangalarni erkin zarb qilishga ruxsat etiladi (ko'pincha mamlakat zarbxonasida);

- muomaladagi to‘la qiymatli bo‘limgan pullar (banknota, kredit pullar) erkin va cheksiz tarzda oltin pullarga almashiniladi;
- oltin va chet el valyutasini erkin tarzda olib chiqish va olib kirishga hamda erkin oltin bozorlarining amal qilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Oltin tanga standartining amal qilishi Markaziy emissiya banklarida oltin zahiralari bo‘lishini talab qilgan. Bular tanga muomalasining zahirasi bo‘lib xizmat qilgan, banknotalarining oltinga almashinishi ta’milangan va jahon pullari zahirasi bo‘lgan.

Rivojlangan kapitalizm sharoitida banknotalar kredit tabiatini saqlab qolgan, ular iqtisodiyot, davlatni kreditlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rasmiy chiqariladi va qog‘oz-pul muomalasi qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

Pul tizimining holati mamlakat iqtisodiyotga, ishlab chiqarishning rivojlanishiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Pul tizimi ishlab chiqarish sur’atlarini ushlab turish yoki tezlashtirishga ta’sir ko‘rsatadi.

10.2.Pul tizimining asosiy elementlari

Zamonaviy pul tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: pul birligi, valyuta kursini o‘rnativish qoidalari, baholar masshtabi, pul ko‘rinishlari, emissiya tizimi, davlat yoki kredit apparati.

Milliy valyuta tizimidir nisbatan mustaqil bo‘lsa ham pul tizimining tarkibiy qismi.

Pul birligi – qonuniy tarzda o‘rnatilgan pul belgisi bo‘lib, barcha tovarlar bahosini o‘zaro solishtirish va ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko‘pincha pul birligi mayda bo‘linuvchi qismlarga ajraladi. Ko‘pchilik mamlakatlarda o‘nlik bo‘linish tizimi o‘rnatilgan.

Rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy pul tizimi quyidagi xususiyatlarga ega.

- pul birligining oltin tarkibi, banknotalarini oltin bilan ta’minalash va unga almashishning bekor qilinishi;
- oltinga almashinmaydigan, keyinchalik qog‘oz pulga aylanadigan, kredit pullarga o‘tish;
- pulni muomalaga nafaqat xo‘jaliklarni banklar tomonidan kreditlash, balki davlat xarajatlarini qoplash uchun chiqarish;
- pul muomalasida naqdsiz pul aylanmasi ustunligi;

- pul muomalasini davlat tomonidan tartibga solishning kuchayishi.

10.3.O'zbekiston Respublikasida pul tizimi va uning rivojlanish tarixi

O'zbekiston zamini va xalqi oldindan mukammal tarixga, sohalar bo'yicha o'z mustaqil tizimiga ega bo'lgan. Shuning uchun biz qisqacha pul tizimining tarixi to'g'risida to'xtalmoqchimiz.

Ba'zi manbalarda keltirilishiga qaraganda, O'rta Osiyoda birinchi pullar Iskandar Zulqarnayn davrida miloddan avval 261 - 250 yillarda chiqarila boshlangan.

O'zbekiston Respublikasi zaminida, ya'ni Buxoro davlatida birinchi metall pullar zarb qilingan. Metall pullar zarb qilingunga qadar Buxoro davlatida savdo-sotiqda pul birligi sifatida bug'doy va qog'oz material ishlataligan.

Birinchi metall pullar Buxoro davlatida 700 yillarda zarb qilingan. Bu pullar kumush tangalar bo'lib, Buxoro davlati shohi KanaBuxoro xudot tomonidan chiqarilgan. Tanga yuqori sifatga ega bo'lgan toza kumushdan zarb qilingan. Tanga o'rtaida shohning tasviri va uning atrofiga Qur'on oyatlaridan yozilgan. Bu kumush pullar «dirham» deb atalgan. Buxor xudot 40 yil davlatni boshqargandan keyin, taxtga xalifa AbuBakr Siddiq o'tirgan. Abu Bakr, keyinchalik shoh Horun ar-Rashid davrida Buxoro davlatida pul tizimi barqaror bo'lib, savdo ko'proq dirhamlarda olib borilgan. Bu orada Xorazm davlati ham o'zining kumush tangalarini muomalaga kiritgan. Lekin aholi ko'proq dirhamlar bilan savdo olib borishni afzal ko'rgan. Dirhamlarga bo'lgan talabning oshishi, Buxoro davlatining ko'pgina boshqa mamlakatlar bilan savdo olib borishi hamda dirhamlarning juda yuqori proba va sifatga ega bo'lishi asta-sekinlik bilan ularning muomaladan yo'qolishiga olib kelgan.

801 yilning kuzida taxtga Gidrif kelgan va u pul tizimini barqarorlashtirish maqsadida muomalaga 6 turdag'i oltin, kumush, teri, temir va mis, har xil metall qorishmasidan zarb qilingan pul birliklarini chiqargan. Bu pullar xalq orasida «gidrifi»lar degan nom olgan. Kumush gidrifi lar dirhamlarga qaraganda sifati past va kumush temir qorishmasi natijasida qoramtilrangda bo'lgan. Bu pullar aholi orasida muomalada yaxshi qabul qilinmagan, shuning uchun davlat

oldingi pulga nisbatan yangi kumush gidrifiining majburiy kursini belgilab qo'ygan, ya'ni 6 gidrifi 1 dirhamga tenglashtirilgan va astasekinlik bilan soliq va to'lovlarni faqat gidrifida olishni joriy qilish orqali 1 gidrifini 1 dirhamga tenglashtirishga erishilgan. Davlat tomonidan har xil soliq va to'lovlarni faqat gidrifida to'lashni joriy qilish natijasida 822 yillarga kelib 100 kumush dirham 70 gidrifiga, 1 gidrifi tillo 7,5 gidrifi kumushga tenglashtirilgan. Gidrifilar Buxoroda Mahak Qasrida zarb qilingan.

10.4.O'zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi

Ma'lumki, har bir davlat o'zining pul tizimiga ega bo'ladi. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishi uning mustaqil pul tizimiga ega bo'lishini taqozo qildi. Mustaqil pul tizimi joriy qilinishining bosqichi 1993 yildan boshlab «so'm-kupon»larning muomalaga chiqarilishi hisoblanadi. O'zbekiston pul tizimini qurishning ikkinchi bosqichi – 1994 yil 1 iyuldan boshlab milliy valyuta – «so'm»ning muomalaga chiqarilishi bo'lib, u O'zbekiston tarixida juda katta ahamiyatga ega.

Har bir davlatning pul tizimi ma'lum elementlardan tashkil topadi va qonun asosida yuqori davlat organlari orqali boshqarib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- pul birligining nomi;
- pul birligining turlari - qog'oz va metall pullar;
- ularni muomalaga chiqarish qoidalari;
- pul, kredit, valyuta boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari;
- naqd pulsiz to'lov aylanmasi va kredit pullar (chek, veksel) muomalasini olib borishda davlat tomonidan belgilangan shartlar;
- milliy valyutani chetga olib chiqish va chetdan olib kelish qoidalari;
- xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari;
- milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi va davlat tomonidan o'rnatilgan valyuta kursi.

Alohibda olingan davlatning pul tizimi o'z xususiyatlariiga ega bo'lib, uning elementlari u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin.

Pul tizimi ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi, desak xato bo'lmasa kerak. Shuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni pultizimini obyektiv talablar, ya'ni pul tizimining yagona bo'lishi, pul birligi qiyamatining doimiyligi va pul muomalasining talabga qarab o'zgarib turishi kerakligini qo'yadi.

Hozirgi kunimiz, iqtisodiyotimizning rivojlanishida amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlar, katta qurilishlar va moliyalashtirishlar O'zbekiston iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun to'g'ri yo'l tanlaganini ko'rsatib turibdi. Zero, mustaqil pul tizimiga ega bo'lmasdan iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat barpo etish mumkin emas.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Zamonaviy pul tizimi, to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, akkreditivlar, inkassa topshiriqlari, hisob cheklari, ekvivalent, bimetalizm.

Takrorlash va nazorat uchun savollar

- 1.Pul tizimining mohiyati va turlari
- 2.Pul tizimining asosiy elementlari
- 3.O'zbekiston Respublikasida pul tizimi va uning rivojlanish tarixi
- 4.O'zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbiriari to'g'risida" 2017 yil 15 fevraldagi PQ-2777-sonli qarori) 25.04.2017 y. PF-5027.18-son, 310-modda.

2.“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun-.T.: 1996.

3.“O‘zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun-T.:1996.

4.Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.

5.Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.

6.Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.

11-BOB. INFLYATSIYA

11.1. Inflyatsiya, uning mazmuni va kelib chiqishsabablari

Inflyatsiya lotincha «inflatio» so‘zidan olingan bo‘lib «ish», «bo‘rtish», «ko‘pchish» degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z XIX asrning o‘rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy atama sifatida ishlatilgunga qadar, tibbiyotda xavfli o’sma kasalligini ifodalashda qo‘llanilgan.

Tarix, haqiqatan ham bu so‘zning mohiyati har tomonlama xavfli ekanligini ko‘rsatdi. Chunki inflyatsiya qandaydir alohida olingan bozorda tovarlar va xizmatlar narxining o‘sishidangina iborat bo‘lmasdan, bu umumiqtisod uchun xavfli hodisadir. Inflyatsiya so‘zining iqtisodiy mohiyati— muomalada mavjud bo‘lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko‘p pul chiqarish degan ma’noni anglatadi.

Iqtisodiyotda inflyatsiyaning yakuni tovarlar bahosining o‘sishiga, qoniqtirilmagan, lekin qisman to‘lanishi mumkin bo‘lgan talablarining vujudga kelishiga olib keladi. Odatda, inflyatsiyaning bu turi klassik inflyatsiya deb yuritiladi.

Inflyatsiyaning mohiyati iqtisodiy adabiyotlarda turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Xususan, K.R.Makkonnell, S.Bryu va K.Eklund inflyatsiyani iqtisodiyotda baholarning o‘rtacha ko‘tarilishi sifatida¹⁵, P.Xeyni esa pulning sotib olish qobiliyatining pasayishi yoki qiymatining yo‘qolishi ekanligini ta’kidlaydilar¹⁶.

Inflyatsiya so‘zi AQSHning Shimoliy va Janubiy shtatlari o‘rtasida fuqarolar urushi bo‘lganda muomalaga juda ko‘p miqdorda (450 mln. grin bek) qog‘oz dollar chiqarilgan vaqtidan boshlab qo‘llanila boshlagan. Ularning sotib olish qibiliyati ikki yildan keyin 50 foizgacha tushib ketgan. Agar tarixga e’tibor beradigan bo‘lsak, urush va boshqa ofatlar sababli davlat xarajatlarining oshib ketishi inflyatsiya bilan uzviy bog‘liq.

Hozirgi davr inflyatsiyasi, o‘tgan davr inflyatsiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Oldingi inflyatsiyalar vaqtinchalik bo‘lib,

¹⁵ Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В. 2 т.: Пер. с англ. 11 – го изд. Т. И. –М.: Республика, 1992. С. 163.

¹⁶ Хейне П. Экономической образ мышления. –М.: 1991. С.484.

ular, odatda, urush vaqtida harbiy xarajatlarni qoplash uchun qog'oz pullar chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Biror daromad olmasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish va tovar aylanmasi sur'atlarini oshirmsandan yoki bu ko'rsatkichlar kamayib ketgan holda davlat tomonidan bo'ladigan xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy yo'llaridan biri qog'oz pullarni muomalaga chiqarishdan iborat bo'lgan. Natijada muomalaga chiqarilgan pullar, muomala uchun zarur bo'lgan oltin miqdoridan oshib ketgan va pulning real qiymati uning nominal qiymatidan tushib ketgan, ya'ni haqiqatda pul birligi o'zida ko'rsatilganidan kam oltin miqdorni ifoda qila boshlagan.

Inflyatsiyaning iqtisodiy mohiyatiga qator xorijiy va mahalliy olimlar o'zlarining fikrlarini bildirgan. Xususan, Rossiya iqtisodchi olimlari V.A.Щегорцов va V.A.Taranlar "Inflyatsiya – bu tovarlar va xizmatlar sifati va iste'mol qiymati o'zgarmagan holda ularning bahosini o'sib borishidir, bu jarayonda pulning qadri pasayib boradi."¹⁷, deya ta'kidlaydilar.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan, professor Sh.Abdullaeva inflyatsiyaning iqtisodiy mohiyatiga: "Inflyatsiya so'zining iqtisodiy mohiyati –muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi" deya ta'rif beradi¹⁸.

Oldingi inflyatsiyalarning yana bir xususiyati shundaki, ular ma'lum davrda namoyon bo'lgan. Hozirgi davr inflyatsiyasi esa, odatda, doimiy (xronik) xarakterga ega bo'lib, xo'jalik hayotining barcha sohalarini qamrab olishi, pul omillaridan tashqari boshqa iqtisodiy omillarga ta'sir qilishi bilan farqlanadi.

Oxirgi yillarda inflyatsiya tez-tez uchrab turadigan jarayon bo'lib, sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflyatsiya: birinchidan, uzliksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan, pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumxo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi. XX asr inflyatsiyasining asosiy sababi tovar kamyobligigina bo'lib

¹⁷ Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф. Щегорцова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С. 81.

¹⁸ Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. –Т.: “Iqtisod – moliya”, 2007, 71 – б.

qolmasdan, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishda inqirozlar mavjudligi bilan ifodalanadi.

Hozirgi davr inflyatsiyasi pul talabining tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar salmog'ining o'sishi natijasida tovarlar bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi bilan ifodalanadi.

Inflyatsiyaning asosiy sababi – bu xalq xo'jaligining turli sohalari o'rtaida vujudga kelgan nomutanosiblikdir. Bu, avvalam– bor, jamg'arma va iste'molchi o'rtaсидаги talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtaсидаги muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtaсидаги nomutanosibliklardan iboratdir.

Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi omillarga qarab, uning sabablarini ichki va tashqi sabablarga bo'lish mumkin.

Inflyatsiyaning ichki omillari monetar pul siyosati bilan va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq turlarga bo'linadi. Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq omillar bu xo'jalikdagi va iqtisodiyotdagি mutanosiblikning buzilishi, ishlab chiqarishda yakka hukmronlikka yo'l qo'yish, iqtisodiyotning davriy rivojlanishi, investitsiyalashda nomutanosiblik, baholarni tashkil qilishda davlatning yakka hokimligi, kredit siyosatining noto'g'ri olib borilishi va boshqalar hisoblansa, pul bilan bog'liq omillarga davlat moliyasi sohasidagi inqrozlar; davlat byudjetning taqchilligi, davlat qarzlarining o'sishi, pul emissiyasi, pul muomalasi qonunining buzilishi, kreditlashda avtomatizmga yo'l qo'yish va boshqalar kiradi.

Inflyatsiyaning tashqi omillariga jahon iqtisodiyotida bo'lgan krizislar, (xomashyo, yoqilg'i, valyuta bo'yicha) davlatning valyuta siyosati, davlatning boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy faoliyati, oltin va valyuta zahiralari bilan bo'ladigan noqonuniy operatsiyalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproporsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi va pul birligining qadrsizlanishiga inflyatsiya deb aytildi.

Inflyatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

– tovar va xizmatlar bahosining uzliksiz va tartibsiz o'sib borishi natijasida pulning qadrsizlanishi va uni sotib olish qobiliya-tining tushib borishi;

– chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining tushib ketishi;

– milliy pul birligida oltin narxining oshib borishi va bosh-qalar.

Ba'zi bir iqtisodchilarning¹ fikricha, inflyatsiya – bu barcha tovarlar baholarining oshishini bildirmaydi. Inflyatsiya juda tez o'sgan taqdirda ham ayrim tovarlar bahosi barqaror bo'lib qolishi, boshqalariniki tushishi ham mumkin ekan. Bunday xulosalar 70-80 yillarning inflyatsiyasiga mos kelishi mumkin.

Albatta, inflyatsiya davrida baholarning oshishi doim bir xil sur'atlarda bo'lmasdan, sakrab turadigan bo'lishi mumkin. Lekin ba'zi tovarlar bahosining tushishi yoki barqaror bo'lib turishi, XX asrning inflyatsiyasi uchun mos, deb to'liq ishonch bilan uqtira olmaymiz. Ba'zida davlat aralashuvi bilan aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan ayrim bir tovarlar bahosini ma'lum davrda barqaror ushlab turish mumkin, ammo inflyatsiyaning kuchayib borishi shu tovarlar baholarining ham oxir oqibatda oshishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, baholar oshishi to'g'risida gapirganda, inflyatsiya darajasida baholar oshishi va umuman baholar oshishi tushunchalarini to'g'ri talqin qila olish kerak. Masalan, hamma vaqt ham ba'zi tovarlar bahosining oshishi inflyatsiyani anglatmasligi mumkin. Tovarlar bahosi oshishi inflyatsiya bo'lmagan davrda, oltin pul muomalasi sharoitida ham bo'lishi mumkin.

11.2. Inflyatsiyaning turlari va toifalari

Xalqaro amaliyotda bozorda tovarlar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflyatsiya bir necha turlarga ajratilib o'rGANILADI.

1. Sudraluvchi inflyatsiya. Baholarning o'rtacha yillik o'sishi 5-10% dan oshmaydi. Inflyatsiyaning bu turi ko'proq rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab baholar oshishi 3-4% atrofida ham bo'lishi mumkin. Bu

Jo'raev T.T., Jo'raev A.D. Pul kapital va xazina mollari bozori. Moliya, kredit-bank tizimi va davlatning soliq siyosati.– T.: 1994 y.

inflyatsiya aksincha ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishni rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Pul qiyamatining barqarorligidagi o'zgarish sezilmasligi mumkin.

2. Shiddatli inflyatsiya. Baholarning o'rtada yillik o'sishi 10-100% (ba'zida 200% gacha) bo'lishi mumkin. Inflyatsiyaning bu turi rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq uchraydi.

3. Giperinflyatsiya. Baholarning o'sish sur'atlari yiliga 200% dan oshib ketadi. Bu inflyatsiya mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining inqirozli davriga mos keladi va u iqtisodiyot tarkibiy qismlarining o'zgarishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda XVF baholar oyiga 50% dan oshgan vaqtida bu giperinflyatsiya, deb qabul qilgan. Giperinflyatsiya davrida baholar kun sayin oshib boradi va baholar bilan ish haqi o'rtasidagi farq juda yuqori bo'ladi. Aholining yashash sharoiti qiyinlashadi, korxonalar faoliyati yomonlashadi. Xo'jalik faoliyati va bozor faoliyatida naturallashtirish avj oladi.

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablariga ko'ra uning ikki toifasini ko'rsatish mumkin: talab inflyatsiyasi va ishlab chiqarish bilan bog'liq inflyatsiya (taklif inflyatsiyasi).

Talab inflyatsiyasi. Inflyatsiyaning bu an'anaviy turi talab oshib ketganda yuzaga keladi. Ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovarlar bahosi o'sadi. Kam miqdordagi tovarlarga ko'p pul massasi to'g'ri keladi.

Talab inflyatsiyaning yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

a) harbiy xarajatlarning o'sishi va iqtisodiyotning militarlashushi.

Harbiy texnika sotib olish va boshqa harbiy xarajatlarni qoplash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar muomala uchun keragidan ortiqcha pul chiqarishning omili hisoblanadi;

b) davlat qarzlarining o'sishi va byudjet taqchilligining mavjudligi.

Byudjet taqchilligi, odatda, zayomlar chiqarish yoki banknotalarni emissiya qilish yo'li bilan qoplanadi. Bu, o'z navbatida, qo'shimcha muomala vositalari bo'lishiga, qo'shimcha talab yuzaga kelishiga olib keladi. O'zbekistonda byudjet taqchilligi yuqoridagidan tashqari, 1996 yildan boshlab davlat qisqa muddatli majburiyatlarini (DQMO) sotish orqali ham qoplanmoqda;

v) xalq xo'jaligiga ortiqcha kreditlar berish natijasida muomalada kredit bilan bog'liq muomala vositalari yuzaga keladi. Bular tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi.

g) chet el valyutasining mamlakatga kirib kelishi va uning milliy valyutaga almashinuvi natijasida, muomalada pul massasi ortib boradi, milliy pulga nisbatan chet el valyutasining qadri oshadi;

d) xalq xo'jalingining etakchi tarmoqlarini keragidan ortiqcha investitsiyalash ham aylanmaga qo'shimcha pul ekvivalentlarini chiqarishga olib keladi.

Shunday qilib, talab inflyatsiyasi umumiy talabning o'sishi natijasida baholar o'sishi bilan namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq (taklif) inflyatsiya

Bu inflyatsiyaning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar tufayli mehnat unumdoorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Umuman, xalq xo'jaligi bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, binobarin, tovarlar bo'yicha taklif qisqaradi va tovarlar bahosi oshadi. Korxonalarning foya hajmi qisqaradi.

b) har xil yangi xizmat turlari paydo bo'ladi, kam mehnat unumdoorligida yuqori ish haqi olishga imkoniyat tug'iladi. Natijada tovar va xizmatlarga bo'lgan baho oshib boradi.

v) aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida ish haqining oshishi, tovarlar bahosining oshishiga olib keladi va yana ish haqi oshadi va h.k. Bu zanjir uzlusiz davom qilish mumkin.

Inflyatsiyada nafaqat chakana baho, balki ulgurji baho ham oshib boradi. G'arb mamlakatlarida inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichi qilib chakana baholarning o'zgarishi (oshishi) qabul qilingan. Agar ma'lum davrda baholar ikki marta oshsa, pul ham ikki marta qadrsizlangan deb hisoblanadi.

Chakana baholar o'sishini hisoblash maxsus davlat organlari tomonidan aniqlanadigan baholar indeksiga asoslanadi. Baholar indeksini hisoblashning boshlang'ich nuqtasi sifatida (yuz foiz deb) bazis yili olinadi va joriy yilda baholar o'zgarishi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati hisoblanishi mumkin.

Baholar indeksi bu joriy yildagi tovarlar va xizmatlar bahosi yig'indisi, ya'ni tovarlar bozor savati bahosining shu tovar va xizmatlarning bazis yildagi umumiy bahosi, ya'ni bozor savati

bahosiga nisbatli sifatida aniqlanishi mumkin. Yuqoridagi fikri quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin.

Joriy (2015) Yilda Baholar Indeksi	=	joriy (2015) yilda bozor savati bahosi	x100
		bazis yildagi bozor savati bahosi (masalan 2006 yil)	

Baholar indeksini hisoblashda iste'mol tovarlar bahosining indeksi katta ahamiyatga ega. Baholar indeksi turli usullarda baholar darajasini solishtirishga imkon beradi. Joriy yildagi baholar indeksi bazis yildagi baholar indeksiga nisbatan oshishi - inflyatsiya - «Baholar darajasining oshishi»dan, baholar indeksining kamayishi - deflyasiya - «Baholar darajasining kamayishi»dan dalolat beradi.

Aytaylik, bazis davr 1990 yil bo'lsin (baholar darajasi 100% deb olamiz) va 2004 yilda baho darajasi 350. Demak 2003 - 2013 yillarda baholar 3,50 marta yoki 250% ga oshgan, yoki 2000 yilda biror tovar 100 so'm turgan bo'lsa, 2007 yilda shu tovar 350 so'm turadi.

Iste'mol tovarlar bahosi indeksidan tashqari ba'zi guruh tovarlari va xizmatlar, masalan: kiyim, oyoq kiyimlar, transport, uy-joy xizmatlari va boshqalar bo'yicha baholar indekslarini hisoblash mumkin.

Baholar indeksiga asoslanib, inflyatsiya sur'atlarini aniqlash mumkin. Buning uchun joriy yil baholar indeksidan bazis davr baholar indeksini chegirib, bazis davr baholar indeksiga bo'lamiz. Masalan, 2015 yilda iste'mol tovarlarning baho indeksi 110, 2007 yilda 140 bo'lsa, 2015 yilda inflyatsiya sur'ati quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Inflyatsiya} = \frac{140 - 110}{110} \times 100 = 27,27\%$$

Demak, 2015 yilda inflyatsyaning o'sish sur'atlari taxminan 27,3% teng bo'ladi.

Inflyatsyaning o'sish sur'atlari to'g'risida gapirganda, uning rivojlanishini son jihatdan aniqlanishning boshqa yo'li ham mavjud.

Bu usul «70 lar qoidasi» deb ataladi. Agar har yillik inflyatsiya darjasini ma'lum bo'lsa, baholar ikki karra oshishi uchun necha yil kerak ekanligini aniqlash mumkin. Buning uchun «70» ni har yilgi inflyatsiya darajasiga bo'lish kerak. Masalan, inflyatsiyaning har yillik darjasini 5% bo'lsa, baholar darjasini 14 yildan keyin ikki marta oshishi kerak. Agar har yillik inflyatsiya darjasini 20% bo'lsa, baholar darjasini 3 yildan keyin ikki marta oshishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu usul hamma vaqt ham, masalan, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari yuqori, (har kuni, oyda o'zgarib boradigan) bo'lsa, qulay hisoblanmaydi. «70 lar qoidasi» aholi jamg'armalarining, real yoki milliy mahsulot hajmining ikki marta oshishi uchun necha yil kerak ekanligini to'g'ri aniqlab berishga imkon beradi.

Giperinflyatsiya birinchi jahon urushidan keyin Germaniya iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta'sir qilgan. Bu haqda E.M.Remark shunday yozadi. "Inflyatsiya nima ekanligini shunda bilganman. Mening oylik ish haqim ikki yuz milliard markani tashkil etar edi. Ish haqi bir kunda ikki marta berilar edi, ish haqi berilgandan so'ng ishdan yarim soatga ruxsat berilardi. Biz bu vaqtdan foydalanib kursni ikki martaga oshib ketishidan va olgan ish haqimiz o'z qiymatini yo'qotishidan qo'rqib qandaydir tovar yoki iste'mol mollarini sotib olish uchun do'konlarga yugurar edik¹⁹".

Pulning qadrsizlanish darjasini turli mamlakatlarda har xil bo'lishi mumkin. Inflyatsiya darjasini rivojlangan mamlakatlarda pastroq va tez o'tishi kuzatilsa, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda uning darjasini yuqori, surunkali va «davolash» ham ko'proq vaqt talab qilishi mumkin. Masalan, 1971 - 1984 yillarda baholarning o'sish sur'atlarini oladigan bo'lsak, u rivojlangan mamlakatlarda 4,9% dan (Germaniya), 71% (Jazoir) gacha bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 8,5% dan (Hindiston), 153% ga (Argentina) etgan. Inflyatsiyaning namoyon bo'lishi har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darjasiga, milliy xo'jalik faoliya-tiga va xususiyatiga, milliy an'analariga, mintaqaviy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish xususiyatlariga bog'liq.

¹⁹ Ремарк Э.М. Три товарища. -М.: 1985. С.196.

Rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning sharoit va omillari har xilligini hisobga olib uni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

Inflyatsiya jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Mamlakat iqtisodiy ahvolini tang holga olib keladi:

– ishlab chiqarish hajmi tushib ketadi va baholarning oshib borishi ishlab chiqarish istiqbollariga to'g'anoq bo'ladi.

– kapitalning asosiy qismi ishlab chiqarishdan savdo (muomala) sohasiga, vositachilik sohasiga oqib o'tadi. Chunki ishlab chiqarishdan ko'ra, savdo sohasidagi kapital tezroq va ko'proq foyda keltiradi;

–baholarning o'zgarib turishi olib-sotarlikni rivojlantiradi, arzon vaqtida olib, qimmat bo'lganda sotish jarayoni, tovar zahiralarini yashirish jarayonlari avj oladi;

– kredit berish jarayonlari cheklangan bo'ladi. Qarz oluvchilar ko'payadi-yu, qarz beruvchilar soni qisqaradi, chunki qarz bergen yutqazishi mumkin;

– davlatning moliya resurslari qadrsizlanadi va h.k.

1. Aholining kam daromad oluvchi qismining ijtimoiy ahvoli yomonlashadi. Ularning real daromadlari kamayadi. Nominal daromadning baholar o'sishidan tushishi natijasida aholining turinush darajasi pasayadi. Ayniqsa, nafaqa, davlat tashkilotlaridan maosh oluvchilarning ahvoli qiyinlashishi mumkin. Inflyatsiya aholi jamg'armalarining qadrsizlanishiga olib keladi. Inflyatsiya aholi ba'zi qatlamlarining (savdo-sotiq sohasida) boyishiga olib keladi.


Davlat aholining daromadlar darajasini tenglashtirish maqsadida daromad va soliqlarni indeksatsiya qilib boradi.

Bu o'tgan yilgiga (5,7 foiz) nisbatan 2,5 barava ko'p. Mahsulot va xizmatlarning iste'mol baholari indeksi (IBI) bo'yicha hisoblangan ushbu inflyatsiya miqdorida, asosiy o'sish – oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarida kuzatilgan. Xizmatlar narxi esa – kamroq oshgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narxlar o'rtacha 9,4 foiz o'sgan. 2016 yilning ushbu davrida o'sish – 2,5 foizga kamaygan edi.

Eng sezilarli darajada narxlar mol, qo'y va parranda go'shti, shakar, ayrim turdag'i meva-sabzavotlar narxlari o'sgan. Ayrim sabzavotlar narxi oshishiga kasallik va zararkunandalar sabab bo'lgan bo'lsa, boshqalarining narxi oshishiga – ularni eksport qilish tufayli ichki bozorda hajmi kamayishi sabab bo'lgan.

**2017 yil dekabr oyida iste`mol narxlarining o'sishi umumiy
INIdagi ta'sir ulushi**



■ Oziq-ovqat mahsulotlari ■ Nooziq-ovqat mahsulotlari ■ Xizmatlar

O'zbekistonda 2017 yilda inflyatsiya darajasi 14,4 % tashkil etdi

Xususan, yanvar-avgust oylarida sabzi eksporti 3 martaga, olma eksporti 2,3 martaga, pomidor eksporti 1,4 martaga ortdi. Tuxum eksportining yo'lga qo'yilishi ham uning ichki bozorda 10 foizga narxi oshishiga olib kelgan.

Nooziq - ovqat mahsulotlar

Ushbu guruh mahsulotlar narxi 10,3 foizgaoshgan. (2016 yilning mos davrida o'sish – 7,2 foiz bo'lgan edi).

Xususan, kiyim-kechaklar narxi 10,9 foiz, poyabzal narxi 10,2 foiz, qurilish mollari 10,7 foiz, asosiy maishiy mahsulotlar 11,5 foiz, yuvish va tozalash vositalari 11,2 foiz, madaniy mollar 9,5 foiz, aloqa vositalari 10,7 foizga qimmatlashgan.

Ushbu narxlarning oshishiga asosiy sabab – valyuta kursining devalvatsiya qilinishi, deyilgan Markaziy bank xabarida.

Xizmatlar narxi

Xizmatlar narxi o'rtacha 7,2 foizga oshgan. Undanuy-joy kommunal xizmatlar narxi – 6,8 foiz, yo'lovchi tashish transporti xizmati 6,9 foiz, shu bilan birga temir yo'l transporti 17,7 foiz, havotransporti 48,2 %, aloqaxizmati – 23,8 foiz, maktabgacha ta'lif xizmati narxi 8,3 % miqdorida oshgan.

Markaziy bank xabariga ko'ra, inflyatsiya miqdorining keskin o'sishining asosiy sababi – valyuta kursini devalvatsiya qilish, iqtisodiyotni kreditlash va pul massasi hajmlarini oshirish sabab bo'lgan. Yil davomida yuzaga kelgan narxlar dinamikasini inobatga olib, yil yakuni bo'yicha inflyatsiya darajasi 14,4 foiz darajasida bo'lishi proqnoz qilinmoqda²⁰.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Zamonaviy pul tizimi, to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, akkreditivlar, inkassa topshiriqlari, hisob cheklari;

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Inflyatsiya, uning mazmuni va kelib chiqish sabablari
2. Inflyatsiyaning turlari va toifalari
3. Inflyatsiya, uning mazmuni va kelib chiqish sabablari
4. Hozirgi davr inflyatsiyasi, o'tgan davr inflyatsiyasidan farqi nimada
5. Talab inflyatsiyasi

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 15 fevraldagি PQ-2777-sonli qarori) 25.04.2017 y. PF-5027.18-son, 310-modda.

2.“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun-.T.: 1996.

3.“O‘zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun-T.:1996.

4.Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.

12-BOB. SSUDA KAPITALI VA KREDITNING IQTISODIY ASOSLARI

12.1. Ssuda kapitali harakati, uning xususiyatlari

Iqtisodiy nazariyada ssuda kapitali deganda foiz to'lash sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladigan yalpi pul mablag'lari tushuniladi. Ssuda kapitalining mohiyatini to'la tushunish uchun avvalo uning aylanma va savdo kapitallaridan farqini, xarakterli xususiyatini aniqlash kerak. Ssuda kapitali kapital bozorida muhim o'rinn tutib, milliy iqtisodiyot ehtiyojlarini qondiradi.

Ssuda kapitalining o'ziga xos xususiyatlari, uning kreditordan qarz oluvchiga bo'lgan harakatida va aksincha jarayonda ko'proq ko'rindi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Ssuda kapitali kapital sifatida – bu mulk uning egasi qarz oluvchiga kapitalini doimiy egalikka emas, balki vaqtincha foydalanish uchun beradi. Bu holda kapitalga bo'lgan egalik kapital harakatidan ajraladi. Kapital korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishning boshidan oxirigacha qatnashib, uning hajmi ortib borsada, belgilangan kapital miqdori oxiroqibatda o'z egasi – kreditorga qaytib to'lanishi lozim.

2. Ssuda kapitalining o'ziga xos xususiyati, uning tovar sifatida ekanligidir. Kreditor tomonidan pul mablag'lari qarzdor korxonaga «sotiladi». Korxonalar bu kapital hisobidan ishlab chiqarish vositalari va ish kuchini sotib oladilar. Ssuda kapitalining tovar sifatidagi iste'mol qiymati – qarz oluvchi tomonidan uning samarali ishlatilishi natijasida qarzdor oladigan foya hisoblanadi. Ssuda kapitalining iste'mol qiymati oddiy tovarning iste'mol qiymatidan farq qiladi. Ssuda kapitali bo'yicha olingan foydaning bir qismi ssuda foizini to'lash uchun ishlatiladi.

3. Ssuda kapitalining yana bir xususiyati, kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabatning uzoq davom qilishidir. Ssuda kapitalining kreditordan qarz oluvchiga o'tish jarayoni davrlar bo'yicha tarqatilgan to'lov mexanizmining bosqichlarida ifodalanadi. Masalan, oddiy savdo sotiq jarayonida sotilgan tovarning narxi shu zahotiyoy to'lanadi. Kredit resurslari va ulardan foydalanganlik uchun to'lovlar, odatda, ma'lum vaqt o'tgandan keyin to'lanadi.

4. Ssuda kapitali harakatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ssuda kapitali harakati sanoat va savdo kapitali harakatidan farqqilib, «sotuvchi» (kreditor) va «xaridor» (qarz oluvchi) o'rtasidagi iqtisodiy munosabat, ya'ni kapital harakati, pul (P-P') ko'rinishida bo'ladi.

Sudxo'rlik kapitalidan farqli o'laroq ssuda kapitali avvalo davlat, yuridik va jismoniy shaxslar, kredit tashkilotlaridan jalb qilingan moliyaviy resurslar hisobiga shakllanadi (bu banklarning ssuda kapitali bozorida ixtisoslashgan vositachilik o'rnini aniqlab beradi). Moliyaviy resurslarning ssuda kapitaliga aylanishining ikki asosiy manbasini ko'rsatish mumkin.

a) kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi bosqichida ssuda kapitali shakllanishining yagona manbai sifatida davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari manbai sifatida namoyon bo'ldi. Ular moliyaviy vositachilarga ixtiyo-riy ravishda vaqtincha foydalanishga, mavjud mablag'ni kapitalga aylantirish va ulardan foya olishga beriladi. Bu mablag'lar kredit tashkilotlariga tegishli bo'lgan depozit hisoblarda qayd qilinib, o'zlarining birinchi egalariga shu qo'yilmalar bo'yicha foiz ko'rinishidagi daromad keltirishni ta'minlaydi. Bu manba o'zining ahamiyatini hozirgi, rivojlangan davlatlar sharoitida ham yo'qotgan emas;

b) naqd pulsiz hisob-kitoblarning bank orqali o'tishida ishlataladigan mablag'lar ham ssuda kapitali shakllanishining yangi manbai bo'lib, bu mablag'lar aylanma mablag'larning doiraviy aylanish jarayonida yuzaga keladi. Korxonalarda moliyaviy resurslarning vaqtincha bo'sh bo'lib qolishining quyidagi asosiy sabablarini ko'rsatib o'tish mumkin;

– ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish vaqt bilan olingen xom ashyo, materiallar, ishchilarga ish haqi va boshqa to'lovlar vaqtining mos kelmasligi;

– asosiy fondlarning eskirishini qoplash uchun mo'ljallangan pul ajratmasi, ya'ni amortizatsiya fondining shakllantirilishidir.

Amortizatsiya fondi mablag'lari ham ssuda kapitali manbasi sifatida ishlatalishi mumkin.

Korxonalardagi faoliyat natijasida yuzaga keluvchi taqsimlanmagan foya yoki uning ishlatalish jarayonida paydo bo'lgan

bo'sh mablag'lar (masalan, yil oxirida to'lanadigan dividend shaklida) yuridik shaxslarning ularga xizmat ko'rsatuvchi kredit tashkilotlaridagi hisob-kitob hujjatlarida jamg'ariladi.

Bu mablag'lar bank tomonidan korxona va tashkilotlarning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ma'lum muddatga o'tkaziladi.

Ssuda kapitali bozorining tarkibi. Ssuda kapitali bozori moliyaviy bozorning tarkibiy qismi hisoblanadi va uning holati ssuda kapitalining doiraviy aylanish jarayoni bilan bog'liq.

Ssuda bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib:

*dastlabki investorlar, ya'ni turli banklarda saqlanuvchi, ssuda kapitaliga aylanuvchi bo'sh moliyaviy resurslarning egalari;

*ixtisoslashtirilgan vositachilar, pul mablag'larini bevosita jalb qiluvchi, ularni ssuda kapitaliga aylantiruvchi va foiz ko'rinishida haq to'lash va qaytarish sharti bilan vaqtinchalik foydalanishga qarz oluvchiga beruvchi kredit-moliyaviy tashkilotlari bo'lishi mumkin;

*moliyaviy resurslarda etishmovchilik his qiluvchi va ixtisoslashgan vositachilarga ularning bo'sh mablag'larini vaqtinchalik ishlatib turganligi uchun to'lov to'lay oladigan davlat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxs ko'rinishidagi qarz oluvchilar bo'lishi mumkin.

Banklardan beriladigan kredit resurslarning maqsadli yo'nalishidan kelib chiqqan holda ssuda kapitali bozori quyidagi asosiy segmentlarga bo'linishi mumkin:

pul bozori – aylanma mablag'larning harakatini ta'minlovchi qisqa muddatli kredit operatsiyalarining yig'indisi;

kapital bozori –asosiy mablag'lar harakatini ta'minlovchi qisqa va uzoq muddatli operatsiyalar to'plami;


fond bozori – qimmatbahoqog'ozlar bozoriga xizmat qiluvchi kredit operatsiyalar to'plami;

ipoteka bozori – ko'chmas mulk bozoriga xizmat qiluvchi kredit operatsiyalar to'plami va boshqalar.

Har bir sanab o'tilgan bozor segmentlari o'ziga xos xususiyatlargaega. Bu esa amaliyotda moliya-kredit institutlarining maxsus turi ixtisoslashtirilgan tijorat banklarining tashkil topishiga olib keladi.

Zamonaviy ssuda kapitali bozori asosiy ikki bo'g'in kredit tizimi va qimmatli qog'ozlar bozori (birlamchi va ikkilamchi bozorlar) bo'lishini taqozo qiladi. Ssuda kapitali bozorining tarkibini quyidagi chizmada keltirish mumkin.

3-chizma



Keltirilgan sxemadan ko'rinish turibdiki, kredit tizimi har xil kredit moliya institutlarining yig'indisidan iborat. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorda yangi muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar sotiladi va sotib olinadi. Ikkilamchi bozorda (fond birjasida) oldindan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar sotiladi va sotib olinadi. Birjadan tashqarida qimmatli qog'ozlarning sotilishi va sotib olinishi, odatda, birjadan tashqari savdo deb yuritiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori va kredit tizimining mavjudligi hamda rivojlanish darajasiga qarab ssuda kapitali bozorining rivojlanishi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Jahan amaliyotida kapital bozori AQSH, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiyada yuksak taraqqiy qilgan.

12.2. Kreditning mohiyati va uning funksiyalari

Bizga ma'lumki, pul mablag'lariga ko'p hollarda kreditlarni, korxonalarining hisobvarag'dagi mablag'larini va naqd pullarni, aylanma mablag'larini va moliyaviy resurslarni kiritadilar.

Bu iqtisodiy kategoriylar tashqi tomonidan o'xshagini bilan, ularning ichki xususiyatlari juda xilma-xil va bir-biriga o'xshamaydi.

Kredit - bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'molchilar mablag'larini etarli bo'lmagan sharoitda to'lojni kechiktirib, tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'la-dilar.

Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi.

Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtafiga iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyyadir.

Kreditning mohiyati uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish – bu uning sifatlarini, muhim tomonlarini, iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarini bilish demakdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning mohiyati ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan va ular tomonidan kreditning mohiyati bo'yicha turlicha fikr bildirilgan.

Masalan, E. Voznesenskiy, A. Zverev, D. Allaxverdyan kabi olimkredit maxsus kategoriya hisoblansa-da, u moliya tarkibiga kiradi, deb hisoblashadi.

V. Zaxarov, O. Lavrushin, M. Pessel, I. Levchuk, V. Ribin, A. Qodirov, T. Qoraliev kabi olimlar esa kreditni moliya bilan parallel

ravishda faoliyat ko'rsatuvchi alohida mustaqil iqtisodiy kategoriya, deb hisoblaydilar.

Kreditning mustaqil kategoriya sifatida mohiyatini aniqlash murakkab savollardan biridir.

Kredit qarzga beriladigan qiymatning harakati sifatida tushunish mumkin.

Zaxarov V. «Kredit vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qiymat bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatdir» deb xulosa qilgan bo'lsa, Qodirov A., Pessel M. esa kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, unda ishlab chiqarish munosabatlari o'z aksini topadi va davlat, xo'jalik tashkilotlari, korxonalar, muassasalar bir-biriga qiymatni ma'lum vaqtga, qaytarib berish va to'lash sharti bilan beradilar, deb uqtiradilar.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda kreditning ba'zi muhim tomonlari aniqlanadi:

birinchidan, uning ijtimoiy mahsulot yaratish, milliy daromad va pul resurslarini qayta taqsimlashga bog'liqligi;

ikkinchidan, kreditning harakat shakliga (tovar yoki pul tarzida) ega ekanligi;

uchinchidan, takror ishlab chiqarishdagi harakatning asosiy hal etuvchi belgisi (qarz) ekanligi va h. k.

Berilgan kredit qaytuvchanlik xarakteriga ega. U xuddi shu sifati bilan moliyadan farq qiladi.

Ssuda kapitali manbalarining tahlili kreditning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlashga asos bo'lib xizmat qildi.

Bir qator iqtisodchilarning fikricha, kreditjamiyatdagi vaq-tincha bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni taqsimlash shaklidir.

Bu nuqtai nazardan, kredit vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qarzga berish bo'lib, muayyan belgilangan muddatdan so'ng bu mablag'lar o'z manbasiga qaytib kelishi kerak.


Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tarkibini, harakat bosqichlarini, iqtisodiy tushuncha sifatidagi muhim belgilarini va ijtimoiy - iqtisodiy xarakteristikasini ko'rib chiqamiz. Kreditning mohiyatini tushunish uchun, avvalambor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zarur elementlari – kreditning obyekti va subyekti bo'lishi zarur.

Kredit munosabatlarda subyektlar ikki xil bo‘ladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi)
2. Qarz oluvchi

Bundan tashqari, kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning obyekti yuzaga keladi.

4 chizma



4 chizma .Kredit munosabatlarining obyektlari va subyektlari.

Kredit obyekti - bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan kreditor (qarz beruvchi)ga qaytib beriladigan qiymatdir.

Bunda qarzga berilgan mablag‘ o‘z qiymatini saqlab qolishi kreditning asosiy sifati hisoblanadi.

Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning harakat bosqichlari ham uning muhim belgisi hisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat harakatini quyidagi sxemada ifodalash mumkin:

$$B_k - O_{kz} - I_k \dots V_r \dots Q_k - F_{ks}$$

B_k – kreditning berilishi;

O_{kz} – kreditning qarz oluvchi tomonidan vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish uchun olinishi;

I_k – kreditning ishlatalishi qarz oluvchining kreditni nima maqsadda olganligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi;

V_r – qarz oluvchining xo'jaligida qarzga olingan qiymat aylanmasi tugallanishini resurslarning aylanmadan chiqarilishini ifodalaydi;

Q_k – kreditni qaytarish;

F_{ks} – vaqtinchalik berilgan qiymatni kreditor qo'liga qaytib kelishi (% bilan).

Kreditning mohiyatini ma'lum vaqtdan keyin qaytarib berish va foiz bilan qaytarish sharti yanada kengroq ochib beradi. Bu har ikkala shartdan tashqari, kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chuqur ijtimoiy - iqtisodiy belgilarini hisobga olish zarur.

Kredit mohiyatining tahlili uzlusiz jarayon. Tahlil jarayonida yangidan yangi belgilarni yuzaga chiqishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o'zining funksiyalariga ega bo'lgani kabi kredit ham o'zining bir qator funksiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va ahamiyati bajarayotgan funksiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funksiyasi – bu kreditning iqtisodiyotdagi faoliyati konkret ravishda namoyon bo'lishidir.

Kreditni tahlil qilishda, funksiya, uning mohiyati va ahamiyati o'rtaсидаги оралиқ bo'g'in sifatida ko'rib chiqiladi.

Kreditning funksiyalari haqida olimlar o'rtaсидада yagona izchillik yo'q.

I. Lavrushinining fikricha, kreditning funksiyalarini tahlil qilishda ikkita yechilmagan muammo mavjud:

1. Funksiyani tushunishning uslubiy asoslari.

2. Funksiyalarning tarkibi va strukturasi.

Kreditning tarkibiy qismidan kelib chiqqan holda unga quyidagi munosabatlarga xos funksiyalar taalluqli:

a) kreditorning qarz oluvchi va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;

b) qarz oluvchining kreditor va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;

v) qarzga beriluvchi qiymat bilan kreditor va qarz oluvchining munosabati orqali.

Kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabat shunday aniqlanadiki, bunda kreditor qarz oluvchiga resurslarni taklif qiladi, qarz oluvchi bu resurslarni ishlataladi va bunda qarzga beriluvchi qiymat kreditor va qarz oluvchi o'rtasida aylanadi. Bu erdan kreditning birinchi funksiyasi kelib chiqadi:

Qarzga beriluvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish funksiyasi.

Kredit va pul mablag'lari o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda, kreditning haqiqiy pullarni kredit pullari bilan almashtirish funksiyasi oldinga surilgan. Lekin bu funksiya hozirgi kunda iqtisodiy munosabatlar «sahnasidan» chiqib ketgan.

Kreditning tashqi muhit bilan aloqasi uning ikkinchi funksiyasini keltirib chiqaradi.

2. Qayta taqsimlash funksiyasi.

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalariga - ishlab chiqarish, taqsimlash, muomala va iste'molga xizmat ko'rsatadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda kredit, ishlab chiqarish, taqsimlash yoki iste'mol jarayonida kechadigan funksiyalardan farqli o'laroq qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ssuda kapitali bozori vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabhasidan boshqasiga yo'naltiruvchi va natijada yuqori foydani ta'minlovchi o'ziga xos dastak sifatida namoyon bo'ladi.

Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bo'sh pul mablag'lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, muayyan to'lov asosida beriladi. Bu funksiya yordamida ishlab chiqarishdagi proporsiyalar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

O'zining turli tarmoqlar va mintaqalarda tabaqlananish daraja-siga tayanib, kredit iqtisodning stixiyali makrobohqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda bu funksiyaning amalga oshirilishi bozor tizimida nomutanosiblikning chuqurlashuviga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday holat MHD davlatlarida bozor iqtisodiga o'tish bosqichida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun kredit tizimini

davlat tomonidan boshqarishning muhim vazifalaridan biri bu iqtisodiy ustunlikni oqilona tavsiflash va kredit resurslarini u yoki bu tarmoqqa jalg qilishni rag'batlantirishdan iboratdir.

3. Muomala xarajatlarini tejash funksiyasi.

Kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullarni (oltin, kumush) kredit pullari – veksellar, banknotalar, cheklar bilan almashinishini ta'minlab keigan. Lekin, oltinning monetar ahamiyati yo'qolishi tufayli kredit shu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, hisob-kitoblarning tezligini va kam xarajatligini ta'minlamoqda. Kapitalning muomalada bo'lish vaqtining iqtisod qilinishi uning ishlab chiqarishda bo'lish vaqtini oshiradi va bu ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi.

Bu funksiyaning amalga oshishi kreditning iqtisodiy mohiya-tidan kelib chiqadi. Uning manbai sanoat va savdo kapitalining doiraviy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'shagan moliyaviy mablag'lar hisoblanadi. Xo'jalik subyektlari pul mablag'larining kelib tushishi va ishlatilishi o'rtasidagi vaqt bo'yicha farq faqatgina ortiqcha mablag'lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag'larining etishmovchiliginи ham aniqlab beradi. Shuning uchun korxona va tashkilotlarning o'z aylanma mablag'larining vaqtinchalik etishmovchiliginи to'ldirish uchun ssudalar berish keng tarqalib borgan.

4. Kapital to'planishining jadallahuvi va konsentratsiya-lashuvi funksiyasi.

Kapital to'planishi jarayoni iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashuvi va xo'jalik yurituvchi har bir subyektning maqsadga erishishining muhim sharti hisoblanadi. Bu masalani hal qilishga va ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuning bilan birga qo'shimcha foyda olishga qarz mablag'laridan foydalanish yordam beradi. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, iqtisodiy inqiroz davrida bu resurslarning qimmatliligi ko'pchilik xo'jalik faoliyati jabxalarida kapital to'planishini jadallashtirish masalasini xal qilishda to'sqinlik qiladi. Shunga qaramasdan, ko'ribchiqilayotgan funksiya xozirgi sharoitda rejali iqtisodiyot davrida rivojlanmagan va mablag'lar bilan ta'minlanmagan faoliyat jahbalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanish jarayonini sezilarli tezlashtirdi.

5. Muomalaga to‘lov vositalarini chiqarish funksiyasi.

Bu funksiyaning amalga oshishi jarayonida kredit faqatgina tovar emas, balki pul muomalasining jadallahuviga, undan naqd pullarni siqib chiqarib, to‘lovlar aylanishining tezlashuviga ijobiylari ta’sir ko‘rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni naqdsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Bu masalani hal etishda tijorat krediti zamonaviy tovar almashinuvining kerakli elementi sifatida muhim o‘rin tutadi.

Fan-texnika taraqqiyotining jadallahuvi ham kredit orqali samaraliroq amalga oshirilishi mumkin. Urushdan keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti har bir mamlakat yoki alohida xo‘jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy rivojining hal qiluvchi omiliga aylangan. Kreditning fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdagi o‘rnini fan-texnika tashkilotlarining faoliyatini mo-liyalashtirish jarayoni orqali kuzatish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi markazlarning normal ishlab turishini ta’minalash uchun ham, ular faoliyatini moliyalashtirishda kredit resurslari ishlatalishi mumkin. Shuningdek, kredit innovatsion jarayonlarda ishlab chiqarishga ilmiy tadqiqot natijalarini joriy qilish va ishlab chiqarish texnologiyasini o‘zgartirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur.

Albatta, korxonalarining mablag‘lari etarli bo‘lgani holda, bu turdagagi xarajatlar dastlab korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, o‘z mablag‘lari etarli bo‘limgan sharoitda bankning maqsadli o‘rta va uzoq muddatli ssudalari hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Kreditni ishlatish samaradorligi uni pozitiv ravishda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga va mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga ta’siri bilan aniqlanadi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, kredit xo‘jalik subyektlari tomonidan ishlab chiqarish va sotuv, to‘lov jarayonidagi mablag‘lar etishmovchiligini qoplash uchun olinadi. Agar korxona ishlab chiqarish zahi-ralarini sotib olish uchun kredit mablag‘lardan foydalanadigan bo‘lsa, shu kredit fondlar aylanishining barcha

bosqichlarini bosib o'tadi va miqdoriy jihatdan o'sgan holda aylanishdan chiqariladi va qarz beruvchiga qaytariladi.

Kredit resurslaridan korxona quyidagi hollarda foydalanishi mumkin:

1. Korxona kreditni xarajatlarning biron turini amalga oshirish uchun, masalan, xom ashyo, materiallar sotib olish, tugallanmagan ishlab chiqarish uchun yoki jo'natilgan tovarlar uchun olishi mumkin.

2. Korxona aylanma fondlarning doiraviy aylanishining barcha bosqichlariga kreditni jalb qilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish zahiralari sotib olishga, tugallanmagan ishlab chiqarishga, tayyor mahsulotga, jo'natilgan tovarlarga va boshqa xarajatlar uchun.

3. Korxonani kompleks kreditlashtirish zarur bo'lganda amalga oshiriladi.

12.3. Kreditlash tamoyillari

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bo-zori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umum davlat va xalqaro kredit qonunchiligidagi yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy tushuncha sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berilishi, kreditning muddatligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lov lilkil tamoyillaridir. Quyida biz har bir tamoyilning mazmunini qisqacha ta'riflab o'tamiz.

1. Kreditning qaytib berish tamoyili

Bu tamoyil kreditning mustaqil iqtisodiy tushuncha ekanligining shartidir. Qaytib berish kreditning umumiyligi belgisi hisoblanadi. Qaytib berish o'z-o'zidan vujudga kelmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymat aylanishining tugashiga asoslanadi. Ammo aylanma harakatning tugashi bu – qaytarib berish emas, faqat qaytarib berish uchun zamin tayyorlashdir. Kreditni qaytarish aylanmadan chiqqan mablag'lar qarz oluvchiga pul mablag'larini qaytarish imkoniyatini bergen taqdirda amalga oshiriladi. Qaytarib berish layoqati ikkiyoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham, bir xil darajada muhimdir.

Qiymatning qaytuvchi harakatining huquqiy tomoni ham muhimdir. Muayyan bir muddatga beriladigan qiymatga egalik huquqi kreditordan qarz oluvchiga o'tmaydi.

Qarzga beriladigan qiymat faqat muayyan bir muddatgagina o'z egasi qo'lidan uzoqlashadi, lekin egasini o'zgartirmaydi.

Bo'sh turgan resurslarni akkumulyasiya qiluvchi banklar bu resurslardan xususiy resurslar sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablag'ning egasi bo'lib, korxona, tashkilot, alohida shaxslar hisoblanadi.

Qaytarib berish muayyan shartnomada aks ettiriladi.

Qaytarib berish obyektiv belgi hisoblanadi. Kreditni qaytarib beruvchi tomon uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, jumladan, moliyadan farq qilish imkoniyatini beradi.

Kreditdan samarali foydalanish asosida qaytarib berish – butun bank faoliyatining markaziy punkti hisoblanadi. Kreditning bu tamoyili kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergen muassasa hisobiga ko'chirish yo'li bilan ifodalanadi. Shu yo'l bilanbanklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta'minlaydilar. Bizning amaliyotimizda markazlashgan rejali iqtisodiy sharoitida kreditlashning «qaytarilmaydigan ssuda» degan norasmiytushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida keng tarqalgan edi. Kredit davlat banki tomonidan qarz oluvchining moliyaviy ahvolini hisobga olmagan holda berilar edi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, qaytarilmaydigan ssudalar byudjet subsidiyasining qo'shimcha shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «qaytarilmas kredit» tushunchasi bozor iqtisodiyoti tamoyillari uchun begona hisoblanib, bunday kreditning amaliyotda bo'lishi iqtisodiyot uchun juda xavflidir.

2. Kreditning muddatliligi

Bu tamoyil kredit beruvchidan olingankreditni o'z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya'ni kreditning qanday muddatga berilganligi bilan tavsiflanadi. Bunda shu muddatlilik tamoyiliga ko'ra, kredit uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo'linadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo'lgan har qanday vaqtida emas, balki kredit bitimida ko'rsatilgan ma'lum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning

muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o‘z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o‘z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o‘z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutilishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo‘yicha kredit shartnomada ko‘rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimlar shaklida, kredit bo‘yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar)ni qo‘llashi mumkin. Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo‘jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejamli va qayta ishlatish, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo‘natish, tovarlarni sotish muddatlariga va pirovard natijada aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog‘liqdir.

3. Kreditning ta’milanganlik tamoyili

Bu tamoyil yordamida iqtisodiyotning rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o‘rtasida bo‘lishi zarur bo‘lgan proporsiyalarning bir me'yorda bo‘lishi rag‘batlantiriladi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo‘jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag‘larining har bir so‘miga muayyan moddiy boyliklarning bir so‘mi qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalq xo‘jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to‘liq tovar moddiy boyliklari va ma’lum xarajatlar bilan ta’milangan bo‘lishi kerak. Tarmoqlarga ta’milanganmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, bankning likvidliligiga va pul muomalasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta’milangan bo‘lishiga muhim e’tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda bujarayonning amalga oshirilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Kredit olayotgan korxona bankka tovar yoki tovar hujjalari, boshqa biror shakldagi mulkni garovga qo‘yadi. Agarda bank bergen kredit qarz oluvchi tomonidan o‘z vaqtidabankka qaytarilmasa, bank tovarni sotish hisobidan qarz o‘rnini qoplash huquqiga ega bo‘ladi. Ba’zida kredit warrant asosida ham berilishi mumkin. (Varrant –garov

uchun xizmat qiluvchi hujjat). Bunda kreditor berayotgan krediti tovar - moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bank ssudalarining tovar - moddiy boyliklar bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasining barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank aylanmasidagi pullar naqd pulga transformatsiyalanib turadi.

Xulosa qilib aytganda, kreditning ta'minlanganlik tamoyili qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda o'zining amaliy aksini topadi. Bu umumiqtisodiy barqarorlik davrida, ayniqsa, muhimdir.

4. To'lovililik tamoyili

Bu tamoyil aylanma fondlarining doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi to'lov resurslari summasini avanslashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag'lari uchun kreditorga foiz shaklida to'lovni o'tkazadilar. Kreditning to'lash uni to'liq summada o'z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o'z mablag'larini hech vaqt o'z hajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag'ni qarzga bergenligi uchun muayyan to'lov talab qiladi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to'lovi nafaqat banklar xo'jalik hisobi maqomiga, shu bilan birga, korxonalarni bevosita foydasi bilan bog'liq xo'jalik hisobiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Kredit uchun haq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rta sidagi qo'shimcha olingan foydaningtaqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amaliyotda uchta asosiy funksiyasini bajaruvchi bank foizi me'yorini o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi:

- yuridik shaxslar foydasining va jismoniy shaxslar daromadining taqsimlanishi;

– ishlab chiqarishni tartibga solish va ssuda kapitalining taqsimlanishi orqali tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro miqyosda aylanishi;

– iqtisodiyotrivojining inqirozli bosqichidabank mijozlarining pul mablag‘larini inflyatsiyadan himoyalash va boshqalar.

Ssuda foizining stavkasi ssuda kapitalidan olingen yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan aniqlanib, kredit resurslarining bahosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshqa tovarlar bahosi belgilanishining an'anaviy mexanizmidan farqli o‘laroq, kreditning bahosi, ssuda kapitali bozoridagi talab va taklifning nisbatini o‘zida aks ettiradi va u bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi:

– bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi (inqiroz davrida ssuda foizi o‘sadi, yuksalish davrida esa pasayadi);

– inflyatsiya jarayoni sur’atlari (amaliyotda ssuda foizining inflyatsiya o‘sish sur’atlaridan orqada qolishi uchrashi mumkin);

– tijorat banklarni kreditlash jarayonini amalga oshiruvchi Markaziy bank orqali davlat kreditini tartibga solishning samaradorligi;

– xalqaro kredit bozoridagi holat (masalan, biror mamlakatda kredit bo‘yicha foiz stavkasining oshishi shu mamlakatga chet el kapitalining oqib kelishiga olib keladi va bu milliy bozorlar holatiga ta’sir ko‘rsatadi.);

– jismoniy va huquqiy shaxslar pul jamg‘armalarining dinamikasi (ularning hajmi qisqargan holda ssuda foizi o‘sadi);

– potensial qarz oluvchilarning kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlab beruvchi ishlab chiqarish dinamikasi;

– ishlab chiqarishning mavsumiyligi (chet el amaliyotida banklar mavsum davrida kreditlar bo‘yicha foizlarni oshiradilar);

– davlat tomonidan beriladigan kredit miqdori bilan davlatning ichki qarzlari o‘rtasidagi nisbat (ssuda foizi ichki davlat qarzlari o‘sishi bilan birga o‘sib boradi).

5. Kreditning maqsadli bo‘lishi

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingen kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo‘naltirilganligi, masalan, tovar-moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish

xarajatlarini qoplashga va hokazoaniq biror obyektga maqsadli yo'naltirilganligi korxona bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi. Korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko'rsatilgan ishni bajarishga sarf-lashi kerak. Bunda kredit muayyan, aniq obyektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zahiralariga, tayyor mahsulotga, jo'natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud bo'lishi va harakat qilishining muhim tomonlarini o'zida ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning yuqorida keltirilgan tamoyillaridan tashqari, kreditdan oqilona foydalanishni ifodalovchi tamoyil kreditning samaradorligi tamoyilini kiritishimiz zarur. Bu tamoyil nafaqat kredit va foiz summasini bankga qaytarib to'lashni, bundan tashqari, shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxona qancha samaradorlikka erishishini ifodalashi zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida beriladigan kreditlar ma'lum bir loyihalarning bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Banklar loyihalarni kreditlash yoki moliyalashtirishdan oldin loyihami bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'larning samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur. Agar biz bozor iqtisodi yuqori rivojlangan mamlakatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu mamlakatlarda korxona, tashkilotlarga kredit berishdan oldin qo'yiladigan mablag'larning samaradorligi hisob-kitob qilib chiqadi. Agarda loyiha qo'yiladigan mablag'lar samara beradigan bo'lsagina, shu loyiha uchun mablag' ajratiladi. Har bir korxona va tashkilot uchun kreditdan foydalanishda uning samaradorligiga alohida e'tibor berish foydadan xoli emas, chunki samaradorlik kreditning zaruriy shartlaridan biri hisob-lanadi. Kreditning samaradorligi ishlab chiqarish va savdo hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Samaradorlik tamoyilining mavjudligi va unga rioya qilish kreditning boshqa tamoyillarining bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqozo qiladi. Shunga asoslangan holda kreditning samaradorligini sodda qilib quydagicha ifodalash mumkin:

Sotilgan tovar mahsulot hajmi

Samaradorlik =

Kredit qo'yilmalarining
o'rtacha qoldig'i

Bu ko'rsatkich kredit qo'yilmalar o'rtacha qoldig'inинг 1 so'miga to'g'ri keladigan sotilgan tovar-mahsulotning hajmini ko'rsatadi. Kreditni jalb qilish yordamida ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi, tovarlarni sotish hajmining oshishi kreditning samaradorligini belgilab beradi. Korxona kam kredit resurslar hisobiga ko'p mahsulot sotuviga erishadigan bo'lsa, kreditning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Kreditlashning yuqori samaradorligi minimal mehnat xarajatlari orqali maksimal foydaga erishadigan korxonalar uchun xarakterlidir.

Agar kredit samaradorligiga ta'sir qiluvchi boshqa omillarni ham hisobga oladigan bo'lsak, kreditning samaradorligini kengroq olgan holda quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin.

R R

$$\frac{S_{kr}}{OF_k} = \frac{* * O_{kr}}{K OF_k = K \times O_{of}}$$

S_{kr} – kredit qo'yilmalariningsamaradorligi;

R – to'la tannarxida realizatsiya qilingan tovar mahsuloti;

OF_k – kreditor qarzdorlikni hisobga olgan, lekin qarz mablag'larini hisobga olmagan holdagi aylanma fondlarining o'rtacha qoldig'i;

K – qisqa muddatli kredit qo'yilmalarining o'rtacha qoldig'i;

O_{kr} – hisobot davridagi qisqa muddatli kreditning aylanish soni;

O_{of} – hisobot davridagi aylanma fondlarining aylanish soni;

Formuladan ko'rilib turibdiki, kredit resurslarining samaradorligi asosan ikki omil: sotilgan mahsulotning hajmi va kredit resurslarining aylanish davriga bog'liq. Savdo hajmi qanchalik katta bo'lsa va kredit resurslarining aylanish davri qanchalik qisqa bo'lsa, kredit qo'yilmalarining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Bank tomonidan berilgan mablag'lar xo'jalik aylanmasida, ishlab chiqarishga tezroq joriy qilinsa va kredit mablag'lar ishlab chiqarish

va muomala jarayonini tezroq bosib o'tsa,ular keltiradigan samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi. Bank krediti mablag'lar doiraviy aylanishining biror bosqichida ushlanib qoladigan bo'lsa, bu hol kreditni to'lash muddatining kechiktirilishiga olib keladi. Bu, albatta, kreditning samaradorligi pasayganligidan dalolat berishi mumkin.

Kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida g'arb mamlakatlari amaliyotidakreditlashningbizuchunyangiqoidasi qo'llaniladi. Bu qoida kreditlashda «5 «S»lar qoidasi» deb yuritiladi.

«5 «S» lar qoidasi»ga asosan har bir «S» bo'yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqiladi va korxona faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. Qoidaga asosan «S» harflari korxonalarning xo'jalik faoliyatining quyidagi jihatlarini ifo-dalaydi.

Character- qarz oluvchining xarakterini baholash, uning avvalgi qarzlari; qarzni to'lay olish qobiliyati hamda bozordagi obro'si;

Sapasity- qarz oluvchining boshlagan ishni oxiriga yetkaza olish, tegishli daromad olish hamda bank kreditlarini qaytara bi-lish qibiliyati;

Sapital- qarz oluvchi sarmoyasining etarliligi;

Conditions- shartlar. Bunda iqtisodiy muhim va mazkur biznesning rivojlanishi nazarda tutiladi;

Colateral- garov (kafolat, kafillik, sug'urta polisi, tovar-moddiy boyliklar) va boshqalar.

Rejaliqtiisodiyot davrida kreditlashning bu tamoyillaridan tashqari yana bir necha boshqa tamoyillar qo'shimcha ravishda amal qilar edi. Sotsialistik xo'jalik davrida yuqoridagi tamoyillar ikkinchi darajali hisoblanar edi. Quyidagi tamoyillar esa asosiy, birinchi darajali tamoyillar bo'lib, kreditlash jarayonida banklar ko'proq shu tamoyillarning bajarilishiga e'tibor berar edi.

Kreditni rejaning bajarilganligiga qarab berish

Bu tamoyilning mohiyati shunda ediki, bank kreditlarining umumiy hajmi va shakllari banklarning kredit rejalarini asosida o'rnatilar edi. Bunda korxona va tashkilotlarga beriladigan kreditlar ularning ishlab chiqarish rejalarini bajarishlariga qarab berilar edi. Undan tashqari, kredit hajmi bo'yicha muayyan reja tuzilar va shu rejaga asosan kredit berilishi, uning hajmi va shakli belgilardi va bu bank tomonidan boshqarilar edi.

Bu tamoyilga asosan, kredit rejasida ko'zda tutilgan bank ssudalari kvartal yoki oyiga bir marta emas, balki tovar-moddiy boyliklarini yaratish jarayoniga va ularni ishlab chiqarish maqsadlariga sarflash yoki sotishning ma'lum bosqichlarida bank tomonidan o'rnatilgan miqdorda berilar edi.

2. Differensiyalashtirish (kreditlashda har xil yondashish) tamoyili

Bu tamoyil ijtimoiy zaruriy me'yorlarga mos holda ishlab chiqarish va mahsulotni realizatsiya qilish asosida korxona va tashkilotlarning qanday moliyaviy natijaga erishganligiga qarab belgilangan. Xo'jalik faoliyatining natijalariga qarab korxonalar «yaxshi ishlaydigan» va «yomon ishlaydigan» korxonalarga bo'lib kreditlangan. Bu tamoyilga asosan ijobiy moliyaviy natijalarga erishgan korxona va tashkilotlarga kreditlash jarayonida ma'lum engilliklar berilgan. Korxonalarda moliyaviy qiyinchiliklar bo'lganda ishchilarga ish haqi to'lash uchun yoki boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun kreditlar berilgan. Undan tashqari, yaxshi ishlaydigan korxonalarga engil sharoitda kreditlar berilgan, masalan, kreditning foiz stavkasi kamaytirilgan, korxona uchun zarur bo'lganda kreditning muddati uzaytirilgan va hokazo.

Agar korxona ishlab chiqarish rejasini bajarmasa yoki bankdan olingan kreditlar bo'yicha o'z majburiyatlarini vaqtida amalga oshirmasa, bunday korxona yomon ishlovchi korxonalar qatoriga kiritilgan va bank tomonidan bunday korxonalarga iqtisodiy choralar qo'llanilgan. Yomon ishlovchi korxonalarga kreditlashda bank qattiq yondashgan, ya'ni kreditlarni juda qisqa muddatga, yuqori foiz stavkalari bo'yicha bergen. Ba'zida bank oldindan bergen kredit-larini muddatidan ilgari undirib olgan, korxona yuqori tashkilotining kafolati asosida kredit bergen yoki ba'zi hollarda kredit berishni umuman to'xtatib qo'ygan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tamoyillarning barchasi ham o'rinali bo'lmasligi mumkin.

12.4. Kreditning shakllari va turlari, ularning tavsifi

Kreditga bo'lgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomonidan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha tur va shakllarga bo'linadi.

Uzoq davrlardan buyon kreditning quyidagi turlari qo'llanilib kelinmoqda.

1. Qisqa muddatli kreditlash;
3. Uzoq muddatli kreditlash.

Qisqa muddatli kreditlashda kreditlar bir necha oylardan bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Bu turdag'i kreditlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlarining doiraviy aylanishining uzlusizligini ta'minlaydi. Bizga ma'lumki, aylan-ma fondlarning doiraviy aylanishi deyarli barcha ishlab chiqarish sohalarida bir yil va undan kamroq vaqt davom qiladi. Bir yil fondlar aylanishining tabiiy o'chovi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham, bir yil qisqa va uzoq muddatli kreditlashning chegarasi bo'lib xizmat qiladi. Qisqa muddatli kreditlar o'z tabiatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Kreditlash obyektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab:

- * tovar moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar;
- * ishlab chiqarish xarajatlari (mahsulotning yangi turini o'zlashtirish, mavsumiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni) uchun beriladigan kreditlar;
- * hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun beriladigan kreditlar (akkreditiv ochilganda, tayyor mahsulotni jo'natganda va boshqa hollarda).

2. To'lash muddatiga qarab:

- * muddatli, muddati kechiktirilgan va muddati o'tib ketgan kreditlar.

3. Kreditini to'lash manbalariga qarab:

- * qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan;
- * grant mablag'lar hisobidan;
- * yangi kreditlar jalb qilish hisobidan.

4. Ta'minlanganlik tamoyilining amal qilishiga qarab:

- * to'g'ridan-to'g'ri ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;
- * egri (biror korxona va tashkilot vositasida) ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;

- * ta'minlanmagan kreditlar.

5. To'lanadigan foiz darajasiga qarab:

- * o'rtacha (normal) foiz stavkali;
- * yuqori foizli;

- * past foiz stavkali;
- * foizsiz kreditlarga bo'linadi.

Uzoq muddatli kreditlashda, kreditlar bir yildan ortiq muddatga beriladi. Uzoq muddatli kreditlar asosan, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va ular bilan bog'liq sohalarni ta'minlashda ishlataladi. Hozirgi davrda uzoq muddatli kreditlar banklar tomonidan juda kam miqdorda berilsa-da, ular kapital qo'yilmalarini, loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida davlatimiz iqtisodini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq muddatli kreditlar xo'jalik tashkilotlari tomonidan quyidagi obyektlar uchun jalg qilinishi mumkin:

- qayta tiklashga kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- harakatdagi asosiy fondlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun;
- yangi qurilish va qo'shimcha yuqori samarali tadbirlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- yangi fan, ilmiy texnika sohasida tadqiqotlar olib borish va yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish uchun va boshqalar.

Kredit munosabatlarining subyektlari va obyektiga, foiz stavkasiga va kreditning harakat doirasiga qarab, kreditning quyidagi mustaqil shakllari amaliyatda qo'llanilishi mumkin. Bular bank krediti, tijorat krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, xalqaro kredit. Amaliyatda kreditning har bir shakli ham o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir necha bo'laklarga bo'linishi mumkin.

Bank krediti. Iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining shakllaridan biridir. Uning obyekti pul mablag'larini bevosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Bank kreditini beruvchi kredit muassasalari kreditlash jarayonini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan maxsus litsenziya (ruxsatnoma) olgan bo'lishlar: zarur. Qarz oluvchi sifatida yuridik shaxslar, aholi, davlat, xorijiy davlat mijozlari ishtirot qilishlari mumkin. Kredit munosabatlarining vositasi bo'lib, kredit shartnoma yoki kredit kelishuvi hisoblanadi. Bu kredit turi bo'yicha olinadigan daromad yoki stavka tomonlar bilan kelishiladi va bank foizi yoki ssuda foizi ko'rinishida bo'ladi.

Jahon amaliyotida bank kreditidan foydalanishda uning turli xil xususiyatlari hisobga olinadi.

Qisqa muddatli bank kreditlari qarz oluvchi korxonaning xo'jalik faoliyatida aylanma mablag'lar etishmovchiligini to'ldirish uchun qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bunday jarayonning bo'lishi ssuda kapitali bezoroda mustaqil segment pul bozorining yuzaga kelishiga olib keladi. Qisqa muddatli kreditlar fond bezoroda, savdo va xizmatlar ko'rsatishda, banklararo kreditlash rejimida ko'proq qo'llaniladi.

Hozirgi sharoitda qisqa muddatli kreditlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- kreditlarning juda qisqa muddatlarga (ba'zida bir oygacha muddatga) berilishi;
- kreditning muddati va foiz stavkasining bir-biriga teskari proporsional (kreditning muddati juda qisqa bo'lsa-da, foiz stavkasi juda yuqori) bo'lishi;
- ishlab chiqarish sohasidan ko'proq muomala sohasiga xizmat ko'rsatish.

Hozirgi vaqtda bir yil muddatga beriladigan kreditlardan tijorat xarakteridagi faoliyatni amalga oshirish, agrar sektorda va investitsiyalarni talab qiluvchi innovatsion jarayonlarni kreditlashda keng foydalanimoqda.

Uzoq muddatli kreditlar asosiy fondlar harakatini ta'minlaydi va ular kredit resurslarning katta hajmi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli kreditlar 1 yildan ortiq muddatga, davlat tomonidan tegishli moliyaviy kafolatlarni olgan holda, kreditning muddati 10 yil va undan ortiq muddatga uzaytirilishi mumkin.

Qarzni to'lash usuli. Qarzdor tomonidan to'liq summada to'lanadigan kreditlar. Bu usul qisqa muddatli kreditlarni qaytarishning an'anaviy usuli hisoblanib, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi juda sodda mexanizmga ega bo'ladi, chunki bu usulda tabaqlashtirilgan foiz stavkasini hisoblash mexanizmini qo'llash talab qilinmaydi.

Kreditni to'lashda kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bo'lib to'lanadigan kreditlar bo'lishi mumkin. Qarzni to'lashning bu usulida kreditni qaytarishning aniq shartlari kredit shartnomada keltirilgan bo'ladi. Kreditni bo'lib- bo'lib to'lash usuli ko'pincha uzoq muddatli kreditlarni to'lashda ishlataladi.

Kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli Amaliyotda olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini to'lashning bir necha xil usullari mavjud:

* Kreditni to'lash muddati kelganda, foiz stavkasini ham qo'shib to'lash usuli. Bu usul bozor iqtisodi yaxshi taraqqiy qilgan mamlakatlarning xo'jalik tashkilotlari faoliyatida keng qo'llaniladigan an'anaviy usul bo'lib, u hisob-kitob xarakteri jihatidan oddiy bo'ladi. Bu usul ko'proq qisqa muddatli ssudalarni to'lashda qo'llaniladi.

* Kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bir tekisda qarz oluvchi tomonidan to'lanadigan kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli. Amaliyotda bu usul uzoq muddatli kreditlarni to'lashda qo'llaniladigan ananaviy usuldir va tomonlar kelishgan holda kredit bo'yicha foizlarni to'lashga har xil yondashishlari mumkin. Masalan, kredit uzoq muddatga berilgan bo'lsa, kredit bo'yicha foiz stavkasini to'lashni kreditdan foydalanib boshlaganidan bir yoki ikki yil o'tgandan keyin belgilab berish mumkin.

* Qarz oluvchiga kredit berilayotgan vaqtida kredit uchun to'lanadigan foiz bevosita bank tomonidan ushlab qolinadigan kreditlar. Kredit uchun foiz stavkasini bu usulda to'lash rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelmaydi va u uchun xarakterli emas. Bu usul faqat sudxo'rlik kapitalida ishlataladi. Mamlakatda iqtisodiy holat nobarqaror bo'lganida banklar qisqa muddatli kreditlashni va kreditlar bo'yicha foizlar to'lashni shu usulda olib borganlari ular uchun qulay hisoblanadi va amaliyotda shu usuldan keng foydalanadilar.

Ta'minlanganlikning mavjudligi. Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli bevosita kredit shartnomasi hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan hajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatli kreditlash jarayonida qo'llaniladi. Uzoq muddatli kreditlashda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda, sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Bizning amaliyotimizda bu ba'zi hollarda tijorat banklari tomonidan o'z sho'balarini va muassasalarini kreditlashda qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq - ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin. Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib yetkazilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvi natijasida aniqlanadi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi kerak.

Uchinchi shaxsnинг moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalar. Kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxona yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqiqatda shunday ahvol ro'y bersa o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida yuridik shaxslar, shuningdek turli darajadagi davlat hokimiyyati organlari ishtirok qilishlari mumkin.

Bank kreditining maqsadliligi. Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'z ixtiyori bo'yicha ishlatiladi. Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo'llaniladi, o'rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo'llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

Kreditning qaysi maqsad uchun berilayotganligi kredit shartnomasida ko'rsatiladi va bank tomonidan berilgan resurslar qarz oluvchi tomonidan faqatgina shartnomada ko'rsatilgan masalani hal etish uchun ishlatiladi. (masalan, olinayotgan tovarlar bo'yicha hisoblashish, ish haqi to'lash va h.k. uchun) Qarz oluvchi tomonidan

ko'rsatilgan majburiyatlarning buzilishida bitimda ko'rsatilgan jarimalar qo'llaniladi.

Qarz oluvchilarining kategoriyalari. O'zining faoliyat doirasiga qarab, qarz oluvchi korxona va tashkilotlar bir necha guruhlarga bo'linishi mumkin. Masalan, agrar sohada kredit oluvchilar. Bu sohaning bo'lishi – maxsus kredit muasasalari- agrobanklarning, keyinchalik qishloq xo'jaligi sohalariga xizmat ko'rsatuvchi boshqa banklar Paxtabank, G'allabank va boshqa shu turdag'i banklarning tashkil topishini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Bu banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan mavsumiylikni e'tiborga olgan holda kreditlash hisoblanadi.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo'yicha kreditlar savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiyatiga ega bo'lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir.

Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjasni vositachilari: broker, makler, diler firmalariga beriladi.

Ko'chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, hatto ba'zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bizning amaliyotimizda esa bu faqatgina 1996 yildan boshlab keng tarqala boshladi. Xususiy lashtirish jarayonining rivojlanishi, mulkka egalik asoslarining qonunlashtirilishi ipoteka kreditini yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankning boshqa turladagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu me'yorning aniq miqdori (hisob stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Tijorat krediti. Iqtisodiyotda kredit munosabatlарини vujudga kelishining birinchi shakllaridan bo'lib, veksel muomalasini vujudga keltirgan va naqd pulsiz hisob kitoblarning rivoj-lanishiga yordam bergen. Tijorat kreditining subyektlari sifatida yuridik shaxslar: mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar, kreditning obyekti

sifatida sotilayotgan tovar ishtirok qiladi. Tijorat krediti o'zining amaliy ko'rinishini huquqiy shaxslar o'rtasida tovar va xizmatlarning to'lov muddatini cho'zish orqali sotish shaklidagi moliya xo'jalik munosabatlarda topadi. Bu kredit shaklining asosiy maqsadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orqali foyda olishdan iborat.

Tijorat kreditning an'anaviy vositasi bo'lib, qarz oluvchining qarz beruvchiga nisbatan moliyaviy majburiyatlarini aks ettiruvchi veksel hisoblanadi. veksel bu qarz majburiyati bo'lib, qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzni ko'rsatilgan summada, ko'rsatilgan joyda, belgilangan muddatda to'lash majburiyatini oladi.

Amaliyotda vekselning ikki turi qo'llaniladi. Oddiy va o'tkaz-ma veksel. Oddiy vekselni qarz oluvchi korxona qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar uchun unga to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

O'tkazma vekselda kreditor tomonidan belgilangan tovar va xizmatlar summasi uning topshirig'iga asosan uchinchi shaxsga yoki vekselni ko'rsatuvchiga o'tkazilishi zarur. Kreditorning vekselda ko'rsatilgan summani uchinchi shaxsga to'lash to'g'risidagi buyrug'ini ifodalovchi hujjat amaliyotda tratta deb ham yuritiladi.

Tijorat krediti bank kreditidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi) rolida maxsus kredit-moliya tashkilotlari emas, balki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bilan shug'ullanuvchi turli yuridik shaxslar ishtirok qiladi.

2. Tijorat krediti faqatgina tovar shaklida beriladi.

3. Tijorat kreditida ssuda kapitali, sanoat va savdo kapitali bilan integratsiyalashgan holda harakat qiladi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitda turli ixtisosdagi va faoliyat yo'nalishdagi korxonalarini o'z ichiga oluvchi xolding, moliyaviy kompaniyalarning vujudga kelishida o'z aksini topadi.

4. Berilgan vaqt oralig'ida tijorat kreditining o'rtacha qiymati doimo bank foizining o'rtacha stavkasidan kichik bo'ladi.

5. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi shartnoma huquqiy rasmiylashtirilganda tijorat krediti bo'yicha to'lov (foiz stavkasi) alohida aniqlanmaydi. Foiz to'lovi tovar bahosiga qo'shilgan holda rasmiylashtiriladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida tijorat krediti keng tarqalgan. MDH davlatlari bank amaliyotida tijorat krediti qo'llanilmaydi. Sobiq ittifoq davrida kredit munosabatlarining rivojlanishiga nazar soladigan bo'lsak, 1930-32 yillardagi kredit islohotigacha amaliyotda tijorat kreditidan foydalanilgan. Bu kredit tovarlar ishlab chiqarishning mo'lko'lchiligi sharoitida tovarlarni sotish jarayonini tezlashtirishda qulay hisoblanadi. O'tgan asrning 30- yillarda kreditning bu shaklidan foydalanishda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yilgani uchun kredit islohoti o'tkazish davomida bu kreditdan foydalanish bekor qilindi va xo'jaliklar to'g'ridan-to'g'ri bank tomonidan kreditlashga o'tkazilgan.

Hozirgi sharoitda jahon amaliyotida tijorat kreditning, asosan 3 turi qo'llaniladi:

- *qayd qilingan to'lov muddati bo'yicha kredit;
- *tovarlarni sotgandan keyingina qarzni to'lash bo'yicha kredit;
- *ochiq hisobvaraq bo'yicha kreditlash.

Bunda tijorat krediti shartlari bo'yicha, keyingi tovar partiyasini jo'natish, oldingi jo'natilgan tovarlar bo'yicha qarzlarni to'lash muddatigacha amalga oshirilishi zarur.

Korxonalar tomonidan tijorat kreditidan foydalanish ular tomonidan bank kreditidan foydalanishni inkor qilmaydi. Tijorat krediti bank kreditidan farq qilsada, ularning harakati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Korxonalar tijorat kreditidan foydalanganda, bank krediti korxona faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan kredit sifatida namoyon bo'la olmaydi. Tijorat kreditida korxonalarning hisob raqamlarida mablag'lari bo'Imagan sharoitda korxonalar tovarlarni kreditga sotib oladilar. Shuning uchun iste'molchi korxonalar bank kreditiga ehtiyoj sezmasligi mumkin. Ayni vaqtida mol sotuvchi korxona faoliyatida tovarlarini kreditga sotganligi uchun mablag'ga muhtojlik sezilishi mumkin. Mana shu sharoitda mol etkazib beruvchi korxona pul mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash maqsadida kredit olish uchun bankga murojaat qilishi mumkin. Bu hol, o'tgan asrning 30-yillar amaliyotida bank tomonidan egri kreditlash deb yuritilgan. Egri kreditlash deb yuritilishining sababi shundaki, kreditni haqiqatda mablag'i etarli bo'Imagan korxona, mol sotib oluvchi korxona olishi zarur edi. Mol sotib oluvchining xo'jalik faoliyatidagi mablag'lar yetishmovchiligi

mol etkazib beruvchiga bank tomonidan kredit berish yo‘li bilan qoplangan.

Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni hisobga olmagan holda tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxonalarining aylanma mablag‘larini xo‘jalik faoliyatidan tezroq bo‘shashini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Iste’mol krediti. Iste’mol krediti o‘zining maqsadi bilan kreditning boshqa shakllaridan farq qiladi. Uning farqli belgisi jismoniy shaxslarni kreditlash hisoblanadi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga tovar va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo‘lishi mumkin.

Iste’mol krediti ikki shaklda: pul shaklida yoki tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ko‘chmas mulkka egalik qilish uchun, qimmat bo‘lgan davolanishni to‘lash, har xil tovarlar va uy jihozlari sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun iste’mol kreditlari berilishi mumkin. Pul shaklida iste’mol krediti banklar tomonidan, tovar shaklida esa tovarlar chakana savdosi jarayonida to‘lov muddatini cho‘zish orqali amalga oshiri-ladi.

O‘zbekistonda hozirgi kunlarda uy-joy sotib olish, uy-joy qurish uchun pul shaklidagi, uzoq muddatli iste’mol krediti va tovar shaklida avtomobil kredit berilmoqda.

Davlat krediti. Kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarda davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomonidan qarz beruvchi va ikkinchi tomonidan qarz oluvchi sifatida ishtiroy qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan, Markaziy bank orqali iqtisodiyotning har xil sohalarini kreditlashni o‘z zimmasiga oladi. Davlat tomonidan:

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kreditlash;
- moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezayotgan davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan aniq tarmoq yoki mintaqalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati tugagan bo‘lsa, vaqtincha foydalanishga mablag‘ ajratilishi mumkin.

Undan tashqari, tijorat banklarigabanklararo kreditlar bozorida kredit resurslarni kim oshdi savdosi yo‘li bilan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri

sotish jarayonida davlat tomonidan mablag'lar vaq-tinchalik foydalanishga berilishi mumkin.

Davlatning qarzlarini ko'paygan hollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida, davlat qarz oluvchi sifatida, davlat qarzlarini joylashtirish jarayonini amalga oshiradi.

Davlat kreditining xarakterli xususiyati shundaki, davlat tomonidan olingen qarz mablag'lar ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlarini qoplash uchun ishlatiladi.

Davlat xazina majburiyatlarini chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish, davlat zayomlarini chiqarish va sotish yo'li bilan banklar aholining va boshqa moliya-kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga (moliyalashtirishga) sarflaydi.

Shuni ta'kidlash zarurki, o'tish davrida davlat krediti faqatgina moliyaviy resurslarni jalb qilish manbai sifatida emas, balki iqtisodni markazlashgan kredit tizimi orqali tartibga solishning samarali vositasi sifatida ishlatilishi kerak.

Xalqaro kredit. Kredit munosabatlарining xalqaro miqyosda (davlatlar o'rtaida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqaro kreditga xalqaro miqyosda xarakat qiluvchi kredit munosabatlari to'plashi sifatida qarash zarur. Kreditning bu shaklini bevosita ishtirokchilari millatlararo moliya-kredit institutlari, tegishli davlat hokimiyati, kredit tashkilotlari va alohida yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to'lovllilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

– qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat tashkiloti va muassasalari, banklar, kompaniyalar, xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari qatnashadilar;

– qarzga olingen mablag‘lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlataladi;

– qarz beruvchi mamlakatga to‘lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

Xalqaro kredit mahalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida qatnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

*mamlakatlar o‘rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta’minlaydi;

*kapitalning konsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;

*har xil valyutalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

Xalqaro kreditlar xarakteri bo‘yicha – davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;

– shakli bo‘yicha – davlat, bank, tijorat;

– tashqi savdo tizimida tutgan o‘rnii bo‘yicha – eksportni kreditlash, importni kreditlashga;

– muddati bo‘yicha – qisqa muddatli-1 yilgacha, uzoq muddatli -5 yildan ortiq muddatga;

– obyekti bo‘yicha – tovar va valyuta;

– ta’minlanganligi bo‘yicha – tovar-moddiy boyliklar bilan yoki hujjatlar bilan ta’minlangan kreditlarga bo‘linadi.

Tovar shaklida beriladigan xalqaro kredit yoki firma kreditlari tijorat kreditining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida qo‘llanilishi hisoblanadi va bir mamlakat firmasining tovari ikkinchi mamlakat firmasiga kreditga - to‘lov muddati kechiktirilib sotiladi. Bu jarayon, odatda, tratta (o‘tkazma veksel) bilan rasmiylashtiriladi. Eksportni kreditlashda davlat tomonidan subsidiya ajratilganligi uchun firma kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari, odatda, foiz stavkalarining bozor bahosidan past bo‘ladi.

Xalqaro bank kreditlarining bank eksport kreditlari (xorijiy import qiluvchilarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit), evrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan evrovalyuta bozori resurslari hisobidan evro-

valyutada, 2 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatga, o‘zgaruvchan foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud.

Xalqaro davlat krediti ikki tomonlama kelishuv asosida rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga tovar yoki valyuta shaklida, foiz to‘lash yoki foiz to‘lamaslik sharti bilan, uzoq yoki qisqa muddatga beriladi.

Xalqaro valyuta - kredit tashkilotlarining kreditlari qisqa muddatli – 1 yilgacha (xalqaro valyuta fondining kreditlari), o‘rtalik muddatli – 5 yilgacha (Jahon tiklanish va taraqqiyot banki) va uzoq muddatli – 20 yilgacha (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) kreditlar berishi mumkin. Xalqaro valyuta-kredit tashki-lotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklaridan olingan kreditlardan (bu kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi yiliga 7-9% ni tashkil qiladi) arzonga tushadi.

Sudxo‘rlik krediti. Kreditning o‘ziga xos shakli. Xorijda bu tarixan keng tarqalgan kredit hisoblanadi. Amalda sudxo‘rlik krediti Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo‘limgan jismoniy shaxslar, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mablag‘larni vaqtincha foydalanishgaberish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Sudxo‘rlik krediti ssuda foizining yuqori stavkasi bilan xarakterlanadi (120-180%). Milliy kredit tizimi infrastrukturasi rivojlanishi va hamma turdag‘i potensial qarz oluvchilarga kredit resurslardan foydalanish huquqini ta’minalash na-tijasida sudxo‘rlik krediti ssuda kapitali bozoridan yo‘qoladi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Kredit, Ssuda kapitali, pul bozori, kapital bozori, ipoteka bozori, fond bozori

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Ssuda kapitali harakati, uning xususiyatlari,
2. Kreditning mohiyati va uning funksiyalari
3. Kreditlash tamoyillari
4. Kreditning shakllari va turlari, ularning tavsifi

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

- 1.“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun-.T.: 1996.
- 2.“O‘zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun-T.:1996.
3. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.

13-BOB. DAVLAT BYUDJETI

13.1. Davlat byudjetining ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibi shakllanishi va rivojlanishida davlatning tartibga solish funksiyasi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishining mexanizmlaridan biri jamiyatning moliya tizimi hisoblanib, uning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti tashkil etadi.

Davlat byudjeti orqali mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulot taqsimlanish jarayonida davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi shakllantiriladi.

Byudjet davlat daromadlarining asosiy qismini o'zida jamlaydi va davlatning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy vazifalarini amalga oshirish uchun zaruriy pul mablag'lari fondini o'zida aks ettiradi.

Jamiyat taraqqiyotida xo'jalik mexanizmining bosqichma-bosqich takomillashib borishi, davlatlarni jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy tizimidagi roli ortishi ularning ixtiyorida ijtmoyi ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan qo'shilgan qiymatning bir qismi hisobiga doimiy ravishda pul resurslarining shakllantirilishini obyektiv zarur qilib qo'yadi. Bunday davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondlarining asosiy shakli byudjet bo'lib, byudjet davlatning asosiy moliyaviy rejasini hisoblanadi.

Bozor munosabatlariiga o'tilishi va davlat boshqaruvining demokratik tamoyillarini shakllantirish asoslaridan biri bo'lgan iqtisodiyot erkinlashtirishning hozirgi sharoitida makro va mikro darajadagi moliyaviy resurslar oqimlarining barqaror mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslar oqimlarini mukammallashtirish iqtisodiyotni rivojlanishining o'zaro nisbiyligini va tengligini ta'minlaydi, iqtisodiyotning turli sektorlari va sohalari rivojlanishi va samarali ishlashini ta'minlaydi hamda byudjet daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi ta'minlanadi.

Davlat byudjetining mohiyati ham davlatning qo'lida markazlashtirilgan pul jamg'armalari tashkil etilishi va davlatning ijtimoiy - iqtisodiy siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni natijasida yaratilgan qiymatni bir qismi

hisobiga markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq pul munosabatlarni bildiradi.

Byudjet munosabatlari – jamiyat iqtisodiy tizimining ajramas qismiuning amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarini bajarishi uchun zaruriy moliyaviy bazani shakllantirish bilan obyektiv ravishda aniqlanadi.

Davlat byudjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanadi. Yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog'liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tinchlik, chegaralar dahlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigan davlat zahiralarining mavjud bo'lish zarurati tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, davlat byudjet orqali davlat jamiyatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilishning moliyaviy dastaklariga ega bo'ladi. Davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasи sifatida davlat hokimiyatining iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asosini yaratadi.

Demak, bir tomondan byudjetning paydo bo'lishi davlatlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi byudjetning sifat belgilariiga aniqlik kiritiladi.

Byudjet- murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi. Byudjet sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida birinchi darajadagi vazifa uning moddiy mazmunini o'zida aks ettiruvchi takror ishlab chiqarish nisbatlari buzilishiga salbiy ta'sir etmasligi lozim (hatto har qanday kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishga yo'naltirilgan byudjet siyosatida ham). Aks holda asoslanmagan byudjet siyosati natijasida ishlab chiqarish jarayonidagi tanazzuliklarga olib kelinadi va oxir oqibat davlat byudjeti daromadlari shakllanishida ham muammolar paydo bo'ladi.

Byudjet munosabatlari davlat bilan xo'jalik subyektlari hamda aholi o'rtaсидаги qiymat taqsimlanishi jarayonida paydo bo'lувчи moliyaviy munosabatlardir. Bunday moliyaviy munosabatlarning

o'ziga xos xususiyati shundan iboratki birinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va undan davlat manfaatlari yuzasidan foydalanishga yo'naltiriladi. Davlat manfaatlari esa- bu ijtimoiy manfaatlar hisoblanadi. Zero, taniqli iqtisodchi J.M.Keyns ta'kidlaganidek, "Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy manfaatlar faqatgina davlatlardagina o'z ifodasini topadi". Byudjet davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida o'ziga xos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Demak, davlat byudjeti iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida markaziy bo'g'inda ishtirok etishi bilan aholining ma'lum qatlami manfaatlarini o'zida aks ettiradi. Bu tushunchada byudjet munosabatlari o'zida iqtisodiy rivojlanishning aniq falsafasi va ideologiyasini aks ettiradi.

O'zining moddiy mazmuniga ko'ra, davlat byudjeti - davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va undan foydalanishning alohida shaklidir, ijtimoiy - iqtisodiy mohiyatiga ko'ra esa milliy daromadni taqsimlashning asosiy qurolidir.

Davlat byudjeti moliya tizimining markaziy bo'g'inini tashkil qiladi. Shuning uchun davlat byudjeti moliyaning ayrimo'ziga xos sifat belgilarini o'zida namoyon qiladi.

Davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtaida yuzaga keluvchi moliyaviy munosabatlar byudjet munosabatlari hisoblanadi. Shuningdek, byudjet munosabatlarining moliyaviy munosabatlardan farqli 4 jihatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimi mumkin:

-byudjet davlat qo'lida milliy daromadning bir qismini jamlash, ijtimoiy ehtiyojlar va alohida davlat-hududi tuzilmalar uchun undan foydalanish bilan bog'liqqayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;

-byudjet yordamida milliy daromadning bir qismi va ayrim holatlarda milliy boylik xalq xo'jaligining tarmorqlari, mamlakat hududlari, ijtimoiy faoliyat sohalari o'rtaida qayta taqsimlanadi;

-qiymatni byudjet orqali qayta taqsimlash nisbati moliyaning boshqa bo'g'inlariga nisbatan yirik miqdorni tashkil qiladi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini va jamiyat

rivojlanishining har qaysi tarixiy bosqichlarida uning rivojlanishi oldidagi vazifalari orqali aniqlanadi;

-byudjetni taqsimlash sohasi davlat moliyasida markaziy o'rinni egallab, moliyaning boshqa bo'g'inlariga nisbatan byudjet muhim ahamiyatga ega;

- byudjet munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlardan yana biri ular YAIM va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida davlat ixtiyorida markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq imperativ xarakterdagi pul munosabatlari tizimidir.

Fikrimizcha, har qanday moliyaviy munosabatlar ham imperativ xarakterga ega bo'lavermaydi. Masalan, xo'jalik subyektlari takror ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qiymatning taqsimlanish jarayonidagi byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar vositasidagi ajratmalar imperativ xarakterdagi moliyaviy munosabatlar hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi hisoblanuvchi sof foydani ishlab chiqarish ehtiyojlari yoki shaxsiy iste'mol ehtiyojlari uchun taqsimlanishi hisobiga korxonalar ixtiyorida shakllantiriladigan markazlashtirilmagan pul fondlari imperativ xarakterga ega bo'lmaydi.

Davlat byudjetiga ta'rif berilganda uning iqtisodiy kategoriya va huquqiy kategoriya sifatida xususiyatlara alohida ahamiyat berish kerak.

Iqtisodiy kategoriya sifatida, davlat byudjeti - ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan YAIM va milliy daromadni taqsimlanish jarayonida davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ehtiyojlari uchun zaruriy markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq imperativ tavsifdagi pul munosabatlari tizimi hisoblanadi.

Huquqiy kategoriya sifatida, davlat byudjeti- davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'naliishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Demak, byudjet iqtisodiy mohiyati nuqtai nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib o'tiladigan bo'lsa, davlatning

moliyaviy asosini, qonuniy o'rnatalishi nuqtai nazaridan esa byudjet-davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko'rib o'tiladi.

13.2. Byudjet – davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida

Boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik usulidan ho'jalik yuritishning bozor mexanizmlariga o'tilishi davlatning moliya tizimida, xususan uning asosiy bo'g'ini hisoblangan byudjet tizimida tub islohotlar o'tkazilishiga olib keldi. Hozirgi sharoitda O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat byudjeti tizimi respublika va mahalliy hokimiyat organlari darajasida vakolatlarni qayta taqsimlanishning huquqiy mexanizmini shakllantirishning dastlabki bosqichlarini amalga oshirmoqda. Umuman olganda so'nggi vaqtarda amaldagi islohotlardagi o'zgarishlar ya'ni iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida jamiyat rivojlanishining moliyaviy strategiyasi islohotlar talablariga mos yondashuvlarni talab qiladi. Amaldagi islohotlar esa byudjet sohasida vakolatlarni mahalliy hokimiyat organlariga ko'proq berishni talab qilmoqda.

Professor L.A.Drobozina "pul mablag'larining asosiy markazlashtirilgan fondi", -deb ta'kidlaydi. Professor A.Y. Kazak esa "...asosiy moliyaviy reja sifatida... muhim moliyaviy to'g'rivorchi sifatida... pul munosabatlarining... majmuasidir", - deb ta'kidlaydi. Mazkur ta'riflardan ham ko'rinish turibdiki, aksariyat iqtisodchi olimlarning byudjet kategoriyasiga yondashuvida mantiqning yaxlit qoidasiga rioya qilinmaydi.

Fikrimizcha, davlat byudjeti tushunchasida uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi va mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatidagi talqinlarini bir - biridan farqlash lozimdir. Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet obyektiv xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlari tizimi sifatida qaraladi.

Huquqiy kategoriya sifatida byudjet tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yordan iboratdir.

Byudjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- byudjet universal moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo‘nalishlarini to‘la qamrab oladi;
- byudjet boshqa turdagи moliyaviy rejalgarda nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Asosiy moliyaviy reja sifatida shuni ta’kidlash joizki, unda moliyaviy rejalshtirishga tegishli bo‘lgan: tushumlarning aniq manbalari bo‘yicha pul daromadlari (byudjet fondini shaklantirish); aniq yo‘nalishlar va tadbirlar bo‘yicha pul xarajatlari (byudjet fondidan foydaalanish) kabi alomatlari o‘z aksini topadi.

Moddiy ma’noda byudjet - tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta’minlovchi, ular oldiga qo‘yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondidan iborat. Davlat tomonidan rejalshtirilgan tadbirlarni byudjet hisobidan moliyaviy ta’minalash deganda byudjetning aynan ana shu moddiy ma’nosini ko‘zda tutiladi.

Byudjet qurilishi masalasi davlatning byudjet tizimi amal qilishining tashkiliy asoslarini o‘zida aks ettiradi. Ma’muriy buyruqbozlik tizimiga asoslangan rejali iqtisodiyot davrida mamlakatning byudjet qurilishi boshqarishning ma’muriy usullariga muvofiq ravishda tashkil qilindi, bozor iqtisodiyoti sharoitida esa byudjet qurilishi oldingi tizimdan tubdan farqqiluvchi usullari va tashkiliy asoslar vositasida tashkil qilindi.

«Byudjet» va «Moliya» kategoriyalari bir-birini to‘ldiruvchi kategoriylar hisoblanadi.

Har ikkala kategoriya ham ma’lum sifat belgilariga egadir. Chunonchi, moliyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri taqsimlash tavsifiga egadir. Byudjet ham taqsimlash tavsifiga ega bo‘lib, moliyaning birlamchi taqsimlash jarayonida emas balki qayta taqsimlash jarayonida vujudga keladigan pul munosabatlari hisoblanadi. Demak, byudjet qayta taqsimlash kategoriysi hisoblanadi.

Moliyaning yana bir xususiyatlari belgisi pul munosabatlariga egaligi hisoblanadi. Byudjet ham pul munosabatlari tavsifiga egadir.

Chunki, qiymatni taqsimlash jarayonida vujudga keladigan pul munosabatlari hisoblanadi

Moliyaning o'ziga xos xususiyatli belgilaridan biri, fondli xususiyatga egaligi hisoblanadi. Moliyaga - YAIM va milliy daromadni taqsimlashda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari hisoblanadi deb ta'rif berladi. Davlat byudjeti esa, YAIM va milliy daromadni taqsimlanish jarayonida markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari hisoblanadi, deb ta'rif beriladi.

13.3. Davlat byudjetining asosiy funksiyalari

Byudjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati uning funksiyalarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Byudjetning iqtisodiy mazmunini yoritishga bag'ishlangan moliyaviy-iqtisodiy adabiyotlarda byudjetning funksiyalari nuqtai nazaridan turli iqtisodchilarning polisemantiq xarakterdagи fikr mulohazalarini kuzatishimiz mumkin.

Masalan, V.M. Rodionova byudjetni taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishni talqin qiladi. Shuningdek, muallif moliyaga tegishli funksiyalar sifatida ham taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishini ham talqin qiladi. Faqatgina bu erda byudjetning taqsimlash funksiyasini taqsimlash jarayonining 2-bosqichida amal qilishiga e'tibor berishimiz lozim.

Fikrimizcha ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish va umuman ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilishda byudjet muhim rol o'ynaydi, bu esa o'z navbatida byudjetning taqsimlash funksiyasi asosida unga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.

Byudjet-moliya sohasida qator ilmiy ishlarni amalga oshirgan professor G. Romanovskiy byudjetning bajaradigan funksiyalari sifatida byudjet fondini shallantirish, byudjet fondidan foydalanish va nazorat kabi elementlarni talqin qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda byudjet vositasida milliy daromadning sezilarliqismi qayta taqsimlanib, moliyaning boshqa hech qaysi bo'g'ini tarmoqlar, hududlar va iqtisodiyotning sohalari, davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy darajalarida mablag'larni bunday yirik miqdorda qayta taqsimlash imkoniyatiga ega emasdir.

Bozor munosabatlari sharoitlarida milliy daromadning taqsimlanishi pul daromadlari va jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish vositasida amalga oshiriladi. Bunday daromadlarga avvalo davlat daromadlari, korxona va tashkilotlar daromadlari, turli tijorat tarkiblari, moliyaviy institutlar hamda aholi daromadlari kiradi.

Milliy daromadni sezilarli qismi davlat, xususiy va tijorat korxonalari daromadlarini soliqqa tortish vositasida byudjet fondiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqsimlash yo‘li bilan kelib tushadi. Aholini sof daromadlarining bir qismini byudjetga qayta taqsimlash tartibida kelib tushadi.

Byudjetga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv omillarga jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari va jamiyatning rivojlanish darajasi, milliy daromadning qay darajada taqsimlanishi kabi omillar kiradi.

Subyektiv omillarga esa davlatning shakli(respublika, monarxiya.....), o‘tkazilayotgan islohotlar va siyosat yo‘nalishlari kiradi.

Byudjet daromadlari va xarajatlari ijtimoiy tuzumlarda turli ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Sobiq sotsialistik tuzumdagи byudjet munosabatlarini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, byudjet daromadlari davlat korxonalarining foydasidan ajratmalar va davlat mulkidan keladigan daromadlar hisobiga shakllanar edi. Bunday holat moliya-byudjet tizimini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish imkoniyatini bermay qo‘yadi, ya’ni unda xo‘jalik subyektlarining manfaatdorligi past bo‘lib turli imtiyozlar va rag‘batlantirishlarning foydasi unchalik bo‘lmaydi.

Byudjet xarajatlari esa sotsialistik tuzumda asosan xalq xo‘jaligini rivojlantirish uchun sarflanar edi. Mudofaa xarajatlari esa “qurollanish poygasi” tufayli xarajatlarning salmoqli ulushini tashkil qilardi. Xarajatlarning ushbu yo‘nalishlarga moyilligi, aholini ijtimoiymadaniy tadbir ehtiyojlariga ko‘p mablag‘lar sarflash imkonini bermay qo‘ydi va bu sohalarda jahondagi ko‘pgina mamlakatlardagi vaziyatdan orqada qolib ketishiga olib keldi. Jamiyatda byudjet munosabatlarining, yuqorida aytib o‘tganimizdek, noto‘g‘ri o‘rnatalishi sotsialistik tuzum emirilishining moliyaviy sabablaridan biri bo‘ldi.

Mustaqillik yillaridagi iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida shakllantirish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishni tartibga solish va milliy daromad taqsimlanishida byudjetning ham roli o'zgardi.

Bozor iqtisodiga o'tish ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tub islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi, shu jumladan iqtisodiy sohada bozor munosabatlarining tashkil topishi, turli mulkchilik shakllanishi, o'tish davrida O'zbekiston davlati oldida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, O'zbekistonni don va yoqilg'i – energetika mustaqilligiga erishish masalalari, xalq xo'jaligida chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish lozimligi, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlarning garovi ekanligi, bularning barchasi byudjet va moliya siyosatida tubdan o'zgarishlar qilishni talab qiladi va davlat byudjeti xarajatlarituzilishini belgilaydi.

Davlat byudjeti orqali milliy daromadning bir qismi taqsimlanishi jamiyat ijtimoiy hayotining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari tarmoqlari o'rtasida mablag'larni taqsimlash yo'li bilan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va jamiyatning boshqa yalpi ehtiyojlarini qondirish uchun markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish zarurati bilan bog'liqdir.

Byudjet iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga tegishli sifat belgilari unga ham xosdir. Uning pul munosabatlari hisoblanishi va moliyaning asosiy funksiyalarini bajarishi bilan belgilanadi. Byudjet iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi funksiyalarini bajaradi:

- YAIMni qayta taqsimlash;
- Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
- byudjet sohasidagi muassasalarni moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- nazorat.

Bozor islohotlari sharoitida davlatning vazifalari o'zgarishi byudjet munosabatlarini tashkil qilish jarayonida o'z aksini topadi. Umuman davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qisqartirish va iqtisodiyotdagи tadbirlarlik faoliyatini rag'batlantirish sharoitida byudjetning YAIMga nisbatan salmog'i qisqarib bormoqda. Amaldagi byudjet islohotlari iqtisodiyotdagи tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida ustuvor sohalarni qo'llab - quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun qulay moliyaviy iqtisodiy

imkoniyatlar yaratish, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishga qaratilmoqda.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Davlat byudjeti, byudjet munosabatlari, byudjet xarajatlari, byudjet daromadlari, milliy daromadni

Takrorlash va nazorat uchun savollar

1. Davlat byudjetining ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati
2. Byudjet – davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida
3. Davlat byudjetining asosiy funksiyalari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1245-sonli qarori 24-bandining amal qilishi 2018 yilning 1 yanvar.

2.35-ilovadagi ro'yxatga muvofiq xizmatlar ko'rsatayotgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 'PQ-325-sonli qarori 7-bandida

2."O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun-.T.: 1996.

3."O'zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun-T.:1996.

4.Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.

14-BOB. KORXONA MOLLIYASINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

14.1. Korxona moliyasini tashkil etish

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ilgari davlat tasarrufida bo'lgan korxonalarни turli mulkchilik shaklida bo'lgan korxonalarни taqazo etdi, chunki mulk o'z egasini topmas ekan bozor sharoitida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarmaydi, bozorda o'z o'mini topish xamda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish samarasiz bo'ladi. 1991 yil 15 fevralda Respublikamizda «Korxonalar to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Undan keyin «Yer to'g'risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati va uni qo'llab-quvvatlash to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlarni xuquqlarni ximoya qilish to'g'risida», «Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida», «Bankrotlik to'g'risida», «Xususiy korxonalar to'g'risida» va boshqa bir qator qonunlar qabul qilinib turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning faoliyatini yuritishni xuquqiy asoslarini yaratib berdi. Bu qonunlar respublikamizga chet el investitsiyalarini kirib kelishi uchun keng yo'l ochib berdi, chunki qonunlarda chet el investitsiyalariga juda xam ko'p moliyaviy engilliklar berish ko'zda tutilgan.

Korxona moliyasi bu iqtisodiy pul munosabatlarni pul xarakati mobaynida vujudga kelib turli xil pul fondlarini xosil qilishni bildiradi.

Korxona moliyasi o'z munosabatlarni amalga oshirishda 4 guruhga bulinadi.

1. Boshqa korxona va tashkilotlar bilan.
2. Korxonaning ichki moliyasi.
3. Yuqori tashkilotlar bilan.
4. Moliya-kredit tizimi bilan.

Moliya-kredit tizimi bilan aloqalar quyidagilar:

1. Har xil daromaddagi byudjet bilan.
2. Banklar bilan.
3. Sug'urta tashkilotlar bilan.
4. Byudjetdan tashqari fondlar bilan.
5. Fond bozorlari bilan.

6. Investitsiya fondlari bilan.

Korxona pul fondlari bilan

1. Ustav kapitali.
2. Asosiy vositalar fondi
3. Aylanma mablag‘lar fondi.
4. Qo‘srimcha kapital.
5. Zahira kapital.
6. Jamg‘arma fondi.
7. Valyuta fondi.
8. Investitsiya fondi.
9. Amotizatsiya fondi
10. Iste’mol fondi.
11. Byudjetga to‘lovlardan fondi va boshqa fondlar.

Chet elga eksport qilingan tovarlar uchun soliqlardan imtiyozlar bo‘ldi. Eksportdan kelgan tushumni 30% ini korxonaning valyuta fondiga to‘g‘ridan to‘g‘ri joriy schyotga o‘tkazildi va uni davlatning zahira, ya’ni valyuta zahirasiga o‘tkaziladi. Korxona o‘z sof foydasini pul fondlariga sarflaydi. Korxonaning fond bozorlari bilan bo‘ladigan munosabatlari turli xildagi fondlarni xosil qilish, ularni shakllantirish va foydalanishdan iborat.

Masalan: Ustav fondi. Ustav fondiga, hisobiga korxonaning asosiy vositalari va aylanish mablag‘lari shakllanadi. Bu korxonaning o‘z mablag‘larining asosiy manbasi hisoblanadi.

Xissadorlik jamiyatida ustav fondi chiqariladigan barcha aksiyalar qiymati bilan teng bo‘lishi lozim. Ish natijasiga ko‘ra ustav fondi miqdorini ko‘payishi yoki kamayishi mumkin, ya’ni qo‘srimcha aksiyalar chiqarish yoki ularning nominal qiymatini oshirish orqali ustav fondi ko‘payishi mumkin. Muomaladan aksiyalarni qaytarib olish tufayli esa ustav fondini kamaytirish mumkin.

14.2. Korxona moliyasini tashkil etish tamoyillari

Ustav fondi - korxonalarning o‘z mablag‘larining manbai hisoblanadi.

Bundan tashqari korxonalarning ustav fondi asosiy vositalarni qayta baxolash hisobiga, aksiyalarni nominal qiymatidan ko‘ra baland narxda sotish hisobiga, ishlab chiqarishga bepul asosiy vositalarni sotib olish hisobiga ko‘payishi mumkin.

Asosiy vositalarni qayta baxolash: asosan chuqur iqtisodiy krizis vaqtida va pulning qadrsizlanishi hisobiga amalga oshiriladi, xozirgacha bizning respublikamizda asosiy vositalar 7 martadan ortiq qayta baxolangan bo‘lib, bunday qayta baxolash joriy yilning 1 yanvar xolatiga baxolanib kelinmoqda.

Zahira fondi bu fond foydadan ajratmalar hisobiga tashqil qilinadi. Fondning asosiy maqsadi bo‘lib, favqulotda zararlarni qoplash, aksiyalarni qayta sotib olish hisoblanadi.

Jamg‘arma fondi bu fond korxonalarining ishlab chiqarishini kengaytirish uchun va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. Bu fond o‘z oldiga kuygan maqsadiga erishish uchun investitsiya fondidan va amortizatsiya fondidan foydalanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari deb, maxsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarga yoki davr xarajatlariiga aytildi.

Ularga xom ashyo, material, yoqilg‘i, ammortizatsiya ajratmasi, ishchi va xizmatchilar ish xaqi xamda maxsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar kiradi. gar bir xil maxsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarning jami summasini ishlab chiqarilgan maxsulot soniga taqsimlasak, ishlab chiqarilgan bir maxsulotning tannarxi kelib chiqadi.

Tannarx ko‘rsatkichi korxona faoliyatida muxim sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U qancha past bo‘lsa, ishlab chiqarish rentabelligi shuncha yuqori bo‘ladi.

YUqorida ishlab chiqarish xarajatlariiga berilgan tushunchalardan ma‘lumki, tannarxga korxonalarining xamma xarajatlari qo‘silmaydi, ba’zi xarajatlari boshqa manbalar hisobidan qorejaadi. Masalan, foya hisobidan davr xarajatlari qorejaadi.

Maxsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulyasiya moddalari bo‘yicha ishlab chiqarish turlari xarajatning vujudga kelish joylari, maxsulot turlari bo‘yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni ana shunday umumlashtirish va guruxlash uchun bir necha sintetik buxgalteriya schyotlari qo‘llaniladi.

Ishlab chiqarish xarajatlariiga maxsulot ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq xarajatlar kiradi. Masalan, ishlab chiqarish axamiyatidagi material, ishlab chiqarish

xarakteridagi mexnatga xaq to'lash, ijtimoiy sug'urtaga ajratma xarajatlari, ishlab chiqarish xarajatlari kiradi.

Ishlab chiqarish axamiyatidagi material xarajatlariga «Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarilayotgan maxsulot asosini tashqil qiladigan, chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar.

2. Maxsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonini me'yorda ta'minlab turish, maxsulot urash va boshqa ishlab chiqarish maqsadlari uchun maxsulot ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan, sotib olingan materiallar. Shuningdek, asosiy fondlar, arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar qatoriga kirmaydigan bino, inshoot, asbob uskunalarni ta'mirlashda ishlatiladigan sotib olingan materiallar va extiyot qismlar.

3. Ushbu korxonada qo'shimcha qayta ishlashni yoki yig'ishni talab etuvchi sotib olingan komplektlashgan maxsulot va yarim tayyor maxsulot.

4. Asosiy faoliyat turiga taalluqli bo'limgan chet korxona va xo'jaliklarga bajariladigan ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar.

5. Tabiiy xamda mineral xom ashyo bazasini qayta tiklash uchun qilinadigan ajratmalar suv uchun to'lanadigan to'lovlar va boshqalar.

6. Chetdan sotib olinadigan yoqilg'ining xamma turlari. Texnologik maqsadlarga, korxona transporti bajaradigan ishlab chiqarishga xizmat qilish bo'yicha transport ishlariga, binolarni istishga, ishlab chiqarishga sarflanadigan energiyaning xamma turlari.

7. Korxonaning xo'jalik, texnologik va boshqa ishlab chiqarish maqsadlari uchun uchun sotib olinadigan energiyaning xamma turlari.

8. Me'yor chegarasidagi material resurslarining kamomadi va buzilishidan keladigan nobudgarchilik.

9. Material resurslarini transportda tashish, ortish, tushirish bilan bog'liq xarajatlarining tegishli elementiga qo'shiladi.

10. Mol etkazib beruchilardan olingan material resurslari bilan birga sotib olinagan tara va o'rash xarajatlari material resurslari qiymatiga qo'shiladi.

11. Maxsulot tannarxiga qo'shiladigan material resurslari xarakterlaridan, qaytarilgan chiqindilar yoki taralar qiymati ularni

sotish yoki ulardan foydalanish xaqiqiy tannarxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

Bizga ma'lumki, xar bir korxona o'zi ishlab chiqargan maxsulotni realizatsiya qiladi va shu bilan xo'jalik jarayonlarining yakunlovchi bosqichi sodir bo'ladi. Maxsulotni realizatsiya qilish uchun esa qator xarajatlar qilinadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ular korxonada sodir bo'ladigan xarajatlarning asosiy salmog'ini tashqil etadi.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga asosan maxsulot realizatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

maxsulotni o'rash, saqlash, ortish, joyigacha tashish, me'yor chegarasida reklama xarajatlari va xokazo.

Shuni qayd etish lozimki Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1995 yil 4 apreldagi 17-02.98 sonli «Korxona tashkilotlar buxgalteriya hisobotida o'zgarishlar to'g'risida»gi qaroriga asosan korxona va tashkilotlarning buxgalteriya hisoboti, moliyaviy hisobotiga, schyotlar rejasiga ba'zi o'zgarishlar kiritildi. Jumladan maxsulot realizatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni hisobga olish tartibida xam o'zgarishlar mavjud. Ushbu xarajatlarda endilikda avvalgidek maxsulot to'la tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar sifatida yuritilmaydi, balki 9400-«Davr xarajatlari» schyotining 9410-«Maxsulot realizatsiyasi xarajatalari» subschyotida yuritiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xar bir korxona, tashkilot o'zining moliyaviy resurslarini tashqil qilishi va undan foydalanishi mumkin. Bu mablag'larning manbai esa foya, amortizatsiya fondi, qirnmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan mablag'lar, aksiya egalarining badali va ulushlari, kreditlar, maqsadli moliyalashtirish mablag'lari va shunga o'xshash yo'nalishdag'i mablag'lardir. Korxonaning ustav kapitali uning mablag'larining tashqil bo'lishida asosiy manba hisoblanadi.

Ustav kapitalining xolati va xarakati 8510-«Ustav kapitali» nomli passiv, sintetik schyotida hisobga olib boriladi. Bu schyotning kredit qoldig'i qayd qilingan ustav kapitalining summasini bildiradi, debit ustav kapitalining kamayishi, kredit ustav kapitalining ko'payishini bildiradi.

Korxonaning faoliyatiga asosiy baxo beradigan ko'rsatkich moliyaviy natija yoki balansda ko'rsatilgan, ya'ni foya va zarardir. Bu foya va zararlar quyidagi muomalalar natijasi bo'yicha olinadi:

- a) maxsulotlarni realizatsiya qilish bo'yicha;
- b) ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish natijasida;
- v) asosiy vositalarni sotish natijasida;
- g) nomoddiy aktivlarni sotish bo'yicha;
- d) moddiy qiymatliklarni sotish bo'yicha;

Bundan tashqari korxona realizatsiyadan tashqari muomalalar bo'yicha xam foya yoki zarar ko'rishi mumkin:

- a) olingan yoki to'langan jarimalar summasi;
- b) valyuta kursidagi farq;
- v) qimmatbaxo qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlar;
- g) boshqa korxonalar ulushlari bo'yicha olinadigan daromadlar;
- d) boshqa turdag'i daromadlar va sarflar;

Ushbu daromad va yo'qotishlar 9900-«Yakuniy moliyaviy natijalar» schyotida yig'ilib boriladi va boshqa schyotlar bilan bog'lanadi.

Qonunga muvofiq korxonalar va jismoniy shaxslar davlat byudjetiga tegishli soliqlar to'lagandan keyingi qolgan sof foya korxonaning ta'sis xujjatlari va aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilish qaroriga muvofiq jamg'arma, iste'mol fondiga va zahira fondiga taqsimlanadi.

14.3. Moliyaviy hisobot

Jamiyat ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, asosan, sanoat korxonalarining zimmasiga tushadi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning muttasil o'sishi milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarish o'sish sur'atlarining yuksalishi uchun qo'shimcha manbalarni yaratadi va mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yana ham oshiradi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha belgilangan reja topshiriqlarining tig'izligini tekshirish;

-korxonalarini mahsulotlar ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va o'zgarishining hajmi, tarkibi, nomenklaturasi, assortimenti, sifati va bir tekisda ishlab chiqarishga baho berish;

-o'tgan yilga hamda biznes rejaga nisbatan rejaning bajarilishidagi farqni va uning sabablarini aniqlash;

-tuzilgan shartnomalar majburiyatlarini asosida mahsulotni etkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish;

-mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni amalga oshirish bo'yicha zahiralarni aniqlash va uning tarkibi hamda sifatini yaxshilash kabilar.

Ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishda bir qancha axborot manbalari, jumladan, 1 M «Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yillik hisoboti», «Oylik va choraklik hisobotlari» ham qo'llaniladi. Bundan tashqari 1-T «Sanoat mahsulotlarining tannarxi», «Ayrim sanoat mahsulotlarining rentabelligi», yangi texnikani joriy qilish bo'yicha hisobot, mahsulotning sifati va navi bo'yicha statistik ma'lumotlar va hokazolardan foydalaniladi.

Moliyaviy resurslar korxona ixtiyoridagi pul mablag'lari bo'lib, ular joriy xarajaqtar va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun xizmat qiladi, moliyaviy majburiyatlarni bajarish va ishchilarning iqtisodiy axvoli barqarorligini ta'minlash uchun ishlataladi.

Moliyaviy resurslarni shakllantirish bir qator manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Mulkchilik xuquqi asosida moliyaviy resurslar manbai ikkita yirik guruxga ajratiladi, bularga: xususiy va begona pul vositalaridir. Ularni yanada aniqroq toifalash xam mumkin, ya'ni: xususiy va unga tenglashtirilgan mablag'lar; moliyaviy bozordagi resurslar; qayta taqsimlash tartibidagi pul kirimlari.

Moliyaviy resurslar korxona tashqil topayotgan vaqtida, ya'ni ustav kapitali tashqil etilganda shakillanadi. Ustav kapitali-bu ta'sischilar kapitali hisobiga xosil qilingan korxona mulkidir. Amaldagi qonunlarga asosan ustav kapitalining eng kam o'lchamlari belgilab qo'iladi.

Moliyaviy resurslar birinchi galda asosiy va yordamchi faoliyat natijasida olingan foyda, shuningdek ishlab chiqarishdan chiqarilgan mulkni sotishdan tushgan tushum, barqaror passivlar, turli maqsadli tushumlar, mexnat jamosi azolarining badal to'lovlari va xissalaridan tashqil topadi. Barqaror passivlarga ustav zahira, va boshqa kapitallar; uzok muddatli qarzlar; korxona aylanmasida doimo mavjud bo'lgan

kreditorlik qarzlar (to'lov muddatlarining o'zgarib turishidan kelib chiqadigan ish xaqi bo'yicha qarzlar, byujetdan tashqari fondlarga ajratmalar bo'yicha qarzlar, byujetdan qarzlar, xaridor va ta'minotchilar bilan hisob kitoblar bo'yicha qarzlar) kiradi.

Yangi tashqil etilayotgan yoki qayta tiklanayotgan korxonalarning moliyaviy resurslari moliya bozorida aksiya sotish, korxona tomonidan chiqarilayotgan qimmatboxo qog'ozlarni sotish orqali shakllanadi. Korxonalar o'zлari qaraydigan assotsiatsiyalar, konsernlardan moliyaviy resurslari olishi mumkin; tarmoq strukturalari saqlab qolningan xolda yuqori tashkilotlardan, davlat boshqaruв organlaridan byujet subsidiyalar ko'rinishida, sug'urta tashkilotlaridan xam moliyaviy yordam olishlari mumkin.

Moliyaviy resurslaridan foydalanish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot sotish joriy xarajatlari;
- ishlab chiqarishni kengaytirish, uni texnik jixatdan yangilash, nomoddiy aktivlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kapital qo'yilmalarni moliyalash;
- moliyaviy resurslarni qimmatboxo qog'ozlarga investitsiyalash;
- moliya, bank tizimlariga qo'ilmlar, byujetdan tashqari fondlarga to'lovlar;
- turli xil pul jamg'armalarini va zahiralarini tashqil etish; xomiylik va mexr-shavkat maqsadlari va x.k. larga yo'naltirish.

Korxona o'z faoliyati davomida asosiy fondlar va aylanma vositalarni kengaytirish xamda maxsulot ishlab chiqarish xamda sotish, o'z mexnat jamoasini ijtimoiy rivojlantirish uchun moddiy va moliyaviy xarajatlar kiradi.

Korxona xarajatlarining eng ko'p qismini maxsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar tashqil etadi. Ishlab chiqarish xarajatlar yigindisi korxonaga maxsulot ishlab chiqarish tannarxini beradi. Korxona shuningdek, maxsulot ishlab chiqarish va sotish uchun xarajat qiladilar ya'ni ishlab chiqarishdandan tashqari, tijorat xarajatlarini xam amalga oshiradilar.

Ishlab chiqarish tannarxi va tijorat xarajatlari maxsulotning to'liq va tijorat tannarxini tashqil etadi. Uni korxona xaqkoniy belgilash quyidagilar uchun zarurdir:

- marketing tadqiqotlari o'tkazish va ular ular asosida eng kam xarajat kilgan xolda yangi maxsulot ishlab chiqarishni boshlash;
- xarajatlar ayrim moddalarning maxsulot tannarxiga ta'sirini aniqlash;
- narx-navoni tashqil etish;
- ishning moliyaviy natijasini to'g'ri aniqlash.

Quyidagi tayanch so'zlarni ta'riflang.

1. Ustav kapitali.
2. Valyuta fondi.
- 3 Asosiy vositalar fondi.
4. Investitsiya fondi.
5. Aylanma mablag'lar fondi.
6. Amotizatsiya fondi.

Mavzuga oid savollar

1. Korxona molliyasini tashkil etish
2. Korxona molliyasini tashkil etish tamoyillari
3. Moliyaviy hisobot

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

- 1."Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.
- 2.O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so'zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
- 3.O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so'zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

15-BOB. BANK TIZIMINING FUNKSIYALARI, TURLARI VA OPERATSIYALARI

15.1. Bankning mohiyati va bank tizimi

Bank deb pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasaga aytildi.

Banklar paydo bo'lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining yuzaga kelishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda banklarning mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan subyektlarga berishgan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

Bank so'zi italyancha «banca» so'zidan olingan bo'lib «stol», aniqrog'i «pullik stol» degan ma'noni anglatadi. O'rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlardagi monetalarini stol ustiga qo'yib hisob-kitob qilganlar.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilar «bancherii» deb atagan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o'z ishiga mas'uliyatsizlik qilsa, u o'tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «Banco rotto», ya'ni bankrot deb atashgan. Ya'ni bizga ma'lum bo'lgan «bankrot» so'zi ham italyancha «banca» so'zidan olingan.

Banklar paydo bo'lishining boshlang'ich bosqich XVI asrda Florensiya va Venetsiyada tashkil qilingan kichik jirobanklar hisoblanadi. Keyinchalik shunday banklar Amsterdamda (1605 y.), Gamburgda (1618 y.), Milanda, Nyurnbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar asosan o'z mijozlari-savdogarlarga xizmat qilgan, ular o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borgan. Bu banklar o'z mijoz-larini monetalar tarkibi buzilishi tufayli zarar ko'rishdan himoya qilgan. Ular hisoblarni ma'lum summadagi qimmatbaho metallni ifodalovchi maxsus pul birligida olib borishgan. O'zlarining

bo'sh pul mablag'larini jirobanklar davlatga, shaharlarga, chet el savdogarlariga ssudaga berishgan.

Tarixda birinchi yuzaga kelgan bank Angliya banki hisoblanib, u 1694 yilda aksionerlik banki sifatida tashkil bo'lgan. Bu bank aksioner-emission bank bo'lib, unga davlat tomonidan banknotlar chiqarishga ruxsat berilgan. Keyinchalik, sanoat rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil qilinib borgan. Banklarning kelib chiqishi va rivojlanish ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar va talablarning oshishi, savdo kapitali aylanishining tezlashuvi bilan bog'liq bo'lgan. Natural xo'jalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pullik hisobkitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo'l ochdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yollanma mehnatni jalb qilishga olib kelgan. Yollanma mehnat uchun haqning pul shaklida to'lanishi, doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi. Pul aylanishini esa bank tomonidan boshqarilishi zarur edi. Shunday qilib, banklar mablag'larni yig'ish va taqsimlash orqali ssuda kapitali harakatini boshqara boshladi. Ssuda kapitalistidan farqli o'laroq bankir tadbirkor sifatida o'z ish faoliyatini olib borgan.

Agar sanoat sohasidagi puldor o'z kapitalini sanoatga, savdogar o'z mablag'ini savdoga qo'ysa, bankir o'z kapitalini bank ishiga qo'yadi. Ssuda kapitalisti asosan o'zining bo'sh kapitalini qarzga bersa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag'larga tayanadi. Ssudaga mablag' beruvchi puldorning daromadi ssuda foizi bo'lsa, bankirning daro-madi bank foydasi hisoblanadi. Banklar korxona, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo'sh pullarini jalb qilish orqali katta hajmdagi kapitalni o'z qo'llarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib boradilar. Banklarning yiriklashuvi va ular faoliyatining takomillashuvi ularning maxsus korxonalar – kredit muassasalariga aylanishiga olib keladi.

Shunday qilib, bank faoliyati xalq xo'jaligi mavjud bo'lgan bo'sh mablag'larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni o'z ichiga oladi. Bank o'z faoliyati davomida ma'lum daromadga ega bo'ladi. Bu daromad bank jalb qilgan resurslarga yo'naltirilgan foiz va joylashtirgan resurslar bo'yicha oladigan foiz o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi.

15.2. Banklarning funksiyalari

Shunday qilib, bank tizimi miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, banklar quyidagi funksiyalarini bajaradi:

6. – vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va kapitalga aylantirish;
7. – kredit munosabatlarda vositachilik qilish;
8. – to'lov jarayonlarida vositachilik qilish;
9. – muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Xalq xo'jaligidagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish – banklarning ilk funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bu funksiya amalgaga oshirilishi natijasida bir tomonidan, huquqiy va jismoniy shaxslar jalb qilingan mablag'lari bo'yicha ma'lum miqdorda daromadga ega bo'ladilar, ikkinchi tomonidan bu mablag'lar banklarning kreditlash salohiyatini tashkil qiladi va shu resurslarga asoslangan holda banklar ssuda operatsiya-larini olib boradi.

Vaqtincha bo'sh pul mablag'lar banklar ishtirokisiz bir korxona (tarmoq) tomonidan ikkinchi korxona (tarmoq)ga vaqtincha foydalanishga beriladigan bo'lsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

- birinchidan, kreditga so'ralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bo'lgan summa o'rtaida nomutanosiblik bo'lishi mumkin;
- ikkinchidan, ortiqcha bo'sh mablag'ga ega bo'lgan korxonaning mablag'larni vaqtincha foydalanishga beradigan muddati mablag' zarur bo'lgan korxonani qoniqtirmasligi mumkin;
- uchinchidan, banklar ishtirokisiz korxonalarini to'g'ridan-to'g'-ri kreditlashda qarz beruvchi qarz oluvchi korxonaning moliyaviy ahvolini to'liq o'rgana olmasligi mumkin. Qarz oluvchining to'lovga layoqatsiz bo'lishi kreditor korxonaning ham moliyaviy ahvolining yomonlashuviga va boshqa salbiy hollarga olib kelishi mumkin.

Xalq xo'jaligidagi barcha bo'sh mablag'larning bank tomonidan yig'ilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslar hisobi-dan qarz oluvchi korxonaga zarur bo'lgan summada, zarur bo'lgan muddatda kredit berishga imkoniyat yaratiladi. Undan tashqari, bank korxonalarining to'lovga layoqatliliginи har tomonlama tahlil qilishi, ularning moliyaviy ahvolini yaqqolroq baholab bera olishi mumkin.

Iqtisodiyotning o'sishi bank kreditining qo'llanilish ko'lamini kengaytirib boradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi. O'tgan asrning 60-yillardan boshlab, banklar yirik mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslasha bordi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun banklar mablag'larni jaib qilish miqyosini, iste'mol uchun kreditlar berish ko'lamini kengaytirdi.

To'lovlardaga vositachilik funksiyasida banklar o'z mijozlarining topshirig'iga asosan to'lovarayonlarini amalga oshiradi, hisob varaqlariga mablag'larni qabul qiladi, pul tushumlarining hiso-bini olib boradi, mijozlarga pul mablag'larini beradi.

Hisob-kitoblarning bank orqali olib borilishi muomala xaratlarining kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va boshqa mamlakat bilan qiyinchiliksiz o'z mablag'larini bank orqali o'z hisobvarag'idan boshqa korxona hisobvarag'iga yoki boshqa mamlakat bankiga o'tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo'sh mablag'lar va kapital bo'lib qolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin.

Undan tashqari, kredit yordamida muomalaga naqd pullar - banknotalar chiqariladi.

Bank kredit pullar chiqarish, depozitlar yaratish yo'li bilan to'laqonli pullar o'rmini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi.

15.3.O'zbekistonda zamonaviy bank tizimining tashkil qilinishi.

Bank tizimi bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismidir. Tovar pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyatlar ochib beradi.

Shuning uchun ham, respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon talabiga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega

bo'lish, xo'jaliklar va aholining bo'sh turgan mablag'larini jaib qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat. Bu maqsadga erishishni ta'minlash uchun davlatimiz tomonidan mamlakatimiz bank sektorining rivojlanishini ta'minlovchi zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlash, shuningdek, bank nazorati tizimini va banklar faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish, banklarning depozit, kredit, va investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishga erishish va banklar o'rtasida raqobat bo'lishini ta'minlashga asos yaratishdan, nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, moliya-kredit sektorining huquqiy bazasini yaxshilash, ularning moddiy-texnik jihatdan samarali ta'minlanganligiga erishish kabi choralarни amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bank tizimini qayta tashkil qilishni amalga oshirish quyidagi tamoyillarga acoqlangan holda olib borilishi mumkin:

- xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank-moliya tizimi barqarorligiga erishish;
- Bank tizimidagi islohotlar umumiqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi bilan mos kelishi;
- bank-moliya tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo'li bilan jahon bank tizimiga yaqinlashtirish;
- pul-kredit siyosatini olib borishda mamlakatning ichki ehtiyojlari va iqtisodiyotning xususiyatini hisobga olish;
- banklar faoliyatida mijozlar manfaatini ustun qo'yish va boshqalar.

Bizning zaminimizda mavjud bo'lgan banklarning rivojlanishini ikki yirik davrga bo'lib qarash mumkin. Birinchi davr bu – O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrdagi bank tizimi va ikkinchi davr O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Biz ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonda bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, banklar tizimining birinchi pog'onasi – bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi pog'onasi – tijorat bank-lari, ularning sho“balari, chet el banklari sho“balari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi banklar tizimini kengaytirgan holda quyidagicha chizmada keltirish mumkin.

6-chizma

O'zbekiston Respublikasi Bank tizimi tarkibi

I pog'ona

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Markaziy apparat

Viloyat bo'yicha Markaziy
bank boshqarmalari

II pog'ona

Nobank kredit
tashkilotlari

Kredit tashkilotlar

Chet el banklari
vakolatlari bo'limlari

Banklar va ularning bo'limlari

Universal banklar

Maxsus sixtisoslashgan banklar

Funktsiyalar bo'yicha
ixtisoslashuv

Tarmoqlar bo'yicha
ixtisoslashuv

Innovatsiya banki, Investitsiya
banki
Ipoteka va boshqa banklar

Paxta bank, Sanoatqurilish bank
Asakabank, Xalq banki
Aloqa bank va boshqalar

1991 yilning 31 avgustida Respublikamiz mustaqilligining e'lon qilinishi tarixiy voqeа bo'ldi. Mustaqillik bizga o'z-o'zimizni boshqarish, imkoniyatlarimizdan o'zimiz foydalanish, shaxsiyatimizni qaytib olishimizga katta yo'l ochib berdi.

Butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingen bozor iqtisodiyoti bizning respublikamizga ham kirib keldi. Shuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug'ildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan bank tizimining rivojlanishini tahlil qilib qaraydigan bo'lsak, uning rivojlanishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

- birinchi bosqich XIX asrning oxiridan 1930-32 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ichida oldingi mavjud bo'lgan banklar zamindida Sobiq Sovet Ittifoqining kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda 30-yillarda iqtisodning rivojlanishiga mos keluvchi banklar: tarmoq banklari, o'lka banklari, tijorat banklari, maxsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko'rsatgan;

- ikkinchi bosqich 1932 yildan 1959 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda banklar faoliyatida o'zgarishlar yuz berdi va banklar veksel orqali kreditlashdan (o'sha davrlarda bu kreditlash amaliyotda «egri» kreditlash deb nom olgan) to'g'ridan-to'g'ri korxonalarini kreditlashga o'tkazilgan. Bu davrda xo'jaliklar o'rtasidagi vazifalar taqsimlangan va iqtisodiyot sohalari bo'yicha banklar tashkil qilingan hamda bu banklar faqat shu sohalarni uzoq muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullangan. Davlat banki esa asosan qisqa muddatli kreditlash jarayonlarini olib borgan;

- uchinchi bosqich 1959 yildan 1988 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qilinib, mamlakatdagи barcha kredit munosabatlarini olib borish maqsadida uchta bank tashkil qilindi. Bular: Davlat banki, qurilish banki, tashqi savdo banki bo'lgan. Davlat banki iqtisodiyotning barcha sohalariga faqat qishloq xo'jaligining ba'zi ehtiyojlari uchun uzoq muddatli kreditlar berilgan) qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullangan. Qurilish banki kapital qo'yilmalar bilan bogg'liq bo'lgan xarajatlarni, qurilishni moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar berish bilan bog'liq operatsiyalarni bajargan. Tashqi savdo banki Moskvada joylashgan bo'lib, mamlakatning eksport-import bilan bog'liq faoliyatini boshqarib borgan;

- to'rtinchi bosqich bank tizimini qayta tashkil qilish davri bo'lib, u 1988 yildan 1990 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu

davrda bank tizimida katta o'zgarishlap ro'y berdi va Davlat banki bilan bir qatorda maxsus tarmoq banklari tashkil qilindi.

Bu banklar jumlasiga, Sanoat Qurilish banki, Agrosanoat banki, Uy-joy qurilish va ijtimoiy ta'minot banki, jamg'arma bank va tashqi iqtisodiy faoliyat banki kabilar kiradi. Bu banklar faoliyatining xususiyatlari shunda ediki, ular o'zi xizmat ko'rsatadigan sohaga uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish huquqiga ega edilar.

Shu davrdan boshlab Davlat bankidan kreditlash funksiyasi olib tashlandi va u emission bank sifatida faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi. 90-yillarda bank tizimini qayta tashkil qilishdan asosiy maqsad mamlakatda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda banklar zimmasiga korxonalar va tashkilotlarga kompleks xizmat ko'rsatishni ta'minlash va korxonalar bilan banklar o'rtasidagi munosabatlarni xo'jalik hisobiga o'tkazish, quyi bank muassasalarining huquq va majburiyatlarini oshirishdan iborat edi.

Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston hududidagi bank muassasalari SSSR bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. Shu bilan birga bu banklar sobiq «Ittifoq» bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Sobiq SSSR bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish va xo'jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanardi. Davlat bankining ham emissiya funksiyalarini ham hisob-kitoblar va 90-yillargacha kreditlar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajarishga mononollashuvi uni davlat boshqaruv va nazorat organiga aylangan edi.

Ma'muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshqarishda normal xarakterga ega. Davlat banki kredit resurslari bo'yicha cheklanmagan monopol mavqega ega edi. Kredit resurslari harakatini ham boshqarish ham nazorat qilish Davlat bankining monopol ta'siri ostida edi. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos barcha xususiyatlarining inkor etilishi, sobiq «Ittifoq» bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keladi.

Markazlashtirilgan bank tizimi boshqaruv asosida faoliyat ko'rsatayotgan respublika banklar tor doirada pul resurslari harakatini boshqarar, lekin resurslarni taqsimlash, emission jarayonlarni amalga oshirish va nazorat qilish sobiq «Ittifoq» Davlat banki qo'lida edi.

Iqtisodiyetni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimini qator kamchiliklari ro'yobga chiqdi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalgaga oshirishni talab etardi. Albatta, bu bozor iqtisodiyotiga ilk qadamlar qayta qurish sharofati bilan bozorga xos ba'zi bir belgilarini totalitar iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan tushuniladi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy strukturasini o'zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimni rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastakka aylantirish ko'zda tutilgandi.

Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri asosan O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrni quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil qilish mumkin:

1991 yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish uslublarini o'zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo'la bordi. 1991-1992 yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish yillari bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to'lov tizimini shakllantirish vazifalari qo'yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviytamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalgaga oshirilishi lozim edi.

1993-1994 yillarda bank tizimidagi islohotlar davom etdi. 1994 yilning 1 iyulidan e'tiboran milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilgani mustaqil bank tizimining, umuman, O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Markaziy bank o'z faoliyatida to'liq mustaqil bo'lganini, kelgusida bozor instrumentlari orqali milliy pul tizimini tartibga solish samarali tashkil etilishiga yordam berishi mumkin ekanini anglatar edi. Aynan shu vaqt dan boshlab Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va keyinchalik samarali to'lov tizimini yaratish bo'yicha faoliyati

to'laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

1995 yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo'lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat – "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomni va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. Shu bilan bir qatorda mazkur yilda aholiga xizmat ko'rsatish sisatini yaxshilash, shuningdek, kredit va depozit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg'armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. Buning samarasi darhol namoyon bo'ldi. Agar 1994 yil boshida aholi jamg'armalarining 98,5 foizi Jamg'arma banki (hozirgi Xalq banki), 1,5 foizi esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, o'sha yil oxirida boshqa tijorat banklarining hissasi ham ko'payib, bu boradagi ko'rsatkich 12,8 foizga etdi. Bugungi kunga kelib, bu boradagi ko'rsatkich 83,2 foizni tashkil etmoqda.

1996 yil. Ushbu yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi – tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini konkretlashtirdi.

Bank tizimiga taalluqli ikki asosiy hujjat – "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ishlab chiqilishida rivojlangan moliya tizimiga ega mamlakatlar tajribasi inobatga olinganini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur qonunlar, shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun nodavlat banklarning xususiy va aksiyadorlik-tijorat shaklida tashkil etilishiga qulay huquqiy sharoit yaratdi. Bu davrda bank tizimi rivojiga alohida ta'sir etgan ikki omilni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, olib borilgan islohotlar natijasida 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar boshqaruva va bank nazoratining to'la huquqli organi bo'ldi. Ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati

to‘g‘risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi – tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniq-puxta belgilab berdi. Unda bank aktivlarini diversifikatsiyalash va xorijiy kapital jalg qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirish prinsiplari mustahkamlangan.

Bu davrda iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat ko‘rsatuvchi kredit-moliya tashkilotlari tashkil etildi. Bunday ixtisoslashuv qishloq xo‘jaligi, avtomobil sanoati, aviasozlik kabi xalq xo‘jaligining muayyan soha va tarmoqlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog‘liq edi. Kelgusida ixtisoslashgan banklar o‘z operatsiyalari va mijozlari doirasini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi darajasi va biznes-muhit talablariga ko‘ra kengaytira boradi.

Mazkur davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank sektorini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida shakllanish jarayonlari davom etdi. Bank tizimiga taalluqli qonunchilik bazasi sifat jihatidan yangilanib, xalqaro bank amaliyoti bilan muvofiqlashtirildi.

1997 yil. Ushbu yilda islohotlarning strategik yo‘nalishlaridan biri bank sektorida xususiy kapital oqimini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ldi.

Mazkur jarayon 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilinganidan so‘ng jadallahdi. Unda jismoniy shaxslarning 50 foizdan kam bo‘limgan ulushi bilan banklar ochish uchun imtiyozlar taqdim etish ko‘zda tutilgan edi. 1997 yil bank tizimining rivojlanish tarixida bank faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish boshlangani bilan ahamiyatlidir. Ma’lumki, o‘scha vaqtgacha respublika hududida amaldagi barcha hisob-kitoblar kun bo‘yi olib borilar edi. 1997 yilning mart oyidan yangi dasturiy ta’minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to‘lovlarни respublika tashqarisida 15 daqiqa mobaynida, Toshkentdan chekka joylarda atigi 3 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi.

Aynan o‘scha vaqtida hisob-kitoblar mexanizmi ishlab chiqildi va banklararo elektron to‘lovlarning zamонавиy tizimi joriy etildi. Banklarga o‘scha vaqtdagi noyob imkoniyat – kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarini xarid qilish va departamentlarni ular

bilan jihozlash imkoniyati berildi. Ular mablag'larni o'z faoliyati uchun zarur uskuna-anjomlarni modernizatsiya qilishga yo'naltirishi hisobga olinib, qator soliq to'lovlaridan ozod qilindi.

Shu tariqa, moliyaviy va iqtisodiy axborotning sifat jihatidan yangi iste'molchilar – mahalliy va xorijiy investorlar paydo bo'ldi.

1998 yil. Ushbu yilda respublika banklari Bazel tavsiyalariga muvofiq holda faoliyat ko'rsatish uchun zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Bank nazorati va xalqaro amaliyoti bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalaridan kelib chiqib, tijorat banklari faoliyatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari doirasida tartibga soluvchi kompleks me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ular balansida mavjud muammolarni oldindan aniqlash hamda bank likvidligi pasayishi va kapital tugashi yuzaga kelishidan oldin ogohlantiruv choralarini ko'rish tamoyillaridan foydalanildi.

1999–2000 yillarda valyuta siyosati yanada liberallashtirilgan holda, birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi mexanizmi amalga kiritildi.

Mazkur mexanizm vakolatli banklarning xorijiy valyutada talab va taklifdan kelib chiqib, o'z mijozlaridan shartnoma asosida erkin kurs bo'yicha valyutalarni sotib olishini ko'zda tutadi.

2000-2010 yillarda Mazkur davr O'zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Aynan shu yillarda zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimini tashkil etish bilan bog'liq ishlar amalga oshirildi.

Bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi strategik vazifalar qo'yildi. Vazifalarning birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi – O'zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta'minlashdir.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimiz moliya-bank tizimini rivojlantirish, uning faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash masalalariga yanada ko'proq e'tibor qaratdi. Shu munosabat bilan qator etakchi banklar ("O'zsanoatqurilishbank", "Asaka" banki va boshqalar)ning

kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank" ustav fondini ko'paytirish to'g'risida"gi Farmoni mazkur bankni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish bo'yicha asosiy kredit markazlaridan biriga aylantirgan holda uning faoliyatini sifat jihatidan yanada yaxshiladi.

Ushbu davrdagi har bir yil mamlakat bank-moliya tizimining izchil rivojlanishida yangi bosqich sifatida qayd etiladi.

2001 yil. Ushbu yilning 1 iyulidan e'tiboran kichik biznes korxonalari o'zлari ishlab chiqargan eksport tovarlar (ish va xizmatlar)ni bank muassasalari kassalari orqali belgilangan tartibda valyuta ulushini o'z hisobiga o'tkazish yo'li bilan naqd xorijiy valyutada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Respublikamiz hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishni hamda uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish borasida muhim qadam qo'ydi. Aynan shu yili erkin ayirboshlovchi valyutadagi Birlashgan barqarorlashgan jamg'arma tashkil etildi. Bu o'z navbatida, O'zbekistonda birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qildi.

Bu vaqtida bank tizimi bilan xususiy sektor o'rtaсидаги hamkorlik sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur hamkorlik rivojiga turtki bergen muhim omillar sifatida banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifatining tobora yaxshilanishi, banklarda raqobatchilik muhitining yuzaga kelishi, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Aynan shu davrda banklar kreditlash siyosati kuchayganini, mijozlar so'rovlarini sinchkovlik bilan o'rgana boshlaganini va bank xodimlarida mijozlarning talab-ehtiyojlariga javoban tez harakat qilish qobiliyati shakllanganini yaqqol kuzatish mumkin.

2002 yil aholining banklardagi omonatlarini himoyalashning ishonchli va samarali mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat-tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan

o‘zaro sheriklik munosabatlari O‘zbekiston banklari faoliyatida asosiy prinsiplarga aylana bordi.

Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko‘zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zamirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

2003–2004 yillar. Mamlakatimizda liberallashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida bank tizimini rivojlantirish davri.

Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo‘yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi lozim edi. Korxonalarni aksiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o‘zgartirish jarayonlari jadallahdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o‘z rivojlanish konsepsiyasiga rioya etgan holda strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashuv darajasini oshirish o‘z faoliyatini diversifikatsiyalash, yangi aksiyadorlarning mablag‘larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi.

Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo‘yicha so‘m konvertatsiyasini ta’minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Chunonchi, 2003 yilning 15 oktyabridan O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg‘armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo‘yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu masala yuzasidan O‘zbekistonning tashqi mablag‘larni jalb etmay, amalda o‘z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e’tirofga sazovor.

Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Bu haqiqatan ham boy va sermahsul faoliyatning qiziqarli davri edi. Markaziy bankning valyuta siyosati infliyatsiya darajasini ushlab turish va milliy valyuta kursi keskin tebranishining oldini olish barobarida eksportni rag'batlantirish hamda valyuta resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan edi. O'zbekistonning asosiy eksport tovarlariga nisbatan dunyo bozorlarida qulay narx kon'yunkturasi, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan valyuta siyosatining olib borilishi eksport va oltin-valyuta zahiralari hajmining oshishiga imkon berdi.

Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aksiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz.

2005–2006 yillar. Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy-tuzilmaviy o'zgarishlarda ishtiropi yanada faollashgan davri. O'sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foya (daromad) solig'idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zahirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, tijorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog'liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi.

Shu tariqa, asosiy e'tibor pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu esa fuqarolarda katta rag'bat uyg'otib, ularning banklarga nisbatan ishonchini yanada orttirdi. Aholining banklarda depozit hisobraqamlar

ochishga kirishishi bilan bog'liq ijobiy holatlar ko'paydi. Banklarning depozit bazasi hajmi oshdi, bank xizmatlari bozori shakllana boshladi. E'tiborlisi, bank mahsulotlari qatoridan yangi xizmat turlari, masalan, lizing xizmatlari joy ola boshladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo'shma banklarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o'zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko'mak taqdim etgan holda ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi.

Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirdorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi Qonuni iste'molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur qonun turar-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash borasida aholining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, binobarin, banklarda iste'mol kreditlash hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

2006 yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulknini xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida uy-joylar

qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi.

Bu davrda, shuningdek, banklarning strategiyalari naqd pul muomalasini mustahkamlashga, har bir filialda naqd pul zahiralarini shakllantirishga va o‘z faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratildi.

Mazkur yo‘nalishda banklar o‘z faoliyatini dunyoviy amaliyotning “oltin” prinsipidan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya’ni, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan “Iste’mol krediti to‘g‘risida”gi va “Ipoteka to‘g‘risida”gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

O‘zbekiston tijorat banklari respublikamizdagи va jahон bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o‘zlari taklif etayotgan xizmatlari to‘plamini kengaytirdi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqardi va ayni paytda moliya institutlari faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishga kirishdi.

2010 yil. O‘zbekiston tijorat banklari, avvalo, ixtisoslashgan kredit institutlari sifatida ko‘zga ko‘rina boshladi. Bu, bir tomonдан xo‘jaliklarning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini jalb etishi, boshqa tomondan esa jalb etilgan mablag‘lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so‘nggi yillar davomida Respublikada asosiy tamoyil – ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi.

Hozirda respublikadagi keng tarmoqli banklar zamonaviy talablarga javob beradigan shaklda xo‘jaliklar, tashkilotlar va aholiga xizmat ko‘rsatmoqda.

Quyidagi tayanch so‘zlarni ta’riflang.

- | | |
|-------------------|----------------|
| 1.Universal bank | 4.Investitsiya |
| 2.Iste’mol kredit | 5.Ipoteka bank |
| 3.Jamg’arma bank | 6.Korporativ |

Mavzuga oid savollar

1. Bankning mohiyati va bank tizimi

2. Banklarning funksiyalari

3.O‘zbekistonda zamonaviy bank tizimining tashkil qilinishi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so‘zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.

2.O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so‘zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.

3. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.

4. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.

5. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

16-BOB. MARKAZIY BANK

16.1. Markaziy bank uning vazifalari va funksiyalari

Markaziy bank – kredit tizimining bosh banki bo‘lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi.

Birinchi Markaziy banklar bundan qariyb uch yuz yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1668 yilda tashkil qilingan Shved Riks Jiro banki, 1694 yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir.

Yevropa mamlakatlarida Markaziy banklar ancha kechroq, asosan XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat ko‘rsata boshlagan.

Banklar paydo bulishining boshlang‘ich davrlarida ular markaziy (emissiya) yoki tijorat banklari tariqasida yuzaga kelgan emas, ya’ni banklar o‘rtasida hozirgidek bo‘linish bo‘lmagan. Bank ishi rivojlanishining birinchi bosqichlarida rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari kapitallarni yig‘ish maqsadida muomalaga banknotlar chiqarganlar. Banklarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarini muomalaga chiqarish yirik tijorat banklar qo‘liga o‘ta borgan va keyinchalik biror yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank milliy yoki emission bank keyinchalik markaziy bank deb atalgan. Markaziy bank ya’ni kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazoratqilib turuvchi kredit instituti sifatida namoyon bo‘ladi.

Markaziy banklar ijrochi tashkilotlar ta’sirisiz, o‘z faoliyatini olib borishlari kerak.

Jahonda o‘z faoliyatini olib borishda eng mustaqil bo‘lgan banklardan biri bu Nemis. Ko‘pgina hollarda Markaziy banklar o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lsa-da, shu bilan birga, davlat banki hisoblanadi:

Markaziy bank quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- banknotlar (naqd pullar) emissiyasi;
- davlatning oltin valyuta-zahiralarini saqlash;
- pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodiyotni muvofiqlashtirish;
- kredit institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
 - davlat banki sifatida faoliyat ko‘rsatish;
 - to‘lov-hisob munosabatlarini tashkil qilishni belgilab berish;

– valyuta kursini muvofiqlashtirish.

Jahoning barcha mamlakatlarida banknotalarni muomalaga chiqarish funksiyasi markaziy banklarning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi va bu sohada monopol huquqga ega. Kredit pullar Markaziy bank tomonidan qonunda belgilangan ravishda chiqariladi va Markaziy bank muomalaga chiqarilgan pullarning qaytib bankka kelib tushishi choralarini ishlab chiqishga zarur.

Davlatning oltin-valyuta zahiralarini boshqarishfunksiyasi

Markaziy bank davlatning oltin, qimmatbaho metall va valyuta zahiralarini boshqaradi. Davlatning rasmiy oltin-valyuta zahiralari xalqaro hisob-kitoblarda aktivlar zahirai, hisob-kitoblar bo'yicha davlatning kafolatli cyg'ypa fondi sifatida namoyon bo'ladi. Odatda, mamlakat oltin zahiralarining asosiy qismi Markaziy bank ixtiyoriga berilgan bo'ladi. Ba'zi davatlarda oltin zahiralar Moliya vazirligi ixtiyorida bo'lib, Markaziy bank oltin bilan bog'liq operatsiyalarni olib boradi.

Markaziy banklar mamlakat valyuta zahiralarini o'zida yig'adi va bu zahiralar xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov balansi taqchilligini qoplash va mamlakat milliy valyutasi kursining barqarorligini ta'minlash uchun ishlatadi.

Markaziy bank orqali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada aniqrog'i davlatning pul-kredit siyosati olib boriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati davlatning iqtisodni boshqarish siyosatining bir qismi bo'lib, muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, foiz stavkalari darajasini va boshqa pul muomalasi va ssuda kapitali bozori ko'rsatkichlariningo'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar yig'indisidan tashkil topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida infiyatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosati ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin. Birinchi yo'nalish – kredit ekspansiyasi bo'lib; bu siyosat pul-kredit emissiyasini rag'batlantirish yo'li bilan olib boriladi, ya'ni ishlab chiqarshi sur'atlari tushib ketgan holda, konyunkturada rivojlanishga erishish mumkin. Ikkinci yo'nalish – kredit restriksiya siyosati bo'lib,

u iqtisodiy o'sish davrida pul-kredit emissiyasining qisqarishiga asoslanadi. Markaziy bank «tor» va «keng» manoda pul-kredit siyosatini olib borishi mumkin. «Tor» siyosatda valyuta bozorida investitsiya, hisob stavkasi va qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi boshqa instrumentlar yordamida valyuta kursi maqbulliligiga erishish tushuniladi. «Keng» siyosatda muomaladagi pul massasiga ta'sir qilish orqali infliyatsiyaga qarshi kurash olib borish tushuniladi. Pul-kredit siyosatining xalqaro jihatlari valyuta kursi, valyuta zahiralari va to'lov balansi kabi masalalarning echimiga qaratilgan bo'ladi. Markaziy bank ruxsat etilgan instrumentlar yordamida pul muomalasini boshqarib boradi. Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- minimal majburiy zahira me'yorlarini o'rnatish;
- foiz (diskont) siyosati;
- tijorat banklarini qayta moliyalashtirish, ochiq bozor siyosati;
- targetirlash va boshqalar.

Muomaladagi pul massasining hajmini, banklarning likvidliliginu muvofiqlashtirish va infliyatsiya sur'atlarini tushirish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zahiralar me'yorini o'rnatib berish siyosatini amalga oshiradi. Pul muomalasini muvofiqlashtirishning bu usuli birinchi bo'lib 1913 yilda AQSHda qo'llanilgan. Minimal zahiralar bu tijorat banklari resurslarining Markaziy bankda majburiy saqlanishi zarur bo'lgan qismidir. Majburiy zahira miqdori tijorat bankining chetdan jalb qilingan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi. Bu zahira bevosita banklarning kreditlash imkoniyatini chegaralasa-da, ularning minimal likvidliliginu ta'minlash omili bo'lishi mumkin.

Minimal zahira me'yori jamg'arma turiga, uning hajmiga, bankning joylashish o'rniga bog'liq bo'lgan holda turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Mavjud manbalar shuni ko'rsatadi, masalan, Yaponiyada minimal zahiralar stavkasi 2,5%ni: AQSHda- 12%ni, Germaniyada- 12,1% ni, Portugaliyada- 17%ni, Uzbekistonda 15% milliy valyutada va xorijiy valyutda 8% ni tashkil qiladi.

Markaziy bank tomonidan zahira miqdori ba'zi bir omillarni hisobga olgan holda o'zgartirilishi mumkin.

Markaziy bankning hisob (diskont) siyosatining mohiyati shundaki, u tijorat banklardan veksellarni sotib oladi. Aytaylik, mol sotib oluvchi korxonaning etkazib berilgan mol (tovar, xizmat va h.q)larning haqini to'lash uchun mablag'i etarli bo'lmasa, u tovar uchun to'lovni ma'lum vaqto'tgandan keyin amalga oshirishi to'g'risida veksel berishi mumkin. Mol sotuvchi korxonaga pul mablag'lari zarur bo'lgan vaqtida u vekselni tijorat bankiga sotishi mumkin. Tijorat banki vekselni sotib olganda unda ko'rsatilgan summadan kam summaga (ma'lum foiz ushlab qolgan holda) sotib oladi. Zarur bo'lganda, tijorat banki vekselni Markaziy bankda hisobga qo'yishi mumkin. Bu holda Markaziy bank ham o'z foydasiga ma'lum foiz – hisob stavkasi ushlab qolishi mumkin. Markaziy bankning hisob stavkasi turli davlatlarda har xil – 5% dan 15% gacha bo'lishi mumkin. Tijorat banklari veksellarni sotib olishda Markaziy bankning hisob stavkasiga tayanadilar. Markaziy bankning hisob stavkasi tijorat banklari o'rnatadigan hisob stavkaning eng past chegarasi hisoblanadi. Odatda, tijorat banklarining hisob stavkasi Markaziy bankning hisob stavkasidan yuqori (0,5 dan – 2% gacha) bo'ladi.

Tijorat banklarining qayta moliyalashtirish siyosati bu to'g'ridan-to'g'ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, qimmatbaho qog'ozlarni garovga olgan holda kreditlar berish va kredit auksionlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqqan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash;
- tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatbahoqog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlar berish. Bunday kreditlar lombard kreditlar deyiladi. Ularning foiz stavkalari lombardli foiz stavkalar deb yuritiladi. Jahon amaliyotida lombard bo'yicha (foiz stavkasi doimo hisob stavkasidan 1-2% yuqori bo'ladi;

- to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli. Kredit tashkilotlari faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklar bo'lgan hollarda ular Markaziy bankka kredit olish uchun murojaat qilishi va Markaziy bank kreditidan foydalanishi mumkin. Qayta moliyalashtirishning asosiy maqsadi pul muomalasi va kredit munosabatlarining holatiga ta'sir

ko'rsatishdan iborat. Qayta moliyalashtirish siyosatini olib bora turib Markaziy bank oxirgi kreditor sifatida maydonga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank o'rnatgan qoidalarga asosan, quyidagi aktivlarni garovga olgan holda 3 oygacha bo'lgan muddatda kreditlar berishi mumkin:

- oltin, chet el valyutasi, xalqaro zahiralar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar;

- davlatning qarz majburiyatları va davlat tomonidan kafolatlangan boshqa qarz vositalari.

Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan va Markaziy bank ular bilan ushbu qonun doirasida boshqa xil operatsiyalar o'tkazishi mumkin bo'lgan aktivlar, to'lanishiga banklar kafolat bergen tijorat veksellari asosida kreditlar berishi mumkin.

Ochiq bozor siyosati deganda, markaziy bankning ochik bozorda kimmatabahoqog'ozlarni o'z hisobidan sotib olishi va sotishi tushuniladi. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati asosan xazina majburiyatlarini, sanoat kompaniyalari va banklarning obligatsiyalarini, Markaziy bankda hisobga olingan tijorat veksellarini sotish va sotib olish orqali amalga oshiriladi. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati orqali bank tizimining va alohida olingan tijorat banklarning o'z zahiralari miqdori oshirilishi (agap qimmatbaho qog'ozlar sotib olinsa) yoki kamaytirilishi (agar qimmatbaho qog'ozlar sotilsa) mumkin. Ochiq bozor siyosati orqali Markaziy bank kredit bahosiningo'zgarishiga erishishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, pulga bo'lgan talabning o'zgarishiga olib keladi. Odatda, Markaziy bank bu siyosat orqali ortiqcha pullarni muomaladan oladi va pul muomalasini muvofiqlashtirish bo'yicha aktiv pul-kredit siyosati olib boradi.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasiga asosan Markaziy bank o'zi chiqargan qimmatli qog'ozlarni shuningdek, qarz majburiyatlarini ochiq bozorda sotish va sotib olishi mumkin. Markaziy bank byudjetni moliyalashtirish uchun ochiq bozorda operatsiyalar olib borish, qimmatbaho qog'ozlarni birinchi joylashtirishda ularni sotib olishga haqli emas.

Markaziy bankning ochiq bozorda olib boradigan operatsiya-lari quyidagi xususiyatlar bo'yicha farqlanadi:

—bitim sharti bo'yicha: naqd pulga yoki qayta sotish majburiyati bilan ma'lum muddatga sotib olish (REPO operatsiyasi) bilan bog'liq operatsiyalar;

— bitim obyektlari bo'yicha: davlat yoki aksioner jamiyatlari qimmatbaho qog'ozlari bilan bo'ladigan operatsiyalar,

— bitim muddati bo'yicha: qimmatli qog'ozlari bilan qisqa muddatli (3 oygacha) va uzoq muddatli (1 yil va undan ortiq) operatsiyalar,

— operatsiyalar o'tkazish doirasiga qarab: bank tizimi doirasida yoki nobank tizim doirasida qimmatli qog'ozlari bilan bo'ladigan operatsiyalar,

—foiz stavkalarinio'rnatish bo'yicha: Markaziy bank yoki bozor tomonidan aniqlanadigan stavkalar.

Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish funksiyasini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

— bank faoliyatini olib borishga litsenziyalari berish;

— banklar hisobotlarini tekshirish;

— joylarda tekshirishlar o'tkazish;

—bank operatsiyalarini bajarishda me'yorlarga rioxha qilishni azorat qilish.

Bank faoliyatini olib borishga litsenziya (ruxsat) berish orqali Markaziy bank tashkil qilinayotgan kredit institutining bank faoliyatini olib borish imkoniyatlarini aniqlaydi. Kredit tashkilotiga litsenziya berishda quyidagi ma'lumotlarga e'tibor beriladi:

— bankning asosiy aksionerlari;

— boshlang'ich kapitalning manbalari;

— bank rahbar xodimlarining malakasi va qobiliyatining mos kelishi;

— ko'rsatiladigan xizmat turlari va bank strategiyasi;

— nizom kapitalining miqdori;

— bank aktivlarining to'g'ri baholanganligi;

— yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni qoplash maqsadida zahira fondini tashkil qilish siyosati va boshqalar.

Jahon amaliyotida 80-yillardan boshlab ko'pgina banklar inqirozga uchraganligi munosabati bilan Markaziy banklar tijorat

banklari faoliyatini nazorat qilish maqsadida banklar va ularning sho“balari to‘g‘risida hisobotlar topshirishni belgilab berdi.

Markaziy bank tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalarini tekshirish, ichki audit holatiga baho berish huquqiga ega. Bunda, avvalambor, tijorat banklarining aktivlari: kreditlar va qimmatli qog‘ozlar holati, banklarning likvidligi va barqarorligi tekshiriladi. Tekshirish o‘tkazishdan asosiy maqsad:

- bankning moliyaviy holatiga obyektiv baho berish;
- bankni boshqarish sifatiga va uning rahbari faoliyatiga baho berish;

- bankning moliyaviy ahvolini va uning bajaradigan operatsiyalarining samaradorligini ta‘minlash bo‘yicha choralar ishlab chiqish;

- bank faoliyatining mavjud qonunlar va me’yoriy hujjalariغا muvofiq olib borilishini ta‘minlash va boshqalardan iborat.

Markaziy bank, shuningdek, tijorat banklarining olib boradigan operatsiyalarining me’yor bo‘yicha bajarilishini nazorat qilib boradi. Bu holda Markaziy bank tijorat banklarining quyidagi ko‘rsatkichlarini tekshiradi:

- bank kapitalining aktivlariga nisbati;
- bir mijozga to‘g‘ri keluvchi kreditning limiti;
- likvidlilik koeffitsienti me’yorlarigarioya qilish;
- foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida daromadning o‘zgarishi va boshqalar.

Markaziy bank davlat banki sifatida faoliyat olib boradi va hukumatning moliyaviy maslahatchisi hisoblanadi. Bu funksiyani bajara turib Markaziy bank davlat tashkilotlariga hisob xizmatlarini ko‘rsatadi va davlat byudjetining kassaviy ijrosini amalga oshiradi. U davlatning xazina to‘lovlarni amalga oshiradi va davlatga kreditlar beradi. Davlat xazinasidagi bo‘sh pul mablag‘lari Markaziy bankda depozit shaklida saqlanadi. Markaziy bank davlatning qisqa va uzoq muddatli qarzlar bo‘yicha kassa xizmatini ko‘rsatadi.

Markaziy bank to‘lov, hisob-kitob munosabatlari tashkilqilish funksiyasini bajara turib, moliya tizimining barqarorligini ta‘minlash, to‘lov tizimining samarali bo‘lishinita‘minlash, pul-kredit siyosatini o‘tkazish kabi masalalarni hal qilishnio‘z oldiga qo‘yadi. Moliyaviy tizimning samaradorligi, avvalambor, to‘lov tizimining qay darajada

tashkil qilinganligiga bog'liq bo'ladi. Iqtisoidiyotda to'lov mexanizmining yaxshi yo'lga qo'yilishi, banklararo hisob-kitoblarning to'g'ri olib borilishi iqtisodiyotdato'lanmagan qarzlarning kamayishiga olib kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. To'lov tizimida naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllarini rivojlantirish, elektron to'lovlar tizimini joriy qilish va rivojlantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Markaziy bank valyuta kursini boshqarish funksiyasini bajaradi. Markaziy bankning bu funksiyasi bozor iqtisodiyoti tizimini tartibga solishda acociy o'rnlardan birini egallaydi. Markaziy bankning asosiy valyuta siyosatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Valyuta intervensiysi.
2. Deviz siyosati.
3. Svop operatsiyalari.
4. Devalvatsiya.
5. Revalvatsiya.
6. Valyuta cheklovlari siyosati va boshqalar.

Valyuta intervensiysi deb Markaziy bankning milliy valyuta kursiga ta'sir qilish maqsadida chet el valyutasini sotish va sotib olish bo'yicha o'tkazadigan operatsiyalari bilan valyuta bozori faoliyatiga aralashuviga aytildi. Milliy valyuta kursini oshirish maqsadida Markaziy bank chet el valyutasini sotadi va aksincha, milliy valyuta kursini tushirmoqchi bo'lganida, u chet el valyutasini sotib oladi. Markaziy bank tomonidan birinchi valyuta intervensiysi XIX asrdan qo'llanila boshlangan. XX asrning 30- yillardan boshlab bu operatsiyalar rivojlangan mamlakatlarda milliy valyuta kursini tushirish va shu asosda eksportni rag'batlantirish maqsadida qo'llanila boshlangan. Bretton-Vuds valyuta tizimi doirasida valyuta intervensiysi o'zgarmas valyuta kursi va paritetini ta'minlash vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, o'zgaruvchan valyuta kursi mavjud bo'lgan mamlakatlarda milliy valyuta kursidagi katta o'zgarishlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Markaziy bank valyuta kursining barqarorligini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda xalqaro to'lov vositalari (oltip-valyuta zahiralari, SDR, XVFning zahira pozitsiyasi) zahiralariga yoki chet el zayomlariga ega bo'lishi kerak. Valyuta zahiralari bu davlatning Markaziy bankdagи valyuta zahiralari hisoblanadi.

Shu bilan birga, import qiluvchilar olib kelgan tovarlari uchun arzonroq chet el valyutasini olish imkoniyati tug'iladi va import uchun qulay muhit yuzaga keladi.

Valyuta cheklavlari deganda, odatda, chet el valyutasi oltin va boshqa valyuta qiymatliklari bilan bo'ladigan operatsiyalarni davlat miqyosida qonun asosida cheklash tushuniladi. Bu chorani amalga oshirishdan maqsad to'lov balansining aktivligiga va milliy pul birligi kursini qo'llab-quvvatlash va uning barqarorligiga erishishdan iborat. Milliy valyuta barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank mamlakatga chet el kapitali kelib tushishini ta'minlovchi choralar ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

16.2.O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning vazifalari va funksiyalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasida Markaziy bankning asosiy maqsadi pul-kredit tizimi va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash asosida iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat.

Pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank pul-kredit siyosatini rivojlantirishning bir yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi. Bu yo'nalishlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan keyin harakat dasturi sifatida qabul qilinadi. Markaziy bankning vazifalari xilma-xil bo'lib, bu qonunda aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huquqiy shaxs sifatida, davlat mulkiga asoslangan bo'lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida o'z xarajatlarini daromadlari hisobidan qoplashi kerak. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z miqyosi va faoliyat darajasiga ko'ra respublikamizdag'i eng yirik bank hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu qonunning 3-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdir. Valyuta barqarorligi pul massasi, narx-navo va milliy valyuta kursining barqaror bo'lish tushunchasini o'z ichiga oladi. Albatta, pul massasi, valyuta kursi, narx-navoga ta'sir qiluvchi boshqa

omillar ham mavjud. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarpi hal etadi. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

- monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil qilish va ta'minlash;
- banklar faoliyatini tartibga solish va banklar faoliyati ustidan nazorat qilish;
- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zahirasini saqlash va ularni boshqarish;
- Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish.

Markaziy bankka ayrim bank korxona va tashkilotlarning kapitalida qatnashishi, ularga moliyaviy yordam ko'rsatishi, tijorat turidagi faoliyatlarni olib borishi man qilinadi. Markaziy bankni boshqarishning yuqori tashkiloti boshqaruv bo'lib, u monetar siyosatni hamda o'z zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni amalga oshirishda boshqa davlat tashkilotlarining bevosita va bilvosita aralashuvidan holi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Iqtisodiyotni pul-kredit dastamlari yordamida boshqarish.
2. Hisob-kitob va pul o'tkazish operatsiyalarini bajarishni yo'liga qo'yish.
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.
4. Boshqa kredit muassasalarining kassa zahiralarini saqlash.
5. Rasmiy oltin-valyuta zahiralarini saqlash.
6. Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operatsiyalarini bajarish.
7. Tijorat banklariga kredit berish.
8. Pul emissiyasi.

Markaziybank o'z sarf xarajatlarini daromadlari hisobidan qoplovchi iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklardan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.

Respublika Markaziy bankining nizom kapitali 2 mlrd. soʻm deb belgilangan. Shuningdek, Markaziy bank soliqlar va bojlardan «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʼrisida»gi qonunning 23-moddasiga muvofiq ozoddir. Markaziy bank kelgusi yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan 30 kun oldin Oliy Majlisga bu haqda axborot beradi. Markaziy bank pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlarining ahvoliga asoslanib, muomaladagi pul muassasining bitta yoki bir qancha koʻrsatkichlari oʻzgarishining aniq maqsadli moʻljallarini belgilashi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati iqtisodiyot vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miqdorini yillik oʼstirish surʼatlarining maqsadli koʻrsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirish yoʻnalishlarini oʼz ichiga olib muhim makroiqtisodiy jarayonlar: pulning qadrsizlanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiyligi hajmi hamda mehnat resurslarining bandligi, toʼlov balansini barqarorlashtrishga yoʼnaltirilgan boʼladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki oʼzaro hisob-kitoblarning Oʻzbekiston tijorat banki tomonidan belgilangan va hamma bank hamda mijozlar uchun majburiy boʼlgan qoidalar asosida olib borilishini nazorat qiladi. Chunki belgilangan qoidalarning bir taxlitda qoʼllanilishi butun respublika hududida hisob-kitoblarning uzuksizligini taʼminlaydi.

«Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʼrisida»gi Qonunning 50-moddasiga muvofiq, banklarni nazorat qilishdan asosiy maqsad bank tizimining barqarorligini taʼminlash, omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki bank faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojini xar tomonlama hisobga olib va kuzatib boradi, kapitalning aynan bir xilligi, likvidlikka doir talablarni oʼz ichiga oluvchi iqtisodiy meʼyorlarni (52-modda), shuningdek, kreditlash hajmi, limitlarini belgilaydi. Kapitalning etarligi, aktivlarining sifati, foydaligi va likvidlilikiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. Shu bilan birga,

Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazishga litsenziyalar beradi va milliy valyutani chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash shartini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro hisob-kitoblarda zahiradagi aktiv va kafolatli sug'urta fondi vazifasini bajarish bilan birga dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan mamlakatimizning oltin-valyuta zahiralari qiymatini ham yaratadi. Boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyutaga ega bo'lish va valyuta operatsiyalari o'tkazish huquqi borligiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta zahiralarini saqlovchi asosiy depozitariy bo'lib qolishi lozim.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va xazina vakili sifatida ish tutadi.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» qig'onunning 44-moddasiga muvofiq Markaziy bank hukumat bankiri sifatida hukumat muassasalari va tashkilotlarining hisob varaqlarini yuritadi, ana shu hisob varaqlarda mablag'larni jamg'aradi va ulardan to'lovlarni amalga oshiradi; davlat qimmatbaho qog'ozlari bilan operatsiyalar o'tkazib turadi; davlatga bevosita qisqa muddatli va uzoq muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini xarid qilish tarzida kredit beradi; hukumat idoralarining topshirig'iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning xazina vakili sifatida hukumat hisobvaraqlarini yuritadi, Hukumatning moliya operatsiyalariga ko'maklashadi byudjet daromad va xarajatlari masalalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtiradi, ular bo'yichahisobvaraqlar yuritadi va davlatning boshqa qarz majburiyatları bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

Banklar banki sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisob-kitob-to'lov operatsiyalarini o'tkazish, banklararo to'lovlarning hisob-kitob-kliring xizmatini uyushtirish tartibini belgilaydi, tijorat banklariga kreditlar, tegishlicha ko'rsatmalar beradi.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o'z hisob varaqalaridan o'zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar. Bundan tashqari, ularning o'z mablag'lari kamlik qilsa, Markaziy

bankdan kredit olishlari, naqd pul bo'yicha ham Markaziy bankka murojaat qilishlari mumkin.

Shuningdek, o'z hisob va kredit operatsiyalari bo'yicha stavkalarni mustaqil ravishda belgilaydi. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasida banknotalar va tanga ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqaradi.

Markaziy bank va u vakolat bergen talabga ko'ra bir nominal qiymatdagi banknota va tangalarni boshqasiga hech qanday to'lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi.

Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zahira miqdorini belgilab beradi. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich milliy valyutada 15 % va xorijiy valyutada 8 % ni tashkil qiladi. U pul muomalasini barqarorlashtirish va banklar likvidligini ta'minlashda ahamiyatga ega.

Quyidagi tayanch so'zlarni ta'riflang.

- | | |
|-----------|-------------------------|
| 1.Banknot | 4.Ochiq bozor siyosati; |
| 2.Foiz | 5.Ssuda |
| 3.Tijorat | 6.Aksioner |

Mavzuga oid savollar

1. Markaziy bank uning vazifalari va funksiyalari

2.O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.

2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so'zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.

3. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.

4. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.

5. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

17-BOB. TIJORAT BANKLARI

17.1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodi sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manba-sidir.

Bank foydasining o'sib borishiga ta'sir qiladigan bir necha xil omillar mayjud ular – bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'larning samarali ishlatalishi, turli xil pullik xizmatlar doirasini (faktoring, lizing, trast xizmatlari va h.k.) kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish va boshqalar hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri yuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Banklarning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular faoliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda banklarning foyda olishi va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori bo'ladi. YUqorida aytilgan foyda keltiruvchi zahiralarni amalda tatbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan tavakkalchilik (zarar ko'rish ehtimoli bilan) bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat (aksiyali, pay asosida va xususiy tartibda tashkil qilingan) banklar huquqiy va xususiy shaxslarga «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» qonunda nazarda tutilgan operatsiyalarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish orqali shartnoma asosida kredit, hisob-kitob va boshqa xil bank xizmatlarini ko'rsatadi.

Tijorat banklarining nizom jamg'armasi kimga qarashli ekanligiga va uni tashkil qilish uslubiga qarab, bajarilayotgan operatsiyalarning turi, faoliyat ko'rsatish hududi va tarmoq belgilariiga qarab bir-biridan farq qiladi. Respublikada, mintaqalarda ko'zda tutilgan ma'lum dasturlarni bajarish va o'zga faoliyat turlarini pul mablag'lari bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi

qonunlari va boshqa hujjalarda nazarda tutilgan tartibda maxsus tijorat banklari tashkil etilishi mumkin.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tegishli litsenziyani olganlaridan so'ng chet el valyutasida operasiyalarni amalga oshiradilar.

Tijorat banklari o'z nizomlari asosida ish olib boradilar. Davlat tijorat bankining nizomi bankni tuzishga qaror qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi. Sherikchilik asosida tuzilgan tijorat bankining nizomi muassislari (qatnashuvchilar) yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Bankning nizomida:

- bankning nomi va uning manzilgohi (aloqa manzilgohi);
- bank amalga oshiradigan operatsiyalarining ro'yxati;
- bank tashkil etadigan fondlarning ro'yxati;
- nizom fondining miqdori;
- bankning huquqiy shaxs ekanligi va o'zini-o'zini moliya resurslari bilan ta'minlashi negizida ishlashi to'g'risidagi nizom;
- bankning boshqaruv idoralari, ularning tarkibi va tuzilishi to'g'risidagi nizom;
- bankka qarashli muassasalarning ro'yxati va ularning maqomi;
- bank va uning filiallarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini to'xtatish tartibi;
- faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni matbuotda e'lon qilish majburiyati (tartibi);

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan o'zaro munosabatlari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Sherikchilik asosida tuzilgan bankning nizomi yuqorida keltirilgan talablardan tashqari, aksiyali jamiyatlar va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi amaldagi qonunlarda ko'rsatilgan talablarga javob berishi lozim.

Bank nizomiga bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq boshqa qoidalar ham kiritilgan bo'lishi mumkin. Nizomga o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi qonunlaridagi o'zgarishlar munosabati bilan kiritiladi.

Aksioner tijorat banklarining nizomi fondi qatnashchilarning badallari hisobidan yoki aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan vujudga keltiriladi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralarining hamma bo'limlari va ularning ijroiya organlari, siyosiy tashkilotlar va ixtisoslashgan jamoat fondlaridan tashqari barcha huquqiy va xususiy shaxslar tijorat banklarining muassislari (hissadorlari), aksio-nerlari bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 aprel-dagi 56-sonli Qaroriga asosan tijorat banklarining kapitallashuvi-ni oshirish maqsadida ularning nizom jamg'armasi qo'yiladigan mini-mal talablar quyidagicha o'zgartirildi:

2005 yil 1 iyuldan boshlab:

Banklarning mulkchilik shakli	Kapitalning talab qilinadigan minimal summasi
Xususiy tijorat banklari uchun	1,500,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida
Aksioner tijorat banklari uchun	3,000,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida
Chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari uchun	5,000,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida

2006 yil 1 yanvardan boshlab:

Banklarning mulkchilik shakli	Kapitalning talab qilinadigan minimal summasi
Xususiy tijorat banklari uchun	2,000,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida.
Aksioner tijorat banklari uchun	4,000,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida.
Chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari uchun	5,000,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida.

2007 yil 1 yanvardan boshlab:

Banklarning mulkchilik shakli	Kapitalning talab qilinadigan minimal summasi
Xususiy tijorat banklari uchun	2,500,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida.
Aksioner tijorat banklari uchun	5,000,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida.
Chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari uchun	5,000,000 mln. AQSH dollari ekvivalentida.

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risi-dagi amaldagi qonunlariga muvofiq soliq to‘laydilar.

Quyidagi mablag‘lar banklarning o‘z mablag‘lari hisoblanadi:
—nizom fondi;

—zahiralar va foyda hisobiga vujudga keladigan hamda bankning balansida turadigan boshqa fondlar;

— taqsimlanmagan foyda, aksiyachilar yoki paychilar o‘rtasida aksiyalarni taqsimlash hisobiga yoxud pay miqdorini oshirish hisobiga olingan mablag‘lar.

Tijorat banklari yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun olinadigan foydadan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilab qo‘yilgan tartibda zahira fondlari tashkil etadilar.

Tijorat banklari shartnoma asosida bir-birlarining mablag‘-larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joylashtirishlari, o‘z nizomlarida ko‘rsatilgan boshqa o‘zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o‘z zimmasiga olgan majburiyat-larni bajarish uchun mablag‘ etishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilishlari mumkin.

Banklar bilan mijozlar o‘rtasidagi munosabat shartnomaviy tavsifga ega bo‘ladi.

Mijozlar o‘zlariga kredit va kassa xizmatini ko‘rsatadigan bankni mustaqil tanlaydilar.

Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar olib boradilar.

Tijorat banklari fond bozorlarining kelishuvlarida faol va bevosita ishtirok etavermaydilar.

Banklar katta miqdorda obligatsiyalar chiqaradi, investitsion guruhlarning egalari va yirik investorlik vazifasini bajaradi, ularga qimmatbaho qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar hajmi-ning eng katta qismi to'g'ri keladi, bank sindikatlari davlat qarz hujjatlarini chiqarish va tarqatishda katta jonbozlik ko'rsatadi.

Bank obligatsiyalarni chiqarish uchun 3 ta asosiy shartni bajarsihi zarur:

- moliyaviy ko'rsatkichlar proporsiyasini saqlash;
- bank moliyaviy ahvolining oshkoraliqi;
- jami kapitalning va bank zahiralarining 8 mln. DM daraja-sidan oshishi.

Obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi ruxsat Moliya vazirligi tomonidan olinishi kerak. U haqidagi xabar esa Federal yustitsiya vazirligi gazetasida bosilib chiqariladi. Odatda, 3 yildan ortiq muddatga chiqarilgan obligatsiyalar GFR fond birjalarida muoma-lada bo'ladi.

Lekin ularni sotish va sotib olish kelishuvlarining ko'p qismi birjadan tashqari aylanmada amalga oshiriladi. Universal tijorat banklari ko'pincha yadro vazifasini bajarib, moliya-bank guruhlarni, bir necha nisbatan mustaqil bo'linmalarni o'z ichiga olgan.

Bu mustaqil bo'linmalar, masalan investitsion fondlar va konsultatsion firmalar bo'lishi mumkin. Mustaqil bo'linmalar daro-mad olish markazlari hisoblanadi. Aslida guruhning yadrosini tashkil etgan bank, markaziy apparatdan mahalliy va chet el filial-laridan iborat. Banklarning markaziy apparatlari, odatda, fond bir-jalari bo'lgan katta shaharlarda joylashgan. Rivojlangan mamlakat-larda asosiy daromad manbai kredit operatsiyalari bo'lib, ikkinchi o'rinda qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar turadi.

17.2. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank bu – tijorat muassasasi bo'lib, jisroniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lov, muddat-lilik,

qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba'zi adabiyotlarda bank korxona sifatida ham izohlanadi. Ma'lumki, bank yaxlit olingen korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxona faoliyatiga jihatidan o'xshatish mumkinki, tijorat bank-lari ham korxonalar singari faoliyatini o'z daromadini ko'pay-tirishga va shu asosda birinchidan o'z asoschilari - aksionerlarining manfaatlarini, ikkinchidan o'z mijozlarining manfaatlarini hi-moya qilishni ta'minlashi.

Tijorat banklari, bizning fikrimizcha, shunchaki korxona emas, maxsus korxonadir. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali haraka-tini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksionerlariga, paychi-lariga foyda olishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi hisoblanadi.

1987 yildan boshlab tashkil qilingan bank tizimi bozor iqtisodi tamoyillariga mos keluvchi bank tizimining boshlang'ich pil-lapoyasi hisoblanadi. Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning nizom jamg'armasi va qo'yilmalar salmog'i oshib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 30 dan ortiq tijorat banklari faoliyat ko'rsatmoqda. Salmoqli nizom jamg'armasi kredit resurslar va mijozlarga ega bo'lgan – katta banklar O'zbekiston sanoat qurilish banki, Tashqi iqtisodiy faoliyatlar milliy banki, Paxta bank, Asakabank va boshqalar keng faoliyat olib bormoqda. Tijorat banklarni tashkil qilishdagi nizom kapitali miqdori 1 yanvar 2000 yil Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatuvchi banklar uchun 20 mln, ekyu ekvivalenti miqdoridagi mablag'ga ega bo'lishi kerak. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, aksioner banklarga, kooperativ, xususiy, mintaqaviy, aralash mulkchilikka asoslangan bankkabilar bo'linadi. YUksak rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining aksariyat qismi mulk shakli bo'yicha aksioner bank hisoblanadi.

Aksioner banklar aksioner jamiyat kabi ochiq turdag'i yoki yopiq turdag'i aksioner banklar bo'lishi mumkin. Aksionerlar safiga ki-rish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksioner bo'lishlari mumkin.

Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdag'i banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xususiy banklar – jismoniy shaxslarning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga ko'ra tijorat banklar – universal va maxsus banklarga bo'linadi.

Universal banklar xilma – xil operatsiyalar bajarish, harxil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar ma'lum yo'nalishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini shu yo'nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, zamin banklar kirishi mumkin.

Joylashish belgisiga ko'ra tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo'linishi mumkin.

Banklar tarmoqlarga xizmat ko'rsatishiga qarab, sanoat, quri-lish, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqa banklarga bo'linishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning o'rni, ularning iqtisodga ta'siri o'sib bormoqda.

Kredit muassasalari aholi, korxona, tashkilotlar, kompaniya-larning bo'sh pul mablag'lарини yig'ish va joylashtirishdan tashqari, kapital jamg'arilishini, harakatlanuvchi kapital yordamida korxonalarining xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashadi va korxonalar faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi sohasida qo'shimcha investitsiyaga bo'lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalq xo'jaligida progressiv yutuqlarga erishishni ta'minlashi mumkin.

17.3. Tijorat banklarining funksiyalariga qisqacha tavsif

Tijorat banklarining iqtisodiy mavqeい faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi.

Tijorat banklari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish.

2. Korxona, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash;

3. muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish.

4. Iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish.

5. Moliya - valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish.

6. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatish.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib, mavjud bo'sh pul daro-madlari va jamg'armalarni yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag'i egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo'jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlataladi.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o'rinni korxona, tashkilot-larni, aholini, davlatni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayo-nini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o'ynaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo'ja-lining muhim tarmoqlari – sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat bank-larini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar bergenida, pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda, muomaladagi pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisob-lanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda muomaladagi pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun

ham, Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Tijorat banklarining muhim funksiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'tasida vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar chiqarish va joy-lashtirish bilan ham shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qilish jarayonida mijozlarga harxil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Aksioner tijorat banklarning yuqori organi – aksionerlar-ning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Har yili aksionerlarning yig'ilishi nizomdagi va nizom kapitalidagi o'zgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiqlash, Bank Kengashi tarkibini saylash bankning sho'ba muassasalarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalarni ko'rib chiqishi mumkin.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vostitachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Tijorat banklarni ochishga litsenziya (ruxsatnoma)ni Markaziy bank beradi. U tijorat banklar faoliyatini olib borish bo'yicha iqtisodiy normativlar belgilab beradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi.

17.4. Tijorat banklarining passiv, aktiv va boshqa operatsiyalari

Tijorat banklarining passiv operatsiyalari Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan opera-siyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv opera-siyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv – passiv hiso-bidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning pas-siv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta mav-qega ega. Tijorat banklarining passiv operatsiyalar yordamida tijo-rat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini tash-kil qilinadi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining, asosan, to'rtta shakli mavjud:

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish.
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish.
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish.
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning xususiy mablag'-lari, jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

YUqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning xususiy mablag'lari yuzaga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi, jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning o'z mablag'lariga bankning nizom kapitali, zahira kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Amaliyotda asosan bank passivlarining 20 foizi bank-larning xususiy mablag'lariga to'g'ri keladi.

Banklarning xususiy mablag'lari ichida asosiy o'rinni bankning xususiy kapitali egallaydi. Bankning xususiy kapitali tarkibiga biz yuqorida keltirib o'tgan kapitalning bir qismi, ya'ni nizom kapital, tavakkalchiliklarni qoplash uchun tashkil qilingan zahira fond, taqsimlanmagan foya kiradi. Banklarning xususiy kapitali bank kreditorlarning manfaatinihimoya qilish, bank faoliyatini barqarorligini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Bankning nizom kapitali summasi bank nizomida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Bank-larni tashkil qilishning shakllariga qarab bankning nizom kapitali ham har xil. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, nizom kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning nizom kapi-tali miqdori qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning bar-qaror faoliyatini ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bankning nizom kapitali balansining passivida ko'rsa-tiladi. Nizom jamg'armasi miqdorining oshirilishi bank aksionerlari tomonidan umumiy majlisda hal qilinadi.

Banklarning kapitali ularning majburiyatilarini bajarish-ning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bank kreditlari hisobidan banklarning nizom kapitalini tashkil qilish mumkin emas. Nizom kapitalini tashkil qilishda chetdan boshqa pul mablag'larini jalg qilish ham mumkin emas. Banklar tashkil qilinganda, nizom kapita-lining tarkibi moddiy mablag'lardan va pul mablag'laridan tashkil topadi. Bank faoliyatining boshlang'ich bosqichlarida bankning xusu-siy mablag'lari hisobidan birinchi navbatdagi bank xarajatlari (er, bino, asbob-uskuna, ish haqi) qoplanadi. Banklarning xususiy mab-lag'lari uzoq muddatli aktivlarga qo'yilmalar qilishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Banklarning aksioner kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin. Bular: a) xususiy aksionerlik kapitali, bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan fond hisobidan yuzaga keladi; b) har xil ko'zda tutilmagan xarajatlarni va to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun tash-kil qilingan zahiralar; v) bankning uzoq muddatli majburiyatları (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) bo'lishi mumkin.

Banklarning zahira kapitali yoki zahira fonda foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo'ladi va ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatbaho qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotish-larni qoplash uchun mo'ljallangan.

Taqsimlanmagan foya - zahira fondiga ajratmalar va devidendlar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir.

Banklarning xususiy mablag'lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning xususiy kapitali hissasining kamayishi ba'zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

Bankning emitentlashgan mablag'lari. Banklar mijozlar mablag'laridan uzoqroq foydalanishni amalga oshirishdan, manfaatdordir. Shu sababli banklar obligatsiya qarzlari, bank veksel-lari va boshqalarni chiqarish yo'li bilan xususiy resurslari miqdorini ko'paytirib boradilar.

Obligatsiya qarzlari obligatsiyalar ko'rinishida emitentlashadi.

Hozirgi davrda chet el amaliyotida ikki valyutali obligatsiyalar uchraydi. Bu obligatsiyalar bo'yicha daromadlar obligatsiya egasi ixtiyoriga ko'ra milliy valyuta hamda AQSH dollarida yoki boshqa chet el valyutasida to'lanishi mumkin.

Bank tomonidan elementlashgan qimmatli qog'ozlarning turlaridan biri «suzuvchi foiz stavkali» qimmatli qog'ozlardir. Masalan, AQSHda 1970 yillar o'rtalarida ikkita yirik tijorat banklari - «Sitibenk» va «Cheyz Manxetten Benk» xolding kompaniyalari orqali «suzuvchi foiz stavkali» qimmatli qog'ozlar chiqardilar. Bu qo'yilmalar bo'yicha foizlar 3 oylik xazina veksellariga nisbatan bir foiz yuqori to'lanadi.

Banklar mijozlarning xohishiga qarab bir yilda ikki marta ularni to'lash majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Buning uchun mijoz ko'rsatilgan muddatdan bir hafta oldin mablag'larni olishi to'g'risida bankka xabar berishi shart. Bank passivlarida o'tgan asrning 90 - yillari davomida bankning xususiy mablag'lari miq-dorining qisqarishi davom etdi va xorijiy mamlakatlar kabi bizning banklarimizda ham jalg qilingan resurslar salmog'i oshdi.

Jalg qilingan mablag'larning yana bir turi bank balansida turgan va ularni qayta sotib olish to'g'risidagi kelishuv asosida sotiladigan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining kredit resurslarini shakllantirishda depozitlar asosiy o'rinni egallaydi.

Ularning asosiysi talab olinadigan depozitlarga, muddatli hamda jamg'arma depozitlariga bo'linadi.

Talab qilib olinadigan depozitlar joriy hisobvaraqlardan omonatchilarning birinchi talablari bilan olinadi. Joriy schek hisobvaraqnинг egasi bankdan chek daftarchasini oladi. Bunda u pul olish bilan birga iqtisodiy munosabat vakillari bo'lgan korxona, tashkilot, muassasalar bilan ham hisob-kitob operatsiya-larini olib borishi mumkin.

Muddatli omonatlar - mijoz tomonidan bankka ma'lum muddatga qo'yiladigan qo'yilmalar bo'lib, ular orqali mijozlarga bank tomonidan yuqori foizlar to'lanadi. Bunda foiz stavkalari qo'yilmaning muddati va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Muddatli qo'yilmalarning turlaridan biri, bu mablag'larni jalg qilishning aniq qayd etilgan vaqtga mo'ljallangan depozit sertifikatlar

hisoblanadi. Ularni muomalaga 1961 yili bиринчи bo'lib «Ferst neyshni siti benk» kiritgan. Hisob egalariga ular-ning nomlari yozilgan, to'lash muddati va foiz darajasi ko'rsatilgan maxsus guvohnomalar beriladi.

Hozirgi vaqtida tijorat banklari bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda depozit sertifikatlaridan foydalanmoqda. Sertifikatda ko'rsatilgan qo'yılma muddati tugagandan so'ng, uning egasi qo'yılma miqdorini va kelishilgan foizlarni olish huquqiga ega bo'ladi.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo'yilmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular to'liq summada yoki bo'lib-bo'lib qo'yilishiva berilishi mumkin. Omonatchi va bank o'rtasidagi mablag' qo'yish bilan bog'liq munosabat omonat daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to'lovchilik asosida turli xil maqsadli qo'yilmalarni, muddatli yoki talab qilish hamda olish mumkin bo'lgan jamg'armalarni qabul qiladilar. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda «Yangi yil qo'yilmalari» deb nomlangan turi ham mavjud. Bunda bank yil davomida, yangi yilni nishonlash uchun katta bo'limgan qo'yilmalarni qabul qilib boradi va yil oxirida omonatchilarga pullarni qaytaradi, pul jamg'arishni xohlovchilar pul jamg'arishni keyingi yangi yilgacha davom ettirishlari ham mumkin. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bu qo'yilmalar oddiy fuqarolar orasida keng qo'llaniladi.

Banklar uchun muddatli qo'yilmalar juda qulay hisoblanadi.

Bank resurslarining muhim manbasi banklararo kreditlardir, ya'ni boshqa banklardan olinadigan ssudalar.

Ushbu resurslardan foydalanish sezilarli darajada rivojlangan. Pul-kredit bozorida qisqa muddatli banklararo kreditlar, shuningdek «qisqa pullar» salmog'i ko'pchilikni tashkil etadi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari. Mobilizatsiyalashgan pul mablag'lari banklar mijozlarini kre-ditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalanadi. Daromad olish maqsadida bank resurs-larini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida aso-siy o'rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi.

Ssudalar berilishining ta'minotidan kelib chiqib, kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar va boshqalar bilan ta'minlangan kre-ditlarga beriladi.

Banklarning mijozlarga beradigan ssudalari yoki kreditlarning muddatidan kelib chikib, ular muddatli va onkol kreditlar (inglizchadan **on call** – talab bo'yicha)ga bo'linadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar mo'l-ko'lchiligidagi oddiy talab emas, balki to'lovga qobiliyatli talab zarurdir.

Bozor sharoitida tovar ta'minoti bo'yicha ssuda berayotgan kredit muassasalari tavakkal qiladilar. Agar ssuda o'z muddatida qaytarilmasa, bank tovarlarni xat qilib o'z ixtiyoriga oladi, ularni sotishdan tushgan tushum hisobidan mijozning qarzini qoplaydi.

Tovarlar bo'yicha ssudalar ko'pincha chayqovchilik maqsadlarida ishlataladi.

Ko'tarilish davrida, tovarlarga bo'lgan talab o'sganda, tadbirkorlar baholarning o'sishini hisobga olib tovarlar realizatsiya-sini ataylab to'xtatib, tovar zahiralarini to'playdilar. Bu xususan, xom ashyo tovarlariga ham tegishlidir. Bu, holatda ssuda tovarlarning haqiqiy realizatsiyasini tezlatmasdan, balki sekinlashtiradi hamda chayqovchilik va tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarilishining rivojanishiga olib keladi.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir.

Turli qimmatli qog'ozlar uning obyekti bo'lib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarining 2 turi ko'proq qo'llaniladi. Bular qimmatli qog'ozlarni kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilish yo'li bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidano'zhisobiga sotib olish yo'li bilan opera-siyalar o'tkazish.

Qimmatli qog'ozlar ta'minoti bo'yicha ssudalar ularning to'liq bozor kursi qiymati bo'yicha emas, balki ularning ma'lum bir qismi (60-80%) bo'yicha beriladi.

Qimmatli qog'ozlar soxta kapitalni ifodalasa-da, ular bo'yicha ssudalar haqiqiy tovar ishlab chiqarish bilan bog'langan jarayonga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlardagi bank investitsiyalari ham mavjud bo'lib, bu holda bank turli emitentlardan qimmatli

qog'ozlarni sotib oladi va bank qimmatli qog'ozlar portfeli vujud-ga keladi.

Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning xarid qilinishidan maqsad – bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik qayta sotish yoki kaptalning uzoq muddatga qo'yilishi yo'li bilan foyda olishdan iborat.

Oxirgi yillarda Respublikaning ko'pgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazinamajburiyatlarini ko'p miqdorda sotib olishdi. Chunki qimmatli qog'ozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta'minoti sifati-da ko'chmas mulk, boshqa bank yoki sug'urta tashkilotining sug'urta kafolati ham qabul qilinishi mumkin. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko'rib chiqish;

– qarz oluvchining to'lovga va kreditga layoqatlilikini bank tomonidan o'rganib chiqilishi;

– kredit qo'mitasining qarori;

– kredit bitimini rasmiylashtirish;

– kredit berilishi;

– ssuda va u bo'yicha foiz to'lashning bank tomonidan nazorat qilinishi.

Kredit va uni to'lash jarayoni kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lib, kredit va qarz oluvchi o'rtasidagi majburiyat va huquqlarni belgilab beradi. Unda kreditlashning maqsadi va obyekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to'lash muddati, kredit ta'mino-tining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko'rsatiladi. Shudani to'lashni nazorat qilish bankning kredit portfelini mun-tazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi.

Moliyalashtirish manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o'rni va manziliga qarab tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tijorat banklari tasniflashni asosan milliy valyutada olib boradilar va ba'zi hollarda qayta moliyalashtirish va xususiy mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar, masalan, Milliy

bank va shunga o'xshash banklarda qattiq valyutada ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi vaqtida markazlashtirilgan kreditlar davlatning qarorlariga asosan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun milliy valyutada beriladi. Qayta moliyalashtirish va bankning o'z mablag'-lari hisobidan beriladigan kreditlar mijoz kreditga layoqatli bo'lganda milliy valyutada yoki xorijiy davlat valyutasida beri-lishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida turli xil tavakkalchiliklar uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko'proq kredit tavakkalchiligi, likvidlilik tavakkalchiligi va foiz stavkasi ta'sir qiladi. Tijorat banklar faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yo'naltiril-gan bo'lganligi uchun ular faoliyatida bu tavakkalchiliklarning salmog'i ham yuqori bo'ladi.

Tasniflangan kreditlarning qaysi guruhg'a kirish darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yilda 9 noyabrda tasdiqlangan 242-sonli "Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan zahiralar tashkil qilish va undan foydalanish to'g'risi" dagi nizomga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha "yaxshi", "standart", "substandart", "shuhbali", "umidsiz" yoki "ishonchsiz" kreditlarga tasniflanadi.

Yaxshi kreditlar. Kreditning bunday sifatda baholanishi, mijozning aktivlari, ularning holati bo'yicha hech qanday gumon yo'qligidan dalolat beradi. Moliyaviy jihatdan barqaror, xo'jalik aylanmasi yuqori darajada xususiy kapital bilan ta'minlangan, yuqori rentabellik ko'rsatkichlariga ega, debitor va kreditor qarzlarning aylanish muddati qisqa bo'lishi lozim. Bu kredit egalari moliyaviy barqaror xo'jalik subyekti bo'lib, u yuqori darajada ta'minotga ega bo'ladi. Bunda asosiy e'tiborni qarz oluvchining avvalgi faoliya-tidagi majburiyatlariga munosabatiga, oson realizatsiya qilinuvchi aktivlar va yuqori likvidli mablag'lardan tashkil topgan ishonchli kredit ta'minotiga qaratish kerak. Ushbu toifadagi kreditlarda qaytarmaslik belgilari mavjud emas, banklar uchun zarar ko'rish imkoniyatlari minimal darajada bo'ladi, kredit ta'minlangan-ligining garov, kafolat va boshqalar sifati, ta'minlanganlikka olingan mol-mulk, garov va

boshqalarning tarkibida tez pulga ayla-nadigan aktivlar va yuqori likvid mablag'lar salmog'inining ko'pligi e'tiborga olinadi. Kredit bo'yicha olingen ta'minlanganlik (garov, mol-mulk va boshqalar) kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga etarli bo'lgandagina kredit ta'minlangan deb baho-lanishi mumkin.

Kredit bo'yicha barcha hujjatlar qonun bo'yicha rasmiylashtirilishi va bank zarur bo'lganda kreditni undirib olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur (kreditning qaytarilmaslik ehtimoli cheklangan bo'lsada). Kreditning bu guruhida mijozning faoliyatidagi ikki asosiy omilga alohida e'tibor berish zarur. Bular:

- mijozning oldingi faoliyatidagi o'z majburiyatlariga bo'lgan munosabati;
- kredit bo'yicha aniq ta'minlangan (garov, kafolat, mulk va boshqalar) bo'lishi va uning to'g'ri rasmiylashtirilganligi.

Standart kreditlar. Bunday kreditlar bo'yicha vaqt-vaqt bi-lan kreditni o'z vaqtida qaytara olmaslik sharoiti yuzaga keladi. Lekin kreditni belgilangan muddatda to'lay olmaganda to'lov mud-dati bir marta uzaytirilishi va kredit bo'yicha foiz-larni to'lay olmaslik davri 30 kundan 60 kungacha, to'liq ta'minlangan kreditlar uchun 30 kundan oshmasligi lozim. Olgan krediti standart kredit deb topilgan mijozlarning moliyaviy ahvoli, odatda, barqa-ror bo'ladi, lekin sabablar tufayli uning faoliyatida salbiy moliya-viy holat yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Bunday kreditlar qatoriga yaxshi rasmiylashtirilmagan kreditlar, garov, ta'minlanganligi bo'yicha to'g'ri hujjatlashtirilmagan yoki hujjatlar etarli bo'limgan kreditlar ham kirishi mumkin. Bu kreditlar bo'yicha 10 foiz miqdo-rida zahira tashkil qilinishi zarur.

Substandart kreditlar. Bu guruhga kiruvchi kreditlar ular-ning sifati etarli darajada emasligini bildiruvchi aniq belgi-larga ega bo'ladi. Bu, asosan, kreditlarning bankka qaytib to'lani-shida ma'lum kamchiliklar mavjudligini va qarzni to'lash uchun qo'shimcha manbalarni topish zarurligini ko'rsatadi. Substandart kreditlar qarz oluvchining ishonchli moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyatining yuqori darjasini bilan himoyalanmagan. Bu kredit kreditning ta'minlanganligini tashkil qiluvchi manbalar ma'lum tavakkalchiliklar bilan bog'liqligini, kreditning joriy holati bo'yicha etarli axborotning mavjud emasligi, garov hujjatlarida ma'lum kam-chiliklar mavjudligi

bilan xarakterlanadi. Bu kredit bo'yicha 60 kundan 90 kungacha to'lanmagan qarzlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu kreditlar moliyaviy ahvoli barqaror bo'limgan, korxonaning to'lovga layoqatliligidagi kamchiliklar bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Substan-dart kreditlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun 25 foiz miqdorida zahira tashkil qilinadi.

Shubhali kreditlar. Bu kreditlarga yuqorida keltirilgan guruhlardagi kreditlarning barcha salbiy tomonlarini o'zida ifoda qilgan, to'liq ta'minlanmagan, to'lanish ehtimoli kam bo'lgan kreditlar kiradi. Bu kreditlar bo'yicha olingan kredit yaxshi ta'minlangan bo'lganida asosiy qarz bo'yicha foizlarni to'lash muddati 120 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan bo'lsa, zarar ko'rish imkoniyati yuqori, biroq ushbu kreditlarning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsa-tish mumkin bo'lgan omillar mavjudligi sababli ularni yo'qotilgan, deb tasniflanishi vaqtincha to'xtatiladi. Bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 50 foizgacha zahira tashkil qilinishi lozim.

Ishonchsiz kreditlar. Bu kreditlar bo'yicha qarzlarning to'la-nish ehtimoli deyarli yo'q. Agar kredit to'liq ta'minlanmagan bo'lsa, eng kamida bitta muammoli tavsifga ega bo'lsa, to'lov muddati 180 kundan oshgan bo'lsa hamda kreditni "shubhali" deb tasniflab bo'lmasa, bunday aktivlar "ishonchsiz" deb hisoblanadi. Bu aktivlar juda past qiymatga ega bo'lib, ularni aktivlar sifatida hisobga olib borish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun banklar bu kreditlarni o'z balanslarida zarar sifatida hisobga olishlari mumkin. Ishonchsiz kreditlar foyda hisobiga buning uchun foyda etmagan hollarda esa, bank sarmoyasi hisobiga balansdan chiqarilishi mumkin. Bank uchun bu kreditlar zarar sifatida tasniflanadi.

Bir yil va undan ortiq muddatda harakatsiz bo'lgan aktivlar, muddati o'tgan va foizlar bo'yicha qarzlar zarar sifatida tavsiflanishi mumkin. Shu sababli bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 100 % zahira tashkil qilish lozim bo'ladi.

Tijorat banklarining kredit portfeli berilgan ssudalar-ning ta'minlanganlik darajasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

- birinchi darajada ta'minlangan;
- boshqa ta'minotga ega bo'lgan;
- to'liq ta'minlanmagan;
- ta'minlanmagan ssudalarga bo'linadi.

Birinchi darajada ta'minlangan kreditlar guruhiga to'liq ta'minlangan kreditlar kiradi. Ular quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kafolati;
- O'zbekiston Markaziy banki roziligi bilan birinchi sinf xorijiy banklari kafolati;
- erkin ayriboshlanadigan valyutadagi garov;
- O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlari ko'rinishidagi garov;
- standartlashtirilgan qimmatbaho metallar qo'yilmalari ko'rinishidagi garov;

Boshqa ta'minotga ega bo'lган ssudalar guruhiga quyidagilar bilan ta'minlangan kreditlar kiradi:

- mol-mulk garovi;
- qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov;
- boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning kafolat xati va boshqalar kiradi.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tuzil-ganligiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda MDHga kiruvchi davlatlar tijorat banklarining kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotini tez-roq rivojlantirishga yo'naltirilgan. Hozirgi vaqtida bu mustaqil davlatlarning banklari aksariyat hollarda vositachilik operatsiya-larini o'tkazish uchun ko'proq qisqa muddatli kreditlar bermoqdalar. Shu bilan birga, kreditni uzoq muddatga investitsiya qilish bank-larga va jamiyatlarga katta foyda berishi mumkin.

MDHga kiruvchi davlatlarning banklari uchun lizing operatsiyalari yangi operatsiyalar turi hisoblanadi. Bu operatsiya turida bank-lar yoki lizing kompaniyalari ijara berilgan mulkning egasi bo'lib qolaveradilar.

Lizing operatsiyalarini o'tkazishning bank uchun foydali tomoni shundaki, odatda, ijara uchun to'lov xuddi shu muddatga beriladigan uzoq muddatli kreditlar foiz stavkasiga nisbatan yuqori bo'ladi.

Bundan tashqari, bu erda mijozning to'lov qobiliyatiga ega emasligidan yo'qotish tavakkalchiligi bo'lmaydi. Bitimda ko'rsatilgan shartlarning buzilishi yuz bergan hollarda bank ijara berilgan

mulkni qaytarishni talab qilishi mumkin. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda lizing operatsiyalari keng tarqalgan. O'zbekiston va boshqa MDH davlatlarida lizing operatsiyalari kam hajmda qo'llaniladi. Hozirgi kunda lizing operatsiyalariga sharoitlar yaratish sohasida ishlar olib borilmoqda.

Quyidagi tayanch so'zlarni ta'riflang.

- | | |
|------------------|---------------|
| 1.Tijorat | 4.Jamg'arma |
| 2.Tavakkalchilik | 5.Mulkchilik |
| 3.Sherikchilik | 6.Obligatsiya |

Mavzuga oid savollar

1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari
2. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi
3. Tijorat banklarining funksiyalariga qisqacha tavsif
4. Tijorat banklarining passiv, aktiv va boshqa operatsiyalari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so'zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so'zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

18-BOB. PUL-KREDIT SIYOSATI VA UNING ASOSIY INSTRUMENTLARI

18.1. Pul-kredit siyosatining mohiyati

- Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun asosiy vazifalardan biri bo'lib, pul-kredit siyosatini hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish hisoblanadi. Markaziy bank kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosatining asosiy yo'naliшlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan kamida o'ttiz kun oldin Oliy Majlis Senatiga bu haqda axborot beradi.

Pulning nazariy tabiatи bir nechta bo'lib, qator kontseptsiyalarda uning mavjudligini tabiiy asoslari va amal qilishining sabablari keltiriladi. Shartli ravishda buni "tovarli" va "tovarsiz" kontseptsiyalarga ajratish mumkin²¹.

Pul-kredit siyosatining asosiy yo'naliшlarini iqtisodiy kon'yunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlarini, muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini, Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishi, valyuta hamda foiz siyosatining asosiy yo'naliшlarini, pul-kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

18.2. Pul-kredit siyosatini olib boish vositalari

Markaziy bank mamlakatimizdagi pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlari holatidan kelib chiqib, bitta yoki bir qancha pul-kredit ko'rsatkichlar o'zgarishlarining aniq maqsadli mo'ljallarini belgilashi mumkin. Pul-kredit siyosatining Markaziy bankning hisob operatsiyalari, uning majburiy rezerv talablari normasi, qayta moliyalashtirish stavkasi, ochiq bozordagi operatsiyalari, valyuta siyosati kabi dastaklari mavjud.

²¹ Деньги. Кредит. Банки: учеб., – 2 изд., перераб. и доп. / под ред.

В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, Изд – во Проспект, 2008. –С. 224.

Markaziy bank qiymat to‘lanishini, banklar kafolatlagan qisqa muddatli xazina veksellari, shuningdek, tijorat veksellari hisobini yuritishi mumkin. Hisob operatsiyalarini o‘tkazish shartlarini, shu jumladan, hisob stavkasi miqdorlarini Markaziy bank belgilaydi. Lekin hozirda Markaziy bank ushbu dastakdan foydalanmaydi.

Markaziy bank davlatning qimmatli qog‘ozlari, shuningdek, bankning o‘zi chiqqargan qarz majburiyatlarini xarid qilishi va ochiq bozorda sotishi mumkin. Markaziy bank har qanday darajadagi byudjetlarni moliyaviy ta‘minlash uchun ochiq bozordagi operatsiyalardan foydalanishi, shuningdek, davlat qimmatli qog‘ozlari birlamchi joylashtirilganda ularni sotib olishi mumkin emas. Ochiq bozordagi operatsiyalar limitini boshqaruv tasdiqlaydi. Ochiq bozordagi operatsiyalar muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta‘minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida Markaziy bank tomonidan muntazam ravishda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Pul-kredit siyosatining muhim dastaklaridan biri bu – majburiy rezerv talablari hisoblanadi. Markaziy bank o‘zi belgilagan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to‘g‘risida tijorat banklariga ko‘rsatma beradi. Markaziy bankda depozitga o‘tkaziladigan majburiy rezervlarning eng kam miqdori Markaziy bankning me’yoriy hujjatlari bilan belgilanib, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, tijorat banklarining boshqa majburiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Markaziy bank majburiy rezervlarning miqdorlari jalb etilgan mablag‘lar va omonatlarning har bir toifasi bo‘yicha barcha tijorat banklari uchun bir xildir.

Markaziy bank tomonidan majburiy rezerv talablari tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga ta’sir ko‘rsatish orqali iqtisodiyotdagи pul taklifini tartibga solishda pul-kredit siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida qo‘llanilmoqda. 2012 yilda inflyatsiya va pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida majburiy rezervlar normasi yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va 1 yilgacha bo‘lgan muddatga jalb qilingan depozitlari uchun – 15,0 foiz, 1 yildan 3 yilgacha bo‘lgan depozitlar uchun 12 foiz va 3 yildan ortiq bo‘lgan depozitlar uchun 10,5 foiz miqdorida o‘zgartirilmay qoldirildi.

Markaziy bankning majburiy rezervlar talabining ushbu darajada ushlab turilishi pul bozorida moliyaviy resurslarga bo‘lgan talab va taklifning muvozanatini saqlashga, real sektor korxonalarining investitsion imkoniyatini oshirishga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirish va ayni paytda tijorat banklarining resurs bazasi barqarorligini ta’minalashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan jalb qilingan jami depozitlar hajmi 2012 yil boshiga nisbatan 31,5 foizga ortdi. Jumladan, aholining tijorat banklaridagi omonatlari hajmi 34,6 foizga o’sdi. Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotdagi pul taklifini boshqarishda pul-kredit siyosatining asosiy vositalaridan biri bo‘lgan qayta moliyalash stavkasidan ham keng foydalaniilmoqda.

Iqtisodiy o’sishni rag‘batlantirish maqsadida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2011 yilning 1 yanvaridan yillik hisobda 14 foizdan 12 foizgacha tushirildi va yil davomida o‘zgartirilmasdan saqlab turildi. Ushbu ko‘rsatkich 2012 yilda ham 12 foiz darajada saqlanib qoldi. Bu esa, o‘z navbatida, pul bozorida foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarining kamayishi va buning natijasida ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qildi.

Mamlakatimizda tijorat banklarida barqaror resurs bazasini shakllantirish va uni yanada kengaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar tijorat banklarining aktiv operatsiyalari hajmini, jumladan, kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini oshirishga zamin yaratdi. “Mudis” agentligining hisobotida qulay iqtisodiy sharoit, faol investitsiya siyosati va banklar kapitallashuvining barqaror yuqori darajasi ushbu prognozning asosiy omillari bo‘ldi, deb qayd etilgan. Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan global nomutanosibliklarga qaramasdan, O‘zbekiston iqtisodiyoti, shu jumladan, bank-moliya tizimi muttasil barqaror rivojlanmoqda.

Quyidagi tayanch so‘zlarni ta’riflang.

- | | |
|---------------|-----------|
| 1. Vosita. | 4. Limet |
| 2. Veksellari | 5. Stavka |
| 3. Depitor | |

Mavzuga oid savollar

1. Pul-kredit siyosatining mohiyati
2. Pul-kredit siyosatini olib boish vositalari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so'zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so'zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. – 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

19-BOB. PUL ISLOHOTLARI

19.1. Pul islohotlarini turlari

Pul islohoti deb pul muomalasini barqarorlashtirish maq-sadida davlat tomonidan pul tizimini o'zgartirishga aytildi. Pul islohoti metall pul muomalasi davrida, II Jahon urushidan keyin - oltin deviz, oltin dollar muomalasi davrida o'tkazildi.

Pul muomalasini barqarorlashtirishga pul islohotini o'tkazmasdan ham erishish mumkin. Pul muomalasini barqarorlashtirishning quyidagi usullari mavjud: revalvatsiya, devalvatsiya, denominatsiya. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, iqtisodiyotning holatiga, pulning qadrsizlanish darajasiga, davlat siyosatiga ko'ra davlat pul islohotini o'tkazishi, pulni revalvatsiya, denominatsiya qilishi mumkin.

Fakat pul islohotini o'tkazish yo'li bilan pul tizimini barqarorlashtirish mumkin bo'ladi.

Pul islohotini o'tkazish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiri-lishi mumkin:

– muomaladagi pul massasini kamaytirish maqsadida, deflyasiya kursi bo'yicha eski pullarni yangi pullarga almashtirish:

– aholi va korxonalarining banklardagi jamg'armalarini vaqtincha (to'liq yoki qisman) harakatsiz ushlab turish (qotirib qo'yish):

– ikkala usulni birgalikda qo'llash yo'li orqali pul islohotini o'tkazish: bu usul xalqaro amaliyotda «shok yo'li» bilan davolash nomi bilan mashhurdir. Bu usul 1948 yilda G'arbiy Germaniyada harbiy davlat boshqaruvidan bozor iqtisodiyotga o'tishda qo'llanilgan. «Shok yo'li» bilan davolashda ish haqini to'lashni to'xtatib qo'yish, ishlab chiqarishni qisqartirish, pul islohotini o'tkazish, ish o'rinalarini qisqartirish kabi qattiq choralar qo'llanilishi mumkin. Masalan, G'arbiy Germaniyada 1948 yilning iyun oyida o'tkazilgan pul islohotida aholining naqd' pullari va jamg'armalari 6,5 yangi nemis markasiga 100 eski reyxsmarka nisbatan almashtirildi. Aholining pul jamg'armalarini to'lash vaqtincha to'xtatilgan, keyinchalik faqat 30 foiz atrofida to'langan va har bir kishiga 60 nemis markasi miqdorida nafaqa ajratilgan. Natijada davlatning reyxsmarka marka-sidagi qarzi, mamlakatda bo'lgan disbalans tugatilgan va shu yo'l bilan infliyatsiyaning o'sish sur'atlari to'xtatilgan.

«Shok yo‘li» bilan davolash Yaponiyada 1949-50 yillarda o‘tkazilgan va u «Dodj rejasii» degan nomni olgan.

Bu rejaga asosan Yaponiyada inflyatsiyaga qarshi juda qattiq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Erkin bahoga o‘tish bilan bir vaqtning o‘zida er islohoti o‘tkazildi, byudjet kamomadini yo‘qotish yo‘llari ishlab chiqildi. Yaponiyada mavjud zarar bilan ishlovchi korxona-larga davlat tomonidan beriladigan subsidiya bekor qilindi, kor-xona, tashkilotlarga kredit berish shartlari mukammallashtirildi, aholi jamg‘armalari ishlatilmasdan qotirib qo‘yildi.

Iqtisodiyotni «shok yo‘li» bilan davolash Sharqiy Yevropa mamlakatlari - YUGoslaviya, Polsha kabi mamlakatlarda ham qo‘llanilgan. «Shok yo‘li» bilan davolash iqtisodiy siyosati 1989 yilning oxirlarida Polshada qo‘llanilgan bo‘lib, ish haqi vaqtinchalik qo‘tirib qo‘yilgan holda, baholar erkinlashtirilgan. Natijada 1990 yilning boshlariga kelib, Polshada tovarlar mo‘l-ko‘lchiligi vujud-ga kela boshladi va tovarlar bahosining bir necha barobar oshishi na-tijasida inflyatsiya sur’atlari sekinlashishiga erishildi. Polshada bu iqtisodiy tadbirning o‘tkazilishi aholining yashash sharoitini ancha qiyinlashtirdi va ishsizlar sonini ko‘paytirdi.

19.2.Pul islohotlari va uning pul muomalasini barqarorlashtirishdagi o‘rnri

Bizning davlatimizda pul muomalasini tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi usullardan foyda-lanadi.

1. Majburiy zahira stavkasi me’yorini belgilash.
2. Tijorat banklarining ochiq bozorda qatnashishi.
3. Markazlashgan kreditlar uchun qayta moliyalashtirish stavkasini o‘rnatish.

«O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra, Markaziy bank tijorat banklariga minimal majburiy zahira bo‘yicha mablag‘larni maxsus hisobda saqlab turish majburiyatini yuklash huquqiga ega. Bunday zahiralar me’yorlari bankning majburiyatlari turiga, omonat va muddatiga qarab belgilanadi. Bu mexanizm, asosan, tijorat banklarining likvid mablag‘lari haj-mining muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Bu bilan Markaziy bank tijorat banklarining kredit berish qobiliyatiga ta’sir etadi. Kredit esa o‘z navbatida, pul massasining

ko‘payishiga, baholarning o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun majburiy me’yor tez-tez o‘zgartirilmaydi, chunki u muomalada pul massasining tebranib turishiga va oxiri iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Markaziy bank tijorat banklarga kreditlar bo‘yicha qayta moliyalashtirish stavkasini belgilab beradi. Bu stavka tijorat banklari beradigan kreditning bahosini aniqlashda asos bo‘lib xiz-mat qiladi. Qayta moliyalashtirish siyosati tijorat banklarining boshqa manbalaridan mablag‘lar jalb qilishiga ta’sir etmaydi. Mar-kaziy bank qayta moliyalashtirish stavkalarini o‘rnatib tijorat banklarini likvidlik darajasini muvofiqlashtirib turadi.

Hozir ko‘pgina davlatlarda pul muomalasini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalar o‘tkazish usulidan foydalaniłmoqda.

Bu hozirgi ko‘p qo‘llanadigan monetar siyosatning bir usuli hisoblanadi. Bu usul tijorat banklarining likvidlik darajasiga tezda ta’sir o‘tkaza oladigan eshiluvchan (moslanuvchan), amaliy va operativ usul hisoblanadi. Bu usulning boshqalaridan farqi shun-daki, uni zaruriyatga qarab va xohlagan miqdorda o‘tkazish mumkin. Bu mexanizm bozorning rivojlanish tendensiyasiga qarab pul muomalasini barqarorlashtirishi mumkin. Markaziy bankning ochiq bozorda operatsiyalar o‘tkazish huquqi qonunda belgilangan. Bunda oldi - sotdi obyekti bo‘lib, davlat qimmatbaho qog‘ozlari va Markaziy bankning o‘zi chiqargan qarz majburiyatlari bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, qayta moliyalash stavkasi iqtisodiyotda muayyan darajada foiz stavkalarining indikatori bo‘lib xizmat qiladi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, tijorat banklari jalb qilingan depozitlar va berilayotgan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini o‘z-lari mustaqil ravishda belgilashlari mumkinligiga qaramasdan, qayta moliyalash stavkasining kamaytirilishi foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi.

Hozir ko‘pgina davlatlarda pul muomalasini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalar o‘tkazish usulidan foydalaniłmoqda.

Bu hozir ko‘p qo‘llanadigan monetar siyosatning bir usuli hisoblanadi. Bu usul tijorat banklarining likvidlik darajasiga tezda ta’sir o‘tkaza oladigan eshiluvchan (moslanuvchan), amaliy va operativ usul hisoblanadi. Bu usulning boshqalaridan farqi shundaki, uni zaruriyatga qarab va xohlagan miqdorda o‘tkazish mumkin. Bu mexanizm bozorning rivojlanish tendensiyasiga qarab pul mu-

malasini barqarorlashtira olishi mumkin. Markaziy bankning ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish huquqi qonunda belgilangan. Bunda oldisotdi obyekti bo'lib davlat qimmatbaho qog'ozlari va Markaziy bankning o'zi chiqargan qarz majburiyatlari bo'lishi mumkin. Hozirgacha muomalada Markaziy bankning uch oy muddatda so'ndiriladigan depozit sertifikatlari yurgan bo'lsa, 1996 yil mart oyi oxirida DQMO chiqarildi. Bu tijorat banklari va korxo-nalarining mablag'-larini xavf-xatardan saqlash va daromad olish imkonini beradi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini kiritish birinchidan, Moliya vazirligiga o'z joriy xarajatlarining bir qismini inflyatsiyadan holi manba hisobidan qoplashga, ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining bo'sh mablag'larini foyda olish evaziga investitsiya qilishga imkoniyat yaratdi.

DQMOlarning birlamchi bozori Markaziy bank valyuta bir-jasida tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.

Zarur bo'lsa, obligatsiya egasi ikkilamchi bozorda o'z foydasi evaziga uni sotishi mumkin.

Shunday qilib, Markaziy bank pul muomalasini barqarorlash-tirish, uni tartibga solish borasida barcha vakolat va huquqiy normalarga ega.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan usullar ko'pgina davlatlarda qo'llaniladi. Davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqa selektiv usullardan ham foydalanishi mumkin. Bu usullarning maqsadi kreditlash hajmiga va umumiy pul massasiga ta'sir o'tkazib borishdir. Bu usullarni har bir davlat o'zining rivojlanishi dara-jasiga qarab qo'llashi mumkin.

Masalan, rivojlangan davlatlarda, asosan, ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalananiladi. YUqoridagilarni tahlil qilsak, har bir usul u yoki bu yo'l bilan (bevosita yoki bilvosita) muomaladagi pul massasining kamayishiga yoki ko'payishiga ta'sir qiladi.

Iqtisodiyotdagi ahvolga qarab, Markaziy bank o'zining pul-kredit sohasidagi strategiyasini aniqlaydi. Bundan tashqari, mamlakatdagi pul muomalasi hukumat tomonidan chiqarilgan qaror va buyruqlar bilan ham boshqariladi. Bunga misol qilib, korxonatashkilotlarning kassa tushum rejasini bajarishi ustidan qattiq nazorat

o‘rnatish, barcha savdo shoxobchalarini inkassatsiyaga tortish, aholining o‘z daromadini davlat banklarida saqlashga targ‘ib qilish va ishontirish, qimmatli qog‘ozlar bozorini kengaytirish, hisob cheklaridan keng foydalanish, bank tizimini takomillashtirish, ya’ni elektron kartochkalarini joriy qilish va boshqalar bularning hammasi muomaladagi pul massasining kamayishiga, emissiya miq-dorining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan usullar ko‘pgina davlatlarda qo‘llaniladi. Davlatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa selektiv usullardan ham foydalanish mumkin. Bu usullarning maqsadi kreditlash hajmiga va umumiyl pul massasiga ta’sir o‘tkazib borishdir. Bu usullarni har bir davlat o‘zining rivojlanish darajasiga qarab qo‘llashi mumkin.

Masalan, rivojlangan davlatlarda asosan ochiq bozorda operasiyalar o‘tkazish usulidan foydalaniлади. Yuqoridagilarni tahlil qilsak, har bir usul u yoki bu yo‘l bilan (bevosita yoki bilvosita) muomaladagi pul massasining kamayishiga yoki ko‘payishiga ta’sir qiladi.

Quyidagi tayanch so‘zlarni ta’riflang.

- | | |
|----------------|-----------------------|
| 1. Stavka | 4. Emissiya |
| 2. Likvidlik | 5. Monetar siyosat |
| 3. Inflyatsiya | 4. 6. Byudjet siyosat |

Mavzuga oid savollar

1. Pul islohotlarini turlari
2. Pul islohotlari va uning pul muomalasini barqarorlashtirishdagi o‘rni

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O‘zbekiston" – 1996.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so‘zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so‘zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.

4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

20-BOB. QIMMATBAHO QOG'OZLAR: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TURLARI

20.1. Qimmatbaho qog'ozlar haqida tushuncha

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni quyidagi qimmatli qog'ozlarga nisbatan amal qiladi:

Aksiyalar;

Obligatsiyalar;

G'azna majburiyatlari;

Depozit sertifikatlari;

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari va

Veksellar.

Aksiyalar, obligatsiyalar va xazina majburiyatlarda aks ettiriladigan rekvizitlarni O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasi qoshidagi «Qimmatbaho qog'ozlar bozorini koordinatsiyalash va nazorat qilish Markazi» depozit sertifikatlari va veksellarda aks ettirilgan rekvizitlarni esa O'zbekiston Respublikasi Markziy banki belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar nomi (egasi) yozilgan va taqdim etuvchiga tegishli bo'lishi mumkin. qimmatli qog'ozlar basharti mulkiy huquqlarni ularga egalik qilish bilan bog'liq holda ro'yobga chiqarish uchun emitent (qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi) tomonidan yoki uning topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlar kasb faoliyatini amalgaga oshirayotgan tashkilot tomonidan egasining nomini qayd etish zarur bo'sagina egasi yozilgan bo'ladi. Egasi yozilgan qimmatli qog'ozni bir mulkdordan ikkinchisiga berish hisob-kitobdag'i tegishli yozuvlarni o'zgartirishda aks etadi.

Qimmatli qog'ozlar basharti mulkiy huquqlarni ularga egalik qilish bilan bog'liq holda ro'yobga chiqarish uchun qimmatli qog'ozlarni taqdim etishning o'zi etarli bo'lsa, taqdim etuvchiga tegishli hujjatlar deb hisoblanadi. Taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'ozlar erkin muomalada bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilish shakliga ko'ra blankalar tarzida hujjatli va depozitariylarning hisobga olish registrlarida yozuvlar tarzida hujatsiz bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilish shakli qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanadi.

20.2. Qimmatbaho qog'ozlarning turlari

Qimmatli qog'ozlarning eng keng tarqalgan turi aksiyalar hisoblanadi.

"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunning 3 muddasida aksiyaga quyidagicha ta'rif berilgan:

Aksiya – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarziga olishga, aksiyadorlik jamiyati boshqaruvida boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilgandan keyin qoladigan molmulkning bir qismiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Boshqacha qilib aytganda, aksiya aksiyadorlik jamiyat chiqargan qimmatbaho (daromad keltiruvchi) qog'oz. Aksiya o'z egalariga, ya'ni aksiyadorlarga xissadorlik jamiyati ixtiyoridagi umumiy mulkdan o'ziga tegishli ulushiga huquqi borligi to'g'risida guvohlik beradi. Amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan aksiya blankalarining majburiy rekvizitlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Aksioner jamiyatining nomi va joylashgan manzili.
2. qimmatli qog'ozning nomi «Aksiya».
3. Navbatdagi nomer.
4. Chiqarilgan vaqt.
5. Aksiya turi (oddiy va imtiyozli).
6. Nominal qiymati va toifasi.
7. Egasining nomi.
8. Aksiya chiqarilgan aksioner jamiyatining Ustav fondining miqdori.
9. Muomalaga chiqarilgan aksiyalar soni.
10. Imtiyozli aksiyalar uchun to'lanadigan dividend miqdori va to'lash muddati.
11. Aksioner jamiyati ijroiya organi rahbarining imzosi (boshqaruv, direksiya).
12. Qimmatli qog'ozlar chiqarilgan korxonaning muhri. Aksiyalar davlat tilida to'liq yoziladi. Jamiyat a'zolarining xoxishiga ko'ra boshqa tillarda ham yozilishi mumkin.

Aksiya hujjatsiz shaklda chiqariladi.

Aksiyalar egasining nomi yozilgan, imtiyozli va oddiy bo'lishi mumkin. Aksiyada ko'rsatilgan va jamiyat aksiyadorlarini ro'yxatga olish daftariga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsgina egasi yozilgan aksiyaning sohibi bo'lishi aksiyador deb e'tirof etiladi.

Oddiy (odatdag'i) aksiyalar ovoz beruvchi bo'lib, ularning egalariga dividendlar olish, jamiyatning umumiy yig'ilishlarida va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Imtiyozli aksiya egalari dividendlarni, shuningdek aksiyadorlik jamiyati tugatilganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqiga egadir. Imtiyozli aksiyalar ularning egalariga, korxona foyda ko'rish-ko'rmasligidan qa'tiy nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

Yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari faqat egasi yoziladigan aksiyalar bo'lishi mumkin, ularni boshqa shaxsga o'tkazish tartibi ustavda belgilanib qo'yiladi. Yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlariga aksiyalar o'rniga ularning nominal qiymatiga teng summada sertifikatlar berishi mumkin.

Chiqariladigan aksiyalarning xillari, ularni tarqatish va joylashtirish, ular bo'yicha dividendlarni to'lash tartibini har bir aksiyadorlik jamiyati o'zining Ustaviga asosan amalga oshiradi.

Aksiya bo'linmasdir. Bu degani aksiyaga bir necha kishi egalik qilishi mumkin (masalan, er va xotin). Lekinda aksioner jamiyatining yig'ilishida ular bir ovozga ega bo'ladi.

Aksiya mulkka egalik qilish huquqini shartli ravishda beradi. U zayom emas. Aksiyada qoplash muddati ko'rsatilmaydi. Aksiya egasining javobgarligi faqat uning ixtiyoridagi aksiya miqdori bilan chegaralangandir. Shuning uchun ham u jamiyat uchun javob bermaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida»gi qonunida aksiyadorning huquqlari batafsil yoritilgan. Qonunga ko'ra aksiyadorlar:

- jamiyat mablag'iga qo'shgan hissasini va shunga muvofiq topilgan foydaning bir qismini dividend tariqasida olishi;

– aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qarorlarni ishlab chiqarishda ovoz berish, mazkur hissadorlik jamiyatining sotib olishda ustunlik qilish;

– inqirozga uchragan chog‘da hissadorlik jamiyatining bir bo‘lagiga egalik qilish;

– o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlariga birlashish va h.k.

Bu huquqlar aksiyalarning xillariga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Masalan: oddiy aksiyalar egalari jamiyat Ustaviga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida barcha masalalar bo‘yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etsa, imtiyozli aksiyalarning egasi bunday huquqga ega emas va h.k. Aksiyalarni boshqa shaxsga mulk qilib o‘tkazish mumkin. Bu holdagi egasi yozilgan aksiyalar (sotib olinishi, hadya qilinishi, meros bo‘lib o‘tganda) egasining o‘zgarganini qayd etuvchi organ aksiya yangi egasining ismi yoki nomini kiritadi. Aksiyadorlik jamiyati ma’lum bir vaqt o‘tgandan keyin aksiyalarni qayta sotish, o‘z xodimlari orasida tarqatish yoki bekor qilish maqsadida aksiyadorlardan ularni sotib olish ham mumkin. Chunki aksiyalar ko‘pi bilan bir yil ichida joylashtirilishi lozim. Ana shu davr ichida dividendlarni taqsimlash, shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish va kvorumni aniqlash jamiyat sotib olgan o‘z aksiyalarini hisobga olmagan holda o‘tkaziladi.

Jamiyat o‘z aksiyalarini mustaqil ravishda yoki investitsiya institutlari orqali sotib olishi mumkin. Aksiyalar chiqarilganda ularning nominal aksiyada ko‘rsatilgan, (masalan, 100 dollar, 500 dollar, 100 sum va h.k.) qiymati bo‘ladi, lekin ular bozor narxida sotiladiki, narx nominal qiymatidan yuqori yoki past bo‘ladi. Bozordagi talab va taklifga qarab aksiyaning bozor narxi shakllanadi, bunga bozor kursi deb ataladi. Bozor kursi yoki narxini belgilanishi qimmatli qog‘ozlar katirovkasi deyiladi va u fond birjasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 20 iyulda qabul qilingan “Iqtisodiyotning strategik tarmoqlari korxonalarini xususiy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan davlat korxonalarini xususiy lashtirish jarayonida davlat huquqini maxsus saqlash uchun “Oltin aksiya”lar joriy qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Farmonni bajarish borasida “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirishlar kiritilib, qonunning 24-1 moddasida “oltin aksiya”ga quyidagi ta’rif berilgan:

“Oltin aksiya” – ayrim aksiyadorlik jamiyatlarını boshqarishda davlat ishtirokining maxsus huquqi bo‘lib, u strategik ahamiyatga ega bo‘lgan davlat korxonalarini xususiy lashtirilayotganda yoki aksiyadorlik jamiyatı davlat aksiya paketini xususiy mulk etib realizatsiya qilinayotganida O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qaroriga asosan joriy qilinadi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilinishini ta‘minlaydi”.

“Oltin aksiya” ustav fondida davlat ulushi bo‘lмаган yoki bu ulush 25 foizdan oshmaydigan jamiyatlarda joriy etilishi mumkin va uning tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

“Oltin aksiya” faoliyati jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga davlat vakilini tayinlash orqali amalga oshiriladi. Davlat vakili Kuzatuv kengash a‘zosi bo‘lib, aksiyadorla jamiyatining umumiyligi yihilishi tomonidan saylanmaydi. Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi va Kuzatuv kengash tomonidan davlat vakili ishtirokisiz qabul qilingan qarorlar shuningdek, “VETO” qo‘yilgan qarorlar ijro etilmaydi.

Qimmatli qog‘ozlarning bozorda yaxshi sotilishi korxona, firma uchun o‘zgalar pulini moliyaviy resursga va so‘ngra kapitalga aylantirib, o‘zining mavqeini mustahkamlab yaxshi foyda olishga imkon beradi. Aksiya kursiga ta’sir etuvchi omilar turlicha bo‘ladi. Germaniya mutaxassislari fikriga ko‘ra unga iqtisodiy, siyosiy va ruhiyat omillari ta’sir etadi.

Firma emitent sifatida qimmatli qog‘oz sotsa, xaridor sifatida uni bozordan sotib ham oladi. Odadta firma o‘zi bilan yaqin iqtisodiy aloqada bo‘lgan firmalar, banklar, sug‘o‘rtta va investitsiya kompaniyalari aksiyalarini va davlat obligatsiyalarini yoki ko‘proq o‘z mahsulotlarini sotib oluvchi yoki unga kerakli resurslarni sotuvchi korxonalar aksiyasini sotib oladi, chunki ular bir birlarining yaxshi moliyaviy ahvoldidan o‘zaro manfaatdor bo‘ladilar.

Bozor munosabati sharoitida xo‘jalik subyektlari moliya jihatdan ham o‘z aravasini o‘zi tortishi kerak, ammo ular foyda ko‘rib rentabelli ishlashi, foyda hisobidan o‘z moliya resurslarini orttirib borishlari ham

shart, bu siz ular raqobatga bardosh bera olmaydilar. Demak, moliyaviy baquvvat bo'lish raqobatchi chidamli bo'lishi demakdir.

20.3. Qimmatbaho qog'ozlarlarning hosilalari

Qimmatli qog'ozlar hosilalari – o'z egalarini boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsonlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

Qimmatli qog'ozlar hosilalarini chiqarish va muomalasi qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi qimmatli qog'ozlar va fond birjalari bo'yicha Davlat komissiyalari belgilaydi. Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar hosilalarining ikki turi amal qilib kelmoqda, bu opson va fyucherslardir.

Lekinda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar hosilalarining boshqa turlari ham mavjud, bular jumlasiga depozit tilxatlari, warrant, privatizatsiya cheklari, privatizatsiya kuponlari kiradi.

Qimmatli qog'ozlar hosilalari bilan operatsiyalar nafaqat birlamchi bozorda, shu bilan birga ikkilamchi bozor (birjalar)da hamda «ko'cha» (chayqov) bozorida ham bajarilaveradi. Ammo bu operatsiyalarning asosiy qismi fond birjalari orqali o'tadi.

Opson bu muayyan qimmatli qog'ozni kelishilgan baho va muddatda sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi ikki tomonlama shartnoma. U egasiga kontrakt (bitim)da kelishilgan bahoda belgilangan muddatda qimmatli qog'ozlarni yoki tovarlarni sotib olish huquqini beradi. Opson sotuvchi uchun sotish, xaridor uchun sotib olish huquqini beradi.

Masalan, aksiyalarni oldi-sotdisida opson ikki investor ishtirokida tuziladi: biri opsonni yozadi va ikkinchisiga o'tkazadi (beradi); ikkinchisi bu opsonni sotib oladi va belgilangan muddat ichida va narxda aksiyalarni sotib olish (sotib olishga opson) yoki unga sotish huquqini oladi (sotishga opson).

Yanada tushunarliroq bo'lishi uchun opson mohiyatini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Aytaylik, bir dona aksiyaning nominal qiymati (bahosi) 100 sum bo'lsin. Emitent bilan tuzilgan opson shartnomasiga binoan siz uch oy

muddat bilan 100 ta aksiyani sotib olish huquqiga ega bo'ldingiz. Bu huquqga siz har bir aksiya uchun 100 sum emas, balki 103 sum to'lash sharti bilan ega bo'ldingiz. Shunda siz har bir aksiyaga qo'shimcha 3 sum to'lab, 100 ta aksiya uchun opsonni 300 sumga sotib olasiz.

Shuni bilingki, aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lishingiz bilan siz bu aksiyalarni sotib olishga majbur emassiz. Agar opsonda ko'rsatilgan muddat ichida aksiyalarning narxi oshmagan bo'lsa yoki pasayib ketgan bo'lsa, opson egasi o'z huquqidan foydalanmaydi. Demak, bu misolimiz shartiga binoan 300 sum yo'qotadi.

Faraz qilaylik, aksiyaning narxi kam miqdorda, aytaylik 102 sumga oshgan bo'lsin. Bunday vaziyatda opson egasi qanday ish tutishi lozim? Birinchi navbatda u aksiyaning narxi qachon oshganligiga e'tibor bermog'i lozim. Agar aksiyaning narxi uch oylik, muddatning boshida (102 sumga) oshgan bo'lsa, unda opson egasi shoshilmasdan payt poylab turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar uch oylik muddatning oxirida oshgan bo'lsa, unda opsondagagi aksiyalarni sotib yuborishi lozim, ya'ni opsionga muvofiq aksiyalarni 100 sumdan sotib olib, 102 sumdan sotib yuborish kerak. Bu holda opson egasining ko'rgan zarari 100 sumni tashkil etadi (bu summaga qo'shimcha yana vositachiga to'lanadigan xizmat haqi ham kiriishi mumkin).

Aksiyaning narxi kutilganidek (103 sumdan) baland bo'lgan hollarda opson o'z egasiga daromad keltiradi. Masalan, aksiyaning narxi 108 sum bo'lsa, opson egasining 100 dona aksiyadan olgan daromadi 500 sum (800-300)ni tashkil qiladi.

Shunday qilib, opson egasi aksiyaning bozordagi kursiga qarab yutishi yutqazishi mumkin.

Opson odatda korporatsiya rahbarlarining rag'batlantirish maqsadida keng qo'llaniladi. Bunda korporatsiya rahbarlari ixtiyoriga oldindan o'rnatilgan kurs bo'yicha aksiyalar ajratib qo'yiladi. O'rnatilgan kurs bilan aksiyani sotish bahosi o'rtasidagi farq korporatsiya rahabarlarining opson evaziga oladigan daromadi jami daromadlarining uchidan bir qismini tashkil qiladi.

Opsonning asosan quyidagi uch turi mavjud:

- sotib olish uchun opson (opson Call) - kelajakda aktivlar kursining oshishidan himoya qilish maqsadida xaridorning aktivlarini

(valyuta, qimmatli qog'ozlar, tovarlar va h.k.larni) sotib olish huquqini (ammo, majburiyatini emas) beruvchi kontraktdir

- sotish uchun opson (opson put) - aktivilarning kursini pasayishidan himoya qilish uchun sotuvchiga o'z aktivlarini sotish imkonini (ammo majburiyatini emas) beruvchi kontraktdir

- qo'sh opson (opson tellage) - xaridorga aktivlarni bazis narxda sotib olish yoki sotish imkonini beradi. Ammo, baravariga sotish va xarid qilish mumkin emas. qo'sh (stollaj) opson sotishga opson va sotib olishga opson baravariga bir xil muddat ichida va yuir xil narxda sotib olinish holatida vujudga keladi.

Har bir opsionda muddati ko'rsatilgan bo'ladi. Opcionning amal qilish sanasi va davri belgilangan muddatdan chiqib ketgan bo'lsa, u holda mazkur opson qabul qilinmaydi.

Opcionlarning amerikacha va Yevropacha stillari mavjud. Yevropacha stilda opson faqat belgilangan muddatda (kunda) ishlatilishi mumkin. Amerakacha stilida esa opson unda belgilangan muddat ichida, istalgan vaqtida ishlatilishi mumkin.

Opcionning oldi-sotdi jarayoni kontrakt (bitim) tuzish orqali amalga oshiriladi. Yakka kontrakt to'liq lotga tuziladi. LOT - bu sotuvga qo'yilgan bir xil turdag'i qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlar partiyasi. Bir necha lotlar to'plami string deyiladi.

Kontrakt egasi (ya'ni, sotib oluvchi, xaridor) sotuvchiga (ya'ni, kontraktni yozib beruvchiga) komission haq to'laydi. Bu haq mukofot deyiladi. Mukofot - kontraktning opson bahosi. Opcionni xarid qiluvchining xavf-xatari (tavakkalchiligi) shu mukofot miqdori Bilan chegaralangan. Opcion sotuvchining xavf-xatari esa o'sha mukofot miqdoriga kamayadi.

"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunda qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers- o'zida nazarda utilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Fyuchersning o'ziga xos xususiyati shundaki, kontrakt tuzish chog'ida sotuvchi qo'lida hech qanday qimmatli qog'oz yoki moliyaviy instrumentlar bo'lmaydi. Bu erda kontrakt shartlari qa'tiy

belgilangan baho bilan oldi-sotdi bajariladigan kun bahosi o'rtasidagi farqqa asoslangan bo'ladi.

Fyuchers shartnomasi to'g'ridan-to'g'ri sotib olish amali bilan tugamasdan, balki qimmatli qog'ozga aylanib unda belgilangan harakat muddati ichida bi necha marotaba qayta sotilishi mumkin. Shartnoma egasi tovarning o'zgaruvchan bahosini oldindan topishi yoki toapolmasligi mumkin, foydadan boy berishi yoki daromad olishi mumkin.

Depozit bu kredit muassasalariga saqlash uchun topshiriladigan qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar)dir.

Depozit tilxatlari bu chet el emitentlarining qimmatli qog'ozlarini milliy valyutada denomillashtirilgan ekvivalentini o'zida aks ettiruvchi qimmatli qog'ozlardir. Ular mavjud fond bozorlariga integratsiya maqsadida chiqariladi. hozirgi vaqtida har bir mamlakatda o'zining depozit tilxatlari (DT) mavjud. Masalan:

- AQSHdagi DT;
- Yevropa mamlakatlaridagi DT;
- Osiyo mamlakatlaridagi DT;

Bu depozitlarni fond bozorlarida to'g'ridan – to'g'ri qo'llab bo'lmaydi. Chunki:

1. Bu davlatdagи fond bozoriga tegishli mavjud qonunlar boshqa davlatlarning shunga o'xshash qonunlarila farq qiladi.

2. Bir mamlakatda qimmatli qog'ozlarni chiqarish andozalari (standartlari) boshqa mamlakatda qabul qilingan andozalarga to'g'ri kelmaydi.

3. qimmatli qog'ozlarni xarid narxiga qo'shiuncha bo'lib kiradigan xarajatlar turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi:

- * chet el va ichki fond bozoridagi brokerlarga vositachilik haqi;
- * bank depozitlarining xizmat haqi (bozor bahosidan 1% miqdorida);
- * sotib olingan qimmatli qog'ozni etkazib berilishi uchun investor tomonidan to'lanadigan haq;
- * 2 % miqdorida sug'o'rta haqi;
- * qimmatli qog'ozlarni sotib olishdagi yoki sotishdagi valyutalar konvertatsiyasi uchun ketadigan xarajatlar;
- * konversiya uchun investor tomonidan to'lanadigan foizlar;

* investor uchun valyutani almashtirish kursining o‘zgarishidagi xavf-xatar darajasi.

Mavjud xilma-xillikni bartaraf etish va fond bozorlarida erkin muomalani ta’minlash maqsadida depozit tilxatlari qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtida depozit tilxatlari ichida keng tarqalgan AQSH fond bozoridagi dpozit tilxatlari bo‘lib, ular chet el emitentlarining qimmatli qog‘ozlarini AQSH dollarida denomillashtirilgan ekvivalenti sifatida AQSHning birjaviy va nobirjaviy bozorlarida muomalada yuradi. Bugungi kunda AQSHdagi depozit tilxatlarini sotib olgan investorlarning 80 foizini institutsional investorlar tashkil qiladi.

Depozit tilxatlari bilan bog‘liq faoliyat turlarini maxsus bank va investitsiya muassasalari amalga oshiradilar. Ular (diler, broker, transfet-agent, depozitariy, maslahatchi, anderrayter, trast va boshqalar sifatida) investor va emitentlarning jahon fon bozorlarida ishtirokini ta’minlaydi. Bu muassasalar o‘z daromadlari va mijozlari manfaatlari yo‘lida fond va valyuta bozorlarida aktiv faoliyat yuritadilar.

Varrant bu egasiga muayyan vaqt uchun yoki muddatsiz shart bilan shartnomada ko‘rsatilgan narxda qimmatli qog‘ozni sotib olish huquqini beruvchi guvohnoma (sertifikat)dir. U amaldagi kapitalni iqtisodiyotga safarbar qilish uchun emas, ko‘proq ularni qayta taqsimlashda keng qo‘llaniladi.

Ayrim hollarda varrant qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni rag‘batlantirish maqsadida ular bilan birgalikda beriladi. Varrant omborxonalar tovarlarni saqlash uchun qabul qilinganligini tasdiqlovchi guvohnoma vazifasini ham bajaradi. U muayyan tovarni sotishga yoki kafilikka olinganligini tasdiqlovchi hujjat rolini o‘ynashi mumkin.

Varrant nomi yozilgan va nomi yozilmagan (taqdim etuvchiga tegishli) ko‘rinishlarda bo‘ladi. U qimmatli qog‘oz bozorlarida xudi aksiyaga o‘xshab muomalada bo‘ladi.

20.4. Qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatbaho qog‘ozlar.

Davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarish emissiya risolasisiz va davlat qimmatli qog‘ozlarining chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari – O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergen organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

Davlat qimmatli qog'ozlari qisqa muddatli (bir yilgacha muddatga), o'rtacha muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) etib chiqarilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning kengroq tarqalgan ikkinchi turi obligatsiyalar hisoblanadi.

Obligatsiya – obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Obligatsiya – lotincha «majburiyat» degan ma'noni bildiradi. Obligatsiya chiqargan tashkilot (emitent) qarzdor rolida qatnashadi. Aksiya va obligatsiyalarni investitsiya qimmatli qog'ozlari deb atashadi. Obligatsiyalar aksiyalardan farq qiladi. Bular quyidagilar:

Aksiyani sotib olgan aksiyador, korxona mulkining bir qismiga egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, obligatsiya sotib olgan sarmoyador buday huquqga ega bo'la olmaydi, u faqat kredit beruvchi sifatida qatnashadi. Bundan tashqari, obligatsiya faqat unda ko'rsatilgan muddatda amal qiladi vash u muddatda daromad (foiz) keltiradi.

Obligatsiya odatda o'z egasiga oldindan belgilangan foiz keltiradi. Aksiyadorlik jamiyati obligatsiyasi uning egasiga mazkur jamiyatining umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqini bermaydi.

Lekinda obligatsiyalarning nisbatan ustunligi ham bor. Obligatsiyalarni sotib olish aksiyalarni sotib olishga nisbatan kamroq xatarli ish hisoblanadi. Chunki, kompaniya (emitent) qashshoqlikka uchragan holda obligatsiya egasi kreditor sifatida nafaqat oddiy aksiyalar, balki imtiyozli aksiyalarning egalaridan ham oldin qarzlarini olish huquqiga egadir.

Obligatsiyalarni chiqarishdan maqsad ham davlat ichki qarzini pul emissiyasi hisobiga emas, balki bozor munosabalariga tayangan vositalar yordamida, ya'ni qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan

qoplashni ko‘zda tutadi. Bu esa pul qadrsizlanishi darajasini pasaytirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, korxonalar vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larini muomalaga kiritish evaziga qo‘sishmcha daromad oladi. Markaziy bank obligatsiyalar yordamida pul-kredit siyosatini o‘tkazishda ham foydalaniadi. Markaziy bank ikkilamchi bozorda obligatsiyalarni xarid qilish yoki sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalgga oshira turib, muomalada bo‘lgan pul muassasasi hajmini tartibga solib turadi.

Amaliyotda obligatsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

- respublika ichki zayomlarining, mahalliy zayomlarning obligatsiyalari;
- korxonaning obligatsiyalari.

Obligatsiyalar oddiy va yutuqli, foizli va foizsiz (maqsadli), erkin muomalada yuritiladigan yoki muomala doirasi cheklangan qilib chiqarilishi mumkin. Maqsadli obligatsiyalarning rekviziti obligatsiyalar qaysi mollar (xizmatlar) uchun chiqarilgan bo‘lsa, shu mollarni (xizmatlarni) aks ettirishi shart.

Respublika ichki zayomlarining va mahalliy zayomlarning obligatsiyalar taqdim etuvchiga tegishli qilib chiqariladi. Bu zayomlar obligatsiyalarini chiqarish haqidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan qabul qilinadi. qarorda emitent, obligatsiyani chiqarish shartlari va ularni tarqatish tartibi belgilab qo‘yilishi lozim.

Korxonalarning obligatsiyalari mulkchilikning barcha shakllariga mansub korxonalar tomonidan chiqarilishi mumkin. Obligatsiyalar o‘z egalariga korxona boshqaruvida qatnashish huquqini bermaydi. Korxona va aksiyadorlik jamiyatlarining obligatsiyalarini chiqarish to‘g‘risidagi qarori tegishli ma’muriyat va ijroiya organi (boshqaruvi) tomonidan qabul qilinadi hamda bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

Korxonaning obligatsiyalari emitentlarning Ustav fondini shakllantirish va to‘ldirish uchun, shuningdek, ularning xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq zararlarini qoplash uchun chiqarish yo‘l qo‘yilmaydi. Aksiyadorlik jamiyatları chiqarilgan barcha aksiyalar haqi to‘liq to‘langandan keyingina Ustav fondi miqdorining 20 foiztdan ko‘p bo‘lmasdan summada obligatsiyalar chiqarishlariga ruxsat beriladi.

Mulkchilikning boshqa shakllariga mansub korxonalarda obligatsiyalar chiqarish summasi, miqdori amaldagi qonunlar asosida belgilanishi mumkin.

Xalqaro miqiyosida, obligatsiyalar muayyan bir muddatga chiqarilishi mumkin ya'ni:

qisqa muddatli;

o'rta muddatli;

uzoq muddatli obligatsiyalar.

har bir mamlakat amaldagi qonunlariga qarab bu muddatlarni belgilashi mumkin. Masalan: AQSHda qisqa muddatli obligatsiyalar 1 yildan 3 yilgacha, o'rta muddatli obligatsiyalar 3 yildan 7 yilgacha va uzoq muddatli obligatsiyalar esa 7 yildan ko'p vaqtgacha chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasida esa hozirgi kunda davlat obligatsiyalarining ikki turi muomalaga chiqarilgan.


Birinchisi – O'zbekiston Respublikasi 12 foizli yutuqli zayom obligatsiyalari bo'lib, Moliya Vazirligi tomonidan 1992 yilda 20 yildan keyin qoplash muddati bilan 25 mlrd sumlik chiqarildi. Shundan 1 yanvar 1997 yilgacha aholi o'rtaida 19,4 mlrd sumlik tarqatildi. Lekinda hozirgi kunda ushbu obligatsiya yutuq tirajlari vaqtincha to'xtatilgan.

Ikkinchidan – Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 26 martda qabul qilingan 119-sonli qaroriga asosan Moliya Vazirligi tomonidan ilk bor 1996 yil 28 martda chiqarilgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va 1997 yil 30 yanvarda Vazirlar Mahkamasining 57-sonli qaroriga asosan 1997 yilda qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish maqsadida Moliya Vazirligi tomonidan 1997 yilda muomalaga chiqarilgan 3 va 6 oylik qisqa muddatli obligatsiyalaridir. Bu esa respublikamizda obligatsiyalar bozorini shakllantirishga olib keldi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorining yaratilishi O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. DQMO bozori asosan Moliya Vazirligi va Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi qisqa muddatli obligatsiyalarini muomalaga kiritishning asosiy shartlari» va Markaziy bank ishlab chiqqan «Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari chiqarishlarining muomalasini tashkil etish va tartibga solish buxgalteriya «Nizom» asosidagi faoliyat» ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tijorat banklari o'zlarining «Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bilan operatsiyalar hisobining muvaqqat tartibi»ga tayanadi. DQMO emitenti Moliya vazirligidir. Emissiya qilish vaqtida Moliya vazirligi Markaziy bank bilan kelishilgan holda obligatsiyalarning eng yuqori hajmini, muomalada bo'lish muddatini va potensial egalariga doir cheklanishlarni belgilaydi. Markaziy bank obligatsiyalarni joylashtirish va xizmat ko'rsatish bo'yicha bosh agent vazifasini bajaradi. Bu obligatsiyalar bo'yicha to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirish yuzasidan sarmoyadorlar oldida kafolatni o'z zimmasiga oladi. O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi DQMO bozori faoliyatining texnik tashkilotchisi sifatida xizmat qiladi. Uning zimmasiga o'z tarkibida savdo tizimi, hisob-kitob tuzi shva depozitariy tizimlari yaratish va ular xizmatini yo'lga qo'yish yuklangan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Respublika birjasi Yevropa va boshqa rivojlangan jahon mamlakatlari fond bozori andozalariga javob beruvchi zamонавија va texnologik vositalarga ega.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning joylashtirish sxemasi



1. Moliya vazirligi Markaziy bankga DQMO joylashtirishni topshiradi va uni sotishdan tushgan mablag'larni jamlaydi.

2. Markaziy bank DQMO joylashtirishni O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi orqali amalga oshiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi dilerlar operatsiyalarini amalga oshirish uchun auksionlar tashkil qiladi.

4. Dilerlar obligatsiyalarini o'z hisobidan va sarmoyadorlar, yuridik shaxslar hisobidan sotib oladilar.

5. Sarmoyadorlar obligatsiyalarini sotib olish uchun etarli mablag'larni dilerlar hisob raqamiga tushiradi.

6. Dilerlar o'z komission haqini chegirgan holda mablag'larni O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi hisob raqamiga yo'naltiriladi.

7. O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi o'z komission haqini chegirgan holda mablag'larni Markaziy bank hisob raqamiga yo'naltiriladi.

8. Markaziy bank hisob raqamiga tushgan mablag'larni Moliya vazirligi byudjet hisob raqamiga yo'naltiriladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, obligatsiyalar bizning davlatimizda 3, 6 va 12 oylik muddatga chiqariladi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan chiqarilgan 3 oylik obligatsiyalarning nominal qiymati 1000 sumga teng. Ular nominaldan past bahoda diskont (nominal bahosi bilan sotilgan qiymati orasidagi farq) yo'li bilan sotadi va muddati tugagach nominal narx bo'yicha to'lanadi.

DQMO nominal bahosi 1000 sumni tashkil qilgan bo'lsa, Markaziy bank tijorat banklariga uni 889 sumga sotgan, ya'ni 111 sum kamiga ($14,14 - 12,93$) = 121. Tijorat banklari esa so'ndirish muddati kelganda obligatsiyalarini nominal bahoda sotganlar, natijada tijorat banklari har bir obligatsiyalardan 111 sum foyda ko'rganlar. hozircha Respublikada faqat 14 da tijorat banki bilan Markaziy bank dilerlik vazifasini bajarish to'g'risida shartnomalar tuzgan holos, bu esa o'z navbatida DQMO bozorida raqobat etishmasligiga sabab bo'lmoqda. DQMO har bir emissiya umumiy sertifikat bilan rasmiylashtiriladi. Umumiy sertifikatlar ikki asl nusxada bo'lib, ular Moliya vazirligi va Markaziy bankda saqlanadi.

Obligatsiyalarining chiqarilishining asosiy shartlari emissiya kunidan 7 kun avval Markaziy bank tomonidan e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasidagi barcha yuridik shaxslar DQMO

obligatsiyalarining egasi bo'lishi mumkin. Hozircha DQMO Respublikamizda jismoniy shaxslar shaxslar o'ttasida sotilmaydi. Hozirgi vaqtida Respublikada asosan DQMOlar 6-9-12 oyga chiqarilmoqda. 1996-2006 yillar mobaynida muomalaga muddati turlicha bo'lган 293 ta nashr emissiya qilindi. Shundan:

36 ta nashrning muomala muddati 3 oy,

105 ta nashrning muomala muddati 6 oy,

73 ta nashrning muomala muddati 9 oy,

79 ta nashrning muomala muddati 12 oy bo'ldi.

Faqatgina 2006 yil mobaynida 11 ta DQMO nashri so'ndirildi.

2004 yildan boshlab Respublikada Davlat o'rta muddatli xazina majburiyatları (DO'XM) emissiya qilib kelinmoqda.

DO'XM Moliya Vazirligi tomonidan hukumat nomidan qog'ozsiz shaklda chiqariladigan qimmatli qog'ozlar bo'lib, banklar va rezident yuridik shaxslar orasida joylashtiriladi.

Olingen mablag'lar Respublika byudjetiga tushadi. 2006 yil mobaynida muomalada muddati 546 kun (18 oy) bo'lган DO'XMni joylashtirish bo'yicha 22 ta auksion o'tkazilgan. Birjada 233 ta ikkilamchi savdo o'tkazilgan. Ulardan savdolar aylanmasi 1,6 barobar o'sgan. 2004-2006 yillar mobaynida 59 ta nashr emissiya qilingan. 2006 yil 1 yanvar holatiga muomalada 32 ta DO'XM bo'lган.

Markaziy bank obligatsiyalari faqat yuridik shaxslar o'ttasida joylashtirilmoqda.

Yaqin kelajakda DQMO bozoriga jismoniy shaxslarni ham ishtirokiga yo'l qo'yilsa, bu qimmatli qog'ozlar bozorida raqobatning kuchayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining G'azna majburiyatları – ularning egalari tomonidan byudjetga pul mablag'lari berilganliklarini tasdiqlovchi, kamda bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida belgilangan daromadni olishiga huquq beruvchi, taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'ozlar turidir. G'azna majburiyatları davlatning qarzdorligini tasdiqlovchi maxsus qog'ozdir.

G'azna majburiyatları:

- uzoq muddatli – besh yil va undan ko'proq muddatga mo'ljallab;
- o'rta muddatli – bir yildan besh yilgacha muddatga mo'ljallab;

- qisqa muddatli – uch, olti va o'n ikki oygacha muddatlarga mo'ljallanib chiqariladi.

Uzoq muddatli va o'rta muddatli xazina majburiyatlarini chiqarish to'g'risida qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan, qisqa muddatli xazina majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qaror esa Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Bu qarorlarda daromadlarni hamda majburiyat qarzlarni to'lash shartlari belgilab qo'yiladi.

G'azna majburiyatları obligatsiyalardan ixchamligi va daromad olishning turlicha shartlari bilan farq qiladi. Uzoq muddatli G'azna majburiyatları bo'yicha daromadlarni nominalga nisbatan foiz hyo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

O'rta muddatli xazina majburiyatlarini egalariga esa daromadlar har yillik to'lovlarsiz ularni sotib olish chog'ida majburiyatlarning chiqarilgan to uni uzishgacha o'tgan muddatga qarab nominal nisbatan foiz hisoblash yo'li bilan to'lanadi.

Qisqa muddatli G'azna majburiyatları kuponlarga ega emas va bu majburiyatlar ular bo'yicha hisoblanadigan foizlarni to'lashni o'z ichiga olgan holda ularni sotish yo'li bilan to'lanadi.

Qisqa muddatli G'azna majburiyatları xazina biletlari o'zlarining ishonchliligi, tez sarf qilinishi va daromadligi bilan juda jozibador vosita hisoblanadi. Yangi chiqarilgan biletlar dastlab auksionda sotiladi va bu erda sotuvchi sifatida xazinachi, xaridor sifatida maxsus dilerlar bank va koorporatsiyalar chiqadi. Chiqarilgan xazina biletlari to'lash muddatiga ega bo'ladi (3 oy, 6 oy yoki 1 yildan keyin) va diskont bilan sotiladi. Bu shuni bildiradiki, nominal qiymati 10000 sum bo'lgan 6 oy muddatga chiqarilgan biletlar taxminan 9600 sumdan sotiladi. Bilet egasi uni to'laganda nominal qiymatini oladi. Sotilgan xazina biletlari ikkilamchi bozorda faoi muomalada bo'ladi.

Davlatning G'azna majburiyatları bozori.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozori keng ikkilamchi bozor hisoblanib uning qatnashchilarini markaziy bank, uy xo'jaliklari, biznes va moliyaviy muassasalar hisoblanadi. Bunday bozorda davlatning o'rta muddatli majburiyatları va obligatsiyalari muomalada bo'ladi. Savdo maxsus dilerlar orqali olib boriladi. Dilerlar moliyaviy vositachilar hisoblanmasada, muhim vositachilik vazifasini bajardi.

Ular zarur miqdordagi xazina qog'ozlariga ega bo'ladi va har doim bu qog'ozlarni stish va sotib olishga tayyor bo'ladi. Dilerlar xazina biletlariga talab va taklifga mos ravishda, o'zlaridagi qog'ozlar zahirasining zaruriy darajasini hisobga olib, bozor baholarini o'rnatadi. Xazina biletlari bozorning holati talab va taklif bozorlarida emas, diskont va daromadlilik darajasida e'lon qilinadi. Bu biletlarning potensial xaridoriga ulraning sotib olishdan ko'radigan foydani bevosita aniqlash va pul qo'yishning boshqa imkoniyatlari bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

Xazina biletlari diskont bo'yicha ya'ni nominaldan kam bahoda sotiladi va sotib olinadi. Nominal bilet qiymati qaytarilgan davrda to'lanadi, shu sababli qaytarish muddati yaqinlashishi bilan biletning bozor sohasi o'sadi (daromadlilik tushadi). Xazina biletlari bozor bilan birga bir vaqtida xazina obligatsiyalari bozori ham mayjud bo'lib, ularning birinchi chiqarilishi auksion birjalarida va yozilish bo'yicha amalga oshirladi. Bunda xaridorlar obligatsiyaning nominal qiymati bo'yicha to'laydi va majburiyat qaytarilguncha har yili qayd qilngan foiz oladi. Majburiyat qaytarilganda obligatsiyaning nominal qiymati to'lanadi. Har yili qaytarilgan foiz kuponli foiz deb ataladi.

Bir marta sotilgan qarz majburiyatları ikkilamchi bozorda aktiv harakatda bo'ladi. Agar birlamchi bozorda xaridor majburiyat uchun qimmatli qog'ozning nominal qiymatini to'lasa, pul egasi tomonidan qimmatli qog'ozga talab, mohiyati bilan, kupon foizi uchun pul taklifi sifatida chiqaradi. Shu sababli majburiyatga talab qanchalik katta bo'lsa, ya'ni pul taklifi qancha katta bo'lsa, boshqa sharoitlar bir xil qolganda, ular karoq kuponga sotib olinadi. Bu erda pul bahosi foiz. Ikkilamchi bozorda pul egasi tomonidan xazina majburiyatlariga talab, ma'lum bir qog'ozlarga, bahosi esa bevosita pulda ifodalanadi. Bu bozorda qog'ozga talab qancha yuqori bo'lsa, bahosi shuncha yuqori bo'ladi. G'azna majburiyatları qayd qilingan kuponli foiz keltirishi sababli, baholar o'sishi bilan ulraning daromadliligi tuziladi.

Birlamchi chiqarilgan obligatsiyalarni sotish jarayonida, kupon foizi obligatsiyaning daromadliligiga yaqin bo'lsada, unga to'liq teng kelmaydi. Shu sababli kuponga obligatsiya bahosi nominaldan yuqori va kuponga past bo'ladi. Ya'ni har doim qo'yilgan pulga (obligatsiya) ga bahosi ularning daromadliligi hisoblanadi.

Ikkilamchi bozorda nominal qiymatidan arzon sotilgan xazina majburiyatları, kupon foiziga qaraganda ko‘proq daromad keltiradi. Shunga mos ravishda nominal qiymatidan yuqori sotilgan majburiyatlar kupon foiziga qaragnda kam daromad keltiradi.

Markaziy bank G‘azna majburiyatları bozorining ana shu xususiyatlarından foiz miqdorida va u orqali biznes iqtisodiy faoliyatini tartibga solish uchun foydalananadilar. Agar, Markaziy bank xazina majburiyatlarini aktiv sotib ola boshlasa, unga talab ortadi va ularning bahosi o‘sadi. Shunga mos ravishda qayd qilingan kupon foizidan majburiyatining daromadliligi pasayadi.

Bularning hammasi bank tizimi va xazina qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotini tartibga solishda favqulotda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Depozit sertifikatlarini chiqarish qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Depozit sertifikati – bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergen bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz.

Depozit sertifikatining ikki shakli: talab qilib olinadigan (sertifikatni ko‘rsatib ma’lum summani olish huquqini beradigan) va muddatli (omonat muddati va o‘sishi lozim bo‘lgan foiz miqdori ko‘rsatiladigan) xili bo‘ladi. Depozit sertifikatlari muddatli bank hisob varaqlarining bir xili hisoblanadi. Bunda oddiy jamg‘arma hisob varaqlaridan farqli ravishda daftarcha emas, sertifikat beriladi. Bunday omonatdan mablag‘ni belgilangan muddat kelgunga qadar ham olish mumkin, lekin buning uchun muayyan foiz jarima to‘lanadi. 60 – yillardan keng tarqalgan aylanadigan omonat sertifikati ommalashib bormoqda, bu bank chiqaradigan va mijoz muddatli omonatga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat. Odatda, bunday sertifikatlar 30 kundan 6 oygacha muddatga chiqariladi. Nominal ustiga foiz qo‘shish o‘rniga bunda ko‘pincha chegirma (diskont) bilan sotish usulidan foydalilanadi. Shunday qilib, naqd pul olish zaruriyati tug‘ilganda mijoz muddat o‘tgunga qadar istalgan paytda o‘z omonati

summasidan kichik diskont bilan sertifikatni sotishi mumkin. Mijozlar uchun likvidli qancha ortadi, banklar esa mablag‘larni keng jalg qilish imkoniyatga ega bo‘ladi.

Shuni aytish kerakki, erkin sotish imkoniyati mavjudligi depozit sertifikatlarini fao‘at daromadli qilbgina qolmasdan, balki yuqori likvidli vositaga ham aylantiradi. Agar ularni obro‘yli yirik banklar chiqargan bo‘lsa, muomala va to‘lov vositasi sifatida pulning o‘rnini muvaffaqiyat bilan egallashi mumkin. Ularning yuqori darajada rivojlangan g‘arb mamlakatlarda keng tarqalganligi bejiz emas.

O‘zbekistonda mazkur moliyaviy vosita qimmatli qog‘ozlar bozorida endigina paydo bo‘la boshladı. respublika tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar umumiy miqdorida ular 2 foizni egallaydi.

1996 yildan boshlab O‘zbekistonda pullarning eng zamonaviy xillaridan biri plastik kartochkalar muomalaga keng kiritilmoqda.

Shu maqsadda xizmatning bu turidan foydalanishni hohlaganlar uchun yiliga 5% to‘lash sharti bilan «talab qilib olinadigan» omonatlari ochiladi. Omonatlar naqd pul bilan va korxonalarning mehnatga haq to‘lash fondidan naqdsiz pul o‘tkazish yo‘li bilan tuldirlilishi mumkin.

Sum kartochkasi nomi yoziladigan bo‘lib, uning egasi, birinchidan kartochkani qabul qiluvchi banklar va bank bo‘limlaridan naqd pul olishi, ikkinchidan xizmat ko‘rsatish nuqtalari va punktlarida tovarlar va xizmatlarga haq to‘lashlari mumkin.

Kartochkada ichki mikrosxema va magnit yo‘l bo‘lib, avtomatlashtirilgan elektron moslamalar ularni «o‘qiydi», shuning uchun yakka tarzda hisob-kitob qilinadigan sohalarda avtomatlashtirilgan to‘lov operatsiyalarini bajarish uchun qulay kalit hisoblanadi.

Plastik kartochkalarning bu turi juda ishonchli, firibgarlik xattixarakatlaridan himoyalangan va Ayni paytda, ularning egasi uchun kam, ularni to‘lov vositasi sifatida qabul qiladigan savlo-sotiq hamda servis korxonalari uchun ham foydalanishga qulay.

Shubhasiz, to‘lov vositasining Ushbu turi kartochka egalari uchun foydali. Ularning yonlarida (kartochkada) har doim pul bo‘ladi va Ayni paytda, bank bu pullarga foizlar qo‘sib boradi.

Bu ish haqi va boshqalarini omonatlarga o‘tkazuvchi korxonalarga kam, tushgan pulning inkassatsiya xarajatlarini kamaytirish hamda

naqd pulni tashish, sanab-taxlash bilan bog'liq tavakkalni qisqartirish hisobiga savdo korxonalar hamda xizmat sohalariga ham foydalidir.

Veksellarni chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Birinchi bor O'zbekiston iqtisodiyotiga veksellarni joriy qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 30 iyunda "Muomalaga veksellarni chiqarish to'g'risida"gi qarori qabul qilingandan keyin boshlandi. Bu boradagi qo'pol xatoliklar mavjudligini hisobga olib 1999 yil 19 martidan boshlab Prezident Farmoniga asosan Respublikamizda veksel muomalasi vaqtinchalik to'xtatildi. Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida veksel muomalada mavjud. Shuning uchun ham biz bu borada ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

Veksel – veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Veksel, eng avvalo, bir shaxs tomonidan ikkinchisiga yozib berilgan qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog'ozning bir shaklidir. Vekselni har qanday to'lovga qobil korxona va tashkilot yozib berish huquqiga ega. Veksel:

- sotilishi;
- kredit sifatida berilishi;
- biron bir oldi-sotdi bitimida hisob-kitob sifatida ishlatalishi;
- to'lov vositasi vazifasini bajarishi mumkin.

Veksellarni asosan qisqa muddatga (1 yilgacha) berilib, ko'proq korxonalarining aylanma vositalarini ko'paytirishga imkon beradi, uning ishlab chiqarishdagi samarasini oshiradi. Shuning bilan birga, to'loving kafolatlanganligi tufayli oldindan to'lash zarurati qolmaydi va aylanma mablag'ning xarakatini ancha tezlashtiradi.

Veksel vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini har qanday miqdorda va har qanday muddat mobaynida samarali ishlatalishga yordam beradi. Veksellarni kredit olishda ishonchli garov vositasi sifatida ishlatalish mumkin. Veksellardan hisob-kitob, to'lovda foydalilaniganda bank orqali pul o'tkazishga hojat bo'lmaydi.

O'zbekistonda veksel muomalasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Ayrim davlatlar tajribasidan ma'lumki, xalq xo'jailigida hisob-kitoblarni me'yorlashtirish, o'zaro qarzlarni kamaytirishning muqobil uslublaridan biri xo'jalik aylanmasida veksellardan hisob-kitob, to'lov vositasi sifatida foydalanishdir.

O'zaro qarzlar muammosiga qarshi kurashda ishlatilayotgan veksel krediti Olmoniya, Rossiya, Ukraina va boshqa davlatlarda yaxshi samara bermoqda. Bu mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda respublikamizda veksel muomalsai tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 2 iyunda qabul qilgan «O'zbekiston Respublika xalq xo'jaligida veksellarni qo'llash to'g'risida»gi qarori respublikada veksel muomalasini tashkil etilishining barcha o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Birinchidan, boshqa davlatlardan farqli o'laroq veksellardan xalq xo'jaligida foydalanishga o'tish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ko'proq tijorat banklarining veksellaridan keng foydalanish ko'zda tutiladi. Ya'ni bu bosqichda tijorat banklari va ayrim to'lov qobiliyati bo'lgan xo'jalik subyektlari (korxonalar) tomonidan chiqarilgan veksellar joriy etiladi. Korxona va tashkilotlarning to'lovga qobiliyatini tijorat banklari tahlil qiladi va ular tomonidan chiqarilgan har bir vekselni vakolatli tijorat banklari bo'limlari ro'yxatidan o'tkazadi. Shuning uchun veksel to'lov tijorat banklari tomonidan nazorat qilinadi.

Ikkinci bosqichda banklar bir-birining veksellarini hisobga olish va ular bo'yicha to'lash haqida shartnomalar tuzish yo'li bilan yagona veksel maydoni (doirasini) yaratadi. Bu veksellarning aylanish xududini kengaytiradi va likvidligini oshiradi. Agar dehqonchilik sanoat banki vekseliga ega bo'lgan korxona sanoat qurilish bankining hohlagan bo'limida to'lov uchun pulini oladigan bo'lsa, bu korxonalar o'rtasida to'lovlarni anchagini osonlashtiradi.

Uchinchi bosqichida hisob-kitob va to'lov vositasi sifatida korxona va tashkilotlarning tijorat veksellaridan foydalanishga o'tiladi.

To'rtinchi bosqichda veksellarni Markaziy bank tomonidan qayta hisobga olish (tijorat banklarining portfeliga mavjud bo'lgan

veksellarni hisobga olish) operatsiyalarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

Respublikamizda veksel muomalasini tashkil etishning Yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, muomalaga chiqarilgan har bir veksel oldindan emitentning to'lov qobiliyatini aniqlab, banklar tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Veksellar mohiyatiga qarab tijorat va moliya veksellariga bo'linadi.

Tijorat veksellari (korxona va boshqa subyektlarning veksellari) aniq bir savdo shartnomasi uchun yoziladi. Shuning uchun ham uni ko'proq tovar veksellari deb yuritiladi.

Moliya veksellariga tijorat banklari tomonidan chiqariladigan veksellar misol bo'la oladi.

Qo'llanish nuqtai nazardan veksellar oddiy va o'tkazma veksellarga bo'linadi.

Oddiy veksel - qarzdor tomonidan to'ldiriladigan ya'ni bir tashkilotning (veksel beruvchining) boshqa bir tashkilotga (dastlabki oluvchiga) yoki uning buyrug'i bilan so'zsiz ravishda belgilangan muddatda yoki talab qilingan vaqtida ma'lum pul mablag'ni to'lash majburiyatini o'zida aks ettirgan yozma hujjatdir.

O'tkazma veksel - qarz beruvchining qarzni qachon va kimga qaytarish haqida yozma buyrug'i, ya'ni tovar oldi-sotdisiga yozilgan veksel beruvchining tovar pulini vekselni qabul qilib oluvchiga (ya'ni tovar egasiga) uchinchi bir shaxs tomonidan to'lanishi lozimligi (veksel beruvchining buyrug'ini) ifodalovchi yozma hujjatdir.

Veksel beruvchi to'lab beruvchida (uchinchi shaxsda) mulki, puli bo'lgan holatdagina o'tkazma vekselni yozib bera oladi.

Oddiy veksel ham, o'tkazma veksel ham indossament (topshirish yozuvsi) yordamida dastlabki bitimda ishtirok etmagan shaxslarga o'tkazilishi mumkin. Veksel bo'yicha talab qilish huquqini keng talabgor guruhiga bera olish imkoniyatini vekselni nafaqat kredit quroli, balki qulay to'lov vositasiga aylantiradi.

O'tkazma veksel (tratta) ayniqsa xalqaro tashqi savdoda keng tarqalgan. O'tkazma veksel egasi trassant, veksel bo'yicha qarzdor trassant deb yuritiladi.

Cheklar, ularning mamlakat ichki muomalasida yuritish rejimi.

Chek maxsus pul hujjati, chekni imzolaganning joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshi hisobga o'tkazish haqida banka berilgan yozma farmoyishni ifoda etadi. Rivojlangan bank-kredit tizimi sharoitida ichki to'lov oborotida keng tarqalgan, ya'ni to'lovlarning asosiy qismi chek bilan to'lash asosida olib boriladi.

Cheklar ham kredit munosabatlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan kredit pullaridan biridir. Chekler ish yurituvchlar o'rtasida hisob-kitob vositasi sifatida ishlatalisa, ular kelib chiqishi nuqtai nazardan, asosan bank krediti hisobiga muomalaga chiqariladi. Chekda aks ettirilgan mablag'lar bank krediti hisobiga muomalaga chiqariladi. Chekda aks ettirilgan mablag'lar bank krediti evaziga tashkil etiladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda chekler aksariyat hollarda bank krediti hisobiga ochilgan cheklar tovar ayriboshlash va puli to'lash uchun to'siqsiz qabul qilinadi, chunki unda aks ettirilgan mablag'lar bank kafolatidadir.

Qadimgi Gretsiyada bundan 2000 yil muqaddam chekni bilganlar va uni amalda qo'llaganlar.

Muomalada foydalanish xususiyatlari nuqtai nazardan chekler quyidagi turlarga ajratiladi:

- muayyan bir shaxs nomi yozib beriladigan chekler;
- orderli cheklar;
- ko'rsatuvchiga beriladigan chek. Ularda chek schetining tartib raqami va undagi mablag'lar miqdori aks ettiriladi.

Ushbu cheklarni kim banka taqdim etishidan qa'tiy nazar unda aks ettirilgan mablag'lar bank tomonidan to'lanadi:

- bank tomonidan kafolatlangan chekler;
- bank tomonidan kafolatlanmagan chekler.

Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiya taraqqiyoti davrida banklar tomonidan mijozlarga turli xil hisob-kitob ishlarini amalgaloshirish uchun beriladigan chekler har xil o'ziga xos elektron kodlar, imzolar, yozuvlar bilan ta'minlangan. Maqsad, ularda foydalanish doirasini chegaralash va qalbaki cheklarning muomalaga tushirish xavfining oldini olishdir.

Kredit kartochkasi – bu bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasasi tomonidan biror kishi nomiga berilgan pul hujjati, unda

pul egasi joriy hisobidagi summa ko'rsatiladi. Bu uning egasiga chakana savdo tarmoqlarida naqd pulsiz tovarlar va xizmatlar xarid qilish huquqini beradi. Kredit kartochkasiga binoan xaridor hisobidagi pul summasi uning ixtiyoridan olinib tovar sotgan korxona hisobiga o'tkaziladi.

Kredit kartochkalari aksariyat hollarda banklar tomonidan aholining iste'molini qondirish uchun beriladigan kreditlarda qo'llaniladi. Masalan, ma'lum bir shaxs o'z iste'molini qondirish maqsadida bankdan AO'SH dollari hisobida qarz so'rab keldi. Bu erda bank bиринчи navbatda mazkur shaxsning kreditga layoqatlilik darajasini, keyinchalik esa Ushbu kreditni ma'lum foiz bilan qaytarib bera olishini har tomonlarma o'rganib chiqadi. Shularga ishonch hosil qilgan holdagina bank mijozga 500 dollar qiymatiga ega bo'lgan kredit kartochkasini beradi.

Kredit kartochkasi maxsus kodga, hisob schetiga egadir. Kartochka egasi supermarketlardan istalgan tovarlarni xarid qilish va kredit bergen bankning «bankomat»laridan istalgan miqdorda naqd pul olish huquqiga egadir. Albatta, xarid qilish va naqd pul olish kreditning umumiy miqdori (500 dollar) bilan chegaralangandir.

Elektron pul – bu hisob-kitoblarni elektron hisoblash mashinasi yordamida bajarish uchun qo'llaniladigan kredit pullarining eng so'nggi turidir. Bu ham kredit kartochkalariga o'xshagan pul. Elektron pul elektron kartochka bo'lib, uning xotirasiga pul egasining joriy hisobidagi pul summasi yozilgan bo'ladi. Pul to'lash uchun elektron kartochka EXMga kiritiladi va kartochka avtomatik ravishda to'lanishi zarur bo'lgan pul summasini uchirib, uni pul oladiganlarning elektron hisobiga yozib qo'yadi. Masalan, yirik savdo markazlaridan mahsulotlarni xarid qilishda qo'llaniladigan kredit kartochkalari elektron pul vazifasini bajaradi. Chunki, kredit kartochkasi schetidan xarid qilingan tovarlar qiymatiga teng miqdordagi mablag'lar elektron hisoblash mashinasi vositasida markazi schetiga o'tkaziladi.

Kredit kartochkalardan tashqari mijozning talabiga binoan uning mablag'ları hisobidan elektron kartochkalar berilishi mumkin. Hozirgi davrda «Vizakart», «Masterkart», «Amerikan ekspres» kabi elektron kartochkalaridan jahoning ko'pchilik mamlakatlarida foydalilanildi. Ish yurituvchilarning mamlakat ichkarisida hamda tashqarisidagi

hamkorlari bilan tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni turlituman elektron tizimlar orqali amalga oshirilishi ham elektron pullarga misol bo‘la oladi.

Bugungi kunda muomalasi pul bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni kompyuterlashtirishni talab qiladi. Respublikamizda bugungi kunda banklarni elektron hisoblash tizimiga o‘tkazish texnologiyasini yaratish nihoyasiga etmoqda

Quyidagi tayanch so‘zlarni ta’riflang.

- | | |
|------------------------|---------------------------|
| 1.Qarz | 4. Inkassatsiya. |
| 2.Qimmatbaho qog‘ozlar | 5. G‘azna majburiyatları; |
| 3.Chek | 6. Depozit sertifikatlari |

Mavzuga oid savollar

1. Qimmatbaho qog‘ozlar haqida tushuncha
2. Qimmatbaho qog‘ozlarning turlari
3. Qimmatbaho qog‘ozlarning hosilalari
4. Qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatbaho qog‘ozlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O‘zbekiston" – 1996.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so‘zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so‘zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. – 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

21-BOB. QIMMATBAHO QOG‘OZLAR BOZORI

21.1.Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlanishini taqozo etadi, ayniqsa ikkilamchi bozorni rivojlanishiga katta e’tibor bermoqda. Buning uchun fond bozori infrastrukturasini jadal sur’atlar bilan tashkil qilish maqsadida investitsiya muassasalari tashkil qila boshlandi.

Investitsiya muassasalari bu qimmatli qog‘ozlar bilan o‘z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilaridir.

Investitsiya muassasalari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin. Investitsiya muassasasi bo‘lgan yuridik shaxsning ustavida uning asosiy faoliyat turi albatta ko‘rsatilishi shart va uning faoliyati litsenziyalanishi kerak. Litsenziyalar 5 yil muddatga beriladi. Litsenziyalash bu davlat tomonidan nazorat qilinishini anglatadi. Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi har bir faoliyat turiga mazkur bozorni tartibga soluvchi organning litsenziyasi bo‘lishi shart.

Jismoniy shaxslar qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya maslahatchisi va investitsiya vositachisi sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Buning uchun ular mahalliy hokimiyyat idoralarida tadbirkor sifatida ro‘yxatga olinishi hamda fond bozorini tartibga soluvchi idora tomonidan beriladigan malaka shahodatnomasiga (litsenziyaga) ega bo‘lishi lozim. Malaka shahodatnomasi 3 yil muddatga beriladi.

Investitsiya muassasalarining asosiy xodimlari majburiy ravishda shahodatlashdan (attestatsiya) o‘tishlari lozim va etarli darajadagi o‘z mablag‘lariga ega bo‘lishi lozim.

Investitsiya muassasasining o‘z mablag‘i deganda ustav, qo‘sishma, zahira fondlari va bevosita foydadan tashkil topgan mablag‘lar hajmi tushuniladi.

Endilikda “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat yurituvchi investitsiya muassasalarining nomlari o‘zgardi. Reestr saqlovchilar va qimmatli qog‘ozlarning nominal egalari funksiyalari depozitariylarga va banklarga olib berildi. Yangidan transfer-agent faoliyatini olib boruvchi institut joriy etildi.

Litsenziya talabgoriga uning arizasiga binoan qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalgalash uchun yoki mazkur faoliyat turining qismlari uchun litsenziya berilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalgalash uchun litsenziya qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borish uchun belgilangan cheklashlar hisobga olingan holda beriladi.

Faqat qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi bo'lган kamida ikki xodimga ega yuridik shaxslar (investitsiya fondi bundan mustasno) qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi uch yil muddatga beriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalgalash uchun yuridik shaxslarning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi tartibi qonun hujjalarda belgilanadi.

21.2.Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat amalga oshiruvchi investitsiya institutlari:

a) Investitsiya vositachisi (brokeri, dileri)

Qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilikni investitsiya vositachilarini amalga oshiradilar. Ular brokerlik (dilerlik) vazifasini bajaradilar. Brokerlar qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida o'z mijozlarining agenti bo'lib xizmat ko'rsatadi. Broker o'z mijizi bilan tuzilgan komissiya shartnomasi asosida uning qimmatli qog'ozlarini yangi investorga sotish uchun qabul qilib oladi yoki investor (mijoz) uchun uning topshirig'iga binoan (topshiriq shartnomasiga asosan) qimmatli qog'ozlarni sotib oladi. Yuridik yoki jismoniy shaxs moliyaviy broker bo'lishi mumkin.

Komissiya shartnomasi tuzilganda qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisi broker nomidan amalga oshiriladi. Topshiriq shartnomasi tuzilganda esa mijoz nomidan amalga oshiriladi. Bunda qimmatli qog'ozlar brokerniki bo'lganligi sababli ularning samarasini broker o'zining buxgalterlik balansida hisobga olmaydi, ya'ni balansdan tashqari hisobda saqlaydi.

Brokerlik xizmati uchun investitsiya vositachisiga shartnoma summasidan foiz miqdorida komission haq to'lanadi.

Vositachi bo'lish brokerlik idora (kontora)sining kapitali davlat me'yoriy hujjatlari tomonidan belgilangan miqdordar kam bo'lmasligi lozim. Bu kapitalning summasi quyidagicha hisoblanadi.

balans passividagi «Xususiy vositalar manbai» 1 - qismning yakuniy qator summasidan nomoddiy aktivlarning qoldiq bahosi (aktivning 1-qismi, 012 qator) va aksiyadorlarning nizom fondini to'lash bo'yicha qarzlari (aktivning 1-qismi, 060 qator) summasi ayiriladi.

Investitsiya vositachisi o'z mablag'lari hisobidan dilerlik faoliyatini ham yuritish mumkin. Muayyan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish narxlarini oshkora e'lon qilish hamda ushbu qimmatli qog'ozlarni e'lon qilingan narxlari bo'yicha sotib olish va sotish majburiyatini olish yo'li bilan o'z nomidan va o'z hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlarini tuzish dilerlik faoliyatini hisoblanadi.

Broker, diler faoliyatni

Broker (birja makleri, komissioner, kurte stok-broker)- bu qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi o'z mijozining topshirig'iga binoan va mijozning hisobidan bajaruvchi professional. Brokerning xizmat haqi ko'rtaj deyilib, uning miqdori oldi-sotdi shartnoma summasiga nisbatan foiz hisobida ifodalanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida broker vazifasini investitsiya vositachisi (moliyaviy broker) bajaradi.

Diler qimmatli qog'ozlarni o'zi uchun o'z hisobidan sotib oladi. Uning maqsadi daromad olish uchun sotib olgan qimmatli qog'ozlarni yuqoriroq narxda qayta sotish. Diler vazifasini investitsiya kompaniyasi bajaradi.

Treyder bu fond birjasining savdo zalida brokerlik firmasining vaqili sifatida faoliyat ko'rsatadi. Firma nomidan sotish va xarid uchun buyurtma qabul qiladi.

Endilikda reestrchilar vazifasini depozitariylar bajaradi. Emitentning aksiyadori yoki emitentning aksiyalarini nazorat qiluvchi yuridik shaxslar reestrchi faoliyatini bajarishlari mumkin emas. Aksiyadorlar reestrini belgilangan tartibda investitsiya muassasalari va emitentlar yuritishlari mumkin.

Reestrchilar faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlar reestrini yuritish tizimini hosil qiluvchi ma'lumotlarni to'plash;

- ma'lumotlarni ro'yxatga olish;
- ma'lumotlarni tartiblash va berish.

B) Investitsiya maslahatchisi

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish, ularning muomalasi masalalari, qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari holatini tahlil etish hamda istiqbolini belgilash bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarini qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs investitsiya maslahatchisidir.

Yuridik va jismoniy shaxs investitsiya maslahatchisi bo'lishi mumkin. Ular quyidagi faoliyat turlarini bajaradilar:

- qimmatli qog'ozlar bozorini va uning ishtirokchilarini tahlil qilish va istiqbolini aniqlash;
- moliyaviy vositalarni (moliyaviy majburiyatlarni) ekspertiza qilish;
- qimmatli qog'ozlar chiqarish, ularni joylashtirish va muoamлага kiritish;
- mutaxassislarni qayta tayyorlash;
- yuridik va jismoniy shaxslar investitsiya sistemasini amalga oshirish;
- huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish;
- qimmatli qog'ozlarning fond birjasi savdolariga kiritilishini tashkil etish va amalga oshirish;
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq amallarni bajarish bo'yicha uslubiy va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tayyorlash;
- qimmatli qog'ozlarning sifat ko'rsatkichlarini (reytingini) aniqlash va samaradorligini hisoblash;
- qimmatli qog'ozlar to'plamini (portfelini) aniqlash va uni yuritilishini umumiyligi strategiyasini ishlab chiqarish, to'plamini boshqarish bo'yicha maslahat berish;
- axborot xizmatini ko'rsatish;
- xususiy lashtirish bo'yicha hujjatlar tayyorlash;
- xususiy lashtirilgan korxonalar multkini baholash;
- aksionerlik jamiyatlarining ta'sis va ichki me'yoriy hujjatlarini tayyorlash;

- oldi-sodi va trast bo'yicha boshqarish shartnomalarining loyihalarini ishlab berish va h.k.

Investitsiya maslahatchilari pudrat ishlarini bajarish yoki ilmiy-teknikaviy mahsulot yaratish uchun tuzilgan shartnomalar asosida xizmat ko'rsatadilar.

Investitsiya maslahatchisining kapitali davlat me'yoriy hujjatlari tomonidan belgilangan miqdorda kam bo'lmasligi lozim. Bu kapitalning summasini aniqlashda yuqorida keltirilgan brokerlik idorasining kapitalini hisoblash usuli qo'llaniladi.

Investitsiya maslahatchisi o'z faoliyatini boshqa turdag'i faoliyatlar bilan birga qo'shib olib bora olmaydi.

V) Investitsiya fondining faoliyati

Investorlarning pul mablag'larini jalb qilish va ularni qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlarga, boshqa investitsiya aktivlariga, shuningdek banklardagi hisobvaraqlarga va omonatlarga qo'yish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs – ochiq aksiyadorlik jamiyatni investitsiya fondidir.

Investitsiya fondi yuridik shaxsnинг boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o'zgartirilishga haqli emas. Investitsiya fondini qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalgalashish uchun investitsiya fondiga berilgan litsenziyaning amal qilishini tugatish yoki uni bekor qilish investitsiya fondining belgilangan tartibda tugatilishiga olib keladi.

Investitsiya fondining turlari.

Investitsiya fondlari asosan mayda investorlarning (aholining) jamoa investitsiyalarini boshqaradi. Ular ikki turda bo'ladilar, ochiq va yopiq turdag'i investitsiya fondlari.

Ochiq turdag'i investitsiya fondlari chiqargan aksiyalarni o'z aksiyadorlaridan qayta sotib olish majburiyatini oladilar. Yopiq turdag'i investitsiya fondlari esa bu majburiyatni o'z zimmalariga olmaydilar.

Hozirgi kunda dunyoda ochiq turdag'i boshqaruvchi fondlar (o'zaro fondlar) rivoj topgan. Ular odatda ochiq turdag'i aksionerlik

jamiyati va mas'uliyati cheklangan korporatsiya ko'rinishida tuziladi va ularning tashkiliy tarkibi uch shaxsdan iborat bo'ladi.

-investitsiya fondining boshqaruvchisi (professional yuridik yoki jismoniy shaxs);

-depozitariy banki (maxsus depozitariy) yoki ishongan vakili;

-investitsiya portfelining egasi (aksiyador).

Bu turdag'i investitsiya fondlari Avstriyada, Germaniyada, Shveysariyada keng tarqalgan.

Investitsiya fondlari Kanada va Buyuk Britaniyada korporatsiya shaklida, Italiya va Niderlandiyada cheklangan sherikchilik yoki mas'uliti cheklangan korporatsiya shaklida tuzilgan, AQSHda esa naqd baholi sertifikat fondlari, birlashgan investitsiya trastlari va menejerlar (boshqaruvchi) fondlari ko'rinishida tuziladi.

Ochiq turdag'i boshqaruvchi fondlarning aksiyadorlari (muassislari) ularning faoliyatini chegaralovchi tashkilotlardan boshqa barcha, yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Bunday tashkilotlarga davlat, mahalliy boshqaruv va jamoatchilik organlari, shuningdek, investitsiya fondida 25 va undan ortiq foiz ovozga ega bo'lgan korxonalar yoki nizom fondining 25 va undan ortiq foizi davlatga tegishli bo'lgan korxonalar kiradi.

Investitsiya fondining nizom kapital uni davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 kun ichida aksiyadorlar tomonidan pul mablag'lari ko'rinishida (75 foiz) to'liq to'langan bo'lishi lozim.

Investitsiya fondining moliyaviy aktivlari quyidagicha usullar bilan aniqlanishi mumkin:

1) sof aktivlar minus nomoliyaviy aktivlar (asosiy vositalar, ishlab chiqarish zahiralari va xarajatlari);

2) uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar summasi, shuningdek, uzoq va qisqa muddatli passivlarsiz pul mablag'larini summasi.

Investitsiya fondining daromadlari quyidagilardan tashkil topadi:

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar, foiz daromadlari va qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq amallarni bajarish asosida olingan daromad.

Investitsiya fondining daromadi (soliqlardan va majburiy to'lovlardan, boshqaruvchi va depozitariyning xizmat haqidan qolgan

qismi) faqat uning nizom fondining kupaytirish va aksiyadorlarga dividend to‘lash uchun sarflanadi.

Quyidagi tayanch so‘zlarni ta’riflang.

1. Investitsiya vositachisi
- 2.Broker.
- 3.Diller faoliyatি
- 4.investitsiya maslaxatchisi

Mavzuga oid savollar

- 1.Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat.
- 2.Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat amalga oshiruvchi investitsiya institutlari:

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

- 1."Banklar va bank faoliyati haqida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O‘zbekiston" – 1996.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so‘zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
- 3.O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so‘zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

22-BOB. FOND BIRJALARI VA ULARNING FUNKSIYALARI

22.1. Birja tushunchasi va uning paydo bo‘lish tarixi.

Birja so‘zi lotincha “Bursa” so‘zidan olingan bo‘lib hamyon ma’nosini bildiradi.

• O‘zbekiston Respublikasining «Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida»gi qonunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992 yil 2 iyulda, (yangi tahrirda 2001 yil 29 avgustda) qabul qilingan.

• Qonunda birja tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan.

• Birja yuridik shaxs bo‘lib, oldindan tayinlangan joy va muayyan vaqtda belgilangan qoidalar asosida ommaviy va oshkor birja savdolarini tashkil etish va o‘tkazish orqali birja tovarlari savdosi uchun shart-sharoit yaratadigan joy.

• Birjalar dastaval Italiyada paydo bo‘lgan. So‘ngra 1531 yil Antverpen (Niderlandiya), 1549 yil – Lion, Tuluza (Fransiya), 1556 yil London (Buyuk Britaniya) paydo bo‘ladi. Rossiyada esa Pyotr I farmoniga asosan birinchi birja Sankt-Peterburg shahrida 1703 yilda tashkil topadi. AQSHda birinchi tovar birjası 1848 yil Chikago shahrida tashkil topadi. Birja yuridik shaxs sifatida tuzilgan tovarlarni ulgurji savdosini tashkil etadigan bozordir.

• Fond birjası - qimmatli qog‘ozlarning alohida tarzda uyushgan bozoridir. U uzoq rivojlanish tarixiga ega. To‘rt yuz yildan ortiq mobaynida qimmatli qog‘ozlar bilan birja savdosini tashkil etish shakli ham, birjani o‘zining jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi roli ham o‘zgardi.

• Birjalarning o‘tmishdoshlari ko‘rgazma savdolari yarmarkalar edi, ular o‘zining rivojlanishi jarayonida doimiy ravishda savdo mexanizmlarini takomillashtirib bordi. XV asrda Venetsiya, Genuya, Florensiyada ko‘rgazma savdolari katta nom chiqardi.

• 1792 yilda Amerika qo‘shma Shtatlarda jahondagi barcha birjalarning eng yirigi Nyu-York fond birjası tashkil etildi. Uning ketidan Yevropaning qator boshqa birjalari barpo qilindi. Iqtisodchilarning hisoblashicha, fond birjalari rivojlanishining dastlabki bosqichi 200 yil davom etdi. o‘sha vaqtda birjalar eng rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotda katta rol o‘ynadi. Birja operatsiyalari, o‘z

navbatida xalqaro savdo-sotiqning kengayishiga, kapitalning dastlabki jamg'arilishini tezlashtirishga va bu bilan ishlab chiqarishning feodal usulidan rivojlangan bozor jamiyatiga o'tishga ko'maklashdi.

22.2. O'zbekiston Respublikasida fond birjasining vujudga kelishi.

• 1991 yilning bahorida O'zbekiston hukumatining qarori bilan respublikaning eng yangi tarixida birinchi «Toshkent» O'zbekiston Respublikasi tovar – xom-ashyo birjası tashkil etilda.

• O'sha yilning avgustida «O'zbekiston tovar – xomashyo birjası» mas'uliyati cheklangan jamiyat «Toshkent» O'zbekiston Respublika universal tovar – fond birjası (qisqartirilgan nomi – «Toshkent» birjası)ga aylantirildi va uning tarikbida qimmatli qog'ozlar bozorining dastlabki rasmiy tashkiloti – Fond bo'limi ochildi. Fond bo'limi zimmasiga qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozorini tashkil etish (fond boyliklari bilan birja savdolarini tashkil qilish), birjaning brokerlik o'rinalarini sotish, birjaning ustav sarmoyasini shakllantirish maqsadida uning aksiyalari joylashtirish vazifalari yuklatildi.

• 1992 yilning yanvarida «Toshkent» birjasining Fond bo'limi respublikada birinchi bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan muntazam savdolarni o'tkazishga kirishdi.

Quyidagi tayanch so'zlarni ta'riflang.

- | | |
|---------------------------|---------------|
| 1.Birja | 4.Auksion |
| 2.Fond birja. | 5.Obligatsiya |
| 3.Tovar xom ashyo birjası | 6.Veksel |

Mavzuga oid savollar

1. Birja tushunchasi va uning paydo bo'lish tarixi.
2. O'zbekiston Respublikasida fond birjasining vujudga kelishi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so'zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so‘zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-sон.

4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.

5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.

6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

23-BOB. XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI

23.1. Xalqaro iqtisodiy aloqalar – valyuta munosabatlarining asosi sifatida

Valyuta munosabatlarining ba’zi bir elementlari qadimiy Rimda veksellar asosida va bir mamlakat savdogarining pulini ikkinchi bir mamlakat savdogariga almashtirib berish zaminida vujudga kelgan. Valyuta munosabatlarining rivojlanishining keyingi bosqichi qadimiy Lionda va boshqa G’arbiy Yevropa mamlakatlarida o’tkaziladigan tratta operatsiyalarining rivojlanishi hi-soblanadi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, jahon bo-zorining barpo bo’lishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurla-shuvi va jahon xo’jalik tizimining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishining assosidir. Valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir bo’lagi hisoblanib, uning holati milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga, siyosiy ahvolga, mamlakatning iqtisodiy potensialiga, uning jahondagi o’rniga va boshqa omillarga bog’liq bo’ladi.

23.2. Valyuta tizimi va uning asosiy elementlari

Valyuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valyuta munosabatlari tashkil qilish va boshqarish shakllarini o’z ichiga oladi. Valyuta tizimining quyidagi turlari mavjud. Bular – milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimlaridir.

Sanoati rivojlangan davlatlar iqtisodiyotlari o’rtasidagi integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida valyuta tizimi jahon xo’jalik aloqalarida muhim va mustaqil o’rin tuta boshlayapti. Valyuta tizimi mamlakatning iqtisodiy holatiga bevosita ta’sir etadi (ya’ni ishlab chiqarish omillari, sur’atlariga, narxga, ish haqiga va boshqalarga).

Milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimlari tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

Milliy valyuta tizimi – tarixan yuzaga kelgan bo’lib, alohidaoltingan davlatning valyuta munosabatlari qonun asosida tashkil qilish va boshqarish munosabatlari o’z ichiga oladi. Milliy valyuta tizimining elementlari milliy valyuta, valyuta zahiralari hajmi va tarkibi, valyuta pariteti va milliy valyuta kursi, valyutani konvertirlash shartlari, mamlakat valyuta munosabatlari boshqa-

ruvchi milliy mahkamalar va tashkilotlar maqosi, valyuta va oltin milliy bozorlarining faoliyat yuritish shartlari, valyuta nazorati, valyutaviy chekhanishlar bor-yo'qligi qoidalarni, xalqaro kredit vositalarini milliy pul aylanishida qo'llash qoidalari va boshqa-lar hisoblanadi. Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining asosiy qismini tashkil qiladi.

Mintaqaviy valyuta tizimi elementlari tegishli shartnoma shartlari asosida aniqlanadi.

Jahon valyuta tizimi quyidagi elementlarini, ya'ni xalqaro to'lov vositalarining ma'lum bir yig'indisi, valyuta kurslari va valyuta pariteti, konvertirlash shartlari, xalqaro hisob-kitob shakllari, xal-qaro valyuta va oltin bozorlari rejimi, xalqaro va milliy bank tash-kilotlari, xalqaro kredit vositalarini muomalada qo'llash qoida-larini, valyuta cheklowlarni davlatlararo boshqarish usullari va bosh-qalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro va mintaqaviy valyuta tizimlarining asosi xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo hisoblanadi.

Jahon valyuta tizimi o'z ichiga valyuta instrumentlari (vositalari)ning amal qilishini ta'minlovchi xalqaro kredit – moliya muassasalari va xalqaro bitim hamda davlat huquqiy me'yorlari majmularini o'z ichiga oladi.

Mintaqaviy valyuta tizimi rivojlangan davlatlarning jahon valyuta tizimi chegarasida tashkil etiladi. Masalan, Yevropa valyuta tizimi – EVT bir qator Yevropa davlatlarining valyuta sohasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari shakli sifatida namoyon bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi.

Valyuta mexanizmi samaradorligi, davlatning va xalqaro valyuta-moliya muassasalarining valyuta, pul va oltin bozorlariga aralashish darajasi iqtisodiy o'sish, davlatning tashqi iqtisodiy strategiya-siga ta'sir etadi.

Valyuta tizimi ahamiyatining o'sishi rivojlangan mamlakatlarining milliy va mahalliy doirada valyuta sohasida davlat monopo-listik boshqaruvining yangi usuli va vositalarini izlashga majbur etmoqda.

Jahon valyuta tizimi (JVT) va uning evolyusiyasi

Rivojlangan davlatlarning valyuta tizimi nafaqat ular o'rtasi-dagi pul hisob-kitob munosabatlarini, balki ichki pul muomalasi-ning katta qismini ham o'z ichiga oladi. JVT oltin standartga asoslangan tizimdan asta-sekin maqsadli boshqariladigan, qog'oz-kredit pullariga

asoslanadigan tizimga aylandi. Shu bilan birga, uning rivojlanishi (o'n yilliklar farqi bilan) milliy pul tizimining rivojlanish bosqichlarini takrorlaydi. Ichki iqtisodiyotda pul tizimi oltin tanga standartidan oltin quyma va oltindeviz, undan kredit-qog'oz pul muomalasiga o'tdi va oxirgi bosqichda ko'proq e'tibor kredit vositalariga qaratiladigan bo'ldi.

Jahon miqyosida bu holat keyinroq maxsus shakllarda namoyon bo'ldi. Bunda oltin-tanga standarti mutlaqo bo'lмаган, oltin quyma standarti asrlar davomida mavjud bo'lган; oltin bilan bir qatorda yordamchi kredit pullari veksel, chek va boshqa ko'rinishida rivojlangan. Ammo XX asr boshiga kelib, bu tizim xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakliga javob bermay qoldi. Bu davrning eng asosiy belgilaridan biri kapitalni eksport qilish – JVT ning yangi oltin standart shakllari bilan qarama-qarshilikka uchradi. Bundan tashqari, oltin zahiralari tez rivojlanib borayotgan dav-latlar xazinasida to'plana bordi. Shuning uchun ham, davlatlar o'rtasida yangi boshqariladigan valyuta tizimi zarur edi. 30-yillarining ikkinchi yarmida oltin standart shakllari o'miga qog'oz-kredit pul muomalasi keldi. U davlatga emissiya mexanizmidan iqtisodiyotni boshqarish vositasi sifatida foydalanish imkonini berardi.

Jahon valyuta tizimi rivojlanishining muhim bosqichi Ikkin-chi Jahon urushidan keyin boshlandi.

Ikkinchi Jahon urushi oltin zahiralarining yangi taqsimotiga olib keldi:

barcha davlatlarning deyarli 4/5 oltin zahiralari AQSHda to'plandi. Dollarning JVTdaetakchi o'rindaligi, oltindeviz standarti-ning oltin dollar shaklini olganligidan dalolat berardi.

Bu holat rasmiy ravishda 1944 yil iyulda Brettonvudsdag'i (AQSH) BMT Konferensiyasida tasdiqlangandi. Unda urushdan keyingi Jahon valyuta tizimiga asos solindi.

JVTining tashkiliy-va faoliyat tamoyillari quyidagilar qilib belgilandi:

– oltin JVTining asosi sifatida tan olindi;

– dollar va funt-sterlingga xalqaro hisob-kitoblarda va chet el valyuta zahiralarida asosiy o'rinn berildi va ularni oltin o'miga taqdim etilishi mumkinligi tasdiqlandi;

– dollarga nisbatan barcha mamlakat valyutalarining qat’iy pari-teti o’matildi, dollar orqali esa – oltinning va chet el valyutalari-ning bir-biriga nisbatan bahosi aniqlanadigan bo’ldi;

– valyuta kursining dollar paritetiga nisbatan tebranishi = 1 % darajasida belgilandi;

– JVT ni boshqarish maqsadida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) va Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki (XRTB) tashkil etildi;

– valyuta cheklovi tizimi bekor qilinib, milliy valyuta konvertatsiyasi tiklandi.

Bu shaklda tuzilgan, II Jahon urushidan keyingi JVT xalqarovalyuta-moliyamunosabatlardagi tartibsizlikni yo’qotishga imkon berdi.

Ammo Brettonvuds tizimining qarama-qarshiligi – tartibsiz bozor (oltinstandart) va boshqariladigan dollar tizimi bo'yicha ish yuritish quyidagilarga olib keldi:

– o’zgarmas oltin narxi va narxi o’suvchi tovar va xizmatlar orasida farq yuzaga kelishiga;

AQSHdan ko’p miqdordagi kapitalning boshqa davlatlarga oqib ketishiga (1957-1971 yillarda 54,2 mldr. dollar miqdorida to‘g’ri investitsiyalar tarzida AQSHdan boshqa davlatlarga oqib o’tgan);

– chet ellardagi katta harbiy xarajatlarga;

– AQSHning to‘lov balansi taqchil bo‘lishiga (uning miqdori 1953-1972 yillarda – 69 mldr. dollarni tashkil qilgan);

– dollarning real kursi va uning oltin pariteti orasida uzulishning bo‘lishiga va boshqalar.

Bundan tashqari, 60-yillarning ikkinchi yarmida G’arbiy Yevropa va Yaponiya AQSHdan o‘z oltin zahiralari va eksport hajmi bo'yicha ikki baravar oshib ketdi. Natijada, hatto oltindeviz standarti tayadanigan umumiqtisodiy asos o‘z umrini tugatdi. Oltindollar standartining buzilishi valyuta bozorlarida dollarning «tushishi» va «valyuta isitmasi» degan iboralar tarzida o‘z aksini topdi.

Xalqaro valyuta boshqarish sohasi kengaytirildi. Buning uchun XVF qoshida iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha a'zdavlatlar vazirlari darajasida qo'mita tashkil etildi.

Tashkil topgan valyuta tizimi ko’p jihatdan XX asrning 70-yil-laridagi jahon xo‘jaligining o‘zgargan sharoitlariga javob berardi.

Mintaqaviy valyuta tizimi (MVT)

G'arbiy Yevropa valyuta integratsiyasining chuqurlashuvi Yevropa valyu-ta tizimining (EVT) vujudga kelishiga olib keldi. Bu valyuta tizimi mintaqaviy valyuta tizimi (MVT) bo'lib, u JVTining elementlaridan biridir.

EVT 1979 yili tashkil etildi. Bu MVTning asosiy belgisi EKYU mexanizmidir. EKYU - maxsus Yevropa hisob birligi bo'lib, GFR (1/3 qismi) markasi boshchiligidagi G'arbiy Yevropaning 10 mamlakati valyutasining «savati»ga asoslangandir. SDRdan farqli ravishda EKYU bank va firmalarining xususiy operatsiyalarida qo'llaniladi. Milliy valyu-talar kvotasi - EKYUning tashkil etuvchilari - mamlakatning iqtisodiy potensiali bilan aniqlanadi va har 5 yilda qayta ko'rib chiqiladi. «Savab»ni qayta ko'rib chiqishda hamma aktiv va passivlar yangi kurs bo'yicha qayta baholanadi. Oxirgi marta EKYU 1989 yilda belgilangan bo'lib, valyutalar ulushi (% larda):

GFR markasi – 30,1

Fransiya franki – 19,0

Golland guldeni – 9,4

Belgiya franki – 7,6

Ispaniya pesetasi – 5,3

va boshqalar – 5,45 ni tashkil qilgan.

EI chegarasida yagona pul birligiga o'tilishi EKYUni asosiy valyutaga aylantiradi.

Yamayka valyuta tizimidan farqli ravishda, EVT oltindan EKYUning ta'minoti sifatida qisman foydalanadi va a'zo mamlakat-larning rasmiy oltindollar zahiralarining 20 foizini birlash-tiradi.

Valyuta kurslari rejimi valyutalarning belgilangan chegarada suzishiga asoslangan (asosiy kursdan = 2,25 %, Italiyada beqarorlik tufayli 6 %).

EVT mamlakatlararo mintaqaviy valyuta boshqarishini Yevropa valyu-ta hamkorligi fondi (EVXF) orgali amalga oshiradi. U Markaziy banklarga qisqa va o'rta muddatli kreditlarni valyuta intervensiysi bilan bog'liq to'lov balansi taqchilligini qoplash uchun beradi.

Valyuta sohasida yagona pul asosi - jahon puli mavjud emas.

Erkin konvertatsiya qilish va kapital oqib o'tishi sharoitida mamlakatlarda ichki pul muomalasi va xalqaro to'lov aylanmasi o'rta-sidagi chegaralar yo'qolmoqda:

Milliy va xalqaro pul-kredit bozorining bиргалашishi tenden-siyasi milliy pul-kredit bozorlarining o'ziga xosligi, ixtisosligini saqlagan holda rivojlanmoqda.

Hatto AQSH, GFR, Angliya, Shveysariya va boshqa bozorlarda ope-ratsiyalarни erkinlashtirgan davlatlarda ham xalqaro va milliy kapital bozorlari farq qilmoqda. Masalan, AQSHning evrodollar va milliy kapital bozorlarini olaylik. AQSHda sotuvga qo'yilgan rezident va rezident bo'limganlarning obligatsiyalari ro'yxatdan o'ti-shi lozim. Bunday holat xalqaro bozorda mavjud emas.

Bundan tashqari, xalqaro bozorda chiqarilganiga bir oy bo'limgan qimmatli qog'ozlar AQSHning investorlarga taqdim etilishi mumkin emas. Boshqa ko'pchilik davlatlarda bunday holatlar erkinroq namoyon bo'ladi (Fransiya, Belgiya, Italiya, Yaponiya va boshqalar).

Valyuta sohasining xalqaro ayirboshlash munosabatlaridagi mavqeining oshish tendensiyasi JVT rivojining hamma bosqichlarida (oltin standartdan boshlab) kuzatiladi. Milliyxo'jalik jahon xo'jalik aloqalariga qanchalik ko'p jalb etilgan bo'lsa, mahalliy qo'mitalar iqtisodiyotni tashqi nomaqbul ta'sirlardan holi etishga harakat qiladi. Bu ziddiyat har bir davlatning oltin standartdan boshlab, to hozirgi kungacha bo'lgan evolyusiyasini belgilab berdi

YUqoridagi misollardan ma'lum bo'ldiki, rivoj-lanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlarning milliy valyuta ko'rsatkichlarining barqarorlashuvidan manfaatdor. Bunda asosiy konvertirlanadigan valyutalarning milliy valyutani siqib chiqarish jarayoni kuzatiladi. Bunda rivojlangan davlatlar valyuta siyo-satining rivojlanayotgan davlatlar valyuta siyosatiga kirib borishi kuzatiladi. Bu jarayon albatta, rezidentlarga chet el valyutasida shartnomalar tuzish ruxsat etilgan davlatlardagina amalga oshadi.

Bu valyuta o'rın almashinuvining eng salbiy oqibatlaridan milliy byudjet, pul va kurs siyosatining ta'sirchanligining kamayishidir.

Ammo bu degani, rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlarning passiv obyekti, degani emas.

23.3. Valyuta kursi va unga ta'sir qiluvchi omillar, valyuta kurslarining turlari

Valyuta kursining kelib chiqishi mamlakatlar iqtisodiy faoliyatining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan xalqaro sav-doni

rivojlantirish bilan bog'liq. Valyuta kursi xalqaro savdoni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish bilan ichki iqtisodiyotga ham ta'-sir ko'rsatadi. Bunga sabab valyuta kursi holati bilan mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarining holati o'rtasidagi o'zaro bog'-liqlikdir.

Valyuta kursi, asosan, kapital va kredit harakatida, tovar va xizmatlar savdosida valyutalarni o'zaro ayirboshlash kabi jarayonlarni amalga oshiradi. Masalan, eksport qiluvchi chet el valyu-tasidan olgan tushumini o'z milliy valyutasiga aylantiradi, chunki boshqa davlatning valyutasi uning o'z davlatida qonuniy ravishda xarid qilish va to'lash vositasi sifatida amal qila olmaydi. Import qiluvchi chetdan sotib olgan tovarlarni to'lojni amalga oshirish uchun milliy valyutada olgan tushumini chet valyutasiga almash-tiradi. Jahon bozori va milliy bozor narxlarini hamda turli mamlakatlarning milliy va chel el valyutasida ifodalangan qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslaydi.

Shuningdek, firma va banklarning chet el valyutasida mavjud bo'lgan davriy qayta baholash va boshqa jarayonlar uchun. Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro pul birliklarida (SDR, EKYU) ifodalan-gan bahosidir. Tashqi jihatdan valyuta kursi jahon bozoridagi talab va taklif asosida aniqlangan bir valyutani boshqa bir valyu-taga nisbatan hisoblab chiqilgan koeffitsienti sifatida namoyon bo'ladi. Ammo valyuta kursining qiymat asosi valyutani xarid qilish qobiliyati hisoblanadi. Bu iqtisodiy tushuncha tovar ishlab chiqarishda ishtiroy etadi va tovar ishlab chiqaruvchilar bilan jahon bozori o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy sharoitlarining barcha ji-hatlarini ifodalaydi. Bir mamlakat pul birligining boshqa mam-lakat pul birligiga taqqoslanishi ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida yuzaga keladigan qiymat munosabatlariga asoslanadi. Ish-lab chiqaruvchilar va xaridorlar valyuta kursi yordamida tovar va xiz-matlarning milliy narxlarini boshqa davlatlar narxlari bilan so-lishtiradi. Bunday solishtirish natijasida ishlab chiqarishni mam-lakat ichkarisida rivojlantirish yoki chet elga investitsiya qilishni rivojlantirishga asoslangan foydalilik darajasi yuzaga keladi.

Valyuta kursi boshqa iqtisodiy tushunchalar bilan uzviy bog'-liqidir. Valyuta kursining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir etadi.

Bu omillar iqtisodiy, siyosiy, struktura, huquqiy yoki psixologik xarakterga ega bo'lib, valyuta kursiga to'g'ri yoki teskari ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Valyuta kursining dinamikasini bevosita aniqlovchi yoki xalqaro iqtisodiy ayirboshlash jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan omillar:

- xalqaro ayirboshlashda qatnashuvchi mamlakatlarning yalpi mil-liy mahsulotining (YAMM) to'lov balansi;
- pulning ichki va tashqi taklifi;
- foiz stavkalari.

Bu ko'rsatilgan omillarni sabab (uyushgan) sifatida ko'rsatish mumkin.

2. (Uyushgan) sabab-omillarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi va valyuta kursini o'rnatish mexanizmida boshqaruvchi sifatida ta'sir etuvchi omillar.

3. Iqtisodiy tizimni dinamik tizim tengligidan chiqib ketishi natijasida yuzaga keladigan omillar:

- iqtisodiy tanglikning namoyon bo'lishi;
- davlat byudjeti taqchilligi
- nazoratsiz emissiya;
- inflyatsiya;
- ichki va tashqi baholar o'rta sidagi farq.
- monopol ishlab chiqarish;
- pullarning xorijiy valyuta funksiyasini bajarishi.

a) To'liq hajmda to'lov vositasi;

b) jamg'arish vositasi;

v) Kapitalning chetga oqib ketishi;

- investitsiyani qisqartirish;

– ishlab chiqarish hajmining pasayishi.

– resurslar aylanmasida qatnashmaslik;

– iste'molchilar foydalarining pasayishi;

– valyuta birjasidagi o'yin;

– tovarlarning «yuvilishi»;

– demping baholaridan foydalanish orqali ayrim firma-larning olib borayotgan tashqi savdo faoliyatini.

4. Siyosiy omillar;

- mamlakat pul tizimiga bevosita o'zgarish kirituvchi siyosiy qarorlar;
- boshqaruv tuzilmasining barqarorlik darajasi;
- iqtisodiy tizimni boshqarishda ishonchilik darajasi;
- iqtisodiy va siyosiy struktura vakillarini bir-birini tushuna olish darajasi;
- qonunlarni bajarilish darajasi;
- iqtisodiyotda davlat ulushining miqdori;
- mamlakatdagi siyosiy kuchlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar darajasi;
- iqtisodiyotni ko'tarish bo'yicha aniq ishlangan dasturning yo'qligi;
- aholining boshqaruv strukturasiga ishonchilik darajasi;
- xususiy kapitalning himoyalanganlik darajasi.

Qonuniy me'yorlarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valyu-tasining kursini, qimmatli qog'ozlar kursini yoxud tovarlar baho-sining o'rnatilishi, qisqacha qilib aytganda, valyuta kursini o'rnatish kotirovkalash deb ataladi. Jahon amaliyotida kotirovkalashning 2 xil usuli mavjud;

- To'g'ri kotirovka. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, ya'ni milliy valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan miqdorda ko'rsatilsa, to'g'ri kotirovka deb ataladi. Masalan, 2006 yilning 30 sentyabrida 1 AQSH dollariga nisbatan o'zbek so'mining kursi 1250.00 so'mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 47.00 so'mni tashkil etdi. Bunday kotirovka ho-zirgi vaqtda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda qo'llanilib kelin-moqda.
- Egri (teskari) kotirovka. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o'rnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko'rsatiladi, masa-lan;

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{1950.00} \text{ AQSH dollar} \text{ yoki } 1 \text{ AQSH dollar} = 1950.00 \text{ so'm}$$

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{67.00} \text{ Rossiya rubli} \text{ yoki } 1 \text{ Rossiya rubli} = 67.00 \text{ so'm}$$

Buyuk Britaniyada funt sterling, Avstraliya dollari va EKYU-ning kursi teskari kotirovkalash yordamida o'rnatiladi. Agarda ikki valyuta o'rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingen kurslarida aniqlansa, bunday nisbatni «kross-kurs» deb ataladi.

Masalan: 1 AQSH dollari = 30.00 Rossiya rubli

Ammo ularni qo'llash quyidagi 2 holatda zarur va foydalidir;

– sizning talabingizdagi valyutaga ega bo'lgan sotuvchilarda sizning valyutangizga talab mavjud emas. (Masalan, so'mni Yaponiya ienasiga almashtirish kerak. Bu erda uchinchi valyuta AQSH dollari bo'lsin. Yaponiya ienasi sotayotganlar ichida sizning valyutangizni sotib olishni xohlaydiganlar yo'q).

Oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda valyuta bozorida quyidagi valyuta kurslarining ko'rinishlaridan foydalilanadi;

«Spot-kurs» bu naqd (kassa) bitimlarning kursidir. Spot-kurs bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtida o'rma-tilgan baho bo'yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifoda-langan bahosidir. Bunda valyutani valyuta bitimi tuzilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi. «Forvard» kurs–bu muddatli valyuta bitimlarining kursidir.

Forvard kursi valyutani kelajakda aniq bir kunga etkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o'zida ifoda etadi.

Forvard bitimlari, odatda, valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni bartaraf qilish maqsadida ishlataladi. Bitim tuzilayotgan paytda forvard kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo'yicha valyuta sotiladi yoki sotib olinadi. Agar shartnomma muddati tugagan kunda kurs shartnoma kursidan farq qilsa, unda bir tomon foya ko'radi ikkinchi tomon esa zarar ko'radi. Masa-lan, siz 2015+ yil 1 yanvarda 1\$=1965 so'm kursida sotib olish biti-mini tuzdingiz. Ammo 2016 yil 1-iyun kuni 1\$=1970 so'mni tashkil etdi, natijada siz har bir dollarga 5 so'm miqdorida qo'shimcha foya ko'rdingiz.

Agar 1-iyun kuni 1\$=1963 so'mni tashkil etsa, unda har bir dollaridan 2 so'mdan zarar ko'rasiz.

Muddatli bitimlar bo'yicha valyuta kurslari (report) ustama yoki dastxat metodi bo'yicha kotirovka qilinadi va «autrayt» kurslari, deb ataladi.

Forward kurs + Spot kurs + Ustama Forward kurs + Spot kurs-Diskont.

Banklar valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyutani sotish va sotib olish kursini o'rnatadi. Bu kurslar sotuvchining va xaridorning kursi deb ataladi.

Sotuvchi kursi – bankning valyutani sotish kursi.

Xaridor kursi – bankning valyutani sotib olish kursi.

Bu kurslar o'rtasidagi farq marja deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va ma'lum darajada foyda olishga sarf-lanadi.

Valyutaningengmuhim xarakteristikasi uning konvertirlanganligidir.

Konvertirlanganlik darajasiga ko'ra valyuta kursi 3 ga bo'linadi.

- erkin «suzib» yuruvchi;
- cheklangan darajada «suzib» yuruvchi;
- qayd etilgan valyuta kurslari.

Valyuta kursi tovar bahosi kabi shu guruhlarga bo'linadi.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi ma'lum valyutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dolları, Yaponiya ienasi, Angliya funt sterlingi. Shu bois, bu valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o'zga-rishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o'zgarishiga bog'liq. Misol uchun «Uchinchi dunyo»ning ko'pchilik mamlakatlari o'z valyutalarini AQSH dollariga, Yevropa mamlakat-larining EUROga va boshqa xorijiy valyutalarga bog'laydilar. Sobiq sotsialistik mamlakatlar valyuta kurslarini valyuta savatiga nisbatan hisoblaydilar. EKYU ham xuddi shunday tartibda hisobla-nadi. Cheklangan darajada "suzib" yuruvchi valyuta kurslari kiri-tilgan mamlakatlar o'z valyutalarining tebranish chegarasini o'zları hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi – bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan ba-hosi bo'lib, unga valyuta bozorlaridagi talab va taklifning o'zga-rishi ta'sir qilmaydi. Hozirgi vaqtدا qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiy tashqi bozorga etarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab

chiqarishini kuchli xorijiy raqobatchilaridan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo'llaniladi.

Quyidagi tayanch so'zlarni ta'riflang.

- | | |
|-------------------------------|-----------------------------|
| 1. Valyuta tizimi | 4. Xaridor kursi |
| 2. Xalqaro iqtisodiy aloqalar | 5. Mintaqaviy valyuta |
| 3. Milliy valyuta | 6. Monopol ishlab chiqarish |

Mavzuga oid savollar

1. Xalqaro iqtisodiy aloqalar – valyuta munosabatlarining asosi sifatida
2. Valyuta tizimi va uning asosiy elementlari
3. Valyuta kursi va unga ta'sir qiluvchi omillar, valyuta kurslarining turlari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so'zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so'zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. – 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

24-BOB. XALQARO HISOB-KITOB OPERATSIYALARI

24.1. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari nafaqat mamlakat ichkarisida, balki boshqa mamlakatlar bilan ham turli xil operatsiyalarni olib boradilar. Tijorat banklarining boshqa mamlakatlar bilan olib boruvchi operatsiyalari ularning xalqaro operasiyalari deb yuritiladi. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari o'z ichiga xalqaro savdoda ishtirok kiluvchilar o'rtasidagi muno-sabatlarni, ssuda kapitali bozorida investitsiya faoliyatini yurituvchi, turizm, xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, valyutani ayirboshlashi chek, veksel, inkassatsiya uchun bank akseptlarini qabul qilish bilan shug'ullanuvchi mijozlar tomonidan talab qilinadigan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro operatsiyalardan bankka tushadigan daromadning eng asosiy qismini kredit berishdan tushadigan daromadlar tashkil qiladi. Xalqaro savdoni bank tomonidan kreditlash tovar va tovar hujjatlarini garovga olish asosida kredit berish, veksel bo'yicha va aksept kreditlarni, bank ssudalarini berish shaklida amalga oshiriladi. Tashqi savdoni kreditlashning yangi shakllariga lizing, faktoring va forfeitirlash kabilarni kiritish mumkin. O'rta va uzoq muddatli xalqaro bank kreditlarievrokredit shaklida ham beriladi.

Banklar xalqaro operatsiyalarining yana bir turi bu banklarning valyuta operatsiyalari hisoblanadi. Bankning bir valyutani boshqa valyutaga almashtirish bilan bog'liq xalqaro operatsiyalari valyuta operatsiyalari deyiladi. Ularni amalga oshirish zaruriyati mavjudligining asosiy sababi xalqaro savdo, xalqaro kredit va xizmatlar bo'yicha hisoblashishlarda yagona to'lov vositasiga ega bo'lish zarurligi hisoblanadi.

Turli xil valyuta operatsiyalari yig'indisi jahon ssuda kapitali bozorining asosiy qismlaridan biri bo'lgan valyuta bozorini hosil qiladi. Valyuta bozorida xorijiy valyutaga talab va taklif mujassamlashtiriladi. Taklif sotilgan tovar va xizmatlar uchun daromad olgan eksport qiluvchidan, talab esa sotib olingan tovar va xizmatlarni to'lash uchun xorijiy valyutaga muhtoj import qiluvchilardan kelib chiqadi. Valyuta operatsiyalari asosini tovarlar va xizmatlar, kapital va kreditlarning xalqaro harakati tashkil etadi.

Valyuta bozorida operatsiyalarini alohida olingen banklar, kompaniyalar va jismoniy shaxslar amalga oshiradilar. Birja ichida va undan tashqaridagi valyuta bozorlaribir-biridan farq qiladi. Valyuta operatsiyalarining ko‘pchiligi birjadan tashqaridagi bozorlarda tijorat banklari orqali amalga oshiriladi.

Banklar bir-biri bilan (bevosita yoki brokerlar orqali), mijozlari bilan valyuta operatsiyalarini xalqaro banklararo valyuta bozorida va birjalarda olib boradi. Valyuta shartnomalarining asosiy qismi xalqaro banklararo valyuta bozorida tijorat banklari o‘rtasida imzolanadi.

Valyuta chekllovleri yo‘q yoki sezilarli bo‘lмаган davlatlarda (AQSH, Yaponiya, GFR, Buyuk Britaniya, Gonkong, BAA va boshq) valyuta muomalalarini ixtiyoriy bank amalga oshirishi mumkin. Milliy valyuta konvertirlanmagan davlatlarda valyuta operatsiyalarini faqatgina davlat ruxsat bergen banklar amalga oshiradi.

Bankning valyuta bozoridagi faolligi bankning yirikligiga, uning obro‘siga, xorijiy bo‘limlari va filiallari tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga, EHM bilan ta’minlanganligiga, telefon va telegraf aloqalarining rivojlanganligiga bog‘liq. Valyuta operatsiyalarining asosiy qismi yirik tijorat banklariga to‘g‘ri keladi. Ular nafaqat valyutani sotadi va sotib oladi, xalqaro hisob-kitoblarni bajaradi, balki xorijiy valyuta zahiralarini saq-laydi va valyuta kurslarini aniqlaydi. Boshqa banklar ularga kotirovka yuzasidan murojaat qiladi va o‘z mijozlari uchun valyutani sotib oladi.

Ko‘pchilik mamlakatlarda (Yaponiya, GFR, Fransiya, Italiya, Avstraliya, Niderlandiya) yaxshi taraqqiy qilgan maxsus valyuta birjalari mavjud. XX asrning 70-yillaridan boshlab, fond va tovar birjalarida valyuta bilan savdo qilish tarqalgan.

Banklar tomonidan valyuta operatsiyalari bankning o‘z hisobidan yoki mijozlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Valyuta operatsiyalari xorijiy valyutada ifodalangan naqdsiz to‘lov vositalari: bank depozitlari, cheklar veksellar, o‘tkazmalar hisobiga amalga oshiriladi. Naqd xorijiy valyutasi hisobiga amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmi ancha kichikdir.

24.2. Xalqaro hisob-kitob shakllari

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida turli hisob shakllari qo‘llanilishi mumkin. Bular qatoriga bank buyrug‘iga

asosan pul o'tkazish, bank cheki, bank vekseli, akkreditiv, inkasso shakllari va boshqalarni kiritish mumkin.

O'tkazma – bu bankni o'z mijozining talabiga asosan, uning mablag'i hisobidan to'lanishi zarur bo'lgan mablag'ni pochta yoki telegraf yo'li bilan o'tkazib qo'yish to'g'risidagi boshqa mamlakatdagi bank-korrespondentga bergen buyrug'i hisoblanadi. Valyutani olishning eng tez va ishonchli vositasi telegraf o'tkazmasidir. Bank-korrespondentlar tomonidan maxsus kodning qo'llanishi valyuta mablag'lari bo'yicha zarar keltirish va o'z mijozlariga mablag'larni o'tkazishda bank tomonidan xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi. O'tkazmada bank ikki operatsiyani bir vaqtning o'zida bajaradi. Milliy valyuta hisobiga mijoziga xorijiy valyutani sotadi va xorijiy valyutani chet elga o'tkazib beradi.

Bank cheki – bu bankning xorijiy bank-korrespondentga ma'lum miqdordagi pulni chek egasiga, uning shu bankda mavjud bo'lgan korrespondentlik varaqasidan to'lash to'g'risidagi yozma buyrug'i idir.

Bank vekseli – bu o'tkazma veksel (tratta) bo'lib, bank tomonidan xorijiy bank korrespondentiga to'lash uchun beriladi.

Xalqaro hisob-kitob deganda biz talablar va majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni muvofiqlashtirish tizimi tushunamiz. Xalqaro hisob-kitoblar tijorat bank-korrespondentlari orqali o'tkazma, cheklar, veksellar, o'zaro talab va majburiyatlarni tenglashtirib voz kechish yo'li bilan naqd valyutasiz amalga oshiriladi.

Xalqaro hisob-kitoblar shakllarining ba'zilari o'tkazilish yo'llari bilan ichki hisob-kitoblarga o'xshash bo'lsa-da, ammo ular-ning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin.

Birinchidan, odatda, ular hujjat tarzida, ya'ni moliya (chek, veksel) va tijorat (konosament, nakladnoy) hujjatlari yordamida amalga oshadi.

Ikkinchidan, xalqaro hisob-kitoblar unifikatsiyalashgan (bir shaklga keltirilgan). Bunday hisob-kitoblarni amalga oshirishda aksariyat mamlakatlarning banklari, shu jumladan, MDH veksel va chek konvensiyalariga amal qilishadi. Jenevada 1930 va 1931 yillarda kabul qilingan va Parij xalqaro savdo palatasi e'lon qilgan «Hujjatli akkreditivlar bo'yicha unifikatsiyalashgan qoida va an'analar» va «Inkasso bo'yicha unifikatsiyalashgan qoidalar»ga

muvofig' xalqaro miqyosda hisob-kitob operatsiyalari olib boriladi. Bu hujjatlarga tashqi savdo aloqalarida bankka akkreditiv to'g'risida buyruq berilganda va inkasso topshiriqnomalari berilganda murojaat etish lozim bo'ladi.

Hujjatli akkreditiv va hujjatli inkasso klassik va eng keng tarqalgan hujjatli hisob-kitob shakli bo'lib hujjatli akkreditiv va hujjatli inkasso hisoblanadi.

bu bank (bank-emitent) majburiyati bo'lib, mol sotib oluvchi (import qiluvchi) ko'rsatmasiga binoan mol sotuvchi (eksport qiluvchi) varag'iga mablag'ni o'tkazish yoki trattani tegishli summada (xizmat yoki tovar) akseptlashni sotuvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatga muvofig' amalg'a oshirishni ifodalaydi. Akkreditiv shaklidagi hisob-kitoblarda bir qancha banklar ishtirok etishi mumkin: akkreditivni ochuvchi bank-emitent, sotuvchiga akkreditiv ochilgani to'g'risida xabar beruvchi bank, akkreditivni to'lovchi yoki trattani akseptlovchi bank. Shu bilan birgalikda bank emitentda boshqa banklar o'rnila bir bankning o'zi ham ishtirok etishi mumkin.

Akkreditiv operatsiyalari to'rt asosiy bosqichni bosib o'tadi.

Birinchi bosqich. Import qiluvchi tovarning jo'natishga tayyorligi to'g'risida xabar olgandan keyin o'z bankiga (bank-emitent) eksport bankida ma'lum summa va muddatga akkreditiv ochish topshirig'ini beradi. Akkreditiv ochish topshirig'i bilan birga akkreditiv berilishi uchun talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Ikkinci bosqich. Bank-emitent tegishli bankda akkreditiv ochiladi va eksport qiluvchiga bu haqda xabar qilinadi, zarur bo'lsa akkreditiv ochilganligi tasdiqlanadi.

Uchinchi bosqich. Tovarni jo'natgan eksport qiluvchi bankka talab etilgan hujjatlarni taqdim etadi va tovar uchun tegishli to'lovni oladi (odatda u eksport qiluvchining hisobvaraqsiga o'tkaziladi).

To'rtinchi bosqich. Eksport qiluvchi banki tovar hujjatlarini bank-emitentga yuboradi, u, o'z navbatida, bu hujjatlarni import qiluvchiga taqdim etadi va akkreditiv summasini qoplaydi (import qiluvchi bu summani to'lab beradi).

Majburiyat turiga ko'ra bank akkreditivi «chaqirib olinadigan» va «chaqirib olinmaydigan» bo'ladi. «Chaqirib olinadigan» akkreditiv muddatdan ilgari import qiluvchi yoki bank-emitent ko'r-satmasiga

binoan bekor qilishi mumkin. Bunday akkreditiv eksport qiluvchi manfaatlariiga javob bermaydi va amaliyotda kam uchraydi. «Chaqirilmaydigan» akkreditiv eksport qiluvchi ruxsatisiz bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas. U bank-emitentning eksport qiluvchiga to'lovnini amalga oshirish yoki trattani akseptlashning qat'iy majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Eksport qiluvchi uchun «chaqirilmaydigan» akkreditiv qo'llanilishi jihatdan afzal hisoblanadi. Agar bank-emitent akkreditivni ochuvchi bankka valyuta qoplamasini jo'natsa, akkreditiv ta'minlangan, aks holda ta'minlanmagan deyiladi.

Hujjalri inkasso operatsiyasida eksport qiluvchi o'z bankiga inkasso topshiriqnomasini beradi va tashqi savdo shartnomasida ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etish bilan import qiluvchidan ma'lum valyuta miqdorini olish lozimligini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, eksport qiluvchi o'z banki orqali import qiluvchi bankiga inkassatsiya uchun hujjatlarni jo'natadi. Inkassatsiya operasiyasi to'rt asosiy bosqichdan o'tadi.

Birinchi bosqich. Eksport qiluvchi o'z bankiga inkasso topshiriqnomasi va unga ilova qilingan hujjatlarni beradi.

Ikkinci bosqich. Eksport qiluvchi banki import qiluvchi mamlakatdagi bank-korrespondentga inkasso topshiriqnomasi va hujjatlarni yuboradi.

Uchinchi bosqich. Bank-korrespondent import qiluvchiga hujjatlarni taqdim etadi va inkasso topshiriqnomasida ko'rsatilgan summani oladi yoki trattani akseptlaydi.

To'rtinchchi bosqich. Olingan to'lov miqdori import qiluvchi bankidan eksport qiluvchi bankiga, undan esa eksport qiluvchi schyotiga o'tkaziladi.

Valyuta operatsiyalarini valyutalar o'rtasidagi nisbatni aniqlamasdan va ularni almashmasdan o'tkazish mumkin emas. Bu nisbatlar valyuta «kotirovka»lari yordamida o'rnatiladi. **Valyuta kotirovkasi** deganda almashtirish uchun taqdim etilgan valyutalar kursini o'rnatish va ular orasidagi nisbatni o'rnatish tushuniladi.

Valyuta kotirovkasi rasmiy va bozor kotirovkasiga bo'linadi. **Rasmiy va'yuta kotirovkasini** davlat amalga oshiradi (asosan Markaziy bank). Rasmiy valyuta kursidan davlat valyuta

operatsiyalarida, bojxona ishlarida, to'lov balansini tuzishda foydalaniadi.

Valyuta kursini aniqlash usullari valyuta tizimlarining xususiyatlari ko'ra turli mamlakatlarda turlichadir. Qattiq valyuta cheklanishlari mavjud davlatlarda valyuta kursi ikki usulda o'rnatilishi mumkin. Birinchisi - sof boshqaruv usuli. Hukumat yoki Markaziy bank talab va taklifdan qat'iy nazar milliy valyuta kursini belgilaydi. Bunda valyuta kursi boshqa valyuta yoki bir qancha valyutalar(valyuta savati)ga nisbatan belgilanadi. Shu bilan birga, ko'pchilik Markaziy banklar turli operatsiyalarda turlicha valyuta kurs-larini belgilashadi.

Ikkinci usul Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Ruminiya kabi davlatlarda ko'proq qo'llaniladi. Bu usulda Markaziy bank rasmiy valyuta kursini birja kursi darajasida belgilaydi va birja kursining rasmiy valyuta kursiga nisbatan o'zgarish chegarasini belgilab beradi. Valyuta kursining shu o'zgarish chegarasini belgilab berish bank ishida valyuta koridori deb ham yuritiladi. Amaliyotda valyuta birja kursining rasmiy kursga nisbatan o'zgarish xavfi kuzatilsa, Markaziy bank valyuta intervensiyanini amalga oshiradi, ya'ni xorijiy valyutani sotadi yoki sotib oladi.

Valyuta cheklavlari yo'q yoki sezilmas darajada bo'lgan davlatlarda Markaziy bank talab va taklif (milliy valyutaning erkin suzib yurishida) hamda valyuta intervensiysi (boshqariluvchi suzishda)dan kelib chiqqan holda valyuta kursini belgilaydi. Valyuta birjalari faoliyat ko'rsatuvchi davlatlarda valyuta kursi qariyb har kuni birja makleri va Markaziy bank tomonidan valyutani sotish va sotib olishga berilgan arizalar, Markaziy bank intervensiysi siyosati bo'yicha faoliyatini inobatga olgan holda o'rnatiladi.

Valyuta siyosatini liberallashtirish 2017 yilning ikkinchi yarim yilligida pul-kredit siyosatining o'zgarishini aniqlab bergen muhim makroiqtisodiy omillardan biri bo'ldi.

Qabul qilingan choralar 2017 yilning sentabr-dekabr oylarida banklarning xorijiy valyuta oldi-sotdi operatsiyalari o'rtacha oylik hajmini 2017 yilning birinchi yarim yilligiga nisbatan barqaror oshishini ta'minladi: yuridik shaxslarning sotib olishi 60 foiz, sotishi esa 4 barobardan ortiq bo'ldi. Aholi o'zining valyuta mablag'larini

tijorat banklarining ayriboshlash punktlarida bozor kursi bo'yicha sotish imkoniga ega bo'ldi.

Sentabr oyidagi devalvatsiyadan so'ng almashuv kursi barqaror darajada saqlanib qoldi va 1 AQSh dollari 8049-8138 so'm, bir foiz oralig'ida o'zgarib turdi.

2017 yil natijalari bo'yicha sof oltin-valyuta zahiralari hajmi 26,6 mlrd dollarni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 1,4 mlrd dollar oshdi.

Valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishining joriy etilishi bank cassalariga naqd pul tushumining ko'payishiga sharoit yaratdi. Xususan, agar 2017 yilning birinchi yarim yilligida bank cassalari orqali naqd pul aylanmasi (900 mlrd so'm hajmidagi naqd pul emissiya qilingan) oyiga o'rtacha 4,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi yarim yillikda mazkur ko'rsatkich qariyb 2 baravar (9,4 trln so'mgacha), shu jumladan 2017 yilning dekabrida – 2,3 marta (11 trln so'mgacha) oshib, naqd pul tushumi va chiqimlari o'rtaсидagi hajm muvozanatga keldi.

Pul-kredit sohasida olib borilayotgan islohotlar va qabul qilingan choralar tijorat banklari faoliyatida ham aks etdi. Xususan, banklar aktivlari va kredit qo'yilmalari 2 marta oshib, mos ravishda 166,6 trln so'm va 110,6 trln so'mni tashkil etdi. Tijorat banklarining jami depozit hajmi 2017 yil natijalari bo'yicha 58,7 trln so'mga etdi, bu 2016 yilga nisbatan 61 foiz ko'pdir.

Valyuta kursini shakllantirishning bozor mexanizmlariga o'tish sharoitida banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yirik banklarning ustav kapitaliga 670 mln AQSh dollari kiritildi. Natijada 2017 yil yakuniga kelib, bank tizimining jami kapitali 1,6 marta oshib, 23,7 trln so'mni tashkil etdi va bu banklar tomonidan kapital va likvidlikning etarliigi ko'rsatkichlari bajarilishini ta'mnladi²².

Bozor kotirovkasi talab va taklif asosida nobirjaviy valyuta bozorida amalga oshiriladi.

Qattiq valyuta chekllovlar mavjud mamlakatlarda bozor kotirovkasi deyarli mavjud emas. Hamma operatsiyalar rasmiy kurs

²² [http:// www.trustbank.uz](http://www.trustbank.uz) -Pul-kredit va bank sohasida 2017 yilda amalga oshirilgan ishlar va 2018 yilga mo'ljallangan vazifalar to'g'risida qisqacha axborot

bo'yicha amalga oshadi. Valyuta cheklovlar qisman mavjud (sezilarsiz) yoki yo'q mamlakatlarda bozor kursini bir-biri bilan doimiy mulqotda bo'lgan yirik tijorat banklari o'rnatadi. Bu banklarni **market-meykerlari** deb ataydilar. Boshqa banklar kotirovka yuzasidan ularga murojaat qilishiadi. Banklararo valyuta kotirovkalar market-meykerlar tomonidan har bir valyuta bo'yicha mavjud bo'lgan yoki kutilayotgan talab va taklifni taqqoslash (bu operatsiya amaliyotda fiksing deb ataladi) asosida belgilanadi.

Valyuta birjasi yo'q davlatlarda valyuta bozori qatnashchilari banklararo kurslardan foydalanadi. Banklararo bozordagi o'rtacha kurs bank mijozlari uchun valyuta kursini o'rnatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Valyuta birjalari mavjud davlatlarda banklararo kotirovkalar banklarning to'lov aylanishi, to'lovga layoqatliligini hisobgaolganholda, rasmiy birja kotirovkalar atrofida o'zgarib turishi mumkin. Bunday banklarda rasmiy birja kotirovkasi ularning mijozlari uchun valyuta kurslarining asosi bo'lib xizmat qiladi. Erkin valyuta bozorida uning har bir elementlari (birjadagi va birjadan tashqaridagi) bir-biriga ta'sir etadi va ulardagagi valyuta kotirovkalar o'zaro bog'liq bo'ladi.

Valyuta bozorida valyutani kotirovka qilishning ikki usuli mavjud: to'g'ri va egri. Ko'pchilik davlatlarda to'g'ri kurs qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati shundaki, xorijiy valyuta birligining kursi to'g'ridan-to'g'ri milliy valyutada ifodalanadi. Egri kotirovkada milliy valyuta birligi ma'lum miqdordagi xorijiy valyutada ifodalanadi. Bu usul (egri katerovka) Buyuk Britaniyada, 1987 yildan esa qisman AQSHda qo'llaniladi. Banklararo valyuta bozorlarida valyuta kursining kotirovkasi ko'proq AQSH dollariga nisbatan belgilanadi. Bu hol dollarning xalqaro to'lovlarda ko'p qo'llanilishi va zahira vositasi sifatida saqlanishi bilan bog'liq. Savdosanoat sohasida faoliyat olib boruvchi mijozlar uchun valyuta kotirovkalar amalga oshirish kross-kursga asoslanadi.

Kross-kursda ikki valyutaning kursga asoslangan nisbati uchinchi valyutaga nisbatan aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston Markaziy banki so'mning yapon ieniga nisbatan kursini aniqlamoqchi deylik. Bu holda ienaning so'mga nisbatan kursi dollarga asoslangan holda aniqlanadi. Aytaylik,

1950 so'm -----1 dollar

1 dollar ----- 115 yapon ieni desak,
u holda kross kursda 1 yapon ien necha so'm turishini

1 yapon ien ----- 1250 so'm x 1 x 1 / 1 x 115 = 10,87 so'm,
yoki 10 yapon ieni 100 so'm 87 tiyinga teng.

XX asrning 70-yillari oxirlaridan boshlab, G'arbiy Yevropada valyutalarni sotish va sotib olishda Amerika dollaridan ko'ra, Germaniya Federativ Respublikasining markasi ko'p qo'llanila boshladi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarda Germaniya markasining obro'sining oshishiga olib keldi.

Ko'pgina valyutasi konvertatsiya qilinmaydigan, valyutaviy cheklanishlar mavjud bo'lgan davlatlarda rasmiy valyuta bozori bilan birga norasmiy valyuta bozori, ya'ni qora bozor ham mavjud. Hamma banklar ham bozor(oldin aytib o'tganimizdek market-meykerda)da aktiv valyuta kotirovkasini olib bora olmasligi mumkin. Buning uchun banklar ma'lum miqdorda o'zlarining valyuta zahiralariga ega bo'lishlari lozim. Banklar valyuta bitimlarining salmog'i ular faoliyatining salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, jahonda yirik banklardan sanalmish Doyche Bank, Barklays Benk kabi banklarning valyuta bitimlarining summasi 6-10 mln. dollarni tashkil qilsa, ba'zi bir kichik banklar valyuta bitimining eng yuqori hajmi 3-5 mln. dollarni tashkil qilishi mumkin. Marja hajmi turli omillarga bog'liqdir. Odadta, beqaror kon'nyuktura davrida, valyuta kurslaridagi farqdan zarar ko'rishi ehtimoli yuqori davrlarda marja oshadi. Marja miqdoriga shartnoma hajmi ham ta'sir etib, u kichik bo'lsa, marja yuqori bo'ladi. Rasmiy axborotnomalarda ikkala kurs, ulardan biri yoki o'rtacha kurs ko'rsatishi mumkin.

O'rtacha kurs - sotuvchi va sotib oluvchi kurslarining o'rta arifmetigi. **Sotuvchi o'rtacha kursi**- sotuvchi va o'rtacha kursning o'rta arifmetigi. **Xaridor o'rtacha kursi**- xaridor va o'rtacha kursning o'rta arifmetigi.

Xalqaro to'lov aylanmasida xorijiy valyuta naqd emas, balki naqdsiz holatda amal qiladi. Tabiiyki, turli xil to'lov vositalari kurslari turlicha, chunki ularda ishonchlik va valyuta tavakkalchiligi darajalari turlichadir. Telegraf o'tkazmasi kursi eng yuqoridir, chunki unda xorijiy valyuta shu zahoti yoki kelasi kuni to'lanadi. Bu valyuta tavakkalchiligini deyarli chetlab o'tish imkonini beradi. Odadta,

ularning kurslari rasmiy byulleten va kotirovka jadvallarida e'lon qilinadi. Boshqa to'lov vositalari kursi u asosida aniqlanadi.

Valyuta bozorida turli xildagi shartnomalar amal qiladi. Ularning ko'pchiligi spot shartlari asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, bitimni imzolash va bajarish vaqtлari qariyb mos keladi. Bitimning bunday turida valyuta sotuvchidan sotib oluvchiga shartnoma imzolanishi bilanoq etkaziladi (ko'pi bilan ikki ish kuni ichida). Spot shartnomalariga jami valyuta shartnomalarining 90 % to'g'ri keladi.

Ikkinci valyuta shartnomasi turi-muddatli shartnoma. Bunday shartnomalarning ikki xususiyati bor. Birinchidan, shartnoma imzolanishi va bajarilishi orasida ma'lum vaqt intervali bor: bir haftadan olti-o'n ikki oygacha.

Ikkinchidan, valyuta kursi shartnoma imzolangan davrda belgilangani bo'yicha qabul qilinadi. Valyuta kurslarining o'zgarishlari unga ta'sir etmaydi. Muddatli shartnomalar valyuta tavakkalchiliklaridan sug'urtalanish yoki valyuta spekulyasiyasi maqsadida amalga oshiriladi. Eksport qiluvchi o'zini xorijiy valyuta kursi-ning tushishidan sug'urtalash maqsadida kelgusi valyuta daromadini muddatli kurs bo'yicha sotishi mumkin. Import qiluvchi xorijiy valyuta kursi oshuvidan o'zini sug'urtalash maqsadida kelgusi valyuta tushumini ma'lum muddatga muddatli kurs bo'yicha sotishi mumkin. Rivojlangan davlatlar valyuta bozorlarida valyuta kursining o'zgarishiga qarab ishlovchi valyutachilar faoliyati to'g'risida qisqacha to'xtalish mumkin. Bu valyutachilarning asosiy maqsadi valyuta bozorlarida valyuta kurslarining o'zgarishi asosida katta foyda olishdan iborat. Valyuta kursining oshishi yoki pasayishiga qarab faoliyat ko'rsatuvchilarni xalqaro amaliyotda «ayiqlar» va «buqalar» deb atashadi. Ular faoliyatining mohiyati quyidagilardan iborat. Agar amaliyotda valyuta kursi tushishi kutilsa, valyuta kursi pasayishiga o'ynovchilar (ularni xalqaro valyuta bozorlarida «ayiqlar» deb atashadi) valyutani shartnoma tuzilgan davr (muddatli kurs) kursi bilan sotish to'g'risida muddatli shartnoma tuzadilar. Agar bu muddatda valyuta kursi tushsa, «ayiqlar» valyutani bozordan pasaygan kursda sotib olib, uni muddatli kurs, ya'ni oldingi shartnomada ko'rsatilgan yuqori kurs bo'yicha sotadilar va kurslar o'rtaсидаги farq miqdorida foyda oladilar.

Valyuta kursining ko'tarilishiga o'ynovchilar («buqalar») esa valyuta kursi oshishi kutilganda, valyutani keyinchalik shartnoma tuzilgan vaqtligi kurs bo'yicha sotib olishga kelishilgan muddatli shartnoma tuzadilar. Kurs oshganda esa valyutani muddatli shartnomada belgilangan (oldingi) narx bo'yicha sotib oladilar va oshgan - yuqori narxda sotib foyda ko'radilar.

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan muddatli operatsiyalar **forvard** operatsiyalari deb yuritiladi.

Forvardoperatsiyalaridagi valyutakursi spot shartnomasi bo'yicha kursdan farqlanadi. U mukofot va chegirma usuli bilan o'rnatiladi. Mukofot forvard kursi spot kursidan ko'pligini bildiradi. Forvard marjasni, ya'ni spot va forvard orasidagi farq jahon kapitali bozoridagi depozitlarning fond stavkalariga bog'liq bo'ladi. Depozit foizi kam davlatlarda valyuta kursi mukofot bilan, depozit foizi katta davlatlarda valyuta kursi chegirma bilan belgilanadi.

Kassa va forward operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi valyuta shartnomalaridan biri **svop** shartnomasıdir. Bu shartnoma ikki valyuta savdo-sotig'ini darhol amalga oshirish sharti (spot) va shu bilan birga unga qarshi muddatli shartnomani tuzishni anglatadi. Masalan, dollarni markaga spot shartida sotish va shu zahoti uni sotib olish bo'yicha muddatli shartnomani tuzish yoki unga teskari operatsiya dollarni markaga sotib olish spot shartnomasi va uni sotish bo'yicha muddatli shartnomani tuzish kiradi.

Forward shartnomasi turlaridan biri opsiyon shartnomasıdir. Opsiyon shartnomasining o'ziga xos xususiyati bu sotib oluvchining valyutani emas, balki uni sotib olish huquqini sotib olishidir. Bunda sotuvchi ma'lum valyutani ma'lum miqdorda sotish yoki sotib olish majburiyatini oladi. Sotib oluvchi esa shu miqdordagi valyutani sotish yoki sotib olish huquqidan foydalanmaslik huquqiga ham ega. U bu uchun sotuvchiga opsiyon mukofotini to'laydi. Agar sotib oluvchi o'z huquqidan foydalanmasa, u mukofot summasida zarar ko'radi.

«Spot», forward va opsiyon shartnomalari banklararo bozorlarda va birjalarda amalga oshiriladi. Birjada amalga oshiriladigan ixtisoslashgan shartnomalarga **fyuchers** shartnomalari kiradi. Fyuchers operatsiyalari fyuchers shartnomalarini sotish va sotib olish bo'yicha tuziladi. Fyuchers operatsiyasi valyutani sotib olish yoki unga qarama-qarshi operatsiya bilan tugaydi. Fyuchers operatsiya-

sining natijasi bu yutqizgan tomonning yutgan tamonga shartnoma tuzilgan va amalga oshirilgan vaqt orasidagi kurs farqini to'la-shidir. Bu farqni birjaning hisob-kitob (kliring) palatasi to'lab beradi. Fyuchers shartnomalarini imzolanishi zahoti birjaning hisoblash markazida ro'yxatdan o'tadi.

Fyuchers va boshqa muddatli shartnomalarining maqsadi valyuta operatsiyalarini xedjirlash yoki chayqovchilik asosida foyda olishdir. Banklar o'z mijozlarining valyuta tavakkalchiliklarini o'z zim-masiga olsalar (forward operatsiya o'tkazganda), unga teskari fyuchers bitimi yordamida bu tavakkalchiliklarni kamaytiradi (yo'qotadilar). Fyuchers bitimi tugaganda esa ular real tovarlar bitimidan ko'rgan zararni, valyuta kursi orasidagi farq orqali qoplash im-koniyatiga ega bo'ladilar.

Valyuta kursi orasidagi farq tufayli foyda olish maqsadida banklar valyuta arbitrajini o'tkazishadi. Bu valyutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim qilib, valyuta kurs-larifarqi yordamida foyda olish maqsadida o'tkazishni ifodalaydi. Arbitraj ikki xil, ya'ni joylashuvga ko'ra va vaqtli bo'ladi. Joylashuvga ko'ra arbitraj banklarning turli valyuta bozorlaridagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valyuta tavakkalchiligi bilan bog'liq emas, chunki valyuta savdosi bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Masalan, bank vakili Gongkokda valyutani sotib oladi (sotadi) va shu vaqtning o'zida u o'zining Nyu-Yorkdagagi korrespondenti orqali shu valyutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtni arbitraj vaqt o'tishi bilan valyuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valyuta arbitraji spot va forward sharoitida amalga oshirilishi mumkin va bu turdaggi operatsiyalarda valyuta tavakkalchiligi mavjud bo'ladi.

Bank valyuta operatsiyalarini bajarganda unga o'z valyuta resurslarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valyuta-lar bo'yicha majburiyat va talablari orasidagi nisbat o'zgaradi. Bankning xorijiy valyutalarini sotish va sotib olish jarayonida valyutalar bo'yicha talab va majburiyatlar nisbatining holati bank-larning valyuta holati deyiladi. Valyuta bo'yicha majburiyatlar va talablari teng bo'lgan holat yopiq, teng bo'lmagan ochiq valyuta holati deyiladi.

Ochiq valyuta holatida – bank valyuta bo'yicha qarshi bitimni amalga oshirganda valyuta kursining o'zgarishi natijasida oldingi sotgan valyutasiga nisbatan kam valyuta olishi, ya'ni zarar ko'rishi

mumkin. Shuning uchun bu holatda valyuta kursining o'zgarishi valyu-ta tavakkalchiligining vujudga kelishiga olib keladi.

Ochiq valyuta holati uzoq yoki qisqa bo'lishi mumkin.

Qisqa valyuta holatida sotilgan valyuta bo'yicha majburiyat-lar, sotib olingan valyuta bo'yicha talablardan oshadi, ya'ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'ladi. **Uzoq holatda** esa aksincha xorijiy valyutani sotib olish uni sotishdan yuqori bo'ladi, ya'ni sotib olingan valyuta bo'yicha talablar uni sotish majburiyat-laridan ko'p bo'ladi. Bu holatlarni quyidagi misollar bilan yaqqol-roq tushintirish mumkin.

Quyidagi tayanch so'zlarni ta'riflang.

- | | |
|------------|-----------------------|
| 1.Tijorat | 4. Bank cheki |
| 2.Valyuta | 5. Bank vekseli |
| 3.O'tkazma | 6.Valyuta katirovkasi |

Mavzuga oid savollar

1. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari
2. Xalqaro hisob-kitob shakllari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so'zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so'zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.
5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

25-BOB. XALQARO KREDIT

25.1. Ssuda kapitali jahon bozori (SKJB) haqida tushuncha va uning evolyusiyasi

Ssuda kapitalining jahon bozori (SKJB)ning mohiyatini tushunish uchun uni keng va tor ma'noda ko'rib chiqamiz. Tor ma'noda SKJB deganda – xalqaro kredit operatsiyalari ro'y beradigan bozor yoki ssuda kapitalining xalqaro bozori tushuniladi. U o'z ichiga chet el kreditlari va zayomlar bozorini oladi. Bu bozor,o'z navbatida, ssuda kapitali (SK) milliy bozoridagi xalqaro operatsiyalarini keltirib chiqaradi. Evrovalyuta bozori yoki evrobozor bu chet el valyutasida mamlakat tashqarisida naqd pulsiz depozit – ssuda operatsiyalari ro'y beradigan bozordir. Evrovalyuta operatsiyalari SKJ bozorini deyarli qamrab olganligi tufayli ba'zi adabiyotlarda SKJB sinonimi sifatida evrobozor tushunchasi ham ishlataladi. (Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda SKJB dagi 70-90% operatsiyalar evrovalyuta operatsiyalariga to'g'ri keladi). Keng ma'noda SKJB deganda ssuda kapitalining jahon miqyosida taqsimlanishi va kayta taqsimlanishining iqtisodiy mexanizmi tushuniladi. Ya'ni bu jarayon ssuda kapitali milliy bozorini va evrobozorni muvofiqlashtirishga asos bo'ladi.

SKJBevolyusiyasi jahon iqtisodiyotining baynalminalla-shuv jarayoni dinamikasida o'z aksini topadi. Bu rivojlanish bos-qichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchi bosqich rivojlanishining monopol darjasи, SKJB ko'p tarqalgan SK milliy bozorlarining muvofiqlashuvi sifatida ko'ringan.

Ikkinci bosqich, yuqori rivojlanish davrida xo'jalik aloqalarinish baynalminallahuvi va xalqaro kreditning rivojlanishi asosida SKJB shakllanadi. Dastlab xalqaro kreditning rivojlanishi milliy bozorlarda faqat xalqaro operatsiyalar shaklida namoyon bo'lgan. Asta-sekin yirik bozorlar (London, Parij, N'yu-Yorkda) jahon moliya markazlariga aylanadi. Bu moliya markazlarida o'tkazilgan operatsiyalar jahon bozorining ikkinchi sektorini shakllantirdi. Bu markazlar offshoring. Offshove – mamlakat tashqarisida ma'lum bir masofada joylashgan. Jahon moliya markazlariga banklar va kredit-moliya institutlari jamlangan. Xalqaro kredit oltin va chet el valyutasida operatsiyalar olib boradigan bu muassasalar SKJB ning tashkiliy markazlari bo'lib qoldi. 1929-1933 yillarda jahon iqtisodiy

tanazzuli, undan keyin depressiya va IIJahon urushi davrida tashqi savdo hajmi shuningdek, jahon markazlarida ham, milliy bozorda ham xalqaro operatsiyalarning soni qisqarib bordi. Keyingi bosqichlarda SKJBning rivojlanishining 50-yillardagi evrobozozning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Valyuta munosabatlarini olib borishda valyutachechklovlarining yuzaga kelishi va SK milliy bozorlari orasidagi farqlanish mavjudligi sharoitida xalqaro moliya kapitalining harakati va rivojlanishi yagona, milliy davlat boshqaruvidan yctunroq boshqariluvchi bozorni talab qildi. Evrobozor shunday bozor sifatida vujudga keldi. U milliy bozorlar o‘rtasida o‘ziga xos faoliyat olib boruvchi vositachi hisoblanadi. Chunki bunda operatsiyalar milliy davlat tashkilotlaritomonidan boshqarilmaydi. Evrobozorlar dastlab evrodollar bozori shaklida rivojiana bordi. Evrodollarning paydo bo‘lishi dollarning chet el banklarida jamg‘arilishiga va ularning kredit operatsiyalarda ishlatalishiga olib keldi. 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab evrobozor operatsiyalari evromarka, evrosterling evrofranklar kabi boshqa valyutalarda olib borila boshlandi. Evrobozor ta’sirida Yevropada yirik jahon moliya markazlari vujudga keldi. Londonda, ssyurixda, Parijda va boshqa rivojlangan davatlarda moliyaviy markazlar paydo bo‘lib bordi. «Evrobozor» terminidagi evro qo‘srimchasi shu bilan izohlanadi. 60- yillar iqtisodiyotining yana bir xususiyati shundaki, bu davrda Amerika dollar bozori paydo bo‘ldi, 70-yillardan boshlab esa, Yaqin sharq dollar bozori tarkib topdi. Shuning uchun «evro» qo‘srimchasi o‘zining dastlabki geografik chizimini yo‘qotdi.

«Evrovalyuta» geografik jihatdan nafaqat G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga, balki bundan tashqaridagi mamlakatlarga ham tegishlidir. SKJB rivojlanishining zamонавиy bosqichi 80-yillardan boshlandi. Bu davrga kelib baynalminallashuv va integratsiyaning chuqurlashuvi SKJBlarida valyuta chegaralariningsusayishi yoki bekor qilinishiga, milliy kredit mexanizmining mukammallashuviga, milliy bozorlar orasidagi farqlarning kamayishiga olib keldi.

Endi, SKJBning tarkibini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak u tarkibiy jihatdan 2 xil bo‘lib, ular institutsional va operatsiondir. Institutsional tarkibiy qismi rasmiy institutlar (markaziy banklar, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari), xususiy moliya-kredit muassasalari (tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari, pensiya fondlari), birjalar, firmalarni

o‘z ichiga oladi. Bu erda transmilliy banklar va korporatsiyalar acociy o‘rin tutadi.

Ssuda kapitalining harakat qilish muddatiga qarab xalqaro bozor 3 sektorga bo‘linadi. Juhon pul bozori, o‘rtta va qisqa muddatli chet el va evrokreditlar bozori, va moliya bozori. Juhon pul bozori bu qisqa muddatli (1 kundan 3 oygacha) chet el va evrokreditlar bozori bo‘lib, bu bozor operatsiyalarining aksariyati banklararo ssudalar yoki banklararo depozitlarga asoslanadi. Bu depozitlarni (bank depozitlarini boshqa banklardagi schyotlarga qo‘yish) depozit sertifikatlari, veksellar, bank akseptlari tashkil qiladi. Juhon bozorining 2-sektorida 70-yillarda operatsiyalar sonining keskin o‘sishi revolver kredit texnikasining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu davrdagi bozorni ko‘pincha sindikatlash yoki sindikatlashtirilgan bozori deb ham ataladi. Bank sindikatlari sindikatlashtirilgan asosda kreditlar taklif qiladilar. SKJBda 50-70-yillar oxirlarida korporatsiyalar tomonidan 3-6 oy muddatga «suzuvchi» stavkalarda chiqaraladigan qimmatli qog‘ozlar-evronotalar tarqatildi. Evronotalar qisqa muddatli qog‘ozlar bo‘lishiga qaramasdan ular o‘pta va uzoq muddatli kredit sifatida berilgan. Banklar zayom chiqaruvchi (firmalardan evronotalarni sotib olib ularni ikkilamchi bozorda sotish bilan shug‘ullandilar.

Juhon moliya bozori – obligatsiya zayomlari bozori 80-(yillar-dan boshlab shakllana bordi. Uning paydo bo‘lishi bilan SKJB da 2 ta parallel bozor faoliyat ko‘rsata boshladi:

–an’anaviy xorijiy zayomlar bozori va evrozayomlar bozori.

Bunda «suzuvchi» foizli obigatsiyalarning foiz sgavkasi baholarga qarab o‘zgarib turadi va ma’lum bir darajaga etganda barqaror foyda keltira boshlaydi yoki obligatsiyaning boshqacha bir turi mustahkam (o‘zgarmas) foizli obligatsiya bo‘lib, bunda obligatsiya chiqarilganidan keyin birinchi besh yil davomida bir foizdan ma’lum darajaga etguncha daromad to‘langan. Nol kuponli obligatsiya har yili emas, balki faqat bir marta obligatsiya qayta sotib olinganida foiz olish imkonini beradi. Bu obligatsiyalarga foiz ularning emissiyasi kursi bo‘yicha to‘lanadi. Emissiya bahosi nominal bahoda amalga oshirilishi tufayli obligatsiya egasi emission va nominal kurs summalarini orasidagi farq miqdorida daromad oladi. Bu obligatsiyalar bo‘yicha investorlar foydadan soliq to‘lashdan ozod

qilinishi mumkin. Shu tufayli bu obligatsiyalarga bo‘lgan talab yuqoridir. Konvertirlanadigan obligatsiyalar 80-yillarda keng tarqaldi. Bu turdagи obligatsiyalar kamroq foyda keltiradi. Bu obligatsiyalarning ijobiy tomoni shundaki, agarda zayom chiqaruvchi kompaniya aksiyalariga to‘lanadigan dividend obligatsiya foizidan katta bo‘lsa, konvertirlanadigan obligatsiyalarni aksiyaga almashtirib olishga imkon beradi.

80-yillar o‘rtalarda SKJBni qamrab olgan «seykjuritizatsiya» ning paydo bo‘lishi bilan obligatsiyalar bilan bo‘ladigan operatsiyalar soni keskin oshib ketdi va bank operatsiyalarining soni qisqardi. Rivojlanayotgan mamlakatlar – Bagami orollari, Panama, Singapur, Gonkong va boshqa davlatlardagi xalqaro moliya markazlari nisbatan yosh va yangi xalqaro moliya-kredit bozorlaridandir. Rivojlangan mamlakatlardagi kredit-moliya markazlarining shakllanishi va keskin o‘sishi SKJB rivojlanishidagi qonuniy bosqichdir. Oxirgi yillarda dunyo mamlakatlarining jahon xo‘jaligi strukturasi va xalqaro mehnat taqsimotiga kirib kelishi kengaymoqda. Rivojlangan mamlakatlarning yirik transmilliy banklarining rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro biznes va milliy bank kapitaliga xizmat ko‘rsatish faoliyatini kengaytirib yubordi. Lotin Amerikasi, Janubi-sharqiy Osiyo va Yaqin Sharqdagi ssuda kapitaliga bo‘lgan taklif bu hududlarda tashqi milliy mintaqaviy evrobozorlarning rivojlanishiga olib keldi. Ularning vujudga kelishi tufayli kapital haqiqiy global ahamiyat kasb etdi. U o‘z ichiga rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar markazlarini va o‘zaro to‘ldiruvchi hamda almashinuvchi mintaqaviy xalqaro moliya komplekslarini oldi. 70-yillardan boshlab xalqaro moliyaviy markazlarda xalqaro moliya-kredit faoliyati bo‘yicha ixtisoslashuv boshlandi. G‘arbiy Yevropa doirasida London, avvalo, o‘zining evrovalyuta operatsiyalari bozori, turli xil fondlari, oltin, fyuchers biletlari bilan mashhurdir. ssyurix xalqaro kapitallar, oltin bozori va uni saqlash joyi vazifasini bajaradi. Lyuksemburg o‘zining fond birjalari va uzoq muddatli zayomlar markazi sifatida mashhur. Shunga o‘xshash holat boshqa mintaqalarda ham yuz berdi. Singapur bosh fondlarni jamlash vazifasini bajardi. Gonkong xalqaro kreditlash markazi sifatida mashhur. Bahrayn Yaqin Sharqda qisqa muddatli kreditlarning asosiy markazi, shuningdek, valyuta, oltin bozori markazi sifatida mashhur. Yirik xalqaro sug‘urta markazi Bermund

orollari hisoblanadi. Bu yirik markazlar ko'prok Lotin Amerikasi davlatlari ehtiyojlariga xizmatqilishga yo'naltirilgan.

25.2. Xalqaro kreditlarning tasniflanishi.

Xalqaro kredit ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy aloqalardagi harakatini ifodalaydi. Xalqaro kredit XIV-XV asrlarda xalqaro savdo munosabatlari negizida paydo bo'lган. Bu kredit qaytaruvchanlik, muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik va maqsadlilik tamoyillariga asoslanadi.

Xalqaro kredit shakllarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- manbalariga ko'ra ichki va tashqi kreditlar;
- vazifasiga ko'ra tijorat (tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'liq), moliyaviy (to'g'ri kapital qo'yish, obyektlar qurilishiga, qimmatbaho qog'ozlar sotib olish, tashqiqarz dorlikni tugatish, valyuta intervensiyanini o'tkazishga), oraliq (kapital chiqarishining turiga xizmat qiluvchi);
- ko'rinishiga ko'ra tovarlar shaklida (eksport qiluvchi tomonidan import qiluvchiga) valyuta (bank tomonidan pul shaklida) shaklida;
- valyuta turiga ko'ra qarzdor mamlakat valyutasida, kreditor mamlakat valyutasida, uchinchi mamlakat valyutasida, ma'lum davlatlar pul birligida (EKYU, EVYU va boshqalar);
- muddatiga ko'ra juda qisqa (kunlik, haftalik, 3 oygacha) qisqa (bir yilgacha), o'rtta (bir yildan 5 yilgacha), uzoq, (besh yildan oshiq) muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa va o'rtta muddatli kreditlar uzaytirilganda ular davlat kafolati bilan uzoq muddatli hisoblanadi;

– ta'minlanganligiga ko'ra ta'minlangan (tovar hujjatlari, veksellar, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqalar bilan), blankali-qarzdor javobgarligi (solo-veksel);

– taklif etilishi nuqtainazaridan naqd akseptli (trattani bank yoki import qiluvchi tomonidan akseptlanganda), depozit sertifikatli obligatsiya zayomli kreditlarga bo'linadi:

Ssuda kapitalining harakati mobaynida tashqi savdoni kreditlash jarayoni amalga oshiriladi.

Tashqi savdoni kreditlash deganda eksport va importni kreditlash tushuniladi. Eksportni kreditlash quyidagi shakllarda olib boriladi.

1) Xaridor bo'naklari shaklida yuzaga keluvchi kredit munosabatlari bo'lib, bunda xaridor bo'naklari biror bir mamlakatga yoki

eksport qiluvchiga beriladi. Xaridor bo'naklari mazmuni quyidagicha: birinchidan, ular xorijiy buyurtmachining buyurtmasini ta'minlashning asosi sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, bo'nak summasi eksport qiluvchi kapitalining salmog'ini oshiradi.

2) Bank tomonidan kreditlash shakllariga ko'ra: eksport qiluvchi mamlakat garovi ostida kredit berish, import qiluvchi mamlakatdan tovar hujjatlari yoki tovarlarini garovga olgan holda kredit berish.

Bank bilan anchadan beri birga ishlab kelayotgan ishonchli yirik eksport qiluvchi firmalar tovarlarni garovga qo'ymasdan bank krediti olishlari mumkin.

Importni kreditlash ham tijorat va bank krediti shaklida bo'ladi. Tijorat yoki firma kreditlari 2 ga bo'linadi. Ochiq hisob bo'yicha kredit (eksport qiluvchi yuklangan tovarlarni import qiluvchi qarzi sifatida uning hisobiga yozib qo'yadi, import qiluvchi esa kreditni ma'lum bir muddatda to'lash javobgarligini oladi). Bunda qarz dorlik davriy tugatib boriladi. Tovar ham, o'z navbatida, muntazam jo'natilib boriladi. Bu holatda banklar savdo kontragentlari hisob-kitoblarida vositachi funksiyasini bajaradi.

Import bo'yicha bank kreditlari quyidagicha ham bo'lishi mumkin:

1) Akseptli kredit-aksept yoki import qiluvchi bankning eksport qiluvchi trattasini to'lash roziligi bilan beriladi. Bunda import qiluvchi to'lov vaqtি kelganda bankka qarz summasini ma'lum qiladi, bank uning eksport qiluvchi oldidagi javobgarligini yopadi.

Faktoring – faktoring kompaniyalari tovarini kreditga sotgan eksport qiluvchi uchun turli xizmatlar ko'rsatuvchi maxsus moliya muassasalari hisoblanadi. U qarzni undirish, eksport operatsiyalarini baholash, nazorat qilish va boshqalarni o'z zimmasiga oladi. Mijozning qarzdorga bo'lgan talabini qabul qilib, firma qarzdordan undirilgan pullarni mijoziga to'lashga javobgar bo'ladi. Mabodo bitimda ko'rsatilgan bo'lsa naqd pulda ham qarzni to'lashi mumkin. Xaridordan qarzni undirish va kredit tavakkalchiligining oldini olish bilan birga (faktoring kompaniyasi sanoat firmasi eksport operatsiyalarini bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni) tijorat banki va sug'urta kompaniyasi funksiyalarini ham bajaradi. Faktoring qiymati odatdagи bank ssudasidan qimmatroqdir. Berilgan qarz vositalarini hajmida faktoring 20 % dan oshadi, shuni hisobga olish kerakki, unga

nafaqat olingen kreditni to'lash haqi, balki boshqa xizmatlar bahosi ham kiradi. Shunday qilib, faktoring tizimi eksport qiluvchilarning qisqa muddatli kredit berish imkoniyatlarni kengaytiradi.

Forfeyting operatsiyasi. U 50-yillarda Fapbiy Yevropada paydo bo'lib, aylanmani moliyalashtirish deb atalgan baza asosida rivojlanadi. Bu usul AQSHda veksellarni qayta moliyalashtirish nomi bilan kamroq tarqalgan. Bu operatsiyalarning mazmuni shundaki, eksport qiluvchi tomonidan import qiluvchiga talab huquqi bank-forfeytoriga beriladi, u esa bu huquqni saqlashi yoki xalqaro bozorda sotishi mumkin. Bank esa eksport qiluvchiga bu qimmatli qog'ozlarni qiymatini naqd pul bilan to'laydi. Bunda qat'iy hisob stavkasi, mukofot (bank tomonidan majburiyatlarni to'lamaslik xavfini olganligi uchun) chegirib tashlanadi. Forfeyting operatsiyalarida ishlatiladigan moliyaviy vositalar banklardagi an'anaviy savdo veksellari hisob-kitoblari kabi qo'llaniladi. Farqi shundaki, veksel egasi yagona import qiluvchi sifatida forfeytingda tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Oddiy hisob-kitobdaesa veksel qonunchiligiga binoanko'pgina hollarda qarzdorlikjavobgarligiekspert qiluvchiningxaridorni kreditlashni uzaytirishigaimkon beradi.

Xalqaro uzoq muddatli kredit chetga kapital chiqarish, tadbirkorlikni qo'llash maqsadida ajratilgan va tashqi qarz ko'rinishidagi ssuda kapitalining harakati shaklida bo'ladi. Xalqaro qarzlar, avvalo, kredit munosabatlариниң subyektlari bo'yicha farqlanadi:

Tashqi qarzlarga ko'ra qarzdorlar: sanoat va boshqa xususiy korxonalar – hokimiyat, munitsipalitetlar va boshqa huquqiy muassasalar bo'lishi mymkin. Tashqi qarzlarga ko'ra kreditlar: xususiy ishlab chiqaruvchilar va banklar, obligatsiya zayomlari ega-lari, davlat, xalqaro valyuta-kredit tashkilotlariga beriladigan kreditlarga bo'linadi. Shunga myvofiq ravishda xalqaro uzoq muddatli kredit xususiy, davlat va xususiy-davlat turlariga bo'linadi, 50-yillar oxirlaridan boshlab xalqaro xususiy kredit xalqaro kredit munosabatlариниң ajralmas bir qismiga aylanadi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlar krediti o'z valyutasida to'lashni joriy qildilar. Xalqaro moliyaviy kreditlarning urushdan keyingi tez rivojlanishiga ko'pchilik G'arbiy mamlakatlarda yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik

asos bo'ldi. Urushdan keyingi vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash uchun yirik moliyaviy xarajatlar zarur edi.

Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi XYOTTBga qo'shimcha ravishda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, xalqaro moliya korporatsiyasi, ko'pqirrali investitsiyalar bo'yicha agentliklar kabi institutlar tuzildi. 1991 yilda bu tashkilotlarga 155 mamlakat a'zo edi. Shu davr mobaynida bank va uning tashkilotlari 245 mlrd. dollarlik 5 mingdan ortiq zayom chiqardilar. Deyarli 3/4 qism zayom XTTBga to'g'ri keldi, ya'ni ular uchun yiliga 15 mlrd. dollar moliya bozori stavkasi darajasida foiz to'landi.

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi – (XTA) 1960 yilda rivojlanayotgan davlatlarga imtiyozli kreditlar (0.75% yillik foiz stavkada) berish maqsadi tashkil etilgan. XTA yiliga 5 mlrd. dollargacha kredit ajratadi.

Quyidagi tayanch so'zlarni ta'riflang.

- | | |
|---------------------------------------|----------------------------|
| 1. Ssuda kapitali | 4. Jahon moliya bozori |
| 2. Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi | 5. Faktoring |
| 3. Evolyusiya | 6. Forfeyting operatsiyasi |

Mavzuga oid savollar

1. Ssuda kapitali jahon bozori (SKJB) haqida tushuncha va uning evolyusiyasi
2. Xalqaro kreditlarning tasniflanishi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O'zbekiston" – 1996.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so'zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so'zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.
4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.

5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.
6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

26-BOB. SUG'URTALASH. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUG'URTA QONUNCHILIGI

26.1. Sug'urtaning iqtisodiy moxiyati, uning zarurligi, funksiyalari

Sug'urtada mujassamlashadigan ko'p qirrali munosabatlar so'z atama terminlar orqali mazmunan ifoda qilinadi.

Sug'urta faoliyatidan uning o'ziga xos atamalari bilan birga boshqa fan va iqtisodiyot sohalaridan kirgan atamalarga duch kelamiz.

«Sug'urta» atamasining lug'at mazmuni qanday?

Biz savolga javob bermasdan oldin biz «Sug'urta» atamasining mazmuni bilan tanishishimiz kerak. Afsuski O'zbek tilining izohli lug'atida «sug'urta» so'zi yo'q, lekin «straxovanie» so'zi bor: «Straxovanie» – rus deb ko'rsatiladi lug'atda, qatnashchilari tomonidan straxovanie fondi tuzib, tabiiy ofatlar, baxtsiz xodisalar natijasida etgan zararlar o'rmini qoplash, shuningdek muayyan vaqtlar yuz berishi munosabati bilan mablag'lar to'lash sistemasi №2 tom 221 S.Ayniy «estaliklarida sug'urta atamasi o'rniqa» Straxovanie so'zi ishlatalig, Ojegovning I.I. mashhur rus terminlarining izohli lug'atida ko'rsatilishicha «straxovanie» deganda biror buyum narsani xavfli yoki ko'ngilsiz hodisadan asrash, mablag' to'plash sodir bo'lish mumkin bo'lgan zarardan asrash sodir bo'lгanda qoplash uchun pul jamg'armalarini shakllantirish tushuniladi.

Sug'urta atamasi haqida faqat O'zbek tilida emas. Balki boshqa tillardan ham aniqlik yo'q. Shu sababli Lyuksenburg shahrida 1960 yilda huquq kogresda sug'urtaning kelib chiqishi qatnashuvchilarining diqqat markazida bo'lgan edi.

Bunda sug'urta atamasining ildizini «bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» tamoyillaridan axtarib, jamao bo'lib sug'urta fondi tashkil qilish zararlarini qoplashda alohida xo'jalik uchun arzonga tushishi, zararlarni barcha sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlanganligi qayd qilingan edi. Kongressda dehqonlar, xunarmandlar tabiiy ofatlar natijasida uzil-kesil honavayron bo'lmasliklari, o'z xo'jaliklarini tiklash uchun o'zaro fond tashkil qilishliklari ko'rsatib o'tilgan edi. Uning hisobidan zararlar arzon va qulay qoplangan. Shunday qilib kongressda sug'urta so'zini xavfxatar, daxshat, qo'rquv va boshqa ma'nolarni bildirsa, lekin sug'urta

ko'rsatilgan ruxiy holatlarga tushishga majbur qilgan harajatlarni qoplash bilan bog'langan iqtisodiy munosabatlarni ifoda qilish ko'zda tutilgan.

Sug'urtaning tashkiliy atamalariga hamda iboralar kiradi. Sug'urta faoliyatini tashkil qilish bilan bog'langan atamalar sug'urta haqidagi qonunning birinchi bo'limida ko'rsatilgan. Bu atamalarga quyidagilar kiradi.

- Sug'urtalanuvchi
- Sug'urtaning obyekti
- Sug'urta himoyasi
- Sug'urta manfaatdorligi
- Sug'urta javobgarligi
- Qayta sug'urta qilish
- O'zaro sug'urta qilish
- Sug'urta vakillari
- Sug'urta guvohnomasi
- Sug'urta qoplamasini oluvchi.

Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining roziligi bilan asosiy shartnomani o'zgartirmasdan turib sug'urta shartnomalari asosida o'zining javobgarligi, to'lov qobiliyatiga ega bo'lган boshqa sug'urta tashkilotlariga topshirib, qayta sug'urta qildirishidir. Sug'urta voqiyasi (Sug'urta hodisasi) yuz berganda qayta sug'urtalangan tashkilot shartnomaga ko'ra o'zarobotk zimmasiga olgan majburiyatlar doirasida javobgar bo'ladi.

Respublikamiz hududida har yili majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari hisobga ulkan sug'urta fondlari shakllanadi. Bu fondlarning sarflanishi dastlab xavf xatarga bog'liq. Agar sug'urta xodisalari ro'ybermasa, zararni qoplashga sarflanadigan mablag'lar kam miqdorni tashkil qiladi, agar yirik miq'yoslarda sug'urta hodisalari sodir bo'lsa ularning etkazilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta fondidan mablag' sariflashga to'g'ri keladi. Demak sug'urta fond mablag'larini sarflash uchun ularni nimalar uchun foydalanish, sug'urta xodisalarini ko'p yoki kamligiga qarab sug'urta samaradorligi haqida fikir yuritish uchun dastlab quyidagi atamalarni mazmuni bilan tanish bo'lishi kerak:

- Sug'urta xavf-xatari

- Sug‘urta xodisasi
- Sug‘urta dalolatnomasi
- Tabiy ofatlardan keladigan sug‘urta zarari
- Sug‘urta rentasi
- Sug‘urta qoplamasи

- Sug‘urta xavf-xatari. Risk so‘zidan bir qancha mazmun va ma’no kasb etadi. Bularning hammasi xavf-xatar va unga nisbatan javobgarlikni ifoda qiladi. Shu munosabat bilan uni xavf-xatarning xillari deb tushuntirish maqsadida muvofiqdir. Bu tushuncha sug‘urtalangan mulk, sug‘urta xodisasi, sug‘urta xavfi va boshqa tushunchalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

- Sug‘urta xodisasi. Sug‘urta xavf-xatarida ko‘zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasi sodir bo‘lishi. Bunday xodisalarga mulk sug‘urtasida tabiy ofatlar, yong‘in faloqat, portlash va boshqalar. Shaxsiy sug‘urtada ma’lum yoshga etish sodir bo‘ladigan baxtsizlik hodisalari. Vafot xodisalari kiradi. Baxtsizlik xodisasi deganda sug‘urtalanganning sog‘ligiga va xayotiga zara keltiruvchi favqulotda hodisalar ko‘zda tutiladi. Sug‘urta xodisasi natijasida ko‘rilgan zarar belgilangan miqdorda sug‘urta fondi hisobidan qoplanadi.

- Sug‘urta dalolatnomasi (akti). Sug‘urta xodisasining sodir bo‘lganligini va uning sabablarini isbotlab beruvchi rasmiy xujjat. Mulk sug‘urtasida dalolatnoma asosida zarar miqdori va unga to‘lanadigan qoplama miqdori aniqlandi. Xujjat qoplama olishda asos bo‘ladi. Shaxsiy sug‘urda dalolatnoma baxtsizlik xodisasini tasdiqlash, uning sug‘urtalanuvchining bu xodisa xizmat vazifalarini bajarishda yoki yo‘lda bo‘lganida sodir bo‘lganida sodir bo‘lganini aniqlashga korxona hisobidan sug‘urta qilinganda yoki yo‘lovchilar majburiy sug‘urtasi shartnoma yo‘li bilan qoplama olishda asos bo‘ladi. Sug‘urtaning boshqa xillari bo‘yicha dalolatnoma talab qilinmaydi, tibbiyot tashkilotining ma’lumotnomasi kifoya qiladi.

- Sug‘urtada zarar. Sug‘urtada zarar deganda sug‘urta bohosida ishlab chiqqan yoki bir qismi zararlangan mulk bahosi tushuniladi. Etkazilgan zararning to‘la yoki qisman sug‘urtalanuvchiga to‘lanish sug‘urta qoplamasи deb ataladi. Shaxsiy sug‘urtada shikastlangan shaxsga to‘lanadigan pul mablag‘lar sug‘urta miqdori (so‘mmasi) deb ataladi.

- Sug'urta rentasi. Qo'shimcha pensiya sug'urtalash asosida sug'urtalanuvchiga oy yoki yil davomida to'lanadigan daromad. Qo'shimcha sug'urta pensiyasi agar badallarni o'z vaqtida to'lab berilgan bo'lsa, pensiya yoshiga chiqqan oydan boshlab to'lanadi.

- Sug'urta qoplamasi. Sug'urta xodisasi sodir bo'lgani tufayli etkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag'.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tadbirlarini kengaytirish, ularning tajribalaridan samarali foydalanishni taqazo qiladi. bu tadbirni amalga oshirishining dastlabki shartlaridan biri xalqaro sug'urta atamalarini o'rganish va ularning mazmuni bilan yaqindan tanishishdir. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan xalqaro atamalarning soni kun sayin ortib bormoqda. Lekin ularning ko'plari O'zbek tilida o'z ekvivalentlariga ega emaslar. Shu munosabat bilan xorijiy atama tanlashda birinchi navbatda hozirgi amaliyotda qo'llanilayotgan va qo'llanishi kutilgan atamaga izoh berishga harakat qildik.

Xalqaro sug'urta atamalari mazmuni bir yo'nalishga ega bo'lmaganliklari uchun ularning mazmuni alohida savol sifatida yoritishga qulay deb hisobladik.

Kargo sug'urtasi. Transport vositalaridagi barcha tashiladigan yuklarni transport vositalarsiz sug'urta qilinishi. Bunday sug'urta tashkiloti faqat sug'urtalangan yuklar uchun javobgar hisoblanadi.

Kasko sug'urtasi. Kasko sug'urtasida faqat transport vositalari sug'urta qilinadi. Agar transport vositasi egasiga qarashli bo'lsa, uholda har 2 sug'urta vositasi-kargo va kasko xillaridan foydalanish mumkin.

Pul deb ataluvchi sug'urta tashkiloti qanday faoliyat ko'rsatadi. O'z miqyosi jihatidan ulkan obyekt jihatidan xavfli sug'urta hodisalarini birgalikda himoya qilish uchun tuzilgan tashkilot. Tashkilot sug'urta tashkilotlariga yagona polyus berib, bu hujjatda har bir a'zoning sug'urtalashdagi hissasi ko'rsatiladi.

Shomaj nima. Ishlab chiqarish turli hodisalar oqibatida masalan yong'in to'xtab qolish mumkin. Buning natijasida olinishi kutilgan foya miqdori kamayib ketishi mumkin, shamoj ko'rilaqdan zararlarni ko'zda tutib sug'urtalash usuli.

Sug'urta franshizasi. Turli sabablar bilan etkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni umumiy miqdorini sug'urta tashkiloti hisobidan

qoplanmaydigan qismi, franchiza qo'llanilganda zarar miqdori ikkiga bo'linadi: birinchisi sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadigan qismi, ikkinchisi qoplanmaydigan qismi. Bu nisbat sug'urta dastur amalda ko'rsatiladi, masalan franchiza miqdori 100 dollar miqdorida qo'llanilsa, keltirilgan zarar 90 dollar bo'lsa, zarar qoplanmaydi. Agar 100 dollardan oshsa, ya'ni 200 dollarni tashkil qilsa, u holda 100 dollar qoplanib, qolgan qismini franchiza tashkil qiladi. Hozirda mamlakatimizda mol-mulk ixtiyoriy sug'urtasi bo'yicha franchiza qo'llanilishi bu haqdagi dastur amalda ko'rsatilgan.

Sug'urta brokeri nima. Sug'urta tashkiloti va sug'urtalanuvchining sug'urtalash va sug'urta shartnomasini bajarishda o'zaro munosabatlarni o'rnatuvchi shaxs. Broker sug'urta tashkilotining vakili sifatida sug'urtalanuvchilar bilan bevosita ish olib boradi, sug'urta shartnomasi tuzishda, sug'urta hodisasi natijasida moddiy zarar etganda qoplama miqdorini aniqlashda, hatto sug'urta qoplamasini sug'urtalanuvchiga topshirishda unga yordam beradi.

Sug'urta auditorinima va unga qanday vazifalar yuklanadi. Sug'urta hissadorlik jamiyatlari va boshqa xususiy davlat hissadorlik uyushmalarini moliyaviy xo'jalik faoliyatları ustida mustaqil tekshirishga vakil qilingan. Maxsus tashkilot yoki shaxs, auditor mustaqil ish quruvchi firma sifatida sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini yuqori saviyada har tomonlama tekshirib, o'z xulosasini taqdim etadi.

Ayrim sug'urta tashkiloti va yoki sug'urtalanuvchi haqida aniq ma'lumotlar lozim bo'lganda auditorlik tashkilotiga murojaat qilinadi. Auditor vazifasini bajargan shaxs, o'z xulosalari uchun javob beradi. Auditorlar lavozimini egallash uchun maxsus tayyorgarlik va ko'p yillik tajriba qilinadi, auditorlar qisqa muddatlik kurslarda o'z saviyalarini oshiradilar.

Anterayte. Sug'urta sohasida yuqori ma'lumotli mutaxassis sug'urta kompaniyasining topshirig'i bilan sug'urtaga qabul qiladi. Ta'rif stavkalari va shartnoma shartlarini aniqlaydi.

Uitet Bankasyurans. Tijorat bankasining sug'urta faoliyati. Bankaning sug'urta zonasiga kirib kelishi, uning vazifalarini bajarilishi.

Binder. Sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasidagi vaqtincha tuzilgan shartnoma. Bu kelgisida shartnoma tuzish uchun asos bo'ladi.

Bordero. Sug'urtalangan xavf-xatarlarning hujjat asosida rasmylashtirib qayta sug'urtani tavsilotining berilishi.

Yashil karta. Avtotransport egalarining fuqarolik javbgarligi majburiy sug'urtasi haqida halqaro shartnomalar tuzish.

Lolayd. Londonda joylashgan xalqaro bozori. London Sitida joylashgan (1688 yil).

Ritorno. Sug'urtalanuvchi tomonidan shartnoma bekor qilinadi. Badalning bir qismini ushlab qolinishi.

Syurvyer. Mol-mulkni kuzatuvchi inspektor yoki agent syurvyer fikriga binoan shartnoma tuzish haqida qaror qabul qilindi.

Shamoj. Olinishi mumkin bo'lgan foydani yoki ishlab chiqarishni to'xtab qolishi va sug'urta hodisasini olinadigan zararlarini sug'urta qilish.

26.2. Majbuliy va ixtiyoriy sug'urtani tashkil qilish tamoyillari

Sug'urtani guruhlash (klassifikatsiyasi) sug'urtaning ko'p sonli xillarini hududlar, tarmoqlar, tarmoq bo'limlariga, ularning ayrim xususiyatlarini e'tiborga olib ajratishdir. Sug'urta tashkilotlarining o'z zimmalariga olingan javobgarliklari bir necha milliardni tashkil qiladi. Buning uchun har bir sug'urtalanuvchi yirik korxona, hissadorlik jamiyatlari, tadbirkorlar bilan shartnoma tuzish, faloqat yuz berganda ularga o'z vaqtida yordamga kelish lozim. Buning uchun sug'urta ishi, uning xillari, qoidalarini guruhlantirish qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi bizga ravshanlashadi.

Sug'urta faoliyati sug'urtaning har bir xilining xususiyatlarini ko'zda tutib, quyidagi yo'naliishlarga guruhlashtiriladi.

- Hududlar bo'yicha: (Mamlakatni ichki doirasi va tashqi sug'urta munosabatlarini e'tiborga olib).

- Davlat va xususiy sug'urta tashkilotlari
- Tarmoqlar bo'yicha
- Xavf-xatar xillari bo'yicha
- Majbuliy va ixtiyoriy sug'urta

Majbuliy va ixtiyoriy sug'urta hozirgi davr sug'urtasida muhim muammolardan hisoblanadi. Boshqa sobiq respublikalarda majbuliy

sug'urtaning ko'p xillari bekor qilingan bo'lsa ham, bizda nima sababdan saqlanmoqda kabi savollar ko'pchilikni qiziqtiradi.

Majburiy sug'urta ba'zan ixtiyoriy sug'urta bilan bog'langan, majburiy tartibda sug'urtalangan imoratlar ixtiyoriy tartibda ham sug'urta qilish mumkin (ma'ruzada ko'rsatilgan shartlar misollar bilan ko'rsatiladi).

Masalan: Yo'lovchining sug'urtasi. Majburiy sug'urta barcha yo'lovchilar uzoq masofaga boradigan bo'lsalar majburiy ravishda yoppasiga sug'urtalanadilar. Sug'urta badali bilet tarkida ko'zda tutiladi. Masofaga o'tgandan keyin sug'urtalash to'xtatiladi.

Yangi qurilgan uy-joy binolari qad ko'tarib usti tunka yopilgandan boshlab majburiy sug'urtalangan hisoblanadi. Agar obyektiga o't tushib yonib ketsa zarar sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadi.

26.3. O'zbekiston Respublikasi sug'urta qonunchiligi

Sug'urta huquqi sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar, hamda kredit tashkilotlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlari ifodalaydi. Bunday munosabatlar mamlakatimiz Konstitutsiyasi asosida vujudga kelgan qator huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Bu huquqiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- Fuqarolik kodeksi
- Sug'urta haqidagi Respublika qonuni
- Davlat sug'urta tashkilotlari haqidagi nizomlar
- Xususiy sug'urta tashkilotlarining ustavlari
- Sug'urta nazorati haqidagi hukumat qarori.

Fuqarolik kodeksining 52-bobi 914-981-moddalar sug'urta masalalariga belgilangan, bunda sug'urtaning eng muhim huquqiy masalalari sug'urta shartnomalarini tuzish, ikki tomonlama sug'urtalash, hamkorlik sug'urtasi, qayta sug'urtalash masalalari tushuntirilib, bu sug'urtalarni amalga oshirib, tomonlarning javobgarligi va boshqalar Kodeks doirasida huquqiy jihatdan tushuntirib beriladi.

Sug'urta haqidagi qonun fuqarolar kodeksida bayon qilingan masalalarni takrorlasa ham, lekin qonunda sug'urtaning iqtisodiy masalalarini bayon qilishda alohida ahamiyat berilgan.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida e'lon qilinganiga qadar respublikaning sug'urta haqidagi alohida qonun yo'q edi. Bu hududida Sobiq Ittifoq qonunlari amal qilinari edi. Bu qonunlarda respublika iqtisodiyoti va maishiy xususiyatlari yetarli e'tiborga olinmagan edi. Sug'urta haqidagi birinchi respublika qonuni O'zbekiston Oliy majlisi tomonidan 1993 yil 6 mayda qabul qilindi.

Qonun 5 bob, 33-moddadan iborat. Qonunlar respublika iqtisodiyotida sug'urtaning tutgan o'rni, bozor iqtisodiyotini amalgalash bilan qo'shilishdagi roli, sug'urta bozorini shakllantirish masalalari, sug'urtaning tashkiliy va huquqiy asoslari bayon qilinadi. Fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatiga bo'lgan talablarni to'laroq qondirilishi kafolatlanadi, sug'urta munosabatlarida uning barcha ishtirokchi manfaatlarini himoya qilish masalalari ko'rsatiladi. Qonunning 1-bobida sug'urta ta'rifi beriladi, sug'urta obyektlari, subyektlari, shakllari, ta'riflar va to'lovlar, qayta sug'urtalash va birgalikda sug'urtalash masalalari bayon qilinadi.

2-bob asosi sug'urta shartnomalarini tuzish, shartnomada tomonlarning huquqlari va uni rasmiylashtirish va to'xtatish masalalariga bag'ishlangan.

3-bobda sug'urtalanuvchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari yoritilgan.

4-bobda sug'urta faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnatish.

5-bob yakunlovchi masalalarga bag'ishlangan.

Sug'urta haqidagi qonunda qator yangi tushunchalar, masalan: qayta va birgalikda sug'urtalash, sug'urta brokeri, sug'urta ruxsatnomalarini olish va boshqa masalalari yoritilgan.

Ko'rsatilgan sug'urta tashkilotlari haqida navbatdagi boblarda ko'zda tutilgan savollarga javob beriladi. Lekin sug'urta huquqi haqida ma'lumot berar ekanmiz, ayrim sug'urta tashkilotlarining o'z ustavlari bo'lib, bunda har bir sug'urtaning eng muhim yo'naliishlari, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarining huquqlari ifoda qilinishini ko'rsatib o'tish kerak.

2002 yil 5 aprelda O'zbekiston Respublikasining yangi «Sug'urta faoliyati to'grisida»gi qonuni qabul qilindi.

Inson salomatligini tiklash vositalari qatoriga kirgani uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish sug'urtani boshqarishni qaytadan qurishni talab qildi. Bunga quyidagi tamoyillar sabab bo'ladi:

Birinchidan, sug'urta ishini nominallashtirish bilan birga xususiy sug'urta tashkilotlarini shakllantirish.

Ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni ko'plab jalg qilishga yordam berish.

Uchinchidan, sug'urta tashkilotlari ustidan nazoratlarni kuchaytirish va sug'urtaning yangi shakllarini joriy qilish.

Ko'rsatilgan sabablar sug'urtani boshqarish tizimini qayta qurishni talab qildi. Buning uchun respublika sug'urta tashkiloti mustaqil sug'urta tashkilotiga aylantirildi va sug'urta haqida qonun qabul qilindi.

Ikkinchidan, respublika Moliya Vazirligidan sug'urta tashkilotlari ajralib chiqdi va alohida davlat va xususiy aksiyadorlik tashkilotlari vujudga keldi.

Uchinchidan, sug'urta tashkilotlari bilan kredit tashkilotlari aloqasi kuchaytirildi.

Hozirda respublikamizdagи sug'urta tashkilotlari qanday boshqarilmoqda.

Respublikadagi sug'urta tashkilotlari 3 guruhga bo'linadi:

a) «O'zagrosug'urta» kompaniyasi

b) «Kafolat» kompaniyasi

v) Eksport-import «O'zbekinvest» kompaniyasi

g) «Madat» sug'urta kompaniyasi

Xususiy sug'urta kompaniyaları

a) Qo'shma sug'urta tashkilotlari

b) Xususiy sug'urta tashkilotlari

Respublika sug'urta nazorati tashkilotlari

Sug'urta nazoratini Moliya Vazirligi huzuridagi sug'urta nazorati Davlat inspeksiysi amalga oshiradi. Sug'urta tashkilotlarining faoliyatini tartibga solish davlat tomonidan sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishni ta'minlashga qaratilgandir. Shu munosabat bilan sug'urta nazorati tashkilotlarga quyidagilar yuklatilgan:

- Respublikamizda faoliyat ko'rsatayoyotgan barcha sug'urta tashkilotlarini ro'yxatga oladi va tegishli ruxsatnomalar beradi.

- Sug'urta tashkilotlari sug'urta to'g'risidagi amaldagi qonunlar talablariga rioya qilishlarini nazorat qilib borish.

- Hisob-kitob yuritish, hisobotlar tuzish, rezerv va zahira fondlari hosil qilishining bir xilda bo'lishini ta'minlaydi.
- Sug'urta ish tajribasini umumlashtiradi, qonun bo'yicha tushuntirishlar beradi, bu qonunlarni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqadi.
- Sug'urta faoliyatini yaxshilash.

Sug'urta nazoratining tashkiliy tuzilishi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalardan biri sug'urta bo'yicha yagona davlat registorining yuritishidir. Buning uchun barcha sug'urta tashkilotlari davlat sug'urta inspeksiyasida ro'yxatdan o'tishlari shart. Ro'yxatdan o'tmagan tashkilotlar sug'urta faoliyati bilan shug'ulanish huquqiga ega emaslar, ruhsatsiz olingan daromadlar yuridik foydasiga olinadi.

Ro'yxatdan o'tgan tashkilotlarga ruxsatnomalar beradi. Ruxsatnomalar olish uchun nizom fondi va kredit muassasasining ma'lumotnomasi muayyan sug'urta turining qoidalari shartnomalari, sug'urta ta'rifining hisob-kitobi va boshqa hujjatlar topshirilishi kerak. Hujjatlar olingandan keyin 30 kun ichida beriladi. Davlat inspeksiyasiga quyidagi huquqlar berilgan:

- Sug'urtalanuvchilardan sug'urta faoliyati to'g'risida belgilangan hisobot va ularning moliyaviy aholi haqidagi axborotni shuningdek kreditlar, korxonala muassasalar, tashkilotlar, banklar, fuqarolardan o'ziga yuklangan funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborotlar olish.

- Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlarga rioya etilishi nazorat etish maqsadida sug'urtalanuvchilar faoliyatini tekshirish, zarurat bo'lsa uning uchun komissiyalar va ishchi guruqlar tashkil etish.

Davlat inspeksiyasiga Moliya vazirligining taklifnomasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan boshliq tayinlanadi va nazoratning asosiy masalalari Moliya Vazirligi hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Sug'urta nazorati apparatidagi xodimlar soni 15 kishi. shu hisobda boshliq, ish yurituvchi inspektor, yurist. Sug'urta tashkilotlarining nazorat qilish bo'limida 6 kishi xizmat qiladi. Nazorat inspeksiyasi faoliyati ustidan Moliya Vazirligi nazorat qiladi.

Quyidagi tayanch so‘zlarni ta’riflang.

- | | |
|-----------------------|-------------|
| 1.Anterayte. | 6.Lolayd. |
| 2.Uitet Bankasyurans. | 7.Ritorno. |
| 3.Binder. | 8.Syurvyer. |
| 4.Bordero. | 9.Shamoj. |
| 5.Yashil karta. | |

Mavzuga oid savollar

- 1.Shomaj nima?
- 2.Sug‘urta franshizasi?
- 3.Sug‘urta brokeri nima?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, (1998. 30 aprel). Xalq so‘zi, 1999 y. 12 yanvar. 7-son.

2. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. T. "O‘zbekiston" – 1996.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida» gi Qonuni, (1998. 24 dekabr). Xalq so‘zi, 1999. 12 yanvar. 7-son.

4. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.

5. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.

6. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

TEST SAVOLLARI

1. Pulning paydo bo'lishi:

- a. Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shaklining vujudga kelishi bilan bog'liq;
- б. Qiymatning to'la yoki kengaygan shaklining vujudga kelishi bilan bog'liq;
- в. Tovar ishlab chiqarish va ayrboshlash jarayonining tobora rivojlanib borishi bilan bog'liq;
- г. Qiymatning umumiy ekvivalent shaklining vujudga kelishi bilan bog'liq;
- д. Noto'g'ri javob yo'q

2. Nima uchun to'la yoki kengaygan qiymat deyiladi?

Chunki ayrboshlash jarayonida:

- a. Bir tovarga qarama-qarshi faqat bitta tovar emas, balki ko'p tovarlar ishtirok etadi;
- б. Bir tovarga qarama-qarshi ko'p turdag'i tovarlar emas, balki ko'p tovarlar ishtirok etadi;
- в. Bir necha tovarlar o'z qiymatini faqat bitta tovarda ishtirok etadi;
- г. Oddiy tovar ko'rinishdagi umumiy ekvivalent o'mniga pul shaklidagi ekvivalent vujudga keladi;
- д. Noto'g'ri javob yo'q

3. Nima uchun qiymatning pul shaklidagi ekvivalentga o'tish zaruriyati tug'ildi?

Chunki ayiboshlash jarayonida:

- a. Muayyan hudud borasida keng rivojlanib ketdi.
- б. Bitta tovar o'z qiymatini faqat bitta tovarda ifoda etishni taqozo etadi;
- в. Hududlararo keng rivojlanib ketdi;
- г. Noto'g'ri javob yo'q

4. Milliy pulimiz — so'mni joriy qilish yo'lining o'ziga xos xususiyati nimada bo'ldi?

- а. Avvalo, u boshqa mamlakatlar tajribasiga tayandi;
- б. Halol ishlab topilgan pulning 2/3 qismi almashtiriladigan bo'ldi;

- в. Yangi va eski pul nisbati 1:1000 bo‘ldi;
- г. Yangi va eski pul nisbati 1:1 bo‘ldi;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

5. Barter – bu:

- a. Bevosita pul ishtirokida sodir bo‘ladigan tovar almashuvidir;
- б. Bozor iqtisodi taqozo etadigan tovar-pul munosabatidir;
- в. Tovar topish juda ham oson bo‘lgan sharoitdagi tovar almashuvidir;
- г. Tovarni tovarga bevosita almashtirishdir;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

6. Vaqtincha bo‘s sh turgan mablag‘lar turkumiga nimalar kiradi?

- а. a) Amortizatsiya ajratmalar;
- б. b) Ishlab chiqarishni kengaytirish uchun foydadan ajratmalar;
- в. v) Ish haqi fondi;
- г. g) Byudjetga va ijtimoiy sug‘urtaga ajratilgan mablag‘lar;
- д. d) Noto‘g‘ri javob yo‘q;

7. Pulning likvidligi deganda:

Jamg‘arila borib xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalari tushuniladi;

- а. Pulning hamma yerda unda belgilangan nominalga qarab to‘lov uchun qabul qilinishi tushuniladi;
- б. Pul birligining xarid qilish qobiliyati tushuniladi;
- в. Pulning obro‘sizlanishi tushuniladi;
- г. Noto‘g‘ri javob yo‘q

8. Quyida qayd etilgan pul shakllarining qaysi biri “banknot” deb yuritiladi:

- а. “Tovar shaklidagi pul” (b.a.o.VII asrgacha);
- б. “Tanga pullar” (b.a.o.VII- XX asr);
- в. “Qog‘oz pullar” (XIX-XX asr);
- г. “Elektron pullar” (XIX-XX asr);
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

9. Bimetallizm deganda:

- Oltin va kumushga qonuniy tartibda umumiylar ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi;
- Bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiylar ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi;
- Pulni olqishlovchi nazariya tushuniladi;
- Oltinni pulning barcha vazifalarini bajarishdan mahrum etilishi tushuniladi;
- Noto'g'ri javob yo'q.

10. Oltinni demonetizatsiya qilish deganda uning:

- Erkin zarb etilishi va muomalada bemalol harakatda bo'lishi tushuniladi;
- Pulning barcha vazifalarini bajarishdan mahrum etilishi tushuniladi;
- Oltindan tezavratsiya maqsadlarida foydalanishi tushuniladi;
- Jismoniy ishxelar va davlatlar urtasida cheklangan miqdorda xarakat qilish tushuniladi;
- Noto'g'ri javob yo'q.

11. Metallik nazariyasi namoyondalari:

- Oltin va kumush pulning barcha vazifalarini bajara oladi degan xulosaga kelishgan;
- Muomaladagi pul miqdori va pulning aylanish tezligi pulning xarid quvvatini belgilovchi omil degan xulosaga kelishgan;
- Baholarning tortilgan o'rtacha darajasi va tovarlar miqdori pulning xarid quvvatini belgilovchi omil degan xulosaga kelishgan;
- Bank depozitlarining summasi va depozit-cheq muomalasining tezligi pulning xarid quvvatini belgilovchi omil degan xulosaga kelishgan;
- Noto'g'ri javob yo'q.

12. Monetaristlarga xos bo'lgan nazariy qoidani toping:

- Kon'yunkturaning barqarorlashuvi xukumatning siyosati yordamida amalga oshiriladi;
- Muomaladagi pul massasining keskin tebranishi iqtisodiyotdagि barqarorsizlikning asosiy sababchisidir;

- в. Pulning aylanish tezligi barqaror emasdir;
- г. Iqtisodiyotning barqarorsizligi investitsiyalarning etishmasligi oqibatidir;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

13. Pulning kutilmagan qadrsizlanishi (inflatsiyasi) dan aholining qaysi qismi ko‘prok jabr ko‘radi?

- а. Obligatsiya egalari;
- б. Ishlab chiqaruvchilar;
- в. Qarz oluvchilar;
- г. Dehqon (fermer) xo‘jaligi.
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

14. MDX mamlakatlarida pul muomalasining kaysi turi ko‘p buladi?

- а. Markaziy bank banknotlari;
- б. Tarmoq bank;
- в. Chet el banknoti;
- г. Naqd pulsiz xisob-kitob;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

15. Pul bozorida muvozanat nimaga teng?

- а. Muomalaga chiqarilgan pul miqdoriga;
- б. Muomalaga chiqarilgan tovarlar miqdoriga;
- в. Talab va taklif munosabatlariga;
- г. Pul talabi bilan taklif o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

16. Moliya nima ?

- а. Davlat qo‘lidagi pul mablag‘lari;
- б. Davlat korxonalarining pul mablag‘lari;
- в. Jamoa xo‘jaliklari va aholining pul daromadlari;
- г. Pul resurslarining maxsus fondlarda to‘planishi va ularni ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflanishi;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

17. Davlat byudjeti nima ?

- a. Pul mablag'larini jamg'aruvchi;
- б. Pul mablag'larini taqsimlovchi;
- в. Pul mablag'larini sarflovlchi;
- г. Umumjamiyat miyosida markazlashgan holda davlat ishtirokida to'planadigan va sarflanadigan moliyaviy resurslardir.
- д. Hammasi to'g'ri

18. Davlatning xarajatlar va soliqlar bilan bog'liq bo'lgan siyosati nimaga asoslangan ?

- a. Pulning hajmiga asoslangan;
- б. Monetar siyosatga;
- в. Fiskal siyosatiga;
- г. Daromadlarning taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan siyosatga;
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

19. Kredit nima ?

- a. Ortiqcha to'plangan pul;
- б. Qarz berish;
- в. Qarz olish;
- г. Muayyan muddatga, ma'lum bir foiz hisobiga qarz berish;
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

20. Olingan kreditga to'lanadigan foiz nima ?

- a. Bank xizmatlari tannarxi;
- б. Bank xizmatlari ishchi kuchining bahosi;
- в. Kreditga beriladigan pulning qiymati;
- г. Ma'lum vaqtga olingan pul uchun to'lanadigan haq;
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

21. Bank foydasi nima ?

- a. Depozit buyicha foizlar;
- б. Kredit buyicha foizlar;
- в. Kredit buyicha to'lanadigan foizlar bilan depozitlar o'rtaqidagi farq;
- г. Xarajat va daromad o'rtaqidagi farq;

22. Soliq nima ?

- a. Kommunal xo'jaliklarga to'lanadigan to'lovlar;
- б. Daromaddan to'lanadigan to'lovlar;
- в. Pul ko'rinishidagi qiymatlar;
- г. Soliq moliyaviy kategoriya;
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

23. Iqtisodiy- axborot berish funksiyasi.....

- a. Jamiyat iqtisodiy faoliyatining moliyaviy yakunlari to'g'risida ma'lumot
- б. Soliq to'g'risida axborot berish
- в. Tadbirkorlar to'g'risida axborot
- г. Auditorlar to'g'risida ma'lumot berish

24. Makro-resurslar.....

- a. Umum davlat miqyosida tashkil topgan pul mablaglari
- б. Korxona, tashkilot pul mablag'laridan iborat
- в. Korxona, tashkilot faoliyatiga xizmat qiladi
- г. Firma va kompaniyalarni moliyalashtiradi

25. Emissiya nima ?

- a. Mablag' bilan ta'minlash
- б. Muomalaga pul chiqarish
- в. Kredit berish
- г. Tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish

26. Pul-kredit tizimini tartibga soluvchi muassasa.....

- a. Moliya organlari
- б. Bank tizimi
- в. Bojxona organlari
- г. Hamma javoblar to'g'ri

27. Ishlab chiqarish sohalariga kapital qo'yilishi..

- a. Moliyaviy investitsiya
- б. Real investitsiya
- в. Moliyaviy resurs
- г. Hammasi to'g'ri

28. Bank krediti qaysi tamoyillar asosida beradi?

- a. Qarz foiz stavkasiga ko'ra
- b. Muddatlilik, foizlilik, qaytarishlik
- c. Pul miqdoriga ko'ra
- d. Olingan kredit miqdoriga qarab

29. Moliyaviy boshqarish ob'ekti

- a. Moliyaviy munosabatlarning xar xil turlari
- b. Moliyaviy operatsiya
- c. Kredit-moliya muassasasi
- d. Tashkiliy tuzilmalar

30. Chek - bu.....

- a. Tovar olish uchun kassaga pul o'miga beriladigan hujjat
- b. Xizmat to'lovi
- c. Jamg'arma
- d. To'lov topshiriqnomasi

31. Davlat moliyasining tarkibi

- a. Byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti korxonalar moliyasi
- b. Qimmatli qog'ozlar bozori
- c. Fond birjalar
- d. Investitsiya institutlari

32. Naqd pulsiz pul oborotining qatnashuvchilari kimlar hisoblanadi?

- a. Xo'jalik sub'ektlari
- b. Aholi xo'jalik sub'ektlari va bank-moliya muassasalari
- c. Davlat
- d. Noto'g'ri javob yo'q

33. Pulning turlarini ko'rsating

- a. valyuta
- b. kredit va qog'oz pullar
- c. elektron pullar

r. noto‘g‘ri javob yo‘q

34. Muomalaga pul chiqarish

Pul emissiyasi

Trast

Forveyting

Devalvatsiya

35. Korxonaning moliyaviy ahvoli yuqori deb quyidagi holda hisoblanadi:

- a. Korxonaning likvid mablag‘laaridan qisqa muddatli majburiyatlari yuqori bo‘lsa
6. Likvid mablag‘lar va qisqa muddatli majburiyatlar teng bo‘lsa
- b. Likvid mablag‘lar va qisqa muddatli majburiyatlardan ikki va undan ortiq barabar yuqori bo‘lsa
- r. kreditlar ko‘proq jalg qilingan bo‘lsa;

36. Birinchi guruh likvid mablag‘lari nima?

- a. Tovarlar
6. Tovar milliy boyliklar
- b. Xizmatlar va harajatlar
- r. Pul mablag‘lari

37. Korxona oborotida haqiqatda mavjud bo‘lgan o‘z aylanma mablag‘lari miqdori quyidagicha aniqlanadi.

- a. O‘z mablag‘lari manbalari – asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlar
6. O‘z mablag‘lari manbalari – asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlar o‘tgan yildagi zarar
- b. O‘z mablag‘lari manbalari+ uzoq muddatli kreditlar + uzoq muddatli qarzlar- asosiy vositalar, oborotdan tashqari aktivlar o‘tgan yildagi zarar- joriy yildagi zarar
- r. Foya - zarar

38. Kredit nima?

- a. Bu mablag‘larni qaytarib berishlik, to‘lovlik, ta’minlanganlik va muddatlilik shartlari asosida berish

6. Bu ma'lum muddatga mablag'larni qaytarib berish uchun tashkilotlarga pul berish
- b. Korxonalarni aylanma mablag'larini tashkil etish uchun berilgan mablag'lar
- r. Qaytarmaslik sharti bilan berilgan mablag'lar

39. Kreditning qanday shakllari mavjud?

- a. Bank krediti, tijorat krediti, kontokorrent va veksel kredi
- b. Bank va davlat krediti
- b. Bank, tijorat, iste'mol, davlat va halqaro kreditlar
- r. Overdraft va kontokkorent krediti

40. Davlat krediti deganda nimani tushunasiz?

- a. Banklarning davlatdan qarz olishi
- b. Korxonalarga beriladigan dotatsiyalar
- b. Davlatning alohida qarz olishi
- r. Davlatning chet davlatlardan qarz olishi

41. Aylanma mablag'ları deganda nimani tushunasiz?

- a. Korxonalar hisobida turgan pullar
- b. Ishlab chiqarish va muomala fondlariga avanslashtirilgan pul mablag'ları
- b. Korxona g'aznalaridagi naqd pullar
- r. Tovarlar va pullar

42. Ishlab chiqarish va muomala fondlariga avanslashtirilgan pul mablag'ları

- a. Oborot mablag'ları
- b. Uzoq muddatli aktivlar
- b. Majburiyatlar
- r. O'z mablag'ları manbalari

43. Birlamchi moliya bozori...

- a. Qimmatbaho qog'ozlarni chiqarilishi
- b. Qimmatbaho qog'ozlarni qayta sotilishi
- b. Dilerlar ishtirokidagi bozor
- r. Pulni muomalaga chiqarilishi

44. Pul muomalasi qonuni bu:

- a. mamlakatda tovar ayrboshlash uchun xizmat qiluvchi zaruriy pul miqdorini belgilovchi qonun.
- б. pul muomalasi harakatini o'rgatuvchi qonun.
- в. barcha pullarga ta'lqli qonun.
- г. to'g'ri javob yo'q.

45. Qaysi mamlakatda pul vazifasini bug'doy bajargan?

- а. Rimda
- б. Afrikada
- в. Qadimgi Misrda
- г. Xitoyda
- д. Mo'g'ilistonda

46. Keynschilar:

- a. Barqarorlikka bozor mexanizmi orqali erishib bo'lmaydi degan xulosaga keldilar;
- б. "Barqaror pul" nazariyasini olg'a surdilar;
- в. Antiinflyatsion siyosatni asosladi;
- г. To'la ish bilan band bo'lish iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir yetmaydi degan g'oyani ilgari surdilar.
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

47. Keynschilar oqimiga xos bo'lgan nazariy xulosani toping:

- а. Baholar darajasi muomaladagi pul miqdori bilan belgilanadi.
- б. Fiskal siyosat yalpi milliy mahsulotga uzoq muddat davomida ta'sir o'tkaza olmaydi.
- в. Pul-kredit siyosati pul massasining barqaror tarzda o'sishini ta'minlashi lozim.
- г. Pul massasi pullarga bo'lgan talabga muvofiq o'zgaradi, pul-kredit siyosati esa foiz me'yorini tartibga solishga qaratilgan buladi.
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

48. Iqtisodiyotimizning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2010 yilda 2000 yilga nisbatan necha barobarga oshgan?

- а. 12;

- 6. 13;
- в. 14;
- г. 15.

49. Bugungi kunda mamlakatimizda tashkil etilgan O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot fondining jamg'armasi qanchaga teng?

- а. 3,7 mlrd dollarga;
- б. 4,2 mlrd dollarga;
- в. 3,9 mlrd so'mga;
- г. 5,0 mlrd dollar.

50. Tashqi savdoni tartibga solishning moliyaviy usullari

- а. Texnik to'siqlar, sanitariya me'yirlari, ichki soliqlar, mahalliy tovarlarni davlat tomonidan xarid qilinishi;
- б. Tarif kvotasi, import boji;
- в. Subsidiya, demping, kreditlash;
- г. Kvotalash, litsenziyalash.

51. Turkumlanadigan kreditlarning kaysi biriga nisbatan 50-70 foizli ajratma stavkasi qo'llaniladi ?

- а. substandart kreditlar;
- б. shubhali kreditlar;
- в. zarar keltiruvchi kreditlar;
- г. To'g'ri javob yo'q.

52. Nostandard kreditlar deganda nima tushuniladi?

- а. abelgilangan muddatda qaytmagan, asta-sekin shubhali ssudalarga aylana boshlagan kreditlar tushuniladi;
- б. umuman qaytmasligi aniq bo'lib qolgan kreditlar tushuniladi;
- в. foyda hisobidan kechib yuborilgan kreditlar tushuniladi;
- г. garov bilan ta'minlangan kreditlar tushuniladi;
- д. Noto'g'ri javob yo'q

53. Agar markazlashgan kredit resurslarining foiz stavkasi oshirilsa, u holda:

- а. amilliy valyutaning kursi ko'tariladi;

- б. то‘лов балансининг пассивлиги кучаяди;
- в. тијорат банклари кредитларининг хажми ошади;
- г. қимматбахо қоғ‘озларнинг курси ко‘тарилади;
- д. Ното‘г‘ри юзуб ўо‘қ.

54. Bozor iqtisodiyotida muhim ahamiyatга ега bo‘lмаган молиyalashtirish manbaini ko‘rsata bilasizmi ?

- а. bank krediti;
- б. subsidiya;
- в. тијорат krediti;
- г. korxonaning o‘z mablaglari;
- д. Ното‘г‘ри юзуб ўо‘қ.

55. O‘zbekistan Respublikasida kredit resurslari bozorining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan eng asosiy omillar nimalardan iborat ?

- а. kredit resurslariga bo‘lgan talabning katta emasligi;
- б. banklararo raqobat muhitining to‘la shakllanmaganligi;
- в. vekselli va lombardli kreditlarning rivojlanmaganligi;
- г. ochiq bozor operatsiyalarining rivojlanmaganligi;
- д. Ното‘г‘ри юзуб ўо‘қ.

56. Kredit restrikatsiyasi jarayonida:

- а. kredit resurslariga bo‘lgan talab kamayadi;
- б. kredit resurslariga bo‘lgan talab kuchayadi;
- в. pul massasi ko‘payadi;
- г. қимнатбахо қоғ‘озларнинг курси ко‘тарилади;
- д. Ното‘г‘ри юзуб ўо‘қ.

57. Halqaro forseyting:

- а. jo‘natilgan tovarlar uchun to‘lov yig‘indisini kafolatlaydi;
- б. vekselda ko‘rsatilgan yig‘indini to‘lanishi bilan bog‘liq xavf-xatardan eksportyorni xalos qiladi;
- в. тијорат banki vekselni importyor to‘lay olmay qolgan takdirda eksportyorga murojaat qilish huquqini beradi;
- г. faktoringga nisbatan arzonrokdir;
- д. Ното‘г‘ри юзуб ўо‘қ.

58. Quyidagi ma'lumotlarga asoslanib korxonaning joriy likvidlilik koeffisientini aniqlang (mln. sumda):

naqd pul mablag'ları - 4,4;

zapaslar - 10;

debitorlar - 80;

binolar va uskunalar - 500;

kreditor qarzdorlik - 65;

bankning uzoq muddatli kreditlari - 230;

aksionerlik kapitali - 44;

qisqa muddatli kreditlar - 78;

a) 4,86; b) 4,42; v) 1,36; g) 1,67; d) 2,36;

59. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishi nimaga qaratilgan?

- a. Soliq stavkalarini muntazam oshirib borishga;
- b. Soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini asta-sekin kamaytirib borish va soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini oshirib borishga;
- c. Soliqlarning fiskallik rolini oshirishga;
- d. Soliq imtiyozlarini keskin qisqartirib borishga.

60. 2010 yildan boshlab foyda solig'i stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

- a. 12 foiz;
- b. 8 foiz;
- c. 9 foiz;
- d. 7 foiz.

61. So'nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali necha barobarga oshdi?

- a. 3 barobarga;
- b. 2 barobarga;
- c. 2,5 barobarga;
- d. 4 barobarga.

62. Respublikamizdagи amal qilayotgan banklardan nechtasi xalqaro reyting kompaniyalarining “Barqaror” degan yuqori reyting bahosini oldi?

- a. 10 ta;
- б. 14 ta;
- в. 15 ta;
- г. 19 ta.

63. Nima uchun oddiy yoki tasodifiy qiymat deyiladi?

Chunki dastlabki ayirboshlash:

- a. Ishlab chiqaruvchilar tasodifan uchrashib qolgandagina yuz bergan;
- б. O‘ta sodda tusga ega bo‘lgan, ya’ni mahsulot ayirboshlanadimi yoki yo‘qmi — egasi uchun hech qanday iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘limgan;
- в. Mehnat mahsulining endigina tovarga aylanganligini ifodalaydi;
- г. Iste’molni qondirish birinchi darajali, tovarlar qiymatini taqqoslash esa ikkinchi darajali masala bo‘lgan;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

64. Nima uchun umumiy yoki ekvivalent qiymati deyiladi

Chunki ayirboshlash jarayonida:

- a. Bir necha tovarlar o‘z qiymatini faqat bitta tovarda ifoda etadi;
- б. Bir tovarga qarama-qarshi faqat bitta tovar emas, balki ko‘p tovarlar ishtirop etadi;
- в. Bitta tovar o‘z qiymatini faqat bitta tovarda ifoda etadi;
- г. Noto‘g‘ri javob yo‘q

65. “So‘m-kupon” qancha vaqt muomalada bo‘ldi?

- a. 1993 yil noyabrdan 1994 yil 1 avgustgacha;
- б. 1992 yil noyabrdan 1994 yil 1 iyulgacha;
- в. 1993 yil dekabrdan 1994 yil 1 iyulgacha;
- г. 1994 yil yanvardan 1994 yil 1 noyabrgacha;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

66. Quyidagi qaysi omillar tovar narxini pasaytiradi?

- a. Yuqori naflik;
- б. Kuchli raqobat;

- в. Talabning ortishi;
- г. Taklifning kamayishi;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

67. Talon va kuponlar:

- а. Bozor aloqalari mo‘tadillashgan sharoitda joriy etiladi
- б. O‘sha taqchillik yuz bergan sharoitda joriy qilinadi
- в. Pul sifatida chiqariladi va muomalada qatnashadi
- г. Tovar ayirboshlashda pul ishtirokisiz qatnashadi
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

68. Muomala vositasi deganda:

- а. Pulning tovarni xarid etish yoki tovarni pulga ayirboshlash vazifasini bajarishi tushuniladi;
- б. Pulning o‘zida ijtimoiy mehnatni mujassamlashtirish tushuniladi;
- в. Pulning jamlangan boylik shakliga kirish tushuniladi;
- г. Pulning mamlakatlar o‘rtasidagi hisob-kitoblar, tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni bajarishi tushuniladi;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

69. Pul agregati deganda:

- а. Naqd pullar tushuniladi;
- б. Ma’lum muddatga bankka qo‘yilgan pullar tushunilaadi;
- в. Ma’lum muddatsiz bankka qo‘yilgan pullar tushunilaadi;
- г. Sertifikatlar va boshqalar tushuniladi;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

70. Quyida qayd etilganlarning qaysi biri kredit pullari hisoblanadi:

- а. Banknotlar;
- б. Veksellar;
- в. Cheklar;
- г. Kredit kartochkalari;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q

71. Monometallizm deganda:

- a. Parallel valyuta tizimiga qonuniy tartibda umumiylar ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi;
- б. Ikki yoqlama valyuta tizimiga qonuniy tartibda umumiylar ekvivalent rolining biriktirib qo'yilishi tushuniladi;
- в. "Oqsoqlanuvni" valyuta tizimiga qonuniy tartibga umumiylar ekvivalent rolining biriktirib qo'yilishi tushuniladi;
- г. Bitta metalga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiylar ekvivalent rolining biriktirib qo'yilishi tushuniladi;
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

72. Parallel valyuta tizimida:

- a. Oltin va kumush tangalar qonuniy to'lov vositalari hisoblangan bo'lusalarda, kumush tangalarni zarb etish yopiq tarzda, oltin tangalarni zerb etish esa erkin holda amalgam oshiriladi;
- б. Oltin va kumush tangalar o'rtasidagi nisbat davlat tomonidan belgilab qo'yilgan;
- в. Oltin va kumush tangalar o'rtasidagi nisbat bozor baholariga mos ravishda tabiiy tarzda o'matilgan;
- г. ""Bimetallizm"" o'zining kumush oyog'ida oqsab qolgan";
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

73. Mikdoriylik. nazariyasi namoyondalari:

- a. Faqat qimmatbaxo metallargina (oltin va kumush) pul vazifasini o'tay oladi deyishgan;
- б. Jamiyatning boyligi (fakat qimmatbaxo metallarning mavjud zahirasi bilan o'chanadi degan xulosaga kelishgan);
- в. Qaysi jamiyatda oltin va kumush zahirasi ko'p bo'lsa o'sha jamiyat boy hisoblanadi degan xulosaga kelishgan;
- г. Pulning xarid quvvati muomaladagi pul miqdoriga teskari proporsional degan xulosaga kelishgan;
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

74. Nominallik nazariyasi namoyondalari:

- a. Pulning xarid qobiliyati bozorda o'matiladi degan xulosaga kelishgan;
- б. Muomalada emissiya qilingan barcha pullar yuradi degan xulosaga kelishgan;

- в. Baholar darjası pul miqdoriga to‘g‘ri proporsionaldir degan xulosaga kelishgan;
- г. Pulning xarid quvvati muomaladagi pul miqdori ga teskari proporsionaldir degan xulosaga kelishgan;
- д. Pulning qiymati unda yozib qo‘yilgan nominal bo‘lishi va u davlat tomonidan belgilanishi lozim degan xulosaga kelishgan.

75. Quyidagi qarashlardan keynschilarga xos bo‘lgan g‘OYANI toping:

- а. Pulga bo‘lgan talab narxlarning mutlaq darajasiga bog‘liq;
- б. Pulga bo‘lgan talab ishlab chiqarish miqyosiga bog‘liq;
- в. Pulga bo‘lgan talab pul oboroti tezligiga bog‘liq;
- г. Boylikni zarar ko‘rish xataridan asrash uchun pul shaklida saqlash;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

76. Pulning vazifasi nimadan iborat?

- а. Pul iste’mol bilan ijtimoiy talabga bo‘lgan investitsiya omili;
- б. Ijtimoiy taklif va almashuv uchun zarur bo‘lgan investitsiya belgilaydigan kapital qo‘yilmalar omili;
- в. Daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimi;
- г. Yagona hisob-kitob yurgizish, almashuv, jamg‘arma muomala, to‘lov vazifasini bajaradi.
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

77. Inflyatsiyadan kimlar yutishi mumkin ?

- а. Qat’iy belgilangan daromad (pensiya, nafaka ,stependiya, ish xaki kabi)lar hisobiga yashovchi insonlar;
- б. Sug‘urta egalari, o‘z xayotlarini sug‘urta qilganlar;
- в. Omonat kassalariga pul qo‘ygan insonlar;
- г. Qarz olgan shaxslar
- д. Barchasi to‘g‘ri.

78. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qiymat qonuning asosiy vazifasi nimadan iborat?

- а. Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni o‘lchash;
- б. Tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarf etilgan mehnat xarajatlari qiymatini belgilash;

- в. Tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash, ularning qiymati asosida amalga oshishni ta'minlash.
- г. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish sharoitini boshqarish.
- д. Barcha javoblar to'g'ri.

79. O'zbekiston Respublikasida pul-kredit (monetar) siyosatining qanday ko'rinishi qo'llanilmoqda ?

- а. Keyns siyosati;
- б. Monetar siyosati;
- в. Monetar siyosatining o'ziga xos varianti;
- г. Talab va taklif asosida;
- д. Hamma javoblar to'g'ri.

80. Moliya munosabatlari nima?

- а. Davlat bilan jamoa o'rtasidagi iqtisodiy munosabat;
- б. Korxonalar bilan jamoa korxonalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabat;
- в. Maxsus fondlar orqali harakat qiluvchi pul munosabatlari;
- г. Sotuvchi bilan oluvchi o'rtasidagi munosabat;
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

81. Davlat byudjetining taqchilligi nima ?

- а. Pul emissiyasi;
- б. Muomalada pulning etishmasligi;
- в. Soliq darajasining yuqoriligi;
- г. Xarajatlarning daromadga nisbatan ko'pligi;
- д. Noto'g'ri javob yuq.

82. Moliya bozori nima?

- а. Aksiya bilan savdo;
- б. Pul bilan savdo;
- в. Veksel va qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish;
- г. Pul va qimmatli kog'ozlar bozori.
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

83. Kredit qanday shartga asosan beriladi?

- a. Kredit berish vaqtı, haq to‘lash va qaytarish;
 - б. foydaligi, haq to‘lash vaqtı;
 - в. foizsiz, vaqtida qaytarish;
 - г. vaqt chegaralanmagan qaytarish, to‘lash
- Noto‘g‘ri javob yo‘q.

84. Kredit tizimi nima?

- a. Pullarning banklarga jamg‘arilishi;
- б. Banklardagi pullarning xalq xo‘jaligi tarmoqlariga foydalanish uchun taqsimlanishi;
- в. Banklar tomonidan foydalanish uchun beriladigan pullar ostidan nazorat qilish;
- г. Moliya-kredit muassasalarining majmui;
- д. Barcha javoblar to‘g‘ri

85. Bank quyida ko‘rsatilgan operatsiyalarning qaysi biri bilan shug‘ullanadi?

- a. Passiv operatsiyalar bilan;
- б. Aktiv operatsiyalar bilan;
- в. Passiv va aktiv operatsiyalar bilan;
- г. Naqd-pulsiz bo‘ladigan operatsiyalar bilan;
- д. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

86. Moliyaning rag‘batlantirish funksiyasi.....

- a. Aholini moliyaviy jihatdan ta‘minlab turish
- б. Korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarishni kengaytirish uchun ketadigan investitsiyalarni ko‘paytirish
- в. Ishlab chiqarish, iste’mol ustidan nazorat qilish
- г. Ishsizlik nafaqasini to‘lash

87. Mikro-resurslar.....

- a. Iqtisodiyfaoliyatni moliyalashtiradi
- б. Korxona, tashkilot pul mablag‘laridan iborat
- в. Umum davlat miyosida tashkil topgan pul mablag‘lari
- г. Byudjet fondlari

88. Byudjet

- a. Davlatning ma'lum muddatdagi daromad va xarajatlarning pul hisobi
- б. Davlat tashqi qarzining umumiyligi miqdori
- в. Pulga tenglashtirilgan to'lov vositasi
- г. Davlat ichki qarzining umumiyligi miqdori

89. Pul-besh xil vazifani bajaradi.....

- a. Rag'batlantirish omili, muomila vositasi, qiymat o'chovi, jamg'arish to'lov vositasi.
- б. Muomila vositasi, qiymat o'chovi, jahon puli, daromadlarni qayta taqsimlash omili
- в. Muomila vositasi, qiymat o'chovi, jamg'arish, to'lov vositasi
- г. Jamg'arish vositasi

90. Olingan kreditga to'lanadigan foiz nima ?

- a. Bank xizmatlari tannarxi
- б. Bank xizmatchilari, ishchi kuchining bahosi
- в. Kreditga beriladigan pulning qiymati
- г. Ma'lum vaqtga olingan pul uchun to'lanadigan haq

91. Pul massasi

- a. Pulning muomalada bo'lishi
- б. Mamlakatda muomalada bo'lgan jami pul mablag'lari yig'indisi
- в. Davlat tomonidan muomalaga pul chiqarish
- г. Bank zahiralari

92. Moliyaviy nazoratning usullari.

- a. Tekshiruv, nazorat, moliyaviy tahlil, monitoring, taftish
- б. Byudjet nazorati
- в. Moliyaviy operatsiya
- г. Nodavlat nazorat

93. Byudjet tasnifi

- a. Davlat Byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlari, uning moliyalashtirish manbalarini guruhash
- б. Byudjet daromadlari

- b.** Byudjet xarajatlari
- r.** Byudjet loyihalari

94. Moliyaviy boshqarishning asosiy usullari.

- a.** Moliyaviy faoliyatni boshqarish
- б.** Rejalashtirish, bashorat, soliqqa tortish, hisoblar tizimi, moliyaviy to‘lovlari.
- в.** Moliyaviy mexanizm yaratish
- г.** Moliyaviy resurslardan foydalanish

95. Bozor munosabatlariga utish davrida davlatning pul – kredit siyosati qaysi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi?

- a.** Markaziy bank
- б.** Moliya vazirligi
- в.** Vazirlar mahkamasi
- г.** Moliya vazirligi Markaziy bank bilan hamkorlikda

96. Pulning zarurligi nimada?

- a.** Bozor munosabatlariga o‘tishda
- б.** Turli xil mulk shakllarining vujudga kelishida
- в.** Tovar xo‘jaligining mavjudligida
- г.** Turli mulk shakllari va tovar xo‘jaligining mavjudligida

97. Ortiqcha pul resurslari emissiyasi nimaga olib keladi?

- a.** pul oborotining tezlashuviga
- б.** tovarlar va hizmatlarning bahosini oshishiga
- в.** pul resurslarining defitsitiga
- г.** ishlab chiqarishning rivojlanishiga

98. Markaziy bank -

- a.** Bu davlat muassasasi
- б.** Iqtisodiy mustaqil , o‘z xarajatlarini o‘zi qoplovchi davlat muassasasi
- в.** Korxonalarни kreditlovchi muassasa
- г.** Aholidan jamg‘arma qabul qiluvchi muassasa

99. Markaziy bankning asosiy vazifalari qanday?

- a. Tijorat banklarning faoliyatini tartibga solish va kreditlash
- б. Monetar va valyuta siyosatini yuritish , hisob –kitoblar samaradorligini ta'minlash tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish
- в. Monetar siyosatini yurgizish
- г. milliy valyuta qadrini mustahkamlash

100. Birinchi guruh likvid mablag‘lari nima?

- a. Tovarlar
- б. Tovar milliy boyliklar
- в. Xizmatlar va harajatlар
- г. Pul mablag‘lari

101. Quyidagi naqd pulsiz hisob- kitob shakllaridan qaysi birida to‘lov summasini olish vaqt bilan mahsulotni jo‘natish vaqtini yuqori darajada yaqinlashadi.

- a. to‘lov topshiriqnomasi
- б. to‘lov talabnomalari
- в. cheklar
- г. to‘lov – talabnoma- topshiriqnomalar

102. Kredit ob’ektlari nima?

- a. Har qanday pul mablag‘lari
- б. Tovarlar , ishlab chiqarish harajatlari va hisob- kitobdag‘i mablag‘lar
- в. Tovar ishlab chiqarish va fondlar
- г. Korxona va tashkilotlar

103. Bank kreditining subekti kimlar?

- a. Davlat tashkilotlari
- б. Banklar
- в. Pul egasi, bank va qarz oluvchi
- г. Markaziy bank

104. Ssuda kapitalining manbalari nimalardan iborat?

- a. Muddatli depozitlar, aholi jamg'armalari, qarz mablag'lari va bankning o'z mablag'lari
- b. Hisob kitob raqamlaridagi mablag'lari va boshqa banklardan olingan kreditlar
- c. Markaziy bankdan olingan kreditlar va bankning o'z mablag'lari
- d. Hisob kitob va depozit raqamlaridagi mablag'lar

105. Aylanma mablag'lari manbalari nimalardan iborat?

- a. Korxona o'z mablag'lari, bank krediti va kreditor qarzdorlikdan
- b. Bank krediti va debitor qarzlardan
- c. Korxona schyotlaridagi pul mablag'lari
- d. Byudjet va korxona o'z mablag'laridan

106. Davlat byudjetining taqchilligi nima ?

- a. Pul emissiyasi
- b. Muomalada pulning etishmasligi
- c. Soliq darajasining yuqoriligi
- d. Harajatlarning daromadga nisbatan ko'pligi

107. Ikkilamchi moliyaviy bozor.....

- a. Qimmatbaho qog'ozlarni chiqarilishi
- b. Qimmatbaho qog'ozlarni chiqarilishi
- c. Dillerlar ishtirokidagi bozor
- d. Pulni muomalaga chiqarilishi

108. M2 pul agregati uz ichiga:

- a. metall pullar va qogoz pullar
- b. naqd pullar va chek jamg'armalari.
- c. naqd pullar, chek jamg'armalari, nochek jamg'arma raqamlari va kichik muddatli jamg'armalar.
- d. nakd pullar, nochek jamg'arma raqamlari va mayda muddatli jamg'armalar.

109. Quyidagilarning qaysi biri ayirboshlash chog'ida pul vazifasini bajargan?

- a. Chorva
- б. Qimmatli chig'anoq, qimmatbaho metallar
- в. Fil suyagi
- г. Tuz, choy, asal, bug'doy
- д. Noto'g'ri javob yo'q

110. Monetaristlar:

- a. Filipp egri chizig'i barqarordir, u vertikal emas, degan g'oyani olg'a surdilar.
- б. Baholar darajasi iqtisodiyotni xar bir sektoridagi chiqimlar va baho ustamalari bilan belgilanadi, degan xulosaga keldilar.
- в. Baholar darajasi pul miqdori bilan belgilanadi, degan g'oyani ilgari surdilar.
- г. gFoiz stavkasi pul-kredit siyosatining bosh maqsadidir deb xitob qildilar

111. Pul muomalasida:

- a. Faqat naqd pul ishtirok etadi.
- б. Faqt naqd pul bo'limgan pul ishtirok etadi.
- в. Faqat real pullar qatnashadi.
- г. Naqd pul va naqd bo'limgan pullar ishtirok etadi.
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

112. Pulning miqdoriylik nazariyasiga kim asos solgan:

- а. J. Boden.
- б. J. Keshs.
- в. M. Fridmen.
- г. D. YUm.
- д. Noto'g'ri javob yo'q.

GLOSSARIY

Termin (ruscha)	Ter- min (ingliz -cha)	Termin (o‘zbek- cha)	O‘zbek tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Аккреди- тив	Letter	Akkre- detiv	hujjat, mahsulot yoki xizmat uchun to‘lash yoki taqdim etuvchining muayyan summani to‘lashga boshqa moliyaviy institutini buyurtma.	bir документ, поручение одного финансово- кредитного учреждени я другому произвести оплату за товар или услугу или выплатить предъявите лю определенн ю сумму.	a document, order a financial institution to another to pay for a product or service or to pay a certain sum to the bearer.
Аккреди- тивная форма расчетов	Letter of credit	Akkre- detiv	hisob-kitob hujjatlarini provayder xaridorning bank mahsulot bu maqsadda qo‘yilgan mablag‘lar bank xizmat to‘lanadi bo‘lgan tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to‘lovlar shakli	форма безналичны х расчетов за товары и услуги, при которой расчетные документы поставщика оплачиваю тся в обслужива ющем банке из средств, депонирова	form of non-cash payments for goods and services in which the provider of the settlement documents are paid in servicing bank of the funds

				нных для этой цели в банке покупателя товара.	deposited for this purpose in the buyer's bank product ..
Акционерный капитал	share capital	Aktsioneerlik kapital	korporatsiyasi aktivlari bo'lgan aktsiyalarning egalik.	Владение акциями, находящимися в активах корпорации	Ownership of shares that are in the corporation's assets.
Активы	Assets	Aktivlar	экономические ресурсы хозяйствующего субъекта, выраженные в стоимостной оценке и способные приносить доход будущем.	economic resources of the economic entity, expressed in the valuation and revenue generating capacity in the future.	Kelgusida iqtisodiy foyda keltiruvchi va pulda ifodalangan xo'jalik sub'ektlari ning iqtisodiy resurslari
Активные счета	Active accounts	Aktiv schetlar	экономические ресурсы хозяйствующего субъекта, выраженные в стоимостной оценке и способные	are intended to account for the property of the organization.	bu aktivlarni aks ettirishga mo'ljallangan schyo bo'lib, unda

			приносить доход будущем	в		iqtisodiy resurslarni ng koldig'i va ko'payishi schyotning debetida, kamayish esa kredit bo'yicha aks ettiriladi
Аналити- ческий учет	Analy- tical accoun- ting	Analitik schyotlar	система сбора и группировки учетной информации для целей управления организацией и составления бухгалтерской отчетности	a system to collect and group account information for the purposes of the organization and manage- ment of the financial statements.		ma'lumotha- ri xo'jalik mablag'lari va ularni manbala- rini nafaqat qiymat, balki natura va mehnat o'Ichov birliklarida ham hisob yuritishga mo'ljallang andir.
Бухгал- терский учет	Acco- unting	Buxgalte- riya hisobi	это упорядоченна я система сбора, регистрации и обобщения информации в стоимостном выражении об	an ordered system of collecting, recording and summar- izing information in terms of		korxona, tashkilot, muassasa va birlashma- lar xujalik faoliyatini tulik, xamma

			активах организации и источниках их образования.	value of the assets of the organization and the sources of their formation.	jarayonlari ni uzlusiz xujjalash- tirish va nazorat qilish tizimi
Бухгал- терская запись (провод ка)	Acco- unting record (entry)	Buxgal- teriya o'tkaz- masi	наименование дебетуемого и кредитуемого счетов с указанием суммы хозяйственной операции	the name of the accounts debited and credited with an in- dication of the amount of business transaction.	Bunda xujalik jarayoniga tegishli summa bir schetning debeti va ikkinchi schetning kreditida aks ettiriladi.
Бухгал- терская отчет- ность	Finan- cial repor- ting	Buxgal- teriya hisoboti	система показателей, отражающих имущественно е и финансовое положение организации на отчетную дату, а также финансовые результаты ее деятельности за отчетный период.	a system of indicators, which reflect the property and financial position of an entity at the reporting date and the results of its operations for the reporting period.	hisobot davriga korxonalar ning moliyaviy holati mulkiy holati va moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi ko'rast- kichlar tizimi

Бухгалтерский баланс	Balance sheet	Buxgalteriya balansi	способ группировки имущества организации как по составу и размещению, так и по источникам их образования и назначению	a way to group property of the organization both in composition and placement, as well as on the sources of their formation and purpose.	ma'lum bir davrda xujalik mablaglari va ular manbalarin ing pul qiyamatini guruxlab va umumlash-tirib aks ettirish usuli.
Валовой доход.	Gross income.	Yalpi daromad.	Платежи, полученные предприятиям и от продажи товаров и услуг.	Payments received by businesses from selling goods and services.	Tovarlar va xizmatlarni sotish tadbirdor-lari tomonidan qabul to'lovlar.
Готовая продукция	Finished goods	Tayyor maxsulot .	составная часть материально-производственных запасов организации, предназначенная для продажи и соответствующая установленным техническим	part of the material and produc organization of inventories held for sale and the correspon-ding set specificatio ns and other standards.	Korxona-ning texnik sharoit va belgilariga javob beruvchi to'lik ishlab chiqarish natijasidagi maxsulot

			параметрам и другим стандартам.		
Двойная запись	Double entry	Ikki yoklama yozuv	отражение каждой хозяйственной операции одинаковой сумме по дебету и кредиту взаимосвязанных счетов	a reflection of each business transaction of the same amount on the debit and credit accounts interrelated.	Xo'jalik muomalala rini ikkita hisobda, ya'ni bir raqamning debeti va ikkinchi raqamning kreditida aks ettiriladi
Дебиторы	Debtors	Debitor-lar	юридические и физические лица, которые являются должниками организации.	natural and legal persons who are debtors of the organization	ushbu sub'ektga qarzdor bo'lgan boshqa korxona, tashkilot, muassasa yoki shaxslar
Денежные средства	The funds	Pul mablag'-lari	часть оборотных активов, используемых хозяйствующим субъектом для осуществления расчетов	part of the current assets used by a business entity for settlement	Aylanma mablag'lar ning bir qism bo'lib hisob kitoblarni amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi

Доба- вочный капитал	Addi- tional capital	Qo'shil- gan kapital	часть собственного капитала, созданного в результате дополнительн ого внесения сверх уставного капитала	equity, established as a result of additional application in excess of the authorized capital.	oddiy va imtiyozli akstiyalar i sotishdan olangan summalar nominal qiymatidan oshiqcha summalar, bundan tashqari, qaytarib bermaslik sharti bilan olangan mulklar qiymati- ning yig'indisid an tashkil topadi.
Доку- мента- ция	Docu- men- tation	Xujjat	письменное разрешение на проведение хозяйственной операции и подтвержде- ние ее совершения.	a written authorizatio n to conduct a business transaction and confirma- tion of the transaction.	xujalik mu- omalalari- ning sodir bo'lganligi yoki ruxsat etilganligi, uning qonuniy va iqtisidiy jixatdan maqsadli ekanligini tasdiqlaydi.

Документооборот	Document	Xujjalarning aylanishi	этапы движения документов от их создания или поступления до передачи в архив	movement stages of documents from their creation or receipt to transmit to the archive.	xujjalarning hisob jarayonida tuzilishi-dan to arxivga berilgunga qadar xarakatidir.
Долгосрочные активы	Long term assets	Uzoq muddatli aktivlar	часть экономических ресурсов, используемых в течение длительного времени	part of the economic resources used for a long time	iqtisodiy resurslarning bir qismi bo'lib, uzoq muddat xizmat qiladi
Долгосрочные финансовые вложения	Long-term investments	Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar	вложение денежных средств или иного имущества в другие организации на срок более одного года.	investment of money or other property to other organizations for a term exceeding one year.	Boshqa korxonaga pul mablag'lari yoki multko'rinishidagi moliyaviy qo'yilmalar
Долгосрочные обязательства	Long-term liabilities	Uzoq muddatli majburiyatlar	это задолженность, погашение которой превышает 12 месяцев.	this debt, the repayment of which exceeds 12 months.	Bu to'lov muddati 12 oydan ortiq bo'lgan qarzdorlik-lardir
Забалансовые	Off-balance	Balans-dagi raqamlar	счета для учета имущества не	accounts for the account of the	balansda qatnashadigan

счета	sheet accounts		принадлежащего данной организации	property does not belong to the organization.	raqamlarga aytilib, ular bo'yicha ikki yoqlama yozuv amalga oshiriladi.
Заём	The loan	Qarz	взятые в долг деньги или имущество у других организаций (кроме банков) с обязательством их возврата.	borrowed money or property from other organizations (except banks) with an obligation to return.	Boshqa korxona va tashkilotdan pul yoki mulk shaklida olgan qarzi
Затраты на оплату труда	La-bour costs	Ish haqi xarajatlari	вид затрат, включаемый в издержки производства или обращения, связанный с заработной платой работников организации.	the cost element that is included in the cost of production or treatment associated with wage employees of the organization.	ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi xodimlarning ish haqi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarining bir turidir
Затраты на производство	Pro-duction costs	Ishlab chiqarish xarajatlari	расходы организации, связанные с производством продукции, работ, услуг.	expenses of the organization associated with the production	mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan

				of goods, works and services.	bog'liq korxona- ning xarajatlari
Инвен- таризация	Inventory	Inventar- izastiya	проверка фактического наличия имущества и сопоставление полученных результатов с данными учета.	check actual availability of property and the results obtained are compared with the accounting data.	korxonaga tegishli bo'lgan barcha asosiy vositalar, inventarlar, mablag'lar va boshka moddiy boyliklarn- ing xaqiqatda mavjudligi bilan buxgalte- riya hisobi ma'lumot- larini solishtirish va tekshirish usuli.
Капитал	Capital	Kapital	это стоимость вложенных собственни- ками активов прибыль накопленная за время деятельности организации.	is the value of invested assets of the owners of the profit accumulated during the activities of the organization	Bu ta'sischilar tomonidan aktivlarga qo'yilgan pul mablag'lari

Косвен-ные затраты	Indi-rect costs	Bilvosita xarajat-lar	затраты, относящиеся к нескольким видам продукции (работ, услуг).	costs related to several types of products (works, services).	Bir nechta mahsulot turiga hisoblan-gan xarajatlar
Кратко-срочные обязательства	Short-term liabilities	Qisqa muddatli majburiy atlar	это задолженность, срок погашения которой не превышает одного года.	is payable, the maturity of which does not exceed one year.	to'lov muddati bir yildan ortiq bo'limgan qarzdorlik-lar
Кредит	Credit	Kredit	представление в долг товаров или денег.	borrowed money or goods.	pul mablaglari yoki tovanni karzga berish.
Креди-тор	Credi-tor	Kredi-torlar	физическое или юридическое лицо, перед которым данная организация имеет задолженность	legal person to whom the organization is in arrears.	ma'lum bir muddatga boshqa shaxsga qarz bergan korxona, tashkilot, muassasa
Креди-торская задол-жен-ность	Acco-unts pay-able	Kreditor qarzlari	обязательства организации перед кредиторами за товары, работы, услуги, т.е. долги данного предприятия	organization obligations to creditors for goods, works and services, ie, the debts of the company to	o'zga kor-xonalar-ning aylanma mablag'la-rining bir qisimi aynan tahsil

			другим организациям и отдельным лицам.	other organizations and individuals.	qilinayot-gan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi
Лимит кассы	The limit of cash	Kassa limiti	сумма наличных денежных средств в кассе предприятия, размер которых устанавливается банком в зависимости от величины наличного оборота денежных средств данной организации.	the amount of cash on hand the company, the size of which is set by the bank, depending on the value of cash flow funds the organization.	korxona kassasida doim bo'lishi mumkin bo'lgan pul mablaglaring summasi
ЛИФО	LIFO	Lifo	способ оценки материалов при отпуске их в производство: последняя партия на приход, первая расход.	method of evaluating materials when they are released into production: the last batch of the arrival of the first in	tovar-moddiy boyliklari-ni so'nggi qabul qilingan yoki tayyorlangan partiya bahosi buyicha

				consump-tion.	hisobga olish usuli.
Матери-ально-производст-венные запасы –	Inven-tories	Ishlab chiqarish moddiy zahiralar	часть имущества организации, используемая при производстве продукции (работ, услуг), а также предназначенная для продажи и для управленических нужд организации.	part of the organization's property used in the production of goods (works, services), as well as held for sale and for administrative needs of the organization	shunday buyumlar-ki, ularga inson mexnati sarflanib, tayyor maxsulot olinadi
Немате-риаль-ные активы.	Intan-gible assets	Nomod-diy aktivlar	имущество организации, не обладающее материальными или физическими свойствами, но которые обеспечивают получение дохода длительное время или постоянно	property of the organization that does not have the material or physical properties, but which generate income for a long time or permanently.	moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'l-magan, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan xujalik faoliyatida foydalanish maqsadida nazorat qilinadi-gan, shuningdek Uzoq vaqt (bir yildan

						ko‘p) ishlatish uchun mo‘ljallan gan mol- mulk obyektlari.
Нерас- преде- ленная прибыль	Re- tained ear- nings	Taqsim- lanma- gan foyda	это финансовый результат, характеризую- щий увеличение капитала организации за отчетный год и весь период ее деятельности	is the financial result, which characterize s the capital increase during the reporting year and the whole period of its activity.	hisobot davrida korxona kapitali- ning ko‘payi- shini aks ettiruvchi moliyaviy natija	
Оборот- ные активы	Cur- rent assets	Aylanma- mablag‘- lar	материальные оборотные средства, средства в текущих расчетах, краткосроч- ные финансовые вложения, денежные средства, расположен- ные в балансе в порядке возрастания ликвидности.	tangible current assets, funds in the current account, short-term investments, cash, placed in the balance in the order of increasing liquidity.	hizmat qilish muddati bir yildan oz bo‘lgan balansda likvidliligi o‘sish tartibida joylashti- rilgan mehnat vositalari, qisqa mud- datli moli- yaiy qo‘yil-	

					malar va pul mablag‘lari
Обязательства	Liabilities	<u>Majburiyatlar</u>	задолженность организаций, возникшая в результате прошлых хозяйственных событий и сделок, выполнение которых влечет собой погашение этой задолженности.	debt organization, which arose as a result of past events and business transactions, the implementation of which entails the repayment of this debt.	o‘tgan davrdagi bitimlar yoki o‘tgan davrdagi voqealar natijasida hosil bo‘lgan qarzdorlik-lar (pul mablag‘lari o‘tkazilmagan holda ish haqi, turli ajratmalar, soliqlar hisoblangan, tovarlar xarid qilingan va boshqalar)
Основные средства	Fixed assets	Asosiy vositalar	часть средств труда, используемых организацией при производстве продукции (работ, услуг), для управленических нужд в	part of the work equipment used by the organization in the production of goods (works, services) for the manage-	12 oydan oshadigan davr mobaynida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish

			течение периода, превышающее 12 месяцев.	ment needs for a period exceeding 12 months.	chog'ida yoki korxonani boshqarish uchun mehnat vositasi sifatida foydalanila digan mol-mulk qismi
Оценка	Evaluation	Baholash	денежное выражение затрат на производство и продажу продукции (работ, услуг).	the monetary value of the cost of production and sale of goods (works, services).	xujalik mablaglari, majburi-yatlar va xujalik jarayonlarini pul ulchov birligida aks ettirish usulidir.
Пассив баланса	Pas-sive of ba-lance	Balans passivi	часть бухгалтерского баланса, в которой отражено имущество организации по источникам их образования и назначению	of the balance sheet, which reflects the property of the organization on their source and destination.	Xo'jalik mablag'larining manbalari aks ettirilgan buxgalte-riya balansining qismi
Пассивные счета	Liabi-lity acco-unts	Passiv schetlar	Предназначены для учета источников образования	designed to account for property formation	Xo'jalik mablag'larining manbalari-

			имущества.	sources.	ni aks ettirishga mo'ljallan- gan
План счетов бухгалтерского учета	Chart of Accounts	Schetlar rejasi	систематизированный перечень счетов бухгалтерского учета первого и второго порядка (синтетические счета и субсчета).	systematic list of accounts of first and second order (synthetic accounts and sub-accounts).	moliyaviy xisobot elementlariiga muvo-fiq gurux-lashgiril-gan moliyaviy hisobot elementlari-ning yig'indisini tashkil etadi
Прибыль	Profit	Foyda	сумма превышения расходов над доходами.	the sum of the excess of expenditure over income.	Daromad-larning xarajatlar-dan ustun kelishi
Прямые затраты	Direct costs	To'g'ri xarajat-lar	затраты, которые непосредственно относятся на себестоимость конкретного вида продукции (работ, услуг).	costs that are directly attributable to the cost of a particular type of goods (works, services).	Aniq bir mahsulot tannarxiga bevosita kiritiladi-gan xarajatlar
Расчетный счет	Current Account	Hisob kitob scheti	счет, открываемый организацией в банках для	an account opened in the organization	Bankda pul mablag'larini saqlash va naqd

			хранения денежных средств и осуществления безналичных расчетов.	of banks for storing cash and cashless payments.	pulsiz hisob kitoblarni amalga oshirish uchun ochilgan xisob kitob scheti
Резервный капитал	Re-reserve capital	Rezerv kapitali	часть собственного капитала, создаваемого за счет прибыли и предназначенного для покрытия потерь, выплаты дивидендов и др.	equity, created at the expense of profits, and intended to cover the losses, the payment of dividends, etc..	Qonunchilik va ta'sis hujjatlariga muvofiq sof foydadan ajratmalar yo'li bilan barpo etiladi. Undan dividendlar to'lashda, ushbu maqsad uchun hisobot yilida foya bo'limgan da yoki etarlicha bo'limgan da, hisobot yilidagi korxona-ning kutilmagan

					zararlari va yo‘qotish- larida foydalani- ladi.
Себе- стои- мость про- дукции	Pro- duc- tion costs	Mahsu- lot tannarxi	затраты организации на производство продукции, в целях осуществления своей хозяйственной деятельности.	the costs of organization for production, in order to carry out its business activities.	Xo‘jalik faoliyatini oshirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingani xarajatlar
Собст- венный капитал	Share- hol- ders' equity	Xususiy kapital	часть капитала организации, состоящая из уставного, дополнительного, резервного капитала, нераспределен- ной прибыли.	capital of the organiza- tion, consisting of the authorized, additional, capital reserve, retained earnings.	ustav, qo‘shilgan va rezerv kapitali, taqsimlan magan foyda, rezervlar, maqsadli tushumlar, grantlar va subsidiyala rdan iborat bo‘lgan kapitalning bir qismi
Управ- ленчес- кий учет	Manag- ement accoun- ting		бухгалтерский учет внутри организации, необходимый для управления ее	accounting within an organization needed to manage its economic	Boshqaruvi hisobi korxona ichidagi aloqalar- ning asosiy

			экономически ми ресурсами	resources.	tizimini o‘zida namoyon etadi. Uning maqsadi - o‘tmishda- gi xodi- salar tahli- li asosida kelajakka mo‘ljallan- gan tav- siyalarni ishlab chi- qish uchun menejer- larni tegishli axborot bilan ta’mi- lashdir.
Устав- ный капитал	Share capital	Ustav kapitali	первоначально инвестируе- мый капитал	initially invested capital.	Korxona- ning o‘z mol-mulki- ni shakl- lantirish- ning bosh- lang‘ich manbai.
Финан- совый учет	Finan- cial Accou- ntings	Moliya- viy hisob	бухгалтерский учет, осуществ- ляемый целью получения	Accounting, carried out in order to obtain information for internal	Moliyaviy hisobning asosiy maqsadi korxona moliyaviy

			информации для внешних и внутренних пользователей.	and external users.	hisoboti (moliyaviy hujjatlar)ni tuzish uchun za- rur ma'lum- otlarni monitorin- gini tashkil qilishdan iborat. Bu ma'lumot- lar ma'mu- riyatning o'zi uchun ham, tashqi foydale- nuvchilar uchun ham mo'ljallan- gan bo'ladi.
ФИФО	FIFO	FIFO	способ оценки материалов при отпуске их в производство: первая партия – на приход, первая партия на расход,	method of evaluating materials when they are released into production: the first party - the arrival of the first batch to flow	zaxiralarni olinish ketma- ketligida, ya'ni ishlab chiqarishga birinchi bo'lib kelgan zaxiralar dastlabki olinish bahosida va oxirgi

					sotib olish haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobot davri oxiriga zaxiralarni baholash hamda realizastiya qilingan maxsulot (ish, xizmat) tannarxida materiallar ni dastlabki sotib olish bahosida hisoblanadi
Хозяй- ствен- ная опера- ция	Eco- nomic opera- tion	Xo'jalik opera- tsiyalar	факт хозяйственной деятельности, отраженный в бухгалтерском учете.	a fact of economic activity, reflected in accounting.	Buxgalte- riya xiso- bida aks ettirilgan xo'jalik faoliyati- dagi o'zgarish- lar
Шах- матная оборот- ная ведо- мость	Chess trial ba- lance	Shaxmat aylanma qayd- nomasi	способ отражения и проверки правильности корреспонден- ции счетов.	a way to reflection and validation of accounts correspon- dence.	Shetlar korrespon- denstiya- sini to'g'- riligini tekshirish va aks

						ettirish usuli
Ценовая эластичность спроса	Price elasticity of demand	Talabning narx elastikligi	степень чувствительности (интенсивности реакции) потребителей к изменению цены продукции.	the degree of sensitivity (rate of reaction) to changes in consumer prices of products.		mahsulotlari iste'mol narxlari-ning o'zgarish-larga sezgirlik darjasasi (reaktsiya tezligi).

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun-.T.: 1996.
2. “O‘zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun-T.:1996.
3. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU, 2013. – 428 bet.
4. Лаврушин О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2013. -560 стр.
5. Меркулова И.В., Лукъянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2013. – 352 стр.
6. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебное пособие. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 416 стр.
7. Климович В.П. Финансы, денежное обращение, кредит. Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 256 стр.
8. Abdullaeva Sh.A. Pul,kredit va banklar . O‘quv qo‘llanma-T: Moliya., 2003 .
9. Abdullaeva Sh.A. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma.-T.: Moliya., 2004 .
- 10.Jumaev N., Burxanov U. Molianing dolzarb muammolari- T: Uzbekiston 2003 .
- 11.. Вахабов А.В., Сирожиддинаева З.Х. Государственный бюджет. - Т: Молия., 2006 .

Qo‘s himcha adabiyotlar

1. Лаврушин О.И., Афанасьева О.Н., Корниенко С.Л. Банковское дело: современная система кредитования. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 264 стр.
2. Нешитой А.С. Финансы и кредит. Учебник. – М.: Дашков и К°, 2006. - 572 стр.
3. Дьяконова М.Л., Ковалева Т.М., Кузьменко Т.Н. Финансы и кредит. Учебник. - М.: КНОРУС, 2006. – 376 стр.

4. Ковалевой А.М. Финансы и кредит. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 512 стр.

5. Колпакова Г.М. Финансы. Денежное обращение. Кредит. Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 496 стр.

Internet saytlar:

1. www.forex.com
2. www.thebanker.com
3. www.bankinfo.uz
4. www.uzland.uz
5. www.gow.uz
6. www.lek.uz
7. www.norma.uz
8. www.bashexpo.ru
9. www.interunion.ru
10. www.e-tours.ru

Mundarija

Kirish.....	3
1-BOB. Pul nazariyasining asosiy tushunchalari. Pulning mohiyati va zarurligi.....	8
2-BOB. Pulning takror ishlab chiqarishdagi o'rni.....	22
3-BOB. Turli iqtisodiy modellarda pulning asosiy xususiyatlari.....	30
4-BOB. Pul agregatlari.....	38
5-BOB. Pul nazariyalari. Zamonaviy monetarism.....	42
6-BOB. Pul aylanmasi va uning tuzilishi	51
7-BOB. Turli iqtisodiy modellarda pul aylanmasining o'ziga xos xususiyatlari	58
8-BOB. Naqd pul aylanmasi.....	70
9-BOB. Naqd pulsiz pul aylanmasi	76
10-BOB. Pul tizimi	97
11-BOB. Inflyatsiya	103
12-BOB. Ssuda kapitali va kreditning iqtisodiy asoslari.....	115
13-BOB. Davlat byudjeti.....	148
14-BOB. Korxona moliyasini tashkil qilish asoslari.....	158
15-BOB. Bank tizimining funksiyalari, turlari va operatsiyalari.....	167
16-BOB. Markaziy bank	185
17-BOB. Tijorat banklari.....	198
18-BOB. Pul-kredit siyosati va uning asosiy instrumentlari.....	218
19-BOB. Pul islohotlari.....	222
20-BOB. Qimmatbaho qog'ozlar: asosiy tushunchalar va turlari.....	228
21-BOB. Qimmatbaho qog'ozlar bozori	254
22-BOB. Fond birjalari va ularning funksiyalari.....	261
23-BOB. Xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta tizimi.....	264
24-BOB. Xalqaro hisob-kitob operatsiyalari.....	276
25-BOB. Xalqaro kredit.....	289
26-BOB. Sug'urtalash. O'zbekiston Respublikasining sug'urta qonunchiligi.....	298
Test.....	309
Glossariy.....	333
Foydalilanilgan adabiyotlar	356

N.A.IMINOVA
G. A.AKRAMOVA

PUL VA BANKLAR

O‘quv qo‘llanma

Toshkent – «Aloqachi» – 2018

Muharrir:	M. Mirkomilov
Tex. muharrir:	A. Tog‘ayev
Musavvir:	B. Esanov
Musahhiha:	F. Tagayeva
Kompyuterda sahifalovchi:	N. Hasanova

Nashr. lits. ii № 176, 11.06. 2010.
Bosishga ruxsat etildi 28.11.2018. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.
«Times Uz» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 23,0. Nashr bosma tabog‘i 22,5.
Adadi 60. Buyurtma № 79.